

Islom KARIMOV



O'ZBEKISTON
XXI ASR BO'SAG'ASTIDA

XAVFSIZLIKKA TAHDID,
BARQARORLIK SHARTLARI
VA TARAQQIYOT KAFOLATLARI


"O'ZBEKISTON"



Islom KARIMOV

**O'ZBEKISTON
XXI ASR BO'SAGASIDA**

**XAVFSIZLIKKA TAH DID,
BARQARORLIK SHARTLARI
VA TARAQQIYOT KAFOLATLARI**



66.2(5U)

K25

ISBN 5-640-02244-2

K 0804000000-108 2003
M351(04)2003

© “O’ZBEKISTON” nashriyoti, 2003

MUQADDIMA

Insoniyat, mamlakatlar va xalqlar hayotida XX asr poyoniga yetmoqda. Ishonchim komilki, bizni — hozirgi O'zbekistonda istiqomat qiluvchilarning ko'pchiliginи tirikchilik tashvishlari — chin voqelik muammolari bilan birga: «Bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatmiz, qayoqqa qarab ket-yapmiz? Insoniyat yangi — XXI asrga qadam qo'yganida bizning o'rnimiz qayerda va qanday bo'ladi?» — degan savollar o'ylantirishi tabiiy.

Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So'nggi vaqtarda jahonda yuz bergen, dunyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o'zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to'g'ri baho berish juda muhim.

Dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Ular, hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o'tmishga ega bo'lган, o'z siyosiy mustaqilligini tinch yo'l bilan qo'lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Tenglar orasida teng bo'lishga, jahon maydonining tarkibiy qismiga aylanishga harakat qilmoqda. Bu davlatlar oldida muvaffaqiyatsiz, chi ppakka

chiqqan tarixiy tajribaning fojiali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turibdi. Ular zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan, odamlar munosib turmush kechirishini ta‘minlay oladigan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan chinakam demokratik jamiyat qurishdek murakkab vazifani hal etishi zarur. O‘zbekiston ham ana shunday davlatlar jumlasiga kiradi.

XXI asr O‘zbekiston aholisi uchun qanday kela-di? Kishilar turmushi kechagidan qanchalik yaxshiroq bo‘ladi? O‘zimiz uchun tanlab olgan islohotlar va yangilanish yo‘li o‘ta murakkab yo‘l ekanligini anglayapmizmi? Bu yo‘lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilyapmizmi?

Eng avvalo, odamlarning mana shu boy zaminda munosib hayot kechirishlarini ta‘minlashga qaratilgan maqsad va vazifalarni qay darajada ro‘yobga chiqara olamiz? Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo‘lida tahdid bo‘lib turgan muammolarni anglab yetvapmizmi?

Xavfsizligimizga tahdid bo‘lib turgan muammolarga nimani qarshi qo‘ya olamiz? Jamiyatimiz to‘xtovsiz va barqaror rivojlanishiga, biz istiqomat qilavotgan mintaqada jo‘g‘rofiy-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo‘la oladi?

Mamlakatimiz yangi ming yillikda mustahkam, og‘ishmay va barqaror rivojlanishni kafolatlaydigan qanday imkoniyatlarga ega? Jahonning barcha mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli, har tomonlama keng hamkorlik qilish uchun nimalarни taklif eta olamiz?

Shu mazmundagi va yana boshqa ko'plab savollariga javob berish istagi meni ushbu kitobni yozishga undadi. Sotsializmdan keyingi makonda paydo bo'lgan davlatlar o'z xavfsizligi va barqarorligi yo'lida tahdid bo'lib turgan muammolarni baholashga yetarli darajda jiddiy munosabatda bo'lmayapti. O'zbekistonning, boshqa yangi mustaqil davlatlarning qaror topish va rivojlanish tajribasi, afsuski, shundan darak bermoqda. Bu tahdidlarni oldindan ko'ra bilishga hamma vaqt ham muvaffaq bo'linmayotir. Ko'pincha ular kutilmaganda ro'y bermoqda. Juda katta qurbanlar, kulfatlarga sabab bo'lmoxda. Eng fojialisi — insonlar qurban bo'lmoxda. Beqaror, adovatli vaziyat vujudga kelmoqda. Ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot jarayonlari sekinalashmoqda. Aholida ertangi kunga ishonchsizlik, o'z hayotidan, qarindosh-urug'lari va yaqin kishilarining hayotidan xavotir hissi uyg'onmoqda. Va eng muhimmi, voqealarning oldindan bilib bo'lmaydigan tarzda bunday rivojlanishi mamlakat tanlab olgan siyosiy va iqtisodiy yo'lni amalga oshirish mumkinmi, yo'qmi degan masalani ko'ndalang qilib qo'yadi.

Totalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin shu tufayli u xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo'lib qoldimi? Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish va eng avvalo:

bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish;

milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi;

etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi;

qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi;

dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;

mamlakatlar, xalqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi — bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va avaylab munosabatda bo'lishni talab qilayotganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkab va muammoli bo'lib keldi, shunday bo'lib qolmoqda va yaqin istiqbolda ham shunday bo'lib qolajak.

Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa hozirgi kunda davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishni, XXI asr arafasida xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda.

Suveren davlatning har bir rahbari, har bir yetakchisi oddiy kishilar ishonch bildirib uning zimmasiga yuklagan juda katta burch va mas'uliyatni teran anglab, o'y-xayolini hamisha tinchlik, osoyishtalikni saqlash, avaylash va mustahkamlashga qaratmog'i kerak. Ushbu murakkab, voqcalarga boy yillarda poydevorini qo'yishga muvaffaq bo'lingan yangi uyni qurish va obod qilish uchun o'rnimizga keladigan avlod oldidagi mas'uliyatimizni bir daqiqa bo'lsin, unutishga haqqimiz yo'q.

O'tgan yillarning mantiqi bizni hozirgi kunda uchta asosiy savolga murojaat qilishga undamoqda. O'zbekistonning kelajagi ana shu savollarga qanday javob berishimizga bog'liq. Bular quyidagilardir: xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim? Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqivot vo'lidan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin?

Xavfsizlik, barqarorlik va tanlagan yo'lidan og'ishmaslik degan ana shu oddiv so'zlar zamirida chugur ma'no-mazmun bor. Biz buni bilib olmog'imiz va anglab yetmog'imiz zarur.

Xavfdan qanday xoli bo'lish mumkin? Rivojlanish uchun kuch-madadni qayerdan izlash lozim? Bular strategik muammolar bo'lib, har qanday mustaqil davlat, eng avvalo ana shu muammolarga e'tibor berib kelgan va bundan buyon ham e'tibor berajak. O'zbekiston Respublikasi bu savollarga javob izlash yo'lida ancha tajriba to'pladi. Bu tajriba bir qancha umumiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Ushbu kitob ana shu xulosalarni yanada teranroq bayon etishga bag'ishlangandir.

Gap nima haqida borayotir?

Bugun O‘zbekiston — faqat juda boy tabiiy-xom ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan sohagina emas. Ayni chog‘da mamlakatimiz g‘oyat ulkan aql-zakovat, ma’naviy va madaniy imkoniyatlarga ega. Bularning barchasi dunyoda yangi siyosiy va iqtisodiy tartib faol shakllanib borayotgan bir sharoitda, yurtimizning noyob jo‘g‘rofiy o‘rni bilan qo‘shilgan holda juda katta jo‘g‘rofiy-siyosiy va jo‘g‘rofiy-strategik qiziqish uyg‘otadi.

Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko‘p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo‘ldan borishlariga bog‘liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar buni e’tirof etmasliklari mumkin emas. Hech shubha yo‘qli, bu davlatlarning tanlab olgan yo‘li islom dunyosida yuz berayotgan murakkab jarayonlarning rivojlanishi qanday natijalarga olib kelishiga va umuman jahon hamjamiyati uchun kelib chiqadigan barcha oqibatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ana shuni tushunish O‘zbekiston Respublikasining va butun Markaziy Osiyoning XXI asr bo‘sag‘asidagi taqdiri va rivojlanish istiqbollari haqida yuritilayotgan hamma fikr-mulohazalarning tayanch nuqtasi bo‘lib qolishi kerak. Bunday farazlar va tahliliy materiallarning har qaysisi, albatta, hurmat bilan munosabatda bo‘lishga sazovor. Bir narsa ravshanki, barqarorlik va jo‘g‘rofisiviy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina bu mintaqaga jo‘sqin va sobitqadam rivojlanadi, jahon hamjamiyati uchun munosib sherik bo‘la oladi. Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, trans-

portga va ekologiyaga oid muammolar to'planib qolgan. Shuni nazarda tutadigan bo'lsak, butun mintaqaning sobitqadam va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda mojaroli vaziyatlarning oldini olish uchun hozirgi kunda ichki va tashqi muvozanatni saqlash va qo'llab-quvvatlashgina birdan-bir maqbul tamoyildir. Mintaqada jo'g'rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdagina mazkur muammolarni hal etish imkonи tug'iladi. Bu esa, o'z navbatida, yalpi xavfsizlikni ta'minlash muammolarini hal qilishga qo'shilgan salmoqli hissa bo'ladi.

O'zbekiston erkin rivojlanayotgan dastlabki yillarda orttirilgan tajriba ham ayni shundan dalolat bermoqda. Bu tajriba qo'lga kiritilgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik ulkan yutuq ekanligiga va bu ulug' ne'matning ahamiyati cheksizligiga yaqqol ishontirmoqda.

Shuning uchun ham: «Ogoh bo'ling, odamlar!» — degan da'vat hamisha bong urgandek vangrab turiishi kerak. Faxrlanish mumkin va lozim bo'lgan bebaho qadrivatlar — o'z mustaqilligimizni, tinchligimizni, jamiatda millatlar va fuqarolar o'rtasidagi totuvlikni asrang. O'z erkimizni qanday tasarruf etish, uni bugungi murakkab va ba'zan shafqatsiz dunyodagi haddan zivod xavf-xatarlardan saqlash har birimizga bog'liqdir.

Davlatni aql-idrok bilan boshqarish,— mutafakkir Abu Nasr Forobiy X asrda saboq berib aytgani-dek, — xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir.

Bugun biz qisqa muddat ichida tanlagan maqsadimiz yo'lida ancha ishlar qilishga muvaffaq bo'lganligimizdan qoniqibgina qolmaymiz. Hali yana uzoq vaqt

mobaynida ustuvor bo'lib qoladigan muammolarni aniq tasavvur etishni o'rganish lozim. Bu muammolarning ko'pchiligini yalpi tamoyillar va ulkan voqeа-hodisalar keltirib chiqargan. Shu sababli bizni o'rab turgan, hech kim o'z holicha yashay olmaydigan, hamma narsa ham bizga bog'liq bo'lavermaydigan, yuksak maqsadlarga erishish yo'lidagi intilishimizga jiddiy xavf-xatar solib turgan bu dunyoning o'zi nimadan iborat ekanligini chuqr tushunib olish juda muhim.

Aftidan, bugungi kunda xavfsizlik va barqarorlik yo'lida paydo bo'layotgan tahdidlarga tegishli munosabatda bo'la olishning o'zигина yetarli emas. Mayjud xavf-xatarlarning tabiatini to'g'ri tushunib yetishimiz kerak. Ularning manbalari va o'zaro aloqalarini vaqtida aniqlashimiz darkor. Jamiyatda barqarorlikni saqlash shart-sharoitlarini belgilab olishimiz va ulardan samarali foydalanishimiz zarur. O'zbekiston Respublikasining barqaror va sobitqadamlik bilan rivojlanishi shularga bog'liqidir.

O'zbekiston uchun uning keng ma'nodagi milliy xavfsizligi nimani anglatadi, biz bu xavfsizlikni qanday tasavvur qilamiz?

Birinchidan. O'zbekiston xavfsizlikning yaxlitligi haqidagi asosiy tamoyillardan birini to'la qo'llab-quvvatlaydi. Xavfsizlik — uzlusiz holatdir, hadsiz-hududsizdir.

Ikkinchidan. «Sovuq urush» barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda. Ayniqsa, bunday qarama-qarshiliklar ayrim mamlakatlar qo'lida

ularning o'z manfaatlarini va ta'sir doiralarini saqlab qolish va himoya qilish uchun yoki strategik kuchlar muvozanatini o'z foydalariga o'zgartirish uchun qudratli siyosiy ta'sir vositasiga aylanmoqda.

Har bir mintaqada xavfsizlikni ta'minlash muammolari muayyan mohiyatga ega. Shuningdek, har bir mintaqaning o'z xususiyatlari, o'z tahdid manbalari va xavfsizlikni saqlash omillari bor.

Har qanday mintaqaning hal qilinmagan va gazak olib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Vaziyatning beqarorlashuvi esa kundan-kunga aniq-ravshan bo'lib borayotgan yangi jo'g'rofiy-siyosiy muvozanatni buzish xavfini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan. O'zbekiston o'zining jo'g'rofiy-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan. Bu ham tahdid tug'diruvchi sababdir.

O'zbekiston amalda Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazidir. Ya'ni, bu yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zaxiralari mavjud.

Buning ustiga, biz Rossiya, Xitoy va Hindistonning, Sharq va G'arb mamlakatlarining bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismimiz. Aslida shakllanib kelayotgan, lekin juda kuch-qudratli, XXI asrning qiyofasini shubhasiz belgilab beradigan bu kuch markazlari ana shu mintaqada o'z manfaatlarini izlaydi.

Yevroosiyo markazlari tutashgan yerda joylashgan bizning hududimizdan, butun mintaqalarda hududidan islam dunyosining Turkiya, Pokiston, Eron va Saudiya Arabistoniga kabi qudratli mamlakatlari ham, yuqoridagi kuchlar kabi, o'z manfaatlarini izlaydi.

Yana bir tahdid manbai shu bilan bog'liqki, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh. Besh yildirki, qo'shni Tojikistonda fuqarolar urushining keng yoyilib ketish xavfi ham saqlanib kelmoqda. Bu davlatlarda xorijdagi eng ko'p sonli hammillatlarimiz istiqomat qilib turganligini hisobga olmaslik mumkin emas.

To'rtinchidan. Mintaqaviy nizolar ko'pincha terrorizm va zo'ravonlik, narkobiznes va qurol-yarog' bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda. Bunday hodisalar davlat chegaralarini tan olmaydi.

Beshinchidan. Shunga ishonchimiz komilki, xalqaro munosabatlardan amaliyotida har bir mustaqil mamlakatning o'z milliy manfaatlariga muvofiq, o'z mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash maqsadi bo'lishi lozim. U yoki bu xalqaro tizimlarda va kollektiv xavfsizlik shartnomalarida qay darajada qatnashishini ularning o'zi belgilash huquqi nazarda tutilishi zarur.

Ayonki, bunda biz boshqa mamlakatlarning xavfsizligini himoya qilish ta'minlanishi zarurligini va ularning manfaatlari kansitilishiga, yaqin o'tmishning harbiy-siyosiy qarama-qarshilik sohasidagi salbiy tajribasiga qaytishga yo'l qo'yib bo'lmasligini nazarda tutayotirmiz.

Oltinchidan. Bizning nazarimizda, ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz Markaziy Osiyo mintaqasi yadroviy qurollardan xoli hudud deb e'lon qilinishiga erishmoqchimiz. Ayrim qo'shni davlatlar yadro quroliga ega bo'lishga oshkora intilayotganligi bizni ayniqsa tashvishga solmoqda.

Orol dengizi falokati ham jahon miqyosidagi ulkan muammodir. U dunyodagi ancha mamlakatlar aholisining manfaatlariga daxldor bo'lib, ko'plab millatlarning avlodlari uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Aslini olganda, xavfsizlikka solinayotgan tahdidlar ancha serqirra. Ular siyosiy ekstremizm, shu jumladan diniy ruhdagi ekstremizmni, millatchilik va milliy mahdudlikni, etnik, millatlararo, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik asosidagi ziddiyatlarni, korrupsiya va jinoyatchilikni, ekologiya muammolarini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, yuqorida sanab o'tilgan tahdidlar, garchi turli mintaqalarda turlicha kuch bilan namoyon bo'lsa-da, insoniyatda bir xilda tashvish tug'dirmog'i darkor.

Ushbu kitob — mamlakatimiz, millatimiz, jamiyatimiz va har bir fuqaroning xavfsizligiga, yangilanish va taraqqiyot yo'liga, jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'liga solinayotgan tahdidlar nimalardan

iborat ekanligini tahlil qilish yo'lidagi urinishdir. Shuni esda tutishimiz kerakki, butun tarix tahdidlar va ularni daf etishdan iborat. G'oyat keng ma'nodagi hamkorlik — shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan tortib to xalqaro integratsiyagacha bo'lgan hamkorlik orqali davr tahdidlariga qarshi munosib javob berish uchun ishonchli kafolatlarimiz bor.

Biz mavjud real xavf-xatarlarga jiddiy qaraymiz. Ayni vaqtida imkoniyatlarimizni, ta'bir joiz bo'lsa, jozibali jihatlarimiz va afzal tomonlarimizni ham bilamiz. Bizning mineral-xom ashyo, insoniy va ishlab chiqarish zaxiralarimiz ichki barqarorligimizning va xalqaro nufuzimizning mustahkam kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Aminmanki, mamlakatimiz XXI asrda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida munosib o'rinn olish uchun tarixiy imkoniyatlarga ega. Biz o'zimiz uchun, eng muhimmi, bolalarimiz va nabiralarimiz uchun butun dunyo bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochmoqdamiz. O'zbekistonni, uning imkoniyatlarini chuqurroq bilishni, kelajakda biz bilan hamkorlik qilishdan shubhasiz foyda ko'rishni chin dildan xohlaydigan barcha kishilarga yordam berishni istaymiz.

Yangi ming villikka vo'l ochib borar ekanmiz, hammaga do'stlik va hamkorlik qo'lini cho'zamiz. Xavfsizlik, barqarorlik va sobitqadam rivojlanish degan so'zlar buning ramzidir. Chunki, avnan ana shu tushunchalar har bir mamlakatning, har bir xalqning tinchligi, farovonligi, ravnaqi uchun mustahkam povdevor varatadi. Savvoramizda jo'g'rofiy-sivosiv muvozanatning ajralmas sharti bo'lib qoladi. Bu har bir insonga kelajakka dadil va ishonch bilan qarash huquqini beradi.

I BOB

XAVFSIZLIKKA
TAHDID

MINTAQAVIY MOJAROLAR

Ikki mafkuraviy tuzumning kurashi va bu kurashning xalqaro hayotning hamma sohalariga soya tashlashi ostida o'tgan kuchli qarama-qarshilik barham topdi. Ammo shundan keyin ham bizni qurshab turgan dunyo, ko'plar kutganidek, osoyishtaroq bo'lib qolgani yo'q. Unda mojarolar kamaymadi. Dunyoda yangi tartiblarni shakllantirish jarayoni mintaqalar dara-jasidagi va mintaqalar ichidagi eskidan saqlanib kelayotgan, zimdan tutab yotgan, har xil tarixiy, etnik, siyosiy, diniy va boshqa sabablarga ega bo'lgan mojarolarning keskinlashuvi bilan birga yuz berdi. Bu mojarolar ilgari ikki tuzumning dunyo miqyosidagi qarama-qarshiliği doirasida ko'pincha u yoki bu kuchlar qutbining manfaatlari yo'lida «bostirib kelingan» edi. Bundan tashqari, yangi mintaqaviy mojarolarning vujudga kelishi va ularga turli tashqi kuchlar o'z jo'g'rofiy-strategik intilishlari doirasida jalb etilishidan iborat xavflar ham mavjud.

So'nggi besh yil ichida mash'um mazmunga ega «mintaqaviy mojaro» degan ibora hammaning qulog'iga o'rashib, oddiy bir holga aylandi. Mintaqaviy mojarolar dunyoning rivojlangan mintaqalariga ham, rivojlanayotgan mintaqalariga ham xos tus oldi.

Telereportyrlarning hissiz sharhlari va gazetalarning jangovar to'qnashuvlarda ro'y bergan navbatdagi qurbanlar haqidagi katta sarlavhalari ortida millionlab kishilarning taqdiri, ularning dard-alamlari va

chekayotgan jafolari ko'milib ketmoqda. BM'ning hozirgi vaqtida butun dunyoda qariyb 50 million qochoq borligi haqidagi so'nggi ma'lumotlari kishini besarq qoldirishi mumkinmi? 1996 yilda boshqa mamlakatlarda boshpana topgan 13 million kishi ro'yxatga olin-gan. Fuqarolar urushi tufayli 30 millionga yaqin odam o'zi yashab turgan joylarini tashlab, boshqa mamlakatlarga qochoq sifatida ketishga majbur bo'lган. O'z chegaralaridan uzoqda bo'lsa-da, zo'ravonlikka va butun-butun xalqlarning qonli fojialariga jamiyatning ko'nikib qolishidan ham dahshatliroq narsa bormi o'zi? Muayyan bir shaxsning yo tushunib yetmaslik, yoki xotirjamlikka berilishi tufayli kelib chiqadigan bunday fuqarolik pozitsiyasining xavfi ochiqdan-ochiq kuch eshlatish bilan tahdid qilishdan kam emas-ku, ayin. Bunday pozitsiya mamlakatimiz fuqarolari va mamlakatni uchun mutlaqo nomaqbuldir.

UVB-purchalumb ketganimdan keyin bizning hodamiz yoki intihodumizga bog'liq bo'lman holda O'zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida — Afg'oniston va Tojikistonda so'nggi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo'lgan ikkita tanglik o'chog'i alanga olib turibdi.

18 yildan beri urush ketayotgan Afg'onistondagi tanglikning chuqurligi va keskinligini, uning mintaqaviy va dunyo miqyosidagi jo'g'rofiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini e'tiborga olib, bu fojiani ko'lami va xavfi jihatidan hozirgi dunyoning eng katta mintaqaviy mojarolari jumlasiga kiritish mumkin. Bu mojaroning sababi va boshlang'ich omillarini hamda qo'shni To-

jikistonda davom etayotgan tanglikning kelib chiqishi sabablarini chuqur tahlil etmagan holda (chunki hozir gap bu haqda borayotgani yo'q), quyidagilarni ta'kidlab o'tish zarur. Respublikamiz tevaragida vaqtigaqtan bilan keskinlik kuchayib turibdi. Urush harakatlari olib borilmoqda. O'zaro kurashayotgan tomonlar tinchlik yo'lidagi sog'lom tashabbuslarni tushunishni istamayaptilar. Shunday sharoitda O'zbekiston o'z fuqarolarining farovon yashashini va ravnaq topishini ta'minlab beradigan darajada barqaror va bexatar rivojlanishi mumkinligi haqida bir nima deyish mushkul.

Yuz berayotgan hodisalarning fojiali tomoni shundaki, ko'p yillik ichki qurolli va siyosiy qaramaqarshilik natijasida vaziyatning shunday avj olib borishi bu mamlakatlarni o'z-o'zini halok qilish va davlatchilikdan mahrum bo'lish yoqasiga olib kelishi mumkin.

Kelgusi avlod vakillari urush olovini yoqishga undagan sabab va bahonalar uchun zamondoshlarmizni kechirmasalar kerak. Tarix o'z hukmini chiqarar ekan, hamma vaqt sholini kurmakdan ajratadi va g'arazli, xudbin maqsadlarini ko'zlab xalq manfaatlarini niqob qilib oluvchi shaxslarning o'zlarini oqlash uchun keltiradigan kibr-havodan iborat dalillarini qabul qilmaydi. Kurashayotgan taraflar o'z nuqtai nazarlari o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytirib, mojaroni qanchalik chuqurlashtirib borsalar, bu mojaro uning qatnashchilari qo'lga kiritayotgan yutuqlardan ko'ra beqiyos darajada ko'p narsani yo'qotishlariga olib kelishi mumkinligi shunchalik oydinlashib

boraveradi. Millionlab kishilarning taqdiri xavf ostida qolar ekan, buni hech qanday maqsad bilan oqlab bo'lmaydi.

Urush jamiyat va davlatning holatiga falokatli ta'sir ko'rsatadi. Bu — urushning tabiiy yo'ldoshi bo'lgan iqtisodiy vayrongarchilikdangina emas, balki millatning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi boshqa sohalarda ham namoyon bo'ladi. Qanday bo'lmasin, vatandoshlar o'rtasida nifoqni avj oldirish, o'z uylarini tashlab ketishga majbur bo'lgan qochoqlar oqimi, jamiyatda jinoyatchi unsurlarning ko'payishi, urushni pul topishning yagona manbaiga aylantirish, millatning genofondiga putur yetkazish, yosh avlodni hatto boshlang'ich ta'llim olish imkoniyatidan ham mahrum qilish shu xalqning kelajagini ta'minlay oladi deyishga kining ham qurbi yetadi yoki vijdoni yo'l qo'yadi?

2000 yil marrasiga yaqinlashayotgan jahon avlizatayasi XXI asri ko'zlab yashamoqda. Shunday vaqtda Aly'omiston bilan Tojikistonda yuz berayotgan mojarolar va ularning oqibatlari bu mamlakatlar taraqqiyotini kam deganda o'nlab yillarga orqaga uloqtirib tashladi. Bu hol u yerdagi vaziyatdan ko'rinish turibdi. Urush maddohlari o'z vatandoshlarini bu qurbanlar zarur ekanligiga, ana shu qurbanlar evaziga yorqin keljakka erishish mumkinligiga ishontirmoqchi bo'ladir.

Shunday ekan, mintaqaviy mojarolar jamiyatimiz farovonligi va respublikamiz taraqqiyoti uchun qanday xavf tug'dirmoqda? Bir qarashda, O'zbekiston chegaralariga yaqin joylarda yuz berayotgan barcha nizolar davlatimizdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlab turishga bevosita aloqasi yo'qdek

tuyuladi. Bundan buyon ham tashvishli hodisalar bizni chetlab o'z vo'lidan rivojlanaveradi, barqarorlik o'z-o'zicha saqlanaveradi, mamlakatning kelajagi esa o'z-o'zidan ta'minlangan, deva fikr vuritishni ham sivosiy, ham fuqaroviy kaltabinlikdan boshqa narsa emas, deb hisoblaymiz.

Biroq shu o'rinda bir gapni aytib o'tmaslik mumkin emas. Aftidan, ana shunday «yaxshi niyatli kishilar»ning ko'pchiligi tinchlik va tartibni ta'minlash, mojarolar va ular keltirib chiqaradigan salbiy jarayonlar bizning ona zaminimizga ko'chib o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun davlatimiz nechog'li katta kuch-g'ayrat sarflayotganligi haqida o'ylab ko'rmayotganga o'xshaydi. Bu o'rinda hammaga yaxshi ma'lum bo'lgan bir haqiqat — keskin muammolar, shu jumladan tevarak-atrofimizda-gi mavjud muammolar ham inkor etilmasligi lozim. Aks holda bu mojarolar tanglikka olib kelishi, boshqarib bo'lmaydigan tanglik esa rivojanish yo'lida uchragan barcha narsalarni vayron qiladigan, davlat chegaralari va o'zga siyosiy, iqtisodiy, etnik va boshqa voqeliklarni tan olmaydigan falokatga avlanib ketishi mumkinligini yodga olish o'rinli bo'ladi.

Mavjud mintaqaviy tanglik sharoitida O'zbekistonning xavfsizligiga tahdid xayoliy emas, balki yaqqol mavjuddir. Mintaqaviy mojaroni faqat taraflarning belgilab qo'yilgan doiralardagi qurolli qarama-qarshiligi, shu jumladan tinch aholi o'rtasida ko'plab qurbanlarga olib keladigan qarama-qarshiligi deb hisoblamaslik kerak. U muayyan jamiyat va qo'shni davlatlar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan qarama-qarshilikdir. Agar masalaga shu nuqtai nazardan qarala-

digan bo'lsa, bu tahdidning haqiqatan mayjudligi yaqqol ayon bo'ladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa har jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan hozirgi dunyo sharoitida, shundan aniq dalolat berib turibdiki, alohida olingan bir davlatdagi har qanday mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib keta olmaydi. Bir qancha sabablarga ko'ra bunday mojaro nazorat qilib bo'lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Bu esa ertami, kechimi qo'shni davlatlar oldiga barcha salbiy oqibatlari bilan birga qator muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Hatto mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirish darajasigacha borib yetadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mojaroning yashirin va oshkora baynalmilallahuvi tanglikni chiqurlashtiradi. Chunki turli maqsadlarni ko'zlaydigan va tanglik chiqqan hududda o'z mamlakatlarini ta'minlashga intiladigan tashqi kuchlar hamma vaqt shay turadi.

Shunday qilib, alohida olingan davlatdagi ichki mojaroni, shu mojaro bilan qo'shni mamlakatlar o'rtaсидаги о'заро aloqani bir-biriga bog'liq bo'limgan hodisalar deb hisoblash xato bo'lur edi. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy tanglik, Tojikistondagi beqarorlik butun Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqarorlik holatiga ham, jumladan, O'zbekistonning milliy xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Bizning sharoitimizda ushbu xulosani tasdiqlash uchun teran nazariy fikrlar bildirish yoki boshqa mintaqaviy mojarolarning tarixini dalil sifatida keltirish

zarurati bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Ishonchim komilki, Afg'onistonda 1996 yilning sentabr-oktabr oylarida vaziyat yana shiddatli tus olib, uning shamol-lari dimog'imizga urush hidini olib keldi. Bu hol respublikadagi tinchlik va xalq xotirjamligining qadri haqida o'ylashga majbur qildi. Bu hol ana shu ko'p qirrali muammoning dolzarbligi va keskinligini yana bir karra namoyish etdi. Shu jihatdan olganda, mintaqaviy mojarolar hal qilinmas ekan, Markaziy Osiyodagi davlatlarning birontasi o'zini xavfdan xoli deb hisoblamaydi va ishonch bilan olg'a bora olmaydi, degan fikrni davom ettirish mantiqan to'g'ri bo'lur edi.

Hozirning o'zidayoq ko'zga tashlanayotgan va keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavfxatarlar ko'lami keng.

Birinchidan, vaziyatning rivojlanishi natijasida qurolli yoki boshqacha tarzdag'i qo'poruvchilik faoliyati ataylab yoki beixtiyor qo'shni davlatlar hududiga o'tishi mumkinligi jiddiy e'tiborni talab qiladi. Chunki afg'on va ma'lum darajada tojik mojarolari amalda nazorat qilib bo'lmaydigan holatga kelib qoldi. Bunday sharoitda Markaziy Osiyoning hamma davlatlarida turlicha nisbatlarda yashayotgan, turli sohalarda va turli darjalarda ko'p asrlardan beri tarkib topgan, tarixiy o'zaro aloqalari (shu jumladan ko'p sonli qarindoshurug'chilik aloqalari ham) namoyon bo'lib turgan asosiy etnoslarning joylashish xususiyatini ham hisobga olish kerak bo'ladi.

Mintaqadagi har bir davlat etnik jihatdan rang-barang bo'lgani sababli, har qanday tanglik keskin-

lashib, qo'shni mamlakatlar fuqarolari o'rtasidagi totuvlik va barqarorlikka putur yetkazadi. Ayrim buzg'unchi guruhlarning ziddiyatlar olovini yoqishga va chegaradosh davlatlar aholisi orasidagi kam sonli etnik guruhlar milliy tuyg'ularini uyg'otish orqali uni qo'shni mamlakatlarga ko'chirishga urinishi katta tashvish tug'diradi.

Hozirgi zamon tarixi shuni yaqqol ko'rsatmoqdaki, o'zlarining siyosiy va boshqa maqsadlari yo'lida milliy masalani dastak qilib olishga intiladigan kuchlar, eng avvalo, odamlarni yuksak darajada safarbar etadigan hissiyotlarga umid bog'laydilar. Keyinchalik ularni har qanday siyosiy donishmandlik va sog'lom fikrni inkor etadigan jangari tajovuzkorlik yo'liga burib yuborish mumkin, deb o'ylaydilar.

Ikkinchidan, so'nggi yillarda voqealar fojiali tus olganligining yana bir sababi shundaki, afg'on mojarolariga, ma'lum etnik nizolardan tashqari, yana diniy tus ham berildi. Islomning keskin siyosiylashuv jarayoni sodir bo'lmoqda. U o'ta radikal tus oldi — hokimiyat tepasiga chiqishga da'vogarlik qilish va barcha dindoshlarni madadga chaqirgan holda bunga qurolli yo'l bilan erishishga ochiqdan-ochiq urinish yuz bermoqda. Dinimizning insonparvarlik g'oyalari va asoslariga hech bir aloqasi bo'lman ana shu jarayon Tog'li Badaxshondan tortib to Kaspiygacha bo'lgan juda katta hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bevosita yoki bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mintaqadagi davlatlarda afg'on ssenariysini o'z xalqlariga zo'r lab qabul qildirishga tayyor turgan ekstremistik kayfiyat-dagi unsurlar topilib qoldi. Afg'oniston voqealar esa

qanday fojiali oqibatlarga olib kelganligiga hali biz ham baho beramiz, kelgusi avlodlarimiz ham baho beradi.

Uchinchidan, hokimiyatga intilayotgan turli afg'on guruhlarining etnik-diniy da'volari asosida kelib chiqqan Afg'oniston mojarosining markazdan qochuvchi to'lqinlari butun mintaqaga salbiy ta'sir ko'rsatishda davom qilmoqda va muayyan shakl kasb etmoqda. Bu hol tojik-afg'on chegarasidagi qurolli ig'vegarliklarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu ig'vegarliklar Afg'oniston Islom davlati hududidan turib olib borilayotgan qo'poruvchilik faoliyatining boshqa ko'rinishlari bilan birga Tojikistondagi va butun mintaqadagi vaziyatni tegishlichcha jiddiy izdan chiqarmoqda. Ana shunday sharoitda turli-tuman «din uchun kurashuvchilar» o'z xatti-harakatlari va niyatlarini oqlash uchun diniy shiorlardan foydalanmoqdalar. Xalqlarimizga va ularning ma'naviy dunyosiga xos bo'limgan ideallar va qadriyatlarni zo'r lab qabul qildirishga urinmoqdalar. Fitna va o'rta asr jaholat-parastligi urug'larini sochishga, bizni insoniyat sivilizatsiyasidagi munosib o'rnimizdan mahrum qilishga intilmoqdalar.

Nihovat, alohida e'tiborga molik bo'lgan vana bir potensial xavf-xatar haqida. Mojrolarning davom etishi ba'zi bir kimsalarga «ajratib yuborilgan xalqlar» muammosini zo'r berib avj oldirishga imkon bermoqda. Bunda ko'pincha, masalan, Afg'oniston bilan chegaraning ikki tomonidagi tojiklar yoki o'zbeklarni, yo bo'lmasa, pushtun qabilalarini birlashtirish foydasiga sun'iy dalillar to'planmoqda. Mavjud chega-

ralarni etnik asosda o'zgartirish yo'lidagi har qanday urinish qanday oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilishning o'zi dahshatli. Mintaqamizdagi chegaralarni o'zgartirish butun jahon hamjamiyati uchun dahshatli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Hatto Bosniya va Gersegovinadagi mojarolar bu mudhish voqealar oldida «holva» bo'lib qolishi hech gap emas.

Umuman olganda, cho'zilib ketgan mintaqaviy mojarolar atrofdagi davlatlar uchun (tabiiyki, O'zbekiston ham bundan mustasno emas) aynan hozir keng doiradagi muammolar manbaiga aylandi. Keyinchalik esa ular siyosat, mafkura, millatlararo munosabatlar va boshqa sohalarga ham zimdan salbiy ta'sir etishi, putur yetkazishi mumkin.

Mintaqaviy mojarolarning oqibatlari ancha sezilarli shaklga ham ega. Ular davlatlarning milliy iqtisodiyotiga va xo'jalik aloqalariga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa mavhum kategoriya bo'lmay, balki har bir fuqaroning va jamiyat a'zosining aniq hisoblab ko'rsa bo'ladigan manfaatlar demakdir.

1. Masalan, Afq'onistondagi urush mamlakatning shundoq ham yaxshi rivojlanmagan iqtisodiyotini boshdan-oyoq vayron qildi. Bu urush hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlariga «iliq dengizlar»dagi portlarga chiqish va shu yo'l bilan jahon xo'jalik aloqalari tizimiga qo'shilish imkonini beradigan yangi transport kommunikatsiyalarini ochish yo'lida asosiy g'ov bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning rivojlanishini sekinlashtirmoqda. Chunki samarali mol ayrboshlash uchun juda qisqa va barqaror transport kommunikatsiyalari kerak bo'lishi hammaga ma'lum.

2. Qurolli mojaro keskinlashgan taqdirda chegaralarni tan olmasdan, qo'shni davlatlar hududiga «yopirilib kirish»ga tayyor turgan qochoqlar muammosi vujudga keladi. Odatda, bu oqimda chegara orqali non va boshpana topishnigina emas, balki odamlarning qalbiga yangi g'ulg'ula solishni istaydiganlar ham kirib keladi. Qochoqlarni qabul qiluvchi tomon uchun bu masalaning tabiiy insonparvarlik jihatini bilan birga, iqtisodiy tomoni ham mavjud. Chunki qochoqlarni joylashtirish va ularning ko'p sonli, kechiktirib bo'lmaydigan muammolarini hal qilish uchun o'z budjetidan qo'shimcha mablag'lar qidirib topish zaruriyati beixtiyor paydo bo'ladi.

3. Afg'oniston bilan Tojikistonda cho'zilib ketgan mintaqaviy mojarolar salbiy hodisalarini keltirib chiqarmoqda, chegaradosh davlatlar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu salbiy hodisalar haqida gapirganda, qonunga xi洛 ravishda narkotik moddalar olib o'tilishi, xalqaro terrorizm va qurol-yarog' kontrabandasini kabi muammolarga ham to'xtalib o'tish lozim. Ma'lumki, vayrongarchilik va siyosiy tartibsizlik sharoitida urush harakatlarini olib borish oddiy aholi uchun asosiy yumushgina emas, balki omon qolish usuli ham bo'lib qolmoqda. Ayni paytda Afg'onistondagi mojaroda qatnashayotgan guruhlar uchun narkotik moddalarni ishlab chiqarish va sotish qurol-yarog' xarid qilish va boylik orttirish uchun pul topishning eng qulay vositasiga aylanmoqda. Turli xalqaro tashkilotlar, shu jumladan BMT tahliliga ko'ra, Afg'oniston qoradori xom ashyosini tayyorlovchi dunyodagi yetakchi davlatlardan birigagini emas, balki

narkotik moddalar olib o'tiladigan eng yirik bazaga ham aylanib qoldi. Bu makon orqali narkotik moddalar tobora ko'proq miqdorda Markaziy Osiyo davlatlariga va so'ngra G'arbga yetkazilmoqda. Tabiiyki, ularning bir qismi bizning mintaqamizga «singib ketmoqda». Bu esa jinoyatchilikning o'sishiga, yoshlarning buzilishiga, hatto millatning genofondi aynishiga sabab bo'ladi.

4. Afg'oniston bilan Tojikistondagi mintaqaviy mojarolar hal bo'lmayotir. Bu esa mintaqadagi davlatlar, shu jumladan O'zbekiston oldiga terrorizm va qurol-yarog'lar kontrabandasi singari hodisalarning qo'shni davlatlar hududlariga yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi va g'oyat xavfli muammolarni ko'ndalang qo'ydi. Endilikda milliy xavfsizlikni va ichki barqarorlikni ta'minlash darajasi ana shu muammolarni hal qilishga bog'liq. Yaqin Sharqdagi va sayyoramizning turli nuqtalaridagi boshqa tangliklar, shuningdek, MDH hududidagi (Checheniston, Tog'li Qorabog', Abxaziya va boshqalardagi) voqealarning o'xshash jihatlariga qarab terrorchilik faoliyatini Afg'oniston bilan Tojikistonning milliy chegaralaridan tashqariga ko'chirish imkoniyatlari qay darajada ekanligini tasavvur etish mumkin. Buning ustiga, Afg'oniston hududi va chegaralari nazorat qilib bo'lmaydigan qurol-yarog' aslahaxonasiga aylangan. Bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi chegaralar ochiqligi yanada xatarlidir. Afg'oniston hududida tayyorgarlikdan o'tgan yoki partizanlar urushida tajriba orttirgan jangarilar dunyoning ko'pgina davlatlaridagi, Kavkazorti, Checheniston va Tojikistondagi qurolli

mojarolarda faol qatnashgan bo'lishi mumkinligini ham inkor etish mushkul.

Milliy xavfsizligimizga chetdan real tahdid solayotgan Afg'oniston va Tojikistondagi mintaqaviy mojarolar na Markaziy Osiyoda va na butun dunyo miqyosida barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Bu mojarolarning katta salbiy potensiali butun dunyo ko'lamida halokatli oqibatlarga olib kelishga qodir.

Nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasidagi, balki undan tashqaridagi har bir sog'lom fikrli inson mintaqaviy mojarolarning yanada avj olishi bu hududdagi mamlakatlarning tanlaydigan yo'liga ta'sir ko'rsatmasdan qolmasligini yaxshi angraydi. Bu mojarolar ularning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi qanday, qaysi yo'ldan borishiga, XXI asr arafasida va boshlarida millionlab kishilarning taqdirini belgilab beradigan demokratik va bozor islohotlarining istiqbollari qanday bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

«Sovuq urush» davri tugashining asosiy yakuni shu bo'ldiki, insoniyat uchinchi jahon urushidan qutulib qolishga muvaffaq bo'ldi. Mintaqaviy mojarolarning, shular qatori Afg'onistondagi mojaroning va Tojikistondagi qarama-qarshilikning dunyo miqyosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarini cheklashga va tarqatmaslikka bugungi kunda hammamizning ham aql-idrokimiz, tajribamiz va qat'iyatimiz yetadimi?

O'zbekiston respublikamiz bilan chegaradosh mamlakatlardagi harbiy-siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga va ularning oldini olishga qaratilgan

har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo'llab-quvvatlab keldi va bundan buyon ham qo'llab-quvvatlayveradi. Bu yo'lda mamlakatimiz ham o'z davlat siyosati doirasida, ham xalqaro tashkilotlar mexanizmlaridan foydalangan holda, mavjud imkoniyatlarni aniq maqsadni ko'zlab ishga soladi. Butun milliy strategiyamizning asosiy yo'nalishlaridan biri ana shunday mazmun-mohiyatga ega.

DINIY EKSTREMIZM VA FUNDAMENTALIZM

XX asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar asri, inson Koinot sirlari qo'yniga kirib borayotgan asr, axborot va g'oyat ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo'ldi. Shu bilan birga bu asrning oxiri diniy qadriyatlarning uyg'onish davri, vazmin, behuda urinishlardan xoli diniy ma'naviyatga o'ziga xos tarzda qaytish davri bo'lib qoldi.

Jahondagi eng yirik dinlardan bo'lган islam ham shu kabi yalpi intilishlardan chetda qolgani yo'q. Aksincha, musulmon dunyosida va hatto undan tashqarida ham so'nggi o'n yilliklar mobaynida ro'y bergen voqealar jahon hamjamiyatida «islom ovozasi» deb atalgan hodisa haqida gapirish imkonini berdi.

Ko'plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergen, «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar. Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, e'tiborni jahon hamjamiyati hayotida islam qadriyatlarni tiklash bayrog'i ostida ro'y berayotgan hodisalar g'oyat xilma-

xil, ko'p qirrali, ba'zan ziddiyatli va hatto qarama-qarshi qutbli ekanligiga qaratmoqchiman.

Shu bilan birga, aniq-ravshanki, jahon jamoat-chiligi bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilan qarabgina qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalananayotgani, ba'zan esa hatto xavfsirayotgani ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamon tarixida ana shu o'ta keskin ko'rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho'chityapti. Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha to'planib qolgan. O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtai nazaridan qaraganda, bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug'dirmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizm bizning mintaqamiz uchun tug'dirishi mumkin bo'lgan xavfxatarlarni bevosita tahlil qilishga kirishishdan oldin e'tiborni odamlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq har qanday muammo g'ovat nozik ekanligiga, ularning dinning ma'naviy qadrivatlari bilan shiorlardan, xususan, islomni qayta tiklash shioridan foydalana-yotgan muayyan kuchlar ko'zlayotgan, dinga aloqasi bo'Imagan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o'rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratishni istardim.

Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado

etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko'maklashgan va ko'maklashmoqda.

Binobarin, din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan! Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazishga yordam berib kelgan. Ba'zi vaqtlarda esa buning birdan-bir chorasi bo'lgan. Bunday xulosalar chiqarishga, ota-bobolarimizning dini bo'lmish islom dini misolida aytish uchun hamma asoslarga egamiz. Shuning uchun ham din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo'lib kelmoqda.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga, diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'limganligini ham ta'kidlash zarurdir. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan.

Hayotning mazmunini tushunishga turlicha yondashishlarning (afsuski, ular hamma vaqt ham tinch va osoyishta kechavermagan) yonma-yon mavjud bo'lishi, ehtimol, insoniyat dunyosining, ma'naviy hayotining boyligi va xilma-xilligini ta'minlab bergen

hamda uning rivojlanishini rag'batlantirib turgandir. Zero, faqat bir xil fikr yurituvchi odamlardan tarkib topgan jamiyat o'z rang-barangligini va jozibasini yo'qotgan bo'lur edi.

Insonning, shaxsning qadr-qimmatini, ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etuvchi hozirgi dunyoda, mazkur ziddiyat insonning erkin fikrlash, xohlagan diniga e'tiqod qilish erkiga yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik erkiga bo'lgan huquqini tan olishga aylandi. Odam tabiiy omillarga ko'ra o'zi mansub bo'ladigan irq va elatni tanlay olmaydi. Ota-onani tanlab ololmaydi. Lekin dunyoqarashini, axloqi, ma'naviyatini o'zi, hech kimning tazyiqisiz va, ayniqsa, zo'ravonligisiz tanlab olishi mumkin va lozim. Binobarin, uning xohishi hurmat qilinishi shart.

Jamiyat hayotining bir qismi bo'lgan din ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan muqarrar ravishda munosabatda bo'lgan. Ularga ta'sir ko'rsatgan va o'zi ham boshqa sohalarning ta'siriga duch kelgan. Hozir mavjud bo'lib turgan diniy tartiblarning ko'pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy burilishlar, tangliklar davrida shakllanganligi bejiz emas. Shu tariqa din insoniyat tarixining turli davrlarida siyosat bilan ozmi-ko'pmi ochiq-oydin munosabatga kirishgan. Ko'pincha undan siyosiy va ba'zan bir taraflama, tor maqsadlarda foydalanib kelingan.

Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm (o'ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalilanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'do. Fanatizmning

o‘ziga xos xususiyati va ko‘rinishlari avvalambor o‘z dinining haqiqiyligiga o‘ta qattiq ishonisn, boshqa diniy e’tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lishdan iboratdir.

Aynan fanatizm illatiga yo‘liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to‘lqinini keltirib chiqarishga qodir bo‘ladilar. Ustiga-ustak, ommaviylik unsuri muayyan bir xatti-harakatlar uchun shaxsiy javobgarlik hissini yo‘qotib yuboradi, harakatga «omma, xalq harakati» tusini beradi.

O‘zining shak-shubhasiz haqligiga, haqiqatni faqat o‘zi bilishiga ishonch hissi so‘nggi choralarga — zo‘ravonlik harakatlariga moyilligi bilan ajralib turadigan diniy ekstremizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Bunda muayyan shaxs ham, boshqa dinga mansub ijtimoiy guruh ham yoki shu dinning o‘z vakillari tomonidan rad etilayotgan mazhabga mansub vakillar ham ta’sir ko‘rsatish obyekti sifatida tanlab olinishi mumkin.

Adolat yuzasidan shuni e’tirof etish kerakki, diniy fanatizmning «otilib chiqishi»ga sof diniy ziddiyatlardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi sabab bo‘ladi. Aslini olganda, ayni shu muammolar boshqacha fanatizmni, deylik, bolshevistik, millatchilik ruhidagi fanatizmni keltirib chiqaradi.

Diniy tizimlarning o‘zi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishning samarali dasturlarini taklif qilishdan olis. Diniy fundamentalistlarning amaldagi dinlar vujudga kela boshlagan dastlabki shart-sharoitlarga qaytish haqidagi da’vatlarini esa asosli va real chora deb hisoblab bo‘lmaydi.

So'nggi o'n yilliklar mobaynida dunyoda din omilining faollashuvi sovetlardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi. To'g'ri, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukmronlik qilgan sharoitlarda ham diniy hayot hech qachon to'xtab qolgan emas. U g'oyat o'ziga xos shaklu shamoyil kasb etgan edi, xolos. Biroq 80-yillarning oxiri — 90-yillarning boshlari, bir tomonidan, jamiyatda dinning mavqei qayta tiklangan, ikkinchi tomonidan esa, ana shu asosda mojarolar chiqishi uchun sabablar shakllangan davr bo'ldi.

Bu fikrning dolzarbligi mintaqadagi davlatlarning mustaqilligini qaror toptirish va mustahkamlash davrida mintaqamizda islom omili va uning xilma-xil ko'rinishlari faollashuvi sabablariga e'tibor bilan qarashni talab qilmoqda.

Birinchidan, avvalgi mafkuraviy tasavvurlar va qadriyatlar tizimining yemirilishi hamda muayyan vaqt mobaynida paydo bo'lган bo'shliqning o'rnini to'ldirish zaruratidir.

Kommunistik mafkura ma'naviy qashshoqligi, fanatizmi va millatlarga qarshi qaratilganligi bilan sho'ro hokimiyatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm va an'anaviylik uchun sharoit yaratdi. Islom dinidagina emas, balki yahudolik, xristian konfessiyalari — Rus pravoslav, Rim-katolik, Arman-grigorian, Lyuteran cherkovlarida, baptistlik va boshqa jamoalarda ham shu hol ro'y berdi.

Biz bularning barchasini 100 dan ortiq xalq va millat, 15 diniy konfessiya vakillari yashayotgan O'zbekiston misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ldi.

Sobiq SSSRdagi hukmron kommunistik partiya-ning jilobardorlari diniy jamoalarni xalqlarning aql-

idrokini egallash uchun kurashda o'zlarining raqibi deb hisoblar edi. Ular o'zining butun faoliyati davomida dinni kamsitish, ruhoniylarni yo'qotish va omon qolganlarini bo'ysundirish uchun eng keskin choralarни ko'rgan edi. Din sun'iy ravishda mafkuraviy kurashning o'ta qizg'in jabhalaridan biriga aylantirib qo'yilgan edi. Islom dinining o'n minglab mo'tabar ruhoniylari qatag'on qilindi. Minglab machitlar va yuzlab madrasalar buzib tashlandi. Bu obidalarning ko'pchiligi xalqimiz uchun, insoniyat sivilizatsiyasi uchun bebaho me'moriy va tarixiy qadriyat hisoblanar edi. Dindorlar ommasining aksariyat ko'pchiligi 90-yillarning o'rtalariga qadar Qur'oni karimdan bahramand bo'lomagan edilar.

Mazkur sabablarga ko'ra, Markaziy Osiyodagi islomiy ma'rifat taqiqlab qo'yilgan sobiq sovet respublikalarida chin ma'nodagi bilimdon islam murabbiylari kamayib ketgan edi. Natijada har xil xurofiy irim-sirimlar, ba'zan jaholatparast udumlar rivoj topdi. Bunday «chalamullalar» hozirgi kunda ba'zan eng oliv haqiqatni faqat ulargina bilishlarini, uni butun aholiga zo'rlab qabul qildirishni va odamlarning taqdirini hal etish huquqini da'vo qilib chiqmoqdalar.

Biz O'zbekistonda hozir ham, kelgusida ham sovet davrining salbiy tajribasiga, mustaqilligimizning dastlabki yillarida guvohi bo'lganimiz yangi xatolarga yo'l qo'yishni xohlamaymiz.

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, etnik jihatdan nasl-nasabini izlashga intilish o'sib bormoqda.

Bu borada Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlarida dinning, xususan, islam dinining roli to'g'risida

g'arbiy yevropalik ekspertlarda shakllangan fikr e'tiborga molik. Ularning fikricha, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy jihatdan tiklanishi davrida islom bir-biriga qarama-qarshi vazifalarni bajarishga qodir. Zotan, chetdan turib bildirilgan fikr ko'pincha ko'zgudagi aksini ko'rmoqdan ko'ra yaxshiroq va foydaliroqdir.

Bir tomondan, islom dinining madaniy qadriyatlari va an'analari, jahon miqyosida islom dini qoldirgan juda ulkan ma'naviy meros nafaqat mintaqamizning tarixiy rivojlanishiga ko'p jihatdan qo'shilgan hissani, balki uning hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan yangi qiyofasini ham belgilab bermoqda.

Ikkinchidan, islom dinidan siyosiy kurash uchun, ommaning siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatish vositalariga ega bo'lish uchun quro'l sifatida foydalaniлади. U bir tug' vazifasini bajarishga qodir. Bu tug' ostida esa aniq bir dasturiy maqsadlarni izlovchi emas, balki faqat bir ko'rsatmaga — hokimiyat uchun kurash olib borish haqidagi ko'rsatmaga amal qiluvchi kuchlar birlashadi.

Uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohadagi keskin o'zgarishlar. Bu eng muhimi bo'lsa ham ajab emas.

O'tish davridagi islohotlarning muqarrar qiyinchiliklari, aholining obyektiv tabaqalashuv jarayoni va mulkdorlik belgisi bo'yicha tabiiy tafovutlar aholining bir qismini o'z farovonligini ta'minlash maqsadida kuch-g'ayratlari, bilimlari va qobiliyatlarini ishga solishdan chalg'itmoqda. Ularni sovet ruhidagi nuqtai nazardan yondashgan holda xayoliy va yolg'on tenglikka, ortiqcha zeb-ziynat va isrofgarchiliklarga

qarshi soxta kurashga undamoqda. Aslini olganda, bu — odamlar o'rtasidagi soxta tenglikka va jamiyatni qiyofasiz bir holatga keltirib qo'yadigan tekischilikka qaytishni yoqlab chiqish demakdir.

Ana shunday bir sharoitda vahhobiylilik kabi g'oyalarning aldamchi jozibasi o'zini yaqqol namoyon etmoqda. Turg'unlik, tanglik va jamiyatning par-chalanish yillarida ajnabiy vahhobiylilikning ommaga yoqish yo'lidagi urinislari adolatni yuzaki tushunib targ'ib qilishda, islomning ma'naviy-axloqiy me'yorlariga qattiq rioya etishni talab qilishda hamda zeb-ziynatdan va manfaatparastlikdan voz kechishni e'lon qilishda namoyon bo'lmoqda. Afsuski, bunday da'vatlar Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida yaqin o'tmishda va hozirgi kunlarda ham keng yoyildi va qo'llab-quvvatlab kelindi.

To'rtinchidan. O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari g'oyat murakkab va ko'p qirrali islom dunyosining ajralmas qismidir. Sir emaski, bu dunyoda yetarli darajada rasmiy va norasmiy harakatlar mavjud. Ular yo islomning ustunligini tan olish, yoki boshqa barcha dinlarga nisbatan murosasizlik, yoxud islomdan tor milliy manfaatlarni himoya qilishning asosi sifatida foydalanish maqsadini mahkam tutgan holda islomni o'z siyosiy rejalariga bo'yundirmoqda.

Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlarini o'z siyosiy tarafdarlari va ittifoqchilari safiga jalb qilishga, ularga o'z ta'sirlarini yoyishga intilish bunday kuchlarning maskuraviy yo'l-yo'riqlarigagina xos bo'lmay, balki mutlaqo aniq-ravshan harakatlar tusini ham olmoqda.

Islom omili kuchayishining yuqorida sanab o'tilgan asosiy sabablari O'zbekistonda diniy hayotning faollashish jarayonlarini tushunishga ham to'la taalluqlidir.

Hozirgi kunda respublikada 15 ta diniy konfessiya uyushmalari faoliyat yuritmoqda. Ularning bir qismi O'zbekiston uchun noan'anaviydir. Davlat ular bilan o'zaro munosabatda, o'z dunyoviy xususiyatini hisobga olgan holda, quyidagi tamoyillarga amal qilmoqda:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Oxirgi tamoyil Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning 18-moddasiga muvofiq keladi. Bu moddada har bir insonning hur fikrlash, vijdon va din erkinligiga bo'lgan huquqini mustahkamlab qo'yishdan tashqari, yana bunday deyiladi: «Din yoki e'tiqodga sig'inish erkiga faqat qonun bilan belgilangan va jamoat xavfsizligini, tartibini, salomatligi va axloqni saqlash uchun, shuningdek, boshqa shaxslarning asosiy huquqlari va erkini muhofaza etish uchun zarur bo'lgan cheklashlar bilangina daxl qilish mumkin».

Yuqoridagi fikrlar ma'naviyat va madaniyatning bir qismi bo'lgan din bilan undan muayyan siyosiy maqsadlar yo'lida foydalanishga urinishlarni aniq ajratib ko'rsatadi.

Biz din bundan buyon ham aholini eng oliv ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdomiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashtga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'yaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz.

O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmi — aqidaparastlikning tahdidi nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Birinchidan. Aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda ko'rinishda bo'lmoqda. Yaxshilik yo'lidagi o'zgarishlarning ustuvor shartlari bo'lgan barqarorlikni, milliy, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzish yo'lidagi urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Aqidaparastlarning maqsadi demokratiyani, dunyoviy davlatni, ko'p millatli va ko'p dinli jamiyatni obro'sizlantirishdan iboratdir.

Ikkinchidan. Fundamentalistlarningadolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim. Bu da'vatlar oxir-oqibatda bunday odamlarning aqligagina emas, balki taqdiriga ham hukmron bo'lib olishini yaqqol anglashimiz, ayniq-

sa, yoshlarimiz buni aniq tasavvur qilishi lozim. Bunday nufuzli odamlarga bo'ysunmay qo'yish shaxsiy fojiaga aylanib ketishi ham mumkin. Qullarcha mutelik, shaxsning erksizlik asoratiga tushib qolishi, fikrlash, sa'y-harakat va tashabbus ko'rsatish erkinligining mutlaqo cheklanishi buning eng og'ir oqibatlaridir. Bizning taraqqiyot sari intilishimizni esa fikrlash, harakat qilish va tashabbus ko'rsatishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Uchinchidan. Mamlakat mintaqalari aholisi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida «haqiqiy» va «soxta» dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik keltirib chiqarishda ko'rinoqda. Bunday hol Jazoirda, Afg'onistonda millatlarning parchalanib ketishiga olib keldi.

To'rtinchidan. O'zbekistonning janubiy chegaralidagi qo'shni mamlakatlarda fuqarolar urushi to'xtamay, davom etib kelayotganligida namoyon bo'lmoqda. Bu holat o'zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchilar deb hisoblaydigan, mudhish tasavvurlarini xalqimizga zo'r lab qabul qildirishni istaydigan terrorchilar, jangarilarning yangidan-yangi avlodlarini vujudga keltirmoqda.

Beshinchidan. Musulmon va nomusulmon mamlakatlar, ularning jamoatchiligi orasida ham O'zbekiston haqida ko'ngilni sovutadigan fikr tug'dirishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Ularga bizni goh dinsiz dahriylar qilib, goh esa davlatni islomlashtirishning yashirincha tarafdarları qilib ko'rsatishni istaydilar.

Oltinchidan. Islom sivilizatsiyasi bilan islomiy bo'Imagan sivilizatsiya o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda. Bu esa jahon hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi mustaqil davlatlarning qoloqligini turg'un bir holatga aylantirmoqda. Undan ham dahshatlisi shuki, odamlarni diniy zaminda «sivilizatsiyalar to'qnashuvi»ni kutishga majbur qilmoqda.

Yettinchidan. Ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlar ni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda ko'rinoqda.

Keyingi vaqtarda chet el matbuotida O'zbekiston rabbariyatining o'zi fundamentalizm xavfiga ishonmaydi, lekin mutlaqo aniq maqsadlarni ko'zlagan holda G'arbni shu bilan qo'rqiitmoqda, degan fikrlar paydo bo'ldi.

G'arbdagi tadqiqotchilar va islomshunoslar orasida fundamentalizm jahon hamjamiyati uchun xavfli bo'Imagan, aksariyat hollarda «o'z» davlatlariga qarshi qaratilgan yo'nalishdir, degan qarashlar keng yoyilgan. Go'yo aqidaparastlar bu davlatlarni buzib, o'zlarini xohlagancha qayta qurib olishgach, jahon hamjamiyati bilan muloqot qilishga durustroq tayyor bo'lar emishlar. Fundamentalistlarning ko'pchiligi Yevropadagi va Amerikadagi universitetlarda oliy texnik va tibbiy ta'lim olganligi bunday mutaxassislarni ayniqsa quvontirmoqda. Bu kishilar qayta-qayta parchalanishga, nizolarga va tahqirlanishga duchor bo'lgan musulmon Sharqining haqiqiy holatini chuqur tushunarmikanlar?

Bunday nuqtai nazarlarga qo'shilmagan holda, e'tiborni muammoning yana bir jihatiga qaratish zarur deb hisoblayman.

Islom fundamentalizmining xavfi haqida fikr yuritar ekanmiz, nafaqat uning islom dini ichidagi sabablariga, balki uni keltirib chiqarayotgan, rag'batlantirayotgan jihatlariga ham doimo murojaat qilishga majburmiz. Bu sabablar hammaga yaxshi ma'lum — mustamlakachilik va yangi mustamlakachilik, buyuk davlatchilik shovinizmi va xalqaro munosabatlarda musulmonlarga qarshi zo'ravonlik, «parchalab tashla va hukmronlik qil» qabilidagi siyosatdir. Bunga qo'shimcha o'laroq, iqtisodiy kamsitishni, kalondimog'likni va boshqa madaniyatning, boshqa sivilizatsiyaning, xususan ko'p asrlik ildizlarga ega, Sharq falsafasining bir qismi bo'lган islom sivilizatsiyasining fazilatlarini chuqur tushunishni istamaslik kayfiyatini ham ko'rsatib o'tish lozim.

Ayni chog'da islom dunyosini jipslashtirish uchun uning ustunligi g'oyasidan, AQSH va G'arbiy Yevropaga qarama-qarshi o'laroq, hozirgi dunyoning boshqa kuch markazlari bilan birlashish g'oyasidan foydalanishga urinishlarning ham istiqboli yo'q. Bunday urinishlar o'tib borayotgan asrning 50—80-yillarida sinab ko'rigan edi. Ularni XXI asrga olib o'tish shartmikan?

Qolaversa, rivojlangan mamlakatlarning vakillari musulmonlar uchun g'oyat qadrli bo'lган odatdag'i ijtimoiy munosabatlarni, turmush tarzini, dunyo-qarashni o'zgartirish naqadar azobli ish ekanligini tushunib yetishlari lozim. Basharti kimda-kim islomni va islomiy madaniyat davlatlarini yangi «yovuzlik sultanati» va yalpi xavf-xatar hududi deb tasavvur

qilsa, bu hol XXI asrning butun kelajak tarixi uchun fojiali xato bo'lur edi.

G'arbning ilg'or vakillari o'z mamlakatlari va butun dunyo sivilizatsiyasining ravnaq topishi uchun islomning ahamiyatini yuksak baholayotganliklari hamda qarzni qaytarish, deyarli 1 milliard odam yashaydigan diniy hamjamiyatga taraqqiyot yo'lida yordam berish vaqtি yetdi, deb hisoblayotganliklari haqidagi fikrlarni uchratish ijobiy taassurot uyg'otadi.

Diniy fundamentalizmning har qanday ko'rinishlariga qarshi chiqayotgan jahondagi ta'sir doirasi keng va obro'-e'tiborli kuchlar turli madaniyatlar hamda sivilizatsiyalar yonma-yon yashashining normal, tinch va o'zaro foydali shart-sharoitlari uchun kurashda O'zbekistonning o'rni va ahamiyatini anglab yetmoqdalar. Mamlakatimizning o'ziga xos islohotlar yo'lini tushunmoqdalar va qo'llab-quvvatlamoqdalar.

Buni bizning fuqarolarimiz, yoshlarimiz esda tutishlari va qadrlashlari lozim. Mamlakatimiz ichida ham, jahon hamjamiyati oldida ham o'z mas'uliyatlarini tushunishlari va unutmasliklari zarur.

BUYUK DAVLATCHILIK SHOVINIZMI VA AGRESSIV MILLATCHILIK

XXI asr bo'sag'asida yangi mustaqil davlatlar juda katta ichki va tashqi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ular mavjud muammolarning yechimini, ichki manbalar va imkoniyatlarga tayangan holda va shu bilan birga, jahon hamjamiyatining manfaatdor ishtirokidan izlamoqda. Ayni vaqtida ular bilan qo'shni davlatlar o'rtasida gumanitar, axborot ayrboshlash, iqtisodiy

sohalar va boshqa jihatlar hamda yo'nalishlarda ko'p asrlik umumiy aloqalar mavjud. Shu tufayli ularning o'zaro hamkorlik qilish istagi va intilishlari tabiiydir. Bu o'rinda biz SSSR parchalanib ketganidan keyin paydo bo'lgan ana shu murakkab muammoning biron ta jihatiga yuzaki qarashga haqli emasmiz. Yangi mustaqil davlatlar o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlikni qaror toptirish hamda shakllantirish bilan bog'liq obyektiv qiyinchiliklar va murakkab masalalar ustida to'xtalmagan holda, nazarimda, e'tiborni ba'zan sun'iy ravishda tug'dirilayotgan bir qator muammolarga qaratish muhimdir. Men bularni aslida subyektiv bo'lgan, muayyan siyosiy kuchlar, tarixiy jarayonlarning obyektiv rivojlanish yo'lini tushunishni istamasligi yoki to'g'ridan-to'g'ri tushuna olmasligi, zimmamizga alohida tarixiy vazifa yuklangan va biz boshqalardan ustunmiz degan fikr ularning ongida mahkam o'rnashib qolganligi tufayli kelib chiqayotgan muammolar jumlasiga kiritgan bo'lardim.

Biz masalani umumlashtirish va tarixiy o'xshashliklarni sanab o'tish, ayrim millatlar va xalqlarni shubha ostiga olish fikridan yiroqmiz. Lekin davlatlar o'rtasida yangi madaniy munosabatlar qaror topib borayotgan hozirgi sharoitda bu hodisani mazkur jarayonga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida hisobga olmaslik mumkin emas.

Nafaqat yosh davlatlarning e'tibor berishini, balki, eng avvalo, xalqaro ishtirokni talab etadigan muammolar jumlasiga birinchi navbatda imperiyacha fikrlash va xulq-atvorning xurujlari tufayli kelib chiqayotgan muammolarni kiritish lozim.

O'zbekiston Respublikasi ham ana shu hodisalar ta'siridan chetda qolgani yo'q. O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytish uchun asos bo'la oladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan xattiharakatlarda aniq namoyon bo'lmoqda.

Bu insoniyat tarixida aslo yangi hodisa emas. Zotan, tarixda ayrim yirik davlatlar va ko'p sonli xalqlarning atrofdagi mamlakatlar bilan o'z munosabatlarni ustunlik va mumtozlik nuqtai nazaridan amalga oshirishga intilganligini ko'rsatuvchi misollar juda ko'p. Bunday yondashuv ko'p martalab keng ko'lamdag'i to'qnashuvlarga, qonli urushlar va mojarolarga olib kelgan. Butun-butun xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ishonchsizlik va shubha tug'dirgan. Afsuski, ular ba'zan avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Bir qarashda, go'yo insoniyat XXI asr bo'sag'a-sida yetarli darajada aql-idrokli bo'lib qolgan holda o'zining tarixiy tajribasiga asoslanib, asrlar davomida tarkib topib kelgan ba'zi bir andozalardan voz kechishi tabiiy bo'lib ko'rindi. Ya'ni, insoniyat hozirgi jahon hamjamiyatining ochiqdan-ochiq ko'rinish turgan xilma-xilligi va ko'p qirraliligin, uning barcha subyektlari o'rtasidagi to'la teng huquqlilikni ham butun jahon sivilizatsiyasi muvaffaqiyatli rivojlanishining tabiiy va zaruriy sharti sifatida e'tirof etilishini talab qiladi.

Biroq shovinistik va agressiv millatchilik inersiasining kuchi hali shu qadar zalvorlici, bu kuch unga duch kelganlar uchun ham, uni boshqalarga qarata-

yotganlar uchun ham naqadar xavfli ekanligini payqamaslik mumkin emas.

Ushbu tarixiy tajriba shundan saboq beradiki, katta siyosatga intilayotgan, boshqa xalqlarni kamsitish va cheklash asosida o'z xalqiga farovonlik yaratib berishga va shu holatni saqlab turishga harakat qilayotgan siyosatchilar va shaxslarning xatti-harakatlarini hech qanday olijanob niyatlar ham oqlay olmaydi. Shunga qaramay, hozircha bunday xurujlar mavjud va juda sezilarli. Ularni esdan chiqarmaslik va hushyor turish zarur.

Biz buyuk davlatchilik shovinizmini va agressiv millatchilikni qanday tushunamiz, uning hozirgi ko'rinishlari nimalardan iborat?

Tarixiy tajribaga asoslanib, bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin.

Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jo'g'rofiy-siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashida namoyon bo'ladi.

Odatda, hudud jihatidan kichik bo'lgan va eng asosiysi — iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan va ichki beqaror davlatlar ana shunday da'volarga nishon bo'ladi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi. Uning

ifodachilari harbiy imperiyalardir. Bu imperiyalarning iqtisodiyoti bosib olingan hududlarni ekspluatatsiya qilar va hatto ularning hayotiy manbalari hisobiga yashar edi. Ayni chog'da bo'ysundirilgan xalqlarga ularning madaniy jihatdan va umuman milliy jihatdan norasoligi haqidagi halokatli g'oya singdirilar edi.

Bizning o'lkamiz ham ana shunday qismatdan qochib qutulolmadi. U ham uzoq vaqt davomida hukmron shovinistik va agressiv millatchilik g'oyalaringning butun jafolarini tortib keldi. O'zbekiston Rossiya imperiyasi, so'ngra esa Sovet imperiyasi tarkibida majburan ushlab turilgan murakkab davrni boshidan kechirdi. Bu davr hozirgi paytda turlicha, ba'zan bir-birini istisno etadigan tarzda talqin qilinmoqda.

Aftidan, Markaziy Osiyoda sodir bo'layotgan hodisalarning ko'pdan-ko'p sharhlari muayyan si-yosiy va mafkuraviy yo'l-yo'riqlar ta'sirida berilmoqda, deb aytish uchun barcha asoslarga egamiz.

Shu sababga ko'ra, tarqatilayotgan fikrlardan ikkitasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bu fikrlar Markaziy Osiyo uchun mo'ljallangan xilma-xil «andozalar»ning hammasini aks ettirmasa-da, biroq ularning mualliflarini juda yaxshi tavsiflab beradi. Birinchi "andoza"ning mualliflari, ehtimol samimiylar tarzda, mintaqaga Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston muxtoriyati sifatida rivojlanib, o'z metropoliyasidan zarur rag'batlarni olib turar edi. Chunki chor Rossiyasi mahalliy an'qanalar va asoslarni yo'q qilmagan va buzmagan holda o'lkaning burjuacha tadrijiy rivojini rag'batlantirgan edi, deb hisoblaydilar.

Mintaqada o'tkazilgan bolshevikcha tajriba, shu jumladan milliy-davlat chegaralanishi, ijtimoiy

tuzumning an'anaviy ko'rinishlarini bostirish yoki cheklash, iqtisodiyotning haddan tashqari ixtisoslashtirilishi ushbu guruh mualliflari tomonidan keskin tanqid qilinmoqda. Ular buni Markaziy Osiyo mintaqasidagi hozirgi ziddiyatlarning asosiy sabablaridan biri deb hisoblamoqdalar. Ayni shu mantiqqa muvofiq, kommunistik tuzumdan keyingi yangi Rossiya mintaqada barqarorlashtiruvchi rolni o'ynash uchun juda mos kelar emish.

Boshqa fikrlarga ko'ra, mintaqadagi murakkab muammolarni bu o'lkaning uzoq davom etgan mustamlaka o'tmishi keltirib chiqargan. Mustamlaka-chilik musulmon aholining ruhiyatiga mutlaqo yet unsurlarni olib kirgan. Vujudga kelgan ahvoldan qutulish yo'li sifatida o'lkaning o'z tarixiy va milliy negizlariga qaytish taklif qilinadi. Bunga esa mintaqadagi davlatlar faqat qo'shni musulmon mamlakatlariga ergashgan, kelajakda ular bilan yanada yaqinroq integratsiyaga kirishgan taqdirdagina erishish mumkin emish.

Biroq bu nuqtai nazarlarda yaxlit obyektiv va ilmiy yondashishdan ko'ra siyosat va ehtiros ancha ustunlik qiladi. Mazkur fikrlarda rasmiy mantiqning hamma belgilari mavjud bo'lishiga qaramay, ularning mualliflari o'ta keskin nuqtai nazarlarning ifoda-chilaridir. Bu nuqtai nazarlar ayni buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikning xurujlari tufayli kelib chiqqan.

Shubhasiz, yirik imperiyalar boshqa mamlakatlar va xalqlarni bosib olgani hamda bo'ysundirgani holda, umumjahon taraqqiyotidan orqada qolgan

mamlakatlarda muayyan darajada ma'rifatchilik vazifasini ham ado etib kelgan. Mustamlakachilikka bunday baho beruvchilar imperiyalar bosib olingan mamlakatlar infrastrukturasini, ayrim ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga, milliy kadrlarni tayyorlashga, ular aholisini faoliyatning yangi turlaridan va jahon madaniyatidan bahramand qilishga qo'shgan hissalarini ta'kidlab ko'rsatadilar.

Bunga qo'shilmaslik mumkin emas. Lekin buyuk imperiyalar bilan kam sonli xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonining salbiy jihatni ham bo'lgan. Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kirilgan sivilizatsiya natijalaridan ko'ra bir necha baravar ortiq edi.

Eng avvalo, mustamlakalar va yarim mustamlakalarni rivojlantirish yo'lidagi kuch-g'ayratlar buyuk davlatlarning kundalik va uzoq muddatli manfaatlariga bo'ysundirilgandi. Shu jihatdan olganda, qaram xalqlarning manfaatlari hamma vaqt ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan. Imperiyalar qaram mamlakatlar taraqqiyotini, o'z manfaatlari doirasidan chetga chiqmagan holda, hamisha qattiq cheklab kelgan va muayyan yo'lidan olib borgan. Xususan, Markaziy Osiyoning infrastrukturasidagi o'zgarishlar, yo'l qurilishi va kommunikatsiyalarning rivojlantirilishi, ana shu maqsadlar uchun imperiyaga xizmat qiluvchi milliy kadrlarni tayyorlash — bularning barchasi imperiyaning manfaatlarini qondirganligi, bu holda arzon xom ashyo va energiya manbalaridan bahramand bo'lishni kafolatlashi kerak bo'lganligi uchungina amalga oshirilgan.

Ikkinchidan, buyuk davlatlarning sivilizatsiyadorlik harakati mumtozlik va atrofdagilarga mensimay

qarashdan iborat halokatli ruhiyatni vujudga keltirib va mustahkamlabgina qolmadi, balki bu sivilizatsiya zo'rlik bilan joriy qilingani, milliy nafsoniyat va iftixorni kansitgani, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarni toptaganini, ularning ifodachilarini jismonan yo'q qilib tashlagani uchun bunday harakat tegishli qarshilikka ham uchrar edi.

Nihoyat, ildiz otib ketgan boshqarish va aql o'rgatish odati, o'zining nuqsonsizligiga ishonish strategik jihatdan xato qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Bunday qarorlarning oqibatlari imperiyaning o'zi uchun portlovchi modda bo'lib xizmat qiladi. Chor hukumatining ham, Sovet davlatining ham taqdiri buning yaqqol dalilidir.

Shovinistik kayfiyatdagi shaxslarning ahvolruhiysi va siyosatida mavjud bo'lgan salbiy potensial haqida fikr yuritganda, ular dunyo miqyosida tug'diradigan boshqa bir qator tahdidlarga ham e'tiborni qaratish zarur.

Tarixiv tairibada qavta-qavta tasdiqlanganidek, shovinizm avtoritar tuzumlar o'rnatalishi va mustahkamlanishini rag'batlantiradi, shafqatsiz diktaturaga olib boradi. Chunki, bo'ysundirilgan va qaram xalqlarnigina emas, balki bir qismi muqarrar ravishda bunday siyosiy vo'lga qarshi chiqadigan o'z aholisini ham boshqacha sharoitda itoatkorlikda saqlab turish mumkin bo'lmaydi.

Shovinizmning tarixan halokatli ekanligiga sabab shuki, haddan tashqari kuchayib ketgan va, ayniqsa, o'z milliy mumtozligiga ishonishga asoslangan buyuk davlatchilik zo'ravonlik asosiga qurilganlidadir. Bu

esa, o'z navbatida, buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikni ifoda etuvchi davlatlarning o'zida ko'plab qurbanlar va yo'qotishlarga olib keladi.

Shu bois aytish mumkinki, shovinism pirovardida davlatning o'ziga zarba beradi, uning poydevorini kuchsizlantiradi, ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi. U jamiyatni parchalab yuborishga va uning uchun og'ir bo'lgan oqibatlarni keltirib chiqarishga qodir. Garchi tarixiy davrlari va shart-sharoitlari turlicha bo'lsa-da, Rim, Usmonlilar, Germaniya hamda Rossiya va Sovet imperiyalarining taqdirida bunga ko'plab misollar topish mumkin.

Hozirgi sharoitda shovinistik tahdidlarning tazyiqini boshdan kechirib turgan kichik mamlakatlar va xalqlar o'z xavfsizligi hamda suverenitetini ta'minlash maqsadida buyuk davlatchilikka qarshi choralar izlashga majbur bo'lmoqda. Oqibatda bularning hammasi butun xalqaro munosabatlar tizimi yanada sog'lomlashishi-ga emas, aksincha, dunyo miqyosida jahonning kuch markazlari o'rtasidagi munosabatlarda ziddiyatlarning zo'rayishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida aytiganlardan kelib chiqib, buyuk davlatchilik shovinismi va agressiv millatchilik unsurlari hozirgi kunda bizning mamlakatimizga nisbatan qanchalik kuchga ega, bu hodisaga qanday to'n kiydirilmasin, u bizning xavfsizligimizga qanday real tahdid tug'dirmoqda, degan masala O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun dolzarb bo'lib turibdi.

1991 yil yangi davr boshlangan tarixiy nuqta bo'ldi. Shu yili totalitar tuzumning sobiq qurbanlari o'z mamlakatlarining ozod bo'lishiga erishdi va milliy

davlat sifatida qayta tiklanish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Rossivaning o'zi puturi ketgan va parchalanib borayotgan imperivani buzib tashlashni boshlab bergenligi qonuniy va ramziy holdir. Shuning uchun ham demokratik, iqtisodiy va siyosiy jihatdan sog'lom hamda ravnaq topib borayotgan Rossiya barcha yangi suveren davlatlarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining ham mustaqilligini mustahkamlash uchun nihoyatda zarurdir.

Imperiya buyuk davlatchiligining partiyasi hokimiyat teпасидан ketgach, buyuk davlatchilik shovinizmi ham o'tmishda qoladigandek bo'lib ko'ringan edi. Biroq hayot bu umidlarga tashvishli tuzatishlar kiritdi.

Shovinizm bilan agressiv millatchilikning qorishmasi bo'lgan buyuk davlatchilik bugungi kunda nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Eng avvalo shundaki, muayyan guruhg'a mansub siyosatchilar va ekspertlar o'z fikrlari va xattiharakatlari bilan hozirgi dunyoda sobiq Sovet Ittifoqi Moskva va Rossiyadangina iborat bo'limganligini tushunish o'sib borayotganligidan hafsalalari pir bo'lganligini oshkora ko'rsatmoqdalar. Shuning uchun ham sobiq ittifoqdosh respublikalar o'z milliy-davlatchilik manfaatlarini aniq ifodalabgina qolmay, ayni chog'da bu manfaatlarni ta'minlashga qaratilgan tamomila mustaqil siyosatni ham amalga oshirayotganliklari asabiylilik bilan va hatto alam bilan qarshi olinmoqda.

Keyingi vaqlarda Rossiyaning ochiq matbuotida bu mavzuda uzundan-uzoq tahliliy materiallar va boshqa maqolalar qayta-qayta bosilib chiqmoqda. Ularning

ohangi va mazmuniga qarasangiz, jurnalistning qalamini emas, balki maxsus xizmatlar va ayrim siyosatchilarning tajribali qo'lini ko'rasiz. Bu maqolalar shovinizm xavfi va uning sobiq sovet makonida paydo bo'lib, «yaqin xorij» deb atalayotgan yangi mustaqil davlatlarga nisbatan ko'rinishlari o'ylab chiqarilgan muammo emas, balki Rossiyaning o'zi uchun ham, unga qo'shni mamlakatlar uchun ham birday xavfli tahdiddir, degan xulosani juda yaxshi ko'rsatib va asoslab beradi.

Ayrim maqolalarda ashaddiy shovinistlar va millatchilarning oshkora da'volari hech qanday aqlga sig'maydi. «Novaya nezavisimaya gazeta»ning 1997 yil 26 mart sonida «MDH: tarixning ibtidosimi yoki intihosi?» degan dabdabali sarlavha ostida bosilib chiqqan bosh maqolani, muharrir maqolasini misol qilib keltirish kifoya.

Bu maqola Hamdo'stlik davlatlari boshliqlarining 1997 yil 28 martdagи uchrashuvi arafasida e'lon qilindi. Unda, tahririyatning fikricha, «sovettardan keyingi makonda birlashishga mutlaqo yangicha yondashuvlar» bayon etilgan. Afsuski, bu maqola yoki, uning noma'lum mualliflari ataganidek, ma'ruza bilan yuzaki tanishib chiqishning o'ziyoq gap integratsiyaga yangicha yondashuvlar haqida bormayotganligini ko'rsatadi. Ak-sinchal, u mazkur mamlakatlarda vaziyatni beqarorlashtirishga, mavjud holatni va sovettardan keyingi makonda yuz bergan real voqeliklarni qayta ko'rib chiqishga da'vat etadi. Bu esa xalqaro huquq va BMT a'zolari bo'lgan davlatlarning mustaqilligi va suverenitetini hurmat qilishning normal axloqiy

qoidalari nuqtai nazaridan mutlaqo yo'l qo'yib bo'l-maydigan holdir. Mualliflarning fikricha, shularning hammasini Rossiyaning xavfsizligini ta'minlash va uning sobiq SSSR chegaralaridagi buyuk davlatga xos va hukmron mavqeini saqlab qolish uchun amalga oshirish kerak emish.

Masalan, ular: «Rossiya sobiq sovet respublikalarining davlat bo'lib shakllanmagan (davlatga o'xhash) tuzilmalar holatidan chiqib, barcha zarur belgilarga ega bo'lgan real davlatlarga aylanishiga, so'ngra iqtisodiy sohada integratsiyani amalga oshirishiga, faqat shundan keyingina harbiy va siyosiy integratsiya jarayoni, chinakam yangilangan suveren va ozod davlatlar ittifoqini barpo etish jarayoni yuz berishiga — integratsiyaning ana shunday mantig'iga amalda rozilik berib, eng katta xatoga yo'l qo'ygan», — deb hisoblashmoqda.

Bu xatoni to'g'rakash uchun «... ta'sir ko'rsatishning barcha iqtisodiy, harbiy, etnik-demografik va boshqa vositalaridan foydalangan holda davlat hokimiyyati tevaragida Rossiyaga qarshi va integratsiyaga qarshi kayfiyatdagi kuchlar ji psplashishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida Rossiyani sobiq SSSR respublikalaridagi davlat qurilishi jarayoniga dadil jalb etish» taklif qilinmoqda. «Faqat faol harakatlarga (hatto mintaqalardagi ichki siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishgacha...) asta-sekin Rossiya ma'murlarining hozirgi siyosati tufayli muqarrar yuz berayotgan jarayonni — bu davlatlarning Rossiyadan uzoqlashish jarayonini to'xtatib qolishi mumkin» ekan.

Shu bilan birga, ularning fikricha, «ustuvor yo'nalishlarni o'zgartirish Rossiyaga SSSR parchalanib

ketganidan keyin respublikalarning hududiy chegaralanishi sohasidagi kelishuvlarning mavjud tizimini boshdan-oyoq qayta ko'rib chiqish, ularga nisbatan hududiy yaxlitlik tamoyilini inkor etish hamda bu makonni millatlarning o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqi asosida qayta taqsimlash masalasini qo'yish uchun bahona bo'lar» emish.

Maqola mualliflarini Markaziy Osiyo mamlakatlarining integratsiyalashuvi kuchayib borayotganligi ayniqsa cho'chitmoqda. Ular buni qandaydir «Janubning tahdidi» deb bilmoqdalar. Ular Markaziy Osiyo mamlakatlarining integratsiyasi «...Rossiya iqtisodiyotining mintaqadagi manfaatlariga bolta uradi, sovetlardan keyingi davlatlar iqtisodiyotining G'arb va Janubdagisi rivojlangan mamlakatlarga bo'ysundirilishi esa Rossiyaga o'rinn qoldirmaydi», deb ishonmoqdalar. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ular mana bunday maslahat berishmoqda: «Rossiya asosiy e'tiborni shakllanib borayotgan blokni (Markaziy Osiyo Hamdo'stligini) zaiflashtirishga, uni parchalab yuborishga hamda mintaqa ichida raqobatni kuchaytirishga qaratishi kerak».

Shu maqsadlarda ta'sir ko'rsatishning xilma-xil usullari va yo'llaridan foydalanish taklif qilinadi. Bular orasida «zo'rlik» (bu davlatlarning xom ashyo eksportini tartibga solish yoki tartibga solaman deb tahdid qilish, shuningdek, ularning Rossiyaga tashqi qarzlarini qattiq shartlar asosida qayta ko'rib chiqish) va «til-yog'lamachilik» (kreditlar, tovar yetkazib berish, buyurtmalar, imtiyozlar va shu kabilar tarzidagi harbiy, iqtisodiy va moliyaviy yordam)» siyosati ham,

«qo'shinlarni (Tojikistondan) olib chiqib ketish va hududiy da'volar bilan tahdid solish» ham bor. O'rta Osiyoning Rossiya transport infrastrukturasiga qaramligi ham hisobga olinmoqda, bu «...mintaqadagi yangi davlatlarni iqtisodiy qamal — birinchi navbatda oziq-ovqat va energetika qamali sharpasi qarshisida juda zaif qilib qo'yadi».

Maqola mualliflari mintaqada yashayotgan rusiyzabon aholining manfaatlarini himoya qilish tarafдорлари bo'lib ko'rinishga qo'pollik bilan, beandisha harakat qiladilar. «Biz o'z xohish-irodalariga bog'-liq bo'limgan holda Rossiyadan tashqarida qolgan vатандoshларимизнинге emas, balki undan ham keng-roq — O'rta Osiyoning butun rusiyzabon dunyosini qo'llab-quvvatlashimiz lozim. Ruslar va rusiyzabon harakatlarga (ayniqsa chet eldagи ruslarning eng radi-kal va shaylangan qismi bo'lган kazaklarga), shuningdek, O'rta Osiyodagi Rossiyaga ergashadigan muxolifat kuchlarga yordam berish uchun Rossiya Federatsiyasi davlat va xususiy tuzilmalarining tazyiq o'tkazish imkoniyatlarini ishga solishimiz kerak».

Ular tazyiq o'tkazishning barcha usullaridan foydalanishga chaqiradilar. Shu tariqa «Rossiya O'rta Osiyo mamlakatlarining katta-katta masalalarda unga yon berishiga, ehtimol mintaqaning «siyosiy qiyofasi»ni bizning (Rossiyaning) milliy manfaatlarimizga yanada mosroq tarzda butunlay o'zgartirishlariga erishishi mumkin», deb hisoblamoqdalar. Bundan tashqari, ular: «O'rta Osiyoning siyosiy rejimlari Rossiyani sovetlardan keyingi makonning asosiy va yagona kuch markazi, deb bilib, unga qayta moslashishi uchun tinimsiz tazyiq o'tkazib turish kerak», deb ishonadilar.

Bunday kibr-havoning asosiy sabablaridan biri — imperiyacha o'tmish va buyuk davlatchilik tafakkuri bo'lib, ayrim siyosatchilar hanuzgacha bundan qutula olmayaptilar. Bu siyosatchilar uchun yuz bergan tarihiy haqiqatga — o'z kelajagini o'zi belgilayotgan suveren davlatlar paydo bo'lganligiga ko'nikish, aftidan, juda ham qiyin bo'lmoqda.

Bugungi har bir mustaqil mamlakatning o'z tarixi, o'z xususiyatlari, o'z rivojlanish yo'li borligini va kelajakda ularning har biri jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rinnegallashini tushunib olish vaqt yetdi.

Aminmanki, vaqt va tarix bizning foydamizga, mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Hayotimizni va tarix g'ildiragini to'xtatib ham, orqaga qaytarib ham bo'lmaydi. Shu bilan birga yaqin va yaxshi qo'shni bo'lib, madaniy va demokratik dunyoda udum bo'lganidek, mushtarak muammolarimizga sherik bo'lib va ularni birgalikda hal qilib yashash chekimizga tushgan.

Hozirgi kunda buyuk davlatchilik g'oyalariga o'ta zamonaviy shakl berilgan. Ammo ularning mazmunida deyarli o'zgarishlar bo'lgan emas. Xo'sh, bunday da'volar qanday dalillarga asoslanmoqda?

Eng avvalo, Rossiya buyuk davlatchiligi g'oyasini, rus millatining mumtozligini tiklash, jahonning qutblaridan biri bo'lishga da'vogarlik qilayotgan davlat tevaragida kuchli jo'g'rofiy-siyosiy maydon yaratish g'oyasini ko'klarga ko'tarib maqtashda ko'rinoqda.

Nihoyat, butun sovetlardan keyingi makonda bozor munosabatlariga o'tishda duch kelinayotgan qiyinchiliklarni uyalmay-netmay ro'kach qilish hollari ham mavjud. Ularning mualliflari juda oddiy, ammo

aslo beozor va beg'araz bo'Imagan mantiqdan foydalanishmoqda. Bu mantiqqa ko'ra, hozirgi qiyinchiliklarning sababi Ittifoqning parchalanib ketganligi bilan bog'liq emish. Binobarin, «yagona va ahil xalqlar oilasi»ni tiklash qiyinchiliklarni tez va samarali bartaraf etish imkonini berar emish.

Buyuk davlatchilik shovinizmining yana bir ko'rinishi bor. Uning vakillari «yaqin xorij» davlatlaridan qaysi birlari hamkorlik qilish sharafiga muyassar bo'lishini, ya'ni boshqalar qatoridan kimni ajratib qo'yish huquqini yolg'iz o'zlari hal qiladilar. Ko'pincha Rossiyada izzat-ikromli ziyolilar orasida, sobiq sovet respublikalari tekinxo'r edi, ular hozir ham Moskvaning hisobiga yashashni orzu qilmoqda, degan takabburona mulohazalar bot-bot eshitilib turibdi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik tahlidi haqida fikr yuritganda biz quyidagi xavfni nazarda tutamiz:

Birinchidan. Xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama-qarshilikni keltirib chiqarish.

Ikkinchidan. Xalqaro-huquqiy va ichki davlat suverenitetimizni ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatish.

Uchinchidan. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga, ularni teng huquqli bo'Imagan sharoitga solib qo'yishga urinish.

To'rtinchidan. Mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilish.

Beshinchidan. Agar buyuk davlatchilik shovinizmi bilan ekstremistik millatchilik abadiy hamrohlar

ekani nazarda tutiladigan bo'lsa, u holda millatlar o'rtasida o'zaro ishonchszilikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish;

Oltinchidan. Yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondashuvlarini zo'r lab qabul qildirish, hamma sohalardagi o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlashtirish xavfi.

Ochig'ini aytganda, Rossiya davlat rahbariyati umuman MDHda huquqiy tenglikning zarurligini tushunib yetdi. Biz B. N. Yelsinning: «sobiq Ittifoqni qayta tiklash fojiaga aylanib ketadi», degan fikriga qo'shilamiz. Shu nuqtai nazarga so'zsiz amal qilish bizning davlatlararo munosabatlarimizning asosiy prinsi pidir. Rossiya rahbarining MDH davlatlari o'rtasida o'zaro foydali va teng huquqli munosabatlar o'rnatilishiga aynan ana shunday yondashuvi Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining asosi va poydevori hisoblanadi, kelajakda ham shunday bo'lib qoladi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millat-chilikni tanqid qilgan holda, biz sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi davlatlar, avvalo, Rossiya bilan sifat jihatidan yangi munosabatlarni rivojlantirish taraf-dorimiz. Biz bu mamlakatning real manfaatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, u bilan teng huquqli, chinakam sheriklarcha hamkorlik qilishga tay-yormiz. Chunki bizni bu mamlakat va uning buyuk xalqi bilan ko'p asrlik do'stlik, qardoshlik va o'zaro yordam rishtalari bog'lab turadi.

Gapning sirasini aytganda, Rossiyada imperiyacha fikr yuritishdan voz kechish va O'zbekiston bilan ana

shunday hamkorlikka tayyorlikni izhor etish buyuk qo'shnimiz uchun g'oyat samarali imkoniyatlar olib beradi.

Avvalambor, ochiq ko'rinish turgan bir haqiqatga e'tiborni qaratmoqchiman. Mustaqil va kuchli sherikka ega bo'lish «ukani boqish» yoki «kichik ittifoqchini chegaralab turish»ga qaraganda arzonroq va ishonchliroqdir. Boshqacha aytganda, zaif ittifoqchidan ko'ra kuchli va barqaror sherik bilan ish olib borgan afzalroq.

Ikkinchidan, bir-birimizning manfaatlarimizni hisobga olish va muvozanatda saqlab turishga asoslangan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat mamlakatimizning siyosiy rahbarlaridagina emas, balki butun xalqimizda ham hurmat hissini uyg'otadi. Xalqning ezgu his-tuyg'ulari va munosabati, aytish mumkinki, rossiyalik siyosatchilar bizning mintaqada topishlari mumkin bo'lgan eng yirik kapitaldir. Va aksincha, xalq aksariyat qismining his-tuyg'ulari «nafrat» degan birgina so'zga jamlanganda nimalarga olib kelishi mumkinligini Chechenistondagi mojaro yaqqol eslatib turuvchi vorqin misoldir.

Nihoyat, mintaqaviy qalqon vazifasini bajarishga qodir bo'lган mustaqil, yetarli darajada barqaror davatlarni shakllantirish Rossiyaning jo'g'rofiy-siyosiy manfaatlariga mutlaqo mos tushib, chiqimi ham ancha kam bo'lishini tushunish juda muhimdir. Iqtisodiyoti barqaror bo'lган mintaqasi Rossiya yoki o'zga birorta davlatga tahdid solmaydi. Aksincha, bu hol juda ulkan iqtisodiy va boshqa istiqbollarga yo'l ochadi. Eng muhim — bu mintaqaning hech qachon sivilizatsiyalar

to'qnashadigan joyga aylanmasligiga, balki ular bir-biriga ta'sir etib, bir-birini boyitishning ibratli namunasi bo'lib xizmat qilishiga kafolatdir. O'zbekiston Respublikasi ana shunday olijanob va tarixiy vazifani bajarishga har jihatdan tayyor.

Rossiyada mamlakatlارимиз о'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ana shunday istiqbolini ma'qulla-yotgan odamlar va sog'lom fikrli siyosatchilar tobora ko'paymoqda. Ular kelajagimizni faqat bir-birimizning manfaatlarимизни hisobga olgan holda, teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik asosida tashkil etishimiz zarurligini tushunib yetayotganligi muayyan darajada umid uyg'otmoqda.

ETNIK VA MILLATLARARO ZIDDIYATLAR

Ma'lumki, hozirgi davlatlar asosan ikki turga — polietnik (ko'p elatlari) va monoetnik (bir elatlari) davlatlarga bo'linadi. Aniqlanishicha, sayyoramizda o'zining betakror madaniy va ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lgan 1600 dan ortiq etnik guruh yashaydi.

Dunyoning haqiqiy boyligi, qadriyatlarni o'zaro ayirboshlash, bir-birini boyitish imkoniyati ana shu xilma-xillikdadir.

Ammo hozirgi zamonning hal qilinishi mushkul bo'lgan muammolaridan biri ham unga borib taqaladi. Dunyoda yashayotgan etnoslarning ko'pchiligi o'z milliy davlatchiligiga ega emas. Dunyo siyosiy xaritasida atigi ikki yuzga yaqin davlat borligi ham buning dalilidir.

Bu hol xalqaro hamjamiyat uchun bir ogohlantirish bo'lib xizmat qilmog'i darkor. Zero, etnik o'zligini anglashning o'sishi yana uzoq vaqt davomida hozirgi dunyo siyosiy taraqqiyotining dinamikasini belgilab turadi.

Shu sababli ko'p millatli va ko'p tilli mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlар ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ichki siyosiy ahvolning barqarorligi, milliy xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi ko'p millatli davlatda yashayotgan boshqa millatlar vakillarining siyosiy xayrixohligiga bevosita bog'liq bo'ladi. Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda an'anaviy uyg'-unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p elatlilik omili davlatlarning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag'batlantiruvchi ta'sir etishini ko'rsatuvchi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu mamlakatlarda etnik guruhlar va irqlar o'rtasida ma'lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko'p elatlilik omili ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi to'g'a-noqqa aylanib qolmagan. Aksincha, taraqqiyotning jadallahuviga yordam bergan. Millatlarning va madaniyatnlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-aqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylangan. Shunday qilib, bu mamlakatlarda ko'p elatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning,

fuqarolik jamiyati qurishning ta'sirchan vositasiga aylanib qolgan.

Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elatlari davlatlarda millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi butun-butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiy-siyosiy falokatlarga olib borganini ko'rsatuvchi missollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim davlatlarning, balki butun-butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan.

Ko'p millatli davlatda etnik guruhlar o'rtasidagi va millatlar o'rtasidagi munosabatlari milliy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi ta'sirchan omillardan biri ekanligi aniq bo'la boshladi.

Etnik guruhlar o'rtasidagi va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish sobiq sovet makonida yangi mustaqil milliy davlatlar qaror topayotgan davrda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu munosabatlarning ildizi juda uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi va inson qalbining naqadar teranligini aks ettiradi. Ularning uyg'unligiga erishish hamma vaqt azobli va qiyin kechadi. Bu sohadagi muammolarni hal qilmaslik oqibatlari asrlar osha aks sado beradi.

Ziyaraklik va noziklik bilan yondashishni talab qiladigan bu masala ko'p elatlari davlatlar jumlasiga kiruvchi O'zbekiston Respublikasi uchun juda dolzarbdir. Bu o'lkada asosiy millat — o'zbeklar bilan bir qatorda o'z madaniyati va an'analariga ega bo'lgan yuzdan ortiq millat vakillari istiqomat qilishadi. Ularning mamlakat aholisi umumiy tarkibidagi ulushi 20 foizdan oshib ketadi.

Ijtimoiy va sotsial o'zaro munosabatlar jarayonidagi etnik va millatlararo omillarning o'zi nima? Bizning o'ziga xos sharoitimidza ular xavfsizlikka qaydarajada tahdid solmoqda?

O'zbekistonda va butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni saqlab turish uchun qanday etnik siyosat olib borish kerak?

Markaziy Osiyo aholisining asosiy qismini tashkil etadigan hozirgi tub etnoslar ildizlari o'tmishda vujudga kelgan millatlar sifatida shakllanishning murakkab va o'ziga xos yo'lini bosib o'tgan. Bu sohadagi ayrim ziddiyatli hodisalarga qaramay, aholisi ko'p millatli bo'lган milliy davlatlarning qaror topishidan iborat qaytmas jarayon davom etmoqda.

O'zbekiston aholisining ko'p millatliligi o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda ijamivatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay shartsharoit varatmoqda.

SSSRda kommunistik maskuraning eng muhim maqsadi — aholini baynalmilallashtirish hamda «markaz»ning «sovet xalqi» degan o'ziga xos sotsial birlikni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish chog'ida barcha milliy xususiyatlar asosiy to'siq hisoblangani sir emas.

Kommunistik ideologlar va siyosatchilar bu konsepsiyanı ilgari surar ekanlar, aftidan, odamlarda milliy o'zligini anglash tuyg'usining o'sish jarayonini ataylab tajovuzkor, siyosiy tus berilgan millatchilik bilan almashtirib qo'ygan edilar. Shu tariqa odamlarni qonu-

niy ravishda o'sib borayotgan (va obyektiv sabablarga bog'liq bo'lgan) milliy o'zligini anglash ehtiyojlari-dan chalg'itish maqsadi ko'zlangan edi. Markaz ittifoqdosh respublikalar va milliy chekka o'lkalarda-gi o'z e'tiqodiga ko'ra ilg'or va o'z xalqiga sadoqatli bo'lgan kishilarni «millatchilik»da ayblab, qatag'on qilgandi. U majburan «baynalmilallashtirish», milliy xususiyatlarni yo'q qilish niyatida bo'lgan va o'zining imperiyacha manfaatlariga mos tushuvchi «ko'p millatli» birlikning vujudga kelish jarayonini jadallashtirishga intilgan edi. «Xalqlar va millatlarni yaqinlash-tirish»dan iborat bunday sun'iy jarayon jamiyatdagi «millatchilik» deb atash rasm bo'lgan yashirin va oshkora qarshilik ko'rsatish hollariga olib kelgan edi.

Aslida esa bu — teran milliy qadriyatatlarni, odamlarning o'ziga xos xususiyatlari va an'analarini saqlab qolish vo'lidagi tabiiy intilish, ijtimoiy, ma'naviy va tarixiy taraqqiyotning subyekti bo'lgan millatni saqlab qolishga qaratilgan obyektiv, butunlay asosli ehtivoi edi. Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin — insoniyatning bovligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining vo'q bo'lib ketishi Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlari-ning qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmos'i kerak.

Va bu maqsad, birinchi navbatda, ushbu etnik guruhlarni o'z ichiga oluvchi har bir alohida davlatning vazifasidir.

Ayni mahalda bir millat o'z ehtivojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar

vakillarining xuddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro'vobga chiqarmasligi lozim. Ba'zi millat, etnoslar vakillarining boshqalarga takabburlik bilan, mensimay munosabatda bo'lishi kabi holatlar yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday sharoitga barham berish lozim.

Shu munosabat bilan ko'pincha o'zaro aloqada bo'ilvchi etnik guruhlar va millatlarning manfaatlari va ehtiyojlari bir-biriga mos kelmasligi natijasida yuzaga chiqadigan ziddiyatlar keskin «millatchilik» ko'rinishlarining kuchli omillari bo'lishi mumkinligini aytib o'tmoqchimiz. «Millatchilik» siyosiy tusga kirsa, kuchli salbiy yo'nalish kasb etishi mumkinligini ta'kidlash zarur. Bu davlat va millat xavfsizligiga, mintaqaviy va keng ko'lamdagi xavfsizlikka ancha kuchli tahdidga aylanib ketishi mumkin.

O'tish davrining hozirgi murakkab sharoitlarida milliy o'zligini anglashni qayta tiklashga, tinchlik va millatlararo totuvlikka asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo qilish muammolarini hal etish paytida quyidagi voqeliklarni hisobga olish zarur:

Birinchi. Millatlararo munosabatlar sohasida muayyan, noantagonistik ziddiyatlarning mavjudligi yangi mustaqil davlatlarning qaror topish davri uchun real hodisadir. Milliy manfaatlар va ehtiyojlar bundan buyon fuqarolik jamiyati va demokratik jamiyatning manfaatlari bilan yaqinlasha boradi.

Ikkinchi. Mavjud ziddiyatlar xalqlar va davlatlarning xavfsizligiga tahdid soladigan fojiali oqibatlarga olib boruvchi millatlararo mojarolarga aylanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Uchinchi. Vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, birga istiqomat qilayotgan millatlar tinch-totuv yashashi muqarrarligi va zarurligini, ularning mush-tarak intilish va istaklarini hisobga olish lozim. Bu esa davlatning aniq maqsadga qaratilgan tegishli etnik siyosati hamda jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali ifodalanishi kerak.

O'zbekistonda va Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo munosabatlarga xavf solinmoqdami?

Agar vaziyatni xolis baholaydigan bo'lsak, moja-roli vaziyatlarning yuzaga kelishi uchun zamin mavjud. U Markaziy Osiyodagi respublikalarning hududiy-ma'muriy chegaralarini vujudga keltirish sohasida, Rossiya imperiyasi olib borgan va Sovet hokimiyati davom ettirgan siyosat oqibatlariga borib taqaladi.

Qadimdan Turkistonda qabila va xalqlar aralash joylashgan bo'lib, bunga mushtarak madaniyatları va tillari tufayli chambarchas bog'liq bo'lган odamlarning vohalarda yashaganliklari va ko'chmanchi hayot kechirganliklari sabab bo'lган. Mintaqaning etnik xaritasi bunday rang-barang bo'lishiga unda yashaydigan xalqlarning etnomadaniy va diniy yaqinligi ham yordam bergen.

Chor Rossiyasi, so'ngra esa Sovet davlatining aniq maqsadga qaratilgan migratsiya siyosati Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining polietnik tarkibi yanada xilma-xil bo'lishiga olib keldi.

Hozirgi kunda sovet tuzumidan keyingi Markaziy Osiyo davlatlari hududida 100 dan ortiq millat va elat yashamoqda. Qariyb yigirma millat vakillari mintaqaga Stalin qatag'onlari natijasida surgun qilib ko'chirilganlar sifatida kelib qolganlar.

Mintaqadagi etnik-nufus vaziyati ham tahdid omilidir. Markaziy Osiyoda bu vaziyat doimo o'zgarib turgan. Turli davrlarda unga mustamlakaga aylantirish, 20—30-yillardagi sanoatlashtirish, xalqlarni deportatsiya qilish va majburiy ko'chirish, urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatgan.

Bularning hammasi yangi mustaqil davlatlarga meros bo'lib qoldi. Shu tufayli millatlararo va elatlar ichidagi o'zaro aloqalar muammolari strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda va mintaqada davlatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yishda alohida e'tibor berishni talab qilmoqda.

Hozirgi vaqtida Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni saqlab turish jarayonida etnik va millatlararo omillarning ahamiyati ortib borayotganligi bir qancha g'oyat muhim jihatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Bizning nazarimizda, bulardan eng muhimlari quyidagilardir:

Birinchi. Tarkib topgan davlat chegaralarini, ularning daxlsizligini tan olish har bir davlat tashqi siyosatining konstitutsiyaviy qoidasi, suverenitetni ta'minlashning hamda siyosiy va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashning asosiy sharti bo'lmog'i lozim.

Ikkinchi. Mintaqadagi xalqlar milliy o'zligini anglashining rivojlanishi 1991 yildan keyin orqaga qaytmaydigan progressiv jarayon tusini oldi. Ularning ko'plari millat sifatida uzil-kesil shakllandi. Bu millatlararo munosabatlar jarayonida juda muhimdir.

Uchinchi. Mintaqada yashayotgan xalqlarning jo'g'rofiy, etnomadaniy va ijtimoiy-diniy yaqinligi

millatlararo muloqot va davlatlararo tashqi-siyosiy va savdo-iqtisodiy munosabatlarning ijobiy jihatni sifatida maydonga chiqmoqda.

To‘rtinchi. Xususan O‘zbekistonda «Turkiston — umumiy uyimiz» harakati doirasida amalga oshirilayotgan etnik siyosat o‘zining yo‘nalishi va mazmuniga ko‘ra insonparvar, konstruktiv jarayondir. Chunki u mintaqada millatlararo totuvlikka erishish maqsadini ko‘zlaydi. Shubhasiz, bu siyosat Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning asosiy davlat strategik va milliy manfaatlariga to‘la-to‘kis mos tushadi. Zotan, «Turkiston» deganda azaldan faqat kelib chiqishi turkiy bo‘lgan xalqlargina emas, balki o‘lkaning hamma aholisi nazarda tutiladi.

Beshinchi. Mintaqadagi integratsiya jarayonlari ham barcha xalqlar va butun ko‘p millatli aholining davlat va milliy manfaatlarini eng maqbul darajada uyg‘unlashtirishga asoslangan holda rivojlanishi darkor.

Shu bilan birga, Markaziy Osivoning bir xalqini boshqasiga qarama-qarshi qo‘vish, milliy ustunlik mavjudligi to‘g‘risidagi afsonalarni tarqatish yo‘lidagi har qanday urinishlarning oldini olish lozim. Holbuki, ham mintaqadagi, ham chet eldagisi ba’zi mas’uliyatsiz, kaltabin va kibru havoga berilgan siyosiy arboblar ana shunday harakatlarni sodir etmoqdalar. Bunday urinishlar qanday bahonalar bilan niqoblanmasin, ular faqat mintaqadagi fuqarolar tinchligini va mintaqalararo totuvlikni jiddiy buzishgagina xizmat qiladi, xolos. Bu hol nimalarga olib kelishi mumkinligini sobiq Yugoslaviya, Tog‘li Qorabog‘ va boshqa ko‘p millatli mamlakatlardagi fojiali voqealar ko‘rsa-

tib turibdi. Afsuski, bizning o'zimiz ham bu sohada achchiq tajribaga egamiz. O'shanda ayrim ekstremistik kayfiyatdagi guruhlar sal bo'lmasa odamlarning millatlararo negizda to'qnashuvini va qaramaqarshiligini keltirib chiqarayozgan edi. Baxtimizga o'zbek xalqiga xos aqli rasolik, donolik, insonparvarlik va bag'ri kenglik ana shunday guruhlarning manfaatlardan ustun chiqdi, ekstremizm yo'lida qudratli to'siq bo'ldi.

Markaziy Osiyo davlatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarning mazmuni va sur'atlaridagi ayrim farqlar ham millatlar va elatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi o'z-o'zidan ayon. Bu hol etnik siyosatni yetarli darajada puxta o'ylab amalga oshirishni talab qiladi. Shunisi quvonarlichi, mintaqadagi hamma davlatlar millatidan qat'i nazar, fuqarolarning huquqlarini ta'minlash hamda bu mamlakatlarda yashayotgan xalqlarning milliy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan o'zaro majburiyatlar olgan.

O'zbekistonning ko'p millatli tarkibi uning madaniy o'ziga xosligini, qulay va boy imkoniyatlarini belgilab beradi. Bu imkoniyatlar, bizning nuqtai nazаримизга ko'ra, quyidagilardir:

birinchidan, mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitlari, tarixiy-madaniy tajribaning bu yerda yashayotgan odamlar hayotiga ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi;

ikkinchidan, mintaqaning qo'shni davlatlar chegara hududlariga yaqinligi bilan izohlanadi. Bu hol madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishiga va ko'p tillilik

vujudga kelib, aholi bir necha tillarni erkin bilishiga yordam beradi;

uchinchidan, ijtimoiy va sotsial munosabatlar — oilaviy, hududiy va boshqa munosabatlarni tashkil etishning tarixan tarkib topgan shakllari bilan izohlanadi;

to‘rtinchidan, Markaziy Osiyoning tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan kengfe’llikning mavjudligi bilan izohlanadi. Bu sof insoniy tuyg‘u, masalan, o‘zbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-ma’naviy kengfe’llik ularning umumiy mada-niyati va ruhiyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan.

Og‘ir sinov yillarda, urushlar va Stalin qatag‘-onlari davrida O‘zbekiston hududiga kelib qolgan ayrim kishilar, oilalar, hatto butun-butun xalqlarni ham qurshab olgan iliq munosabat, samimiyat va g‘amxo‘rlik, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan bag‘rikenglik, insoniy mehribonlik va o‘zgalar qayg‘usiga sherik bo‘lish, ochiqko‘ngillilik va mehmondo‘stlikning yorqin namoyishi bo‘ldi.

O‘zbeklar qiyinchilik yillarda o‘zlari yemay, bolalariga yedirib-ichirmay, mutlaqo begona, ammo yordamga muhtoj odamlar bilan topganlarini baham ko‘rdilar. O‘sha og‘ir yillarda turli millatlarga mansub bir emas, o‘nlab yetim bolalar shundoq ham ko‘p bolali o‘zbek oilalarida yangi ota-onalarni orttirdilar, ota va ona mehriga qondilar. Butun bir xalq ana shunday yuksak olijanoblik va ma’naviy fazilatlarni namoyish etganligi haqidagi misollar tarixda kam topiladi.

O‘zbekiston o‘z tarixida ana shunday sahifalar bo‘lganligi va hozir ham borligi bilan faxrlanadi. Xal-

qimiz va davlatimizning tarixiy xotirasida antisemitizm, irqchilik va o'zga millatga, o'zga xalqqa mensimasdan, hurmatsizlarcha munosabatning boshqacha shakllari namoyon bo'lgan sharmandali sahifalar yo'qligi bilan faxrlanadi.

O'tish davrining dastlabki bosqichlarida demokratik va sivosiy islohotlarning borishini umumiy baholab, avtish mumkinki, O'zbekiston bu masalaga alohida yondashmoqda. Davlatni barpo etishdagi bizning o'ziga xos yo'limiz hududimizda tarixan tarkib topgan ko'p millatli jamiyat tizimini saqlab qolish va mustahkamlash hamda ana shu omildan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishdan iborat pirovard maqsadni ko'zlovchi vazifalarni amalga oshirish g'oyasiga asoslanadi.

Hozirgi vaqtida milliy va boshqa ijtimoiy harakatlar, shu jumladan yoshlar harakati, madaniy, diniy harakatlar qayta jonlanmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi havoyilikdan real voqelikka, iqtisodiy va siyosiy vaziyatni jiddiy baholashga o'tilmoqda. Bu esa mazkur harakatlarni o'zлari olg'a surayotgan qat'iy va keskin talablar, shartlarni qayta ko'rib chiqishga hamda ulardan voz kechishga, g'oyaviy va tashkiliy jihatdan o'zlarini qayta qurib, kibr-havoga asoslangan, olomonbop, tor siyosiy manfaatlarni yengishga majbur qilmoqda.

O'zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlab qolishga O'zbekiston fuqarolarining teng huquqliligi bilan bog'liq hamma muammolarni hal etadigan qonunchilik bazasi yordam bermoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutesiyasida: «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», — deb ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasining hamma fuqarolariiga «ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeい, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar» teng saylov huquqini beradi.

O'zbekiston hududida yashaydigan etnik ozchilikning huquqlarini himoya qilish davlat konsepsiysi O'zbekiston Konstitutsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Unda aytilganidek, «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

Shu munosabat bilan milliy uyg'onish jarayonlari faqat o'zbeklar orasidagina kechib qolmayotganligini ta'kidlash lozim. O'zbekistonda yashavotgan boshqa millatlarning vakillari orasida ham etnik-madaniy asoslarda jiplashish jarayonlari faol yuz bermoqda.

1989 yoldayoq jamoat tashkilotlari — milliy-madaniy markazlar tuzila boshlagan edi. Hozir respublikada 80 dan ortiq markaz ishlab turibdi. Ular O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobiy rol o'yynamoqda. Xalqning birligi, jiqligi va osovishitaligi haqida gapirar ekanmiz, bu — bizning bebaho boyligimiz, deva ta'kidlaymiz.

Bizning jamiyatimiz etnik guruhlar va millatlar o'rtasida shu hududda yashaydigan har qanday odamga o'zini erkin va teng huquqli deb his qilish imkonini beradigan o'zaro munosabatlar o'rnatilishiga intilmoqda.

Har qanday millatning, shu jumladan o'zbek millatining ham birligi uning boshqa suveren davatlarda, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashayotgan o'z etnik qardoshlari bilan yaqindan munosabatda bo'lishini ham nazarda tutadi.

Statistika ma'lumotlarining tasdiqlashicha, hozirgi kunda anchagina o'zbeklar O'zbekistondan tashqarida yashamoqdalar. Masalan, Tojikistonda jami aholining 24,4 foizini, Qirg'izistonda — 13,8 foizini, Turkmanistonda — 9,0, Qozog'istonda — 2,5 foizini o'zbeklar tashkil etadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Markaziy Osiyoning suveren davlatlari o'rtasida chuqur, har tomonlama o'zaro aloqalar o'rnatish va mintaqada mustahkam xavfsizlik tarafidoridir. Integratsiyaning ijobiy natijalari millatlar o'rtasidagi muloqotga va mintaqaviy xavfsizlikka yordam beradi.

«Turkiston — umumiyligimiz» g'oyasiga asoslangan o'zaro munosabatlar konsepsiyasini ilgari surar ekanmiz, mintaqada ham, unga kiradigan ayrim davatlarda ham insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibga solinishini istaymiz.

Nihoyat, O'zbekistonning milliy siyosatini amalga oshirgan vaqtida millatlararo munosabatlar jarayonida milliy va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soladigan mojaroli vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik uchun qanday asosiy qoidalarga amal qilishimiz kerak? — degan savolni o'zimizga berib ko'raylik.

Birinchidan, davlatning etnik siyosati shaxs huquqlarini himoya qilishning ustuvor bo‘lishiga asoslanishi darkor, shuningdek, milliy ozchilikning huquqlari ham kansitilmasligi shart.

Ikkinchidan, davlatning etnik siyosatidagi bosh yo‘l millatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi lozim.

Uchinchidan, jamiyatimizning bozor munosabatlariiga asoslanadigan iqtisodiy taraqqiyoti odamlarni ijtimoiy himoyalashning kuchli mexanizmini ta‘minlagan holda respublika hududida yashayotgan barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mosdir. Bu taraqqiyot har bir odamning qobiliyati va iqtidorini ro‘yobga chiqarish, har bir oilani rivojlantirish va farovonligini oshirish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Shunday qilib, har qanday davlatning polietnikligi etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning etnoslar o‘rtasida o‘zaro tabiiy munosabat o‘rnatalishiga tayanadigan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon mayjud bo‘lishini nazarda tutadi. Bu hol, davlatning va mintaqaning xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan etnik va millatlararo mojarolar kelib chiqqudek bo‘lsa, ularning oldini olish maqsadida mazkur jarayonlarni muntazam ravishda ijtimoiy tahlil etib borishni zarur qilib qo‘yadi.

KORRUPSIYA VA JINOYATCHILIK

Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o‘tish, afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch

hodisa bilan birga yuz bergen. Shu bilan birga, jinoyatchilikning o'sishi nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq, balki o'tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham qarshi bevosita tahdid tug'diradi.

Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari singari O'zbekiston Respublikasi ham bundan xoli emas. Korrupsiyaga va jinoyatchilikka qarshi kurash muammo-lariga bizdagi qiziqish aslo bejiz emas. Albatta, bu borada keng tarqalgan va umum e'tirof etilgan bir fikrni, ya'ni totalitarizmdan demokratiya va bozor munosabat-lariga o'tishdek murakkab davr mohiyatan asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmalarni sindirib tashlashni anglatadi, bu esa axloq-odob me'yorlariga salbiy ta'sir etadi va jinoyatchilik hamda korrupsiya muqarrar ravishda kuchayadi, degan xulosani eslatib o'tish mumkin. Le-kin bu hodisalar davlatimizning xavfsizligi, barqarorli-gi va pirovardida yosh istiqlolimizga qanday tahdid solishini chuqur tushunish uchun, aftidan, birgina shu ta'rifning o'zi kamlik qiladi.

Qanchalik qayg'uli tuyulmasin, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo'lgan. Biroq o'tish davrida uning mazmuni faqat jinoiy qilmish doirasi bilangina cheklanib qolmaydi. Yangi mustaqil davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali amalda mulkni qayta taqsimlash jarayoni yuz bermoqda. Ayni shu hol islohotlarning mohiyatini belgilaydi. Av-valgi tuzumda davlat tomonidan tortib olingan boylik endilikda uni yaratgan va o'z mehnati bilan ko'payti-rayotganlarga tegishli bo'lishi lozim. Qayta taqsimlash-ning mohiyati shundadir.

Har bir mamlakat bu jarayonning shakllari va sur'atlarini mustaqil belgilamoqda. Uni jinoyatchilar

dunyosining halokatli ta'siridan himoya qilishga intilmoqda. Bu o'rinda gap o'g'irlik, talon-toroj, odam o'ldirish va shaxsga nisbatan zo'ravonlik qilish kabi jinoyatlar ustidagina borayotgani yo'q. O'tish davrida yangi iqtisodiy mexanizmlar shakllantirilayotgan bir paytda aholining asosiy ko'pchiligi bozor sharoitida yashashni endigina o'rganayotganligidan va uning obyektiv qonunlarini payqay boshlaganligidan foydalanib, amalga oshirilayotgan iqtisodiy jinoyatlar toifasi katta xavf tug'diradi.

Jinoyatchi unsurlarning yangi xo'jalik munosabatlari tizimini shakllantirish jarayonida faol va xufyona ishtirok etishi jamiyatda axloqsizlik vaziyatini tug'diradi. Bu esa mamlakat uchun ham, jahon hamjamiyati uchun ham nomaqbul jinoiy bozor iqtisodiyotining alohida turi shakllanishiga olib keladi.

Jinoiy yoki ko'p hollarda «xufyona» deb atala-yotgan, iqtisodiyot voqelik sifatida quyidagicha sharoitda o'sdi va rivojlandi: u ishlab chiqarish sohasidagi qonunlarni qo'pol ravishda buzib, o'ziga xon — o'ziga bek bo'lib olgan edi. Chunki unga eng yaqin raqobatchi bo'lган davlatning iqtisodiy tuzilmalari qotib qolgan ko'rsatmalar va taqiqilar bilan cheklab qo'yilgan edi. Sovet davrida bu hodisa haddan tashqari kuchaydi, xunuk holga keldi va O'zbekistonga meros bo'lib qoldi.

Jamiyatda jinoiy «xufyona iqtisodiyot»ning mavjud bo'lishi uyushgan jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Davlat hokimiyati tuzilmalarining turli bo'g'inxilar va turli darajalari vakillari ham uning yo'ldan ozdiruvchi ta'siriga tushib qoladi. Korrupsiya vujudga kelib, u eng avvalo uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo'lish

yoki to'g'ridan-to'g'ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu esa jinovatchilik va korrupsiya jamiyatga keltiradigan salbiy oqibatlar tufayli jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdiddir.

Mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog'i darkor. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuchg'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to'la-to'kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, jinoyatchilik va korrupsiya yo'liga o'z vaqtida zarur to'siq qo'yilmasa, bu illatlar qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab yetmog'i lozim.

Tarixiy tajriba va hozirgi amaliyot, shu jumladan ba'zi yangi mustaqil davlatlardagi voqelik korrupsiya va jinoyatchilik xavfsizlikka soladigan tahdidni yaqqol tasavvur etish imkonini bermoqda.

Birinchidan, siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko'rsatish ifodasidir. Unda o'z umrini yashab bo'lgan, yangi iqtisodiy munosabatlarni o'ziga qarshi tahdid deb bilgan holda, ularning rivojlanishini sekinlashtirib qo'yishga harakat qiladigan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bilan «xufyona» iqtisodiyotning manfaatlari obyektiv ravishda birlashib ketadi. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadlarini va urug'-aymoqlarning manfaatlarini davlat manfaat-

laridan ustun qo'yadi. Bu esa, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy yo'liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi. Bundan tashqari, yangi iqtisodiy munosabatlarga endigina asos solinayotgan va sifat jihatidan boshqa siyosiy tizim shakllantirilayotgan o'tish davrida korrupsiya o'z xattiharakati bilan bu jarayonning yo'lini to'sib qo'yish imkoniga ega.

Ikkinchidan, jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarni yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. «Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o'tishdir» degan mutlaqo yaramas qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo'lishiga olib boradi. Basharti iqtisodiyotda jinoiy guruuhlar va "reketchilar" to'dalari «bazm qursa», ko'chalarda esa odamlar qo'rqqanlaridan tasodifiy o'tkinchilardan qochib yursalar, jamiyatdagi barqarorlik va sobitqadamlik haqida gap bo'lishi mumkinmi?

Uchinchidan, jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarni yemiradi. Jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqeini yo'qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g'oyasining o'zini obro'sizlantiradi va eski zamonlarni, shu jumladan «qudratli markazning kuchli qo'li»ni qo'msash hissini tug'diradi.

O'tish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa, yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning

asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishi va qaror topishi mumkin. Qing'ir yo'l bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazaratning e'tiboridan chetda qolsa, odamlarni, ayniqsa, hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarni yomon yo'lga og'diradi. Axir, jamiyat va davlat uchun yosh avlodning axloqan buzilishi va yuztuban ketishidan ham ayanchliroq, halokatliroq hol bormi o'zi?

To'rtinchidan, «pul hokimiyatga intiladi», degan bir ibora bor. Lekin bu pul jinoiy yo'l bilan topilgan bo'lsa-yu, uning egalari jamiyatning hokimiyat tuzilmalariga chiqib olsalar, ular qanday usullar bilan boshqarishlarini tasavvur qilish qiyin emas.

Jinoyat olamining nufuzli shaxslari hokimiyatga qanday yo'llar bilan kirib olishi yaxshi ma'lum va ko'p mamlakatlarda sinovdan o'tgan. Avvaliga bu ish nopol daromad manbalarini saqlab qolish, ulardan kafolatli foydalanish maqsadida hokimiyat tuzilmalari bilan aloqa bog'lash va bu aloqani mustahkamlashdan boshlanadi. Shundan so'ng hokimiyatning o'zi ham qo'lga kiritiladi.

Hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biridir. Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o'zini obro'sizlantiradi. Mamlakat ichkarisida ham, tashqarisida ham unga ishonchszlik ortib boradi.

Beshinchidan, nopol yo'l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o'zlarining jinoiy sarmoyalarini himoya qilish uchun har qanday xatti-harakatlarga tayyor turishlarini yaxshi bilib olish lozim. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo'rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar. Bunday paytda ehtiroslarni junbushga keltirish, olomonni qo'zg'atish va uning orqasiga yashirinib olishdan qulayi yo'q. Bunday odamlarning «Faqat bizga yaxshi bo'lsa, ishimiz bitsa — bo'lgani» qabilidagi maslagi xudbinlikning, hamyurtlariga nisbatan surbetlarcha loqaydlikning yaqqol ko'rinishidir.

Oltinchidan, jinoiy usullar bilan boylik va mo'may pul orttirgan kimsalarning yangi huquq himovachilari va hatto demokratiya uchun jafo chekkan kurashchilar sifatida siyosatga kirib olishga harakat qilavotganidan dalolat beruvchi misollar, jumladan, bizda ham oz emas.

Ular bunday xatti-harakatlari bilan insoniyatning adolat va demokratiya kabi oljanob ideallariga naqadar jiddiy zarar yetkazayotganlarini, o'z xalqlari va mamlakatlari sha'niga dog' tushirayotganlarini aytib o'tirishning hojati bormikin? Nafsilamrini aytganda, ular o'z xalqlari va mamlakatlarining taqdiriga, ozodlik va mustaqillik ideallariga mutlaqo befarq qaraydilar.

Bunday shaxslarning turish-turmushi ketma-ket qilingan jinoiy xatti-harakatlar zanjiridan iboratdir. Avvaliga o'z xalqini aldab kapital to'planadi, keyingi gal — demokratiya va adolatni ro'kach qilgan holda

jamoatchilik fikrini aldab, siyosiy obro' orttiriladi. Sir emaski, bunday shaxslar o'z manfaatlari yo'lida respublikadagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga urinayotgan tashqi kuchlarga xizmat qilishga hamisha tayyor turadilar. Shunday qilib, ular kelasi gal qanday aldonvi ishga soladilar? — degan mantiqiy savol tug'iladi.

Yettinchidan, jahon xo'jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o'zgarishlar jarayoniga tortish sohasidagi aniq maqsadga qaratilgan faoliyat bugun O'zbekiston uchun ustuvor vazifalar hisoblanadi. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish sharoitida korrupsiyachilarning xattiharakatlari nafaqat mamlakatimizning halol fuqarolarini tadbirkorlikdan chetlatadi, balki chet ellik sheriylarda ishonchsizlik uyg'otadi va ularni cho'chitib qo'yadi.

Natijada mamlakat g'oyat muhim kapital mablag'lar manbaidan, texnologiyalar va tajribadan, jahon iqtisodiy tizimining sog'lom, «sof» qismiga qo'shilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Bunday mamlakat xalqaro xufiya va jinoiy tuzilmalar tobora ko'proq qiziqadigan va faol ish olib boradigan makon bo'lib qoladi.

Borgan sari uyushib va professional tus olib borayotgan hozirgi jinoyatchilikning ji'pslashishi, jinoiy guruhlar tomonidan iste'mol bozorlarining butkul egallab olinishi, qonunsiz ravishda qo'lga kiritilgan kapitallarning xo'jalik va tijorat tuzilmalari orqali qonuniylashtirib olinishi yaqqol ko'zga tashlanavotganligi ham juda xavflidir.

O'zbekistonda, shubhasiz, jinoyatchilikning sabablarini aniqlash choralari ko'rilmoxda, fosh etilgan

korrupsiyachilar qattiq jazolanmoqda. Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi. Jinoyatchilik keng avj olib ketishiga va korrupsiyachilar domiga ilingan amaldorlarning beboshligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishga solingan. Ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab beradi.

Bu strategiya doirasidagi qanday yo'nalishlar ustuvor hamda jamiyatimizning tushunishi va madadiga muhtoj?

Eng avvalo, iqtisodiy choralar ko'riliши lozim. Jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashning mantiqi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish yo'lidan yanada izchil borishni, halol tadbirkorlik uchun chinakam erkinlikni ta'minlash ba'zan uning yo'lida saqlanib qolayotgan ko'plab byurokratik sansalorliklar va to'siqlarni bartaraf etishni talab qiladi.

O'zbekistonda butun huquq va sud tizimini takomillashtirish dasturini mamlakat ichidagi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kuchli chora deb hisoblamoq darkor. Bir tomondan, Qonunning mutlaq ustunligi va fuqarolarning huquqlari kafolatli himoya qilinishi ushbu dasturning maqsadi bo'lishi lozim. Ikkinci tomondan, mamlakat aholisini va ayniqsa yoshlarni huquqiy tarbiyalashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish nihoyatda zarur.

Fuqarolarimizning huquqbazarlikka qarshi ichki imkoniyatlari va yuksak darajadagi axloqi jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatga olib kiradigan yemirilishdan eng yaxshi himoyadir. Oilada, maktabda, mehnat

jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya, jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruhonivlarning obro'-c'tibori — hamma-hammasi odamlarimizda Qonun buzilishi bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlarga nisbatan bargaror qarshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim.

Nihoyat, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi murosasizlik va umumiy qoralash muhitini vujudga keltirish juda muhimdir. Jinoyatchilar, korrupsiya dunyosi hammadan ham o'z kirdikorlarining oshkor bo'lishidan qo'rqadi. Shu sababli biz matbuotimiz va boshqa ommaviy axborot vositalarimiz o'zining erkinlashish jarayonida jinoyatchilikka qarshi kurash dasturiga yanada muhimroq hissa qo'shami, deb kutishga haqlimiz.

Jinoyatchilikdek murakkab hodisani tahlil qilar ekanmiz, ushbu muammoning boshqa tomonini ham nazarda tutmog'imiz kerak. Bu muammoning mazmunini bitta jumla bilan ifodalash mumkin — jinoyatchilar dunyosi chegara bilmaydi.

Yengil yo'l bilan juda katta boylik orttirish sharpasi turli mamlakatlardagi jinoyatchi unsurlarning birlashishiga, xalqaro jinoiy hamjamiyatlar paydo bo'lishiga olib kelishini ko'rsatuvchi misollar butun dunyo amaliyotida yetarli. Ularning faoliyat sohasi barchaga ma'lum: u nopol pul topish imkonini bo'lgan hamma joyda qo'llaniladi.

Narkotik moddalar ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish. Ushbu jinoiy biznes yaratib beradigan juda katta boylik orttirish imkoniyatlari uning ishtirokchilarini xalqaro huquq normalari bilan ham,

milliy qonunlar majmui bilan ham, ayniqsa, «oq ajal»ning halokatli oqibatlari bilan ham hisoblashmay, hamma ishni qilishga majbur etmoqda.

Yashirincha qurol sotish. Bu «biznes» ham mintaqaviy mojarolar va mahalliy urushlarning to'sto'polonidan foydalanib qoluvchilarga katta daromad keltirmoqda. Bunday korchalonlar uchun qurolli qarama-qarshilikni davom ettirish va keskinlikni saqlab turish qurol-yarog'larning yashirin bozorini kengaytirish uchun eng yaxshi shart-sharoit ekanligini yana bir bor ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak.

Yashirincha qurol sotish xalqaro terrorizm deb atalmish jinoiy hodisa bilan birga yuradi, ba'zan esa uni keltirib ham chiqaradi. O'zgalar qonini to'kish hisobiga mo'may daromad olishni istovchilar batamom yo'q bo'lib ketadigan zamonlar kelishiga hali ancha borga o'xshaydi. Bu toifaga kiruvchi «bizneschilar» uchun qon va noplak siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko'rish mumkin bo'ladigan mojarolarni rag'batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo'ladi.

Nihoyat, xalqaro jinoyatlarning yana bir turi SSSR parchalanib ketganidan keyin ayniqsa rivojlandi. U ayrim tuzumlar va tashkilotlarning ikkiyoqlama foydalanishga mo'ljallangan texnologiyalarni hamda energiya manbalarini qo'lga kiritishga intilishi bilan bog'liqdir. Ommaviy qirg'in qurolini ishlab chiqarishga mo'ljallangan texnologiyalar siyosiy va hatto jinovatchi vosvoslar qo'liga tushib qolishi mumkinligidan kelib chiqadigan oqibatlarni tasavvur qilishning o'zi dahshatli.

Xalqaro jinoyatchilikning shu kabi barcha turlari nafaqat alohida olingen bitta mamlakatga real tahdid solmoqda, balki keng ko'lamdagi xavfsizlikni saqlab turish istiqbollarini ham shubha ostida qoldirmoqda. Biz, O'zbekiston jamoatchiligi, Markaziy Osiyo mintaqasi ana shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqaro jinoyatchi uyushmalar uchun "shirin luqma" ekanligini yaxshi tushunamiz. Bu mintaqa jahon kommunikatsiyalari tutashgan joy bo'lib, undan narkotik moddalar bilan savdo qiluvchi korchalonlar foydalanmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Mintaqada qonli mojarolar davom etmoqda, unda shu qadar ko'p qurol-aslaha to'planganki, bu hol qurol bilan yashirinchal Savdo qiluvchilar va Markaziy Osiyoni xalqaro terrorchilarni sinovdan o'tkazib oladigan maydon deb hisoblaydiganlarning juda havasini kel-tirmoqda. Mintaqada katta miqdorda zaxiralar, shu jumladan parchalanish xossasiga ega bo'lgan manbalar ham to'plangan. Yuksak texnologiyali, shu jumladan ikkiyoqlama foydalaniadigan texnologiyali ishlab chiqarishlar mavjud. Bu hol unga halol tadbirkorlarninggina emas, shu bilan birga yirik jinoyatchi birlashmalarning ham qiziqishini orttirishi shubhasiz.

Shunday qilib, jinoyatchilik, korrupsiya bizning o'z xavfsizligimizga ham, xalqaro xavfsizlikka ham tahdid soluvchi real manbadir. Binobarin, mazkur hodisaga qarshi kurash masalalari birgina bizga taalluqli emas. Shuning uchun ham biz jinoyatchilik haqida butun jahon hamjamiyati qayg'urmog'i lozim, deb hisoblaymiz. Suveren O'zbekiston xalqi va rahbariyati esa ular bilan faol hamkorlik qilishga tayyor va buni

dunyoni poklash, uning xavfsizligini ta'minlash ishiga qo'shilgan hissa, deb biladi.

MAHALLIYCHILIK VA URUG'- AYMOQCHILIK MUNOSABATLARI

Ko'pchilik lug'atlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, urug'-aymoqchilik feodal jamiyatlarga xos hodisadir. Bu — qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan odamlarning birligidir. Urug' jamoasi o'z boshlig'ining nomi bilan atalardi. U esa a'zolari uchun eng obro'li odam hisoblanar, urug'ning manfaatlarini jamoasining nisbatan mahdud olamidan tashqarida ifodalar edi. Aynan urug'-aymoq o'z a'zolarini himoya etar, ularga homiylik qilar va yordam berar edi.

Zamonlar o'tdi, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashdi, odamlar o'rtasidagi munosabatlar o'zgardi. O'zgardi-yu, ammo izsiz yo'qolib ketmadi. Ba'zan tog' jinslarida qadimgi o'simlikning arang ilg'ash mumkin bo'lgan izlari ko'rinish qolganidek, hozirgi jamiyatda, uning ijtimoiy-madaniy hodisalarida ham uzoq o'tmishning aniq izlari namoyon bo'ladi. Urug' jamoalari ham shunday hodisalar sirasiga kiradi.

Bugungi dunyoda haqiqiy ma'nodagi urug'-aymoqqa bo'lingan jamiyatni topish mushkul bo'lsa kerak. Lekin ba'zan u shakli o'zgargan, «yangilangan» holda mavjud bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda qondoshlik rishtalari hozir unchalik kuchli emas. Biroq ular o'rniga boshqa mushtaraklik, boshqa birlikning rishtalari, jumladan, yurtdoshlik, hududiy yaqinlik rishtalari vujudga keldi. U yoki bu joydan chiqqan, o'sha joyning hududidan tashqarida, mamlakatning boshqa yerlarida o'rnashib qolgan kishilar o'z yurtdoshlariga yordam bersalar,

buning nimasi yomon, degan savol tug'ilishi ham mumkin.

Ma'lum bir darajada qarindosh-urug'chilik bilan bog'langan odamlarning bir-birlariga madad berishlari ham mutlaqo tabiiy bo'lib ko'rindi. Lekin qarindosh-urug'chilik, hududiy yoki etnik prinsiplar asosida daylat tuzilmalarida yoki boshqa tuzilmalarda tor guruhchilik manfaatlari bilan ish ko'radigan, aynan shu manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yadigan uyushmalar (ko'pincha norasmiy uyushmalar) umumiy ishga, umum davlat, umumxalq manfaatlari zarar keltirgan holda shakllanib, o'z maqsadlariga erishish uchun a'zolarni maviud davlat, hokimiyat va boshqa pog'onalarida yuqori ko'tarishga harakat qilar ekan, bu hol xavfli bo'lib qoladi. Ana shunda jamiatning barqarorligi va xavfsizligiga real tahdid soluvchi mahalliychilik va urug'-aymoqchilik haqida gapirishga to'g'ri keladi.

Hozircha bu hodisalar jiddiy va chuqur tahlil qilingan emas. Ularni o'z taraqqiyotidan orqada qolayotgan yoki murakkab o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarninggina muhim xususiyati deb hisoblab bo'lmaydi. Bunga sanoati rivojlangan G'arb mamlakatlari ham giriftor bo'lgan. Mahalliychilik va urug'-aymoqchilikni, tor doirada, etnik-mintaqaviy fikr yuritishning ko'rinishi deb hisoblash mumkin. Bunda dunyoning butun xilma-xilligi, murakkabligi va o'zaro bog'liqligi bir hudud, bir etnos, bir katta oiladan iborat qilib qo'yiladi.

Bu hodisalar yashovchanligining, hozirgi sharoitda ular muttasil o'z-o'zidan paydo bo'lib turishining

sabablari nimada va ular bizning mintaqamiz sharoitlarida qanday namoyon bo'limoqda?

Davlat tuzilmalarida urug'-aymoq va yurtdoshlar guruhlari etnik belgi asosida shakllanadi. Urug'-aymoqchilikning maqsadi — o'z a'zolarini davlat hokimiyati pillapoyalaridan mumkin qadar yuqori ko'tarishdan iborat. Urug'-aymoqchilikni ajratib turuvchi belgi — uning a'zolarining bir joyda tug'ilganligidir. Shuni nazarda tutish kerakki, mashg'ulot turlarining umumiyligi, ma'naviy manfaatlar, dunyo-qarashlarning mushtarakligi emas, balki aynan tug'ilgan joyning umumiyligi asosiy belgidir.

Mintaqaviy o'zligini anglash, boshqacha aytganda, odamlarning faqat o'zлari tug'ilib o'sgan joy orqali o'zlarini idrok etishi, aslini olganda, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik uchun etnik-ijtimoiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Ayonki, hozirgi vaqtida Markaziy Osiyoning ba'zi joylarida milliy o'zligini anglashdan ko'ra, mintaqaviy o'zligini anglash ustunlik qilyapti, deyish uchun ancha salmoqli asoslar saqlanib qolmoqda.

Bunday vaziyat ko'p jihatdan etnik birlikning eng yuqori shakli bo'lgan millatning mohiyatini tashkil etuvchi belgilar shakllanishi jarayonida etnik jihatdan ji psplashishni boshidan kechirayotgan xalqlar uchun xos ekanligini aytib o'tish joiz.

Ayrim mamlakatlardagi etnik-ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish etnik jihatdan rang-baranglik hozir ham mavjudligini, bunda bir xalqning ichida faqat shevasi bo'yicha emas, balki jamiyatni iqtisodiy tashkil etish va madaniyat belgilari bo'yicha ham turlicha bo'lgan

alohida guruhlar ajralib turishini ko'rsatmoqda. Binobarin, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik voqe' bo'lishi uchun obyektiv sharoit saqlanib qolmoqda.

Tarixiy nuqtai nazardan olganda, Markaziy Osiyo davlatni milliylik belgisiga qarab tashkil etish an'analariga ega emas edi. Bu yerda Rossiya tomonidan mustamlaka qilib olinguncha mavjud bo'lgan hamma davlatlar asosan sulolaviy yoki hududiy (Buxoro, Qo'qon, Xiva xonliklari) prinsiplar bo'yicha tashkil etilar edi. Shunisi muhimki, yuqoridagi xonliklar bir paytlar mavjud bo'lgan markazlashgan davlatlar va imperiyalar o'rnida tashkil topgan vaqtida bu hududda ko'p sonli o'troq va ko'chmanchi qabilalar yashar edi.

Bir xalqning bo'linib ketishi, uning turli xonliklar o'rtasida ajralib qolishi hamda vayrongarchilik keltiruvchi urushlar uzoq vaqtgacha, to sovet davrigacha uning feodal tarqoqligini mustahkamlab va saqlab keldi.

Mintaqada Sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning har qanday milliy xususiyatlarni «baynalmilallashtirish»ga va baravarlashtirishga intilishi nafaqat etnik birliklar o'rtasidagi, balki hatto bir xalq o'rtasidagi turli guruhlarga ajralishning barham topishiga emas, aksincha, yangilari paydo bo'lishiga olib keldi.

Aynan davlat sotsializmi va uning qattiq rejalashtirilgan iqtisodiyoti, ijtimoiy (egasiz) mulki, boyliklarning markazdan turib taqsimlanishi mahalliychilik hamda urug'-aymoqchilik munosabatlarining yashashi, kengayishi va chuqurlashishi uchun qulay zamin bo'ldi.

SSSRda urug'-aymoqchilik va mahalliychilik boshqacha sifat kasb etdi. Markazdan turib rejalashtirishga asoslangan iqtisodiyotning keskinligi, ba'zan esa shafqatsizligi, mulkning ijtimoiy xarakteri ularning keng yoyilishi uchun qulay zamin yaratdi. Moddiy va boshqa boyliklarni taqsimlovchi rolini, aslini olganda, turli daraja va maqomdagi boshqaruv xodimlari bajarar edilar. Mahalliy ma'murlar va tarmoqlar, korxonalar, savdo sohasining rahbarlari aynan ana shu boshqaruv xodimlarining iltifotiga sazovor bo'lishga harakat qilar edilar.

Biron-bir amaldorning oldiga kiradigan eshiklarni ochib beradigan sehrli so'z o'sha amaldorga tanish yoki yaqin kishining: qarindoshi, do'sti, yurtdoshining shaxsiy tavsiyanomasidan iborat bo'lar edi. O'z navbatida, bunday boshqaruv xodimi o'z hokimiyatini saqlab qolish va mustahkamlash uchun atrofida ishonchli va o'ziga xayrixoh odamlar bo'lishiga muhtoj edi. Shaxsiy sadoqat tamoyili uning kadrlar sohasidagi siyosatining mezonlaridan birini tashkil etardi. «Yaxshimi-yomonmi, o'g'rimi-to'g'rimi, o'zimizniki» degan aqida bu siyosatning tub negizi edi.

Jamiyatda alohida guruhning yoki alohida hududlarning manfaatlari umumiy manfaatlardan ustun turadigan munosabatlar tizimi mavjud bo'lishi juda noto'g'ri va xavflidir. Bu hol jamiyatda ijtimoiy keskinlikning o'sishiga olib boradi. Davlatga — uning barqarorligi, yaxlitligiga, taraqqiy etish qobiliyatiga tahdid tug'diradi. Xayoliy g'oyalar ustun bo'lgan sovet davrida urug'-aymoqchilik manfaatlari to'qnashuvi asosida bir necha bor mojarolar kelib chiqqan edi. Bu

mojarolar an'anaviy tarzda qudratli qatag'on apparatidan foydalangan holda hal qilinar, targ'ibot mashinasi esa yuz bergen barcha hodisalar haqida lom-mim demas edi.

Ana shunday yaramas merosdan xalos bo'lish zaruriyati davlatimizning bosh strategik vazifalaridan biriga asos bo'lmoqda. Mustaqillikka erishilgach, buning uchun zarur shart-sharoitlar paydo bo'ldi va mustahkamlandi. Shuning uchun ham eng yuqori siyosiy pog'onalardan turib, umumiy ishimizga xalaqit beradigan mahalliychilik, guruhbozlik holatlariga faol chek qo'yish lozimligini ko'rsatishga va dunyoda yagona o'zbek millati bor, xorazmlik, farg'onalik, surxon-daryolik o'rtasida milliy farq yo'q — ularning barchasi o'zbeklar, deb ta'kidlashga to'g'ri kelmoqda.

Muayyan hududiy farqlarni mutlaq hodisa darajasiga ko'tarish eng xavfli xatodir. Har bir shaxsning milliy o'zligiga qaytishini o'zligini mintaqaviy asosda anglashi belgilab bermasligi kerak. Inson o'zini eng avvalo O'zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina xorazmlik, samarqandlik yoki Farg'ona vodiysining aholisi deb his qilishi lozim. Bu hol har birimiz mansub bo'lgan «mo'jaz vatan»ning, odam tug'ilib o'sgan joy, o'lkaning qadrini va ahamiyatini, uning turmush tarzi va o'ziga xos qadriyatlarini aslo kamaytirmaydi. Biroq shuni esda tutish kerakki, haddan tashqari bo'rttirib yuborilgan mahalliy vatanparvarlik, uning tajovuzkorligi millatning jipslashuviga xalaqit beradi. U muqarrar suratda ichki separatizmga va madaniy mahdudlikka olib boradi. Davlat hamda jamiyatning barqarorligi va xavfsizligiga bir qator boshqa tahdidlarni tug'diradi.

Bu hodisalarning xavfi nimada? Ular qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin? Navqiron mustaqilligimiz uchun bu savollar aslo befarq emas. Mamlakatimiz fuqarolarining taqdiri ko‘p jihatdan bu savollarga qanday javob berilishiga bog‘liq.

Avvalo, mahalliychilik tamoyillarining kuchayishi mintaqalarning o‘zini o‘zi chegaralab qo‘yishiga, tarkib topgan xo‘jalik aloqalari tizimining kuchsizlanishi va parchalanishiga, binobarin, mintaqaning iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Bu esa umum davlat iqtisodiyotiga zarar keltirishi muqarrar. Ko‘pincha bu hol davlat ichida markazdan qochuvchi kuchlarning paydo bo‘lishi va jadal rivojlanishi bilan birga yuz beradi.

Ajralib chiqish kayfiyatidagi mintaqalar davlatning yaxlitligiga qarshi real xavfdir.

Urug‘-aymoq yoki mintaqqa o‘zining ustunligini ta‘minlashga va o‘z xudbin maqsadlariga erishishga harakat qilib, butun davlat doirasida umuman siyosiy muxolifat rolini da‘vo qiladigan turli uyushmalarni vujudga keltirish uchun oziq beradigan muhit bo‘lib qolishi mumkin. Bunday guruuhlar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash ekstremistik shakllar kasb etib, davlatning hududiy yaxlitligiga, uning yashashiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid tug‘diradi.

Siyosiy tashkilotlar, shu jumladan muxolifat ruhidagi tashkilotlar ham, jamiyat ichida umummilliyl ko‘lam doirasida rivojlanishi lozim. Bu esa ana shunday tashkilotlarning yetakchilari va qatnashchilari xalqning o‘zları mansub bo‘lgan qismining emas, balki, eng avvalo, butun davlat va xalq manfaatlarini diqqat markaziga qo‘yishlari uchun kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Mahalliychilik va separatizm keltirib chiqaradigan yana bir tahdid shundan iboratki, mahalliychilik va urug'-aymoqchilikka asoslangan ziddiyatlar mintaqamiz sharoitida millatlararo va etnik mojarolarga aylanib ketishi yoki bunday mojarolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, Markaziy Osiyodagi tub xalqlarning vakillarini mintaqaning beshala davlatida ham uchratish mumkin. Mamlakatlarimiz aholisining ko'pchilik qismi bir xil guruhlardan (o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar va boshqalardan) tarkib topgan bo'lib, ularning nisbati o'zgaradi, xolos. Respublikalarning har birida jam bo'lib yashaydigan: Qozog'istonda va Qirg'izistonning O'sh viloyati janubida, Tojikistonning Leninobod viloyatida, Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida o'zbeklar yashaydigan hududlar, Toshkent va Jizzax viloyatlarida qozoqlar yashaydigan katta-katta maydonlar, Qozog'istoning shimolida asosan ruslar yashaydigan viloyatlar mavjud.

Tub islohotlar amalga oshirilayotgan murakkab davrda jamiyatda ozchilikni tashkil etadigan xalqlarda kansitilish hamda bu mamlakatdagi o'z kelajagiga ishonchsizlik hissi tug'ilishi mumkin. Bunday tuyg'ular mahalliychilik va urug'-aymoqlar kurashining kuchayishi hamda shuning oqibatida iqtisodiy va siyosiy hayotdagi kansitishlar negizida shakllangan bo'lishi ham mumkin. Bunday holda etnik guruhlar va millatlar o'rtasida keskinlik kuchayib, zo'ravonlikning bo'shqarib bo'lmaydigan darajada portlash xavfi ortadi. So'nggi yillar tarixida sovetlardan keyingi makonda

ayni shu negizda kelib chiqqan mojarolar va fojialar talaygina.

Mahalliychilik va urug‘-aymoqlar kurashi tug‘-diradigan tahdidlar haqida gapirar ekanmiz, bu hodisalarning o‘ziyoq buzg‘unchi ekanligini hisobga olish zarur. Lekin tashqi kuchlar hali mustahkamlanib olmagan yoki turli vaziyatlar tufayli zaiflashib qolgan davlatlarda bu vositalardan o‘zlarining jo‘g‘rofiy-siyosiy maqsadlari va g‘arazli manfaatlari yo‘lida foydalangan hollar tarixdan ma'lum.

Biroq urug‘-aymoqlarning tashqi kuchlardan o‘z maqsadlarida foydalanishga harakat qiladigan yetakchilari va mahalliychilik manfaatlarini ifodalovchilar oxir-oqibatda ana shu kuchlar irodasining asiri bo‘libgina qolmay, balki tashqi kuchlar o‘z nojo‘ya xatti-harakatlarini oqlash uchun beradigan qurbanlarga ham aylanadilar. Buni tarixning o‘zi tasdiqlaydi.

Mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik muammosining dolzarbligini va murakkabligini tushunibgina qolmay, ayni chog‘da shu negizda tanglik vujudga kelishining oldini olish uchun nima qilish kerakligini aniq tasavvur etish yashirin xavf-xatar omilidan chinakam tahdid manbaiga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka imkon beradi.

Hozirgi va bo‘lg‘usi siyosatchilar olib boradigan barcha ishlarda O‘zbekistonning umuminsoniy qadriyatları va umummilliy manfaatlari ustuvor bo‘lishini, uning butun hududida umumdavlat qonunlari ustuvorligini ta‘minlaydigan tamoyil asos qilib olinishi darkor. Jamiyat ichidagi alohida shaxslarning uyushqoqlik bilan jipslashishiga ularning qaysi urug‘ga,

hududga yoki etnik guruhga mansubligi emas, balki umum davlat darajasida korporativ (tadbirkorlar, ziyolilar, agrarchilar va shu kabilar) manfaatlarning yaxshi anglangan mushtarakligi asos bo'lishi lozim.

Barcha mintaqalar, barcha etnik va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari o'rtasida muvozanat saqlanishini doimo hisobga olish zarur. Manfaatlarni ifodalash va ro'yobga chiqarishning qonuniy mexanizmi mahalliychilik kayfiyatları, urug'-aymoqlar kurashining vujudga kelishi va rivojlanishiga g'ov solmog'i darkor.

Kadrlar sohasidagi siyosat, o'tish davrida hali ham mavjud bo'lib turgan davlat taqsimoti sohasi, davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va mintaqaviy siyosati hamma hududlarga, hamma milliy va sotsial ozchilikni tashkil etuvchilarga davlat resurslaridan teng bahramand bo'lish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlab berishi lozim.

Mahalliy hokimiyatlarga ko'proq mustaqillik berish zarur. O'z mintaqasining xususiyatlarini bilish joylardagi rahbarlarga u yerdagi moddiy va insoniy imkoniyatlarni mumkin qadar ko'proq ishga solish imkonini beradi. Islohotlarni amalga oshirishga mahalliy iqtisodiy, demografik va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda o'zgartishlar kiritishga sharoit yaratadi. Islohotlar uchun javobgarlikning katta qismini mahalliy hokimiyatlar zimmasiga yuklash ularning tashabbusini imkoni boricha ko'proq ishga solish va mahalliy resurslarni jalb etish imkonini beradi.

Ayni chog'da xo'jalik yurituvchi subyektlarga va mahalliy boshqaruvi organlariga ko'proq iqtisodiy mustaqillik berish bilan birga, ular rahbarlarining

shaxsiy javobgarligini oshirish ham zarur. Bu esa mahalliy budgetning ko'payishiga, mahalliy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun eng maqbul yo'llarni topishga imkon beradi.

Biroq bunday mintaqalashtirishning sharti o'laroq, umumdavlat manfaatlarining ustuvorligi so'zsiz tan olinishi kerak.

Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda odamlar va butun jamiyat ongida umuminsoniy qadriyatlarning birlamchiligini yoki ustunligini mustahkamlash, etnik, milliy jihatdan o'z qobig'iga o'ralib qolish yo'lidagi urinishlarga qarshi tinimsiz ish, ta'bir joiz bo'lsa, kurash olib borish kerak. Bu esa O'zbekistonda milliy mustaqillikni, suverenitetni va barqarorlikni ta'minlashning, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik xavfining oldini olishning shak-shubhasiz eng muhim shartlaridir.

Millatning va xalqning ma'naviy kamolotiga, ma'rifatiga umumdavlat siyosati sifatida qarash lozim. Odamlar ongidagi milliy iftixor tuyg'usi bilan boshqa millatlarning tarixi, madaniyati va qadr-qimmatini hurmat qilishning dialektik uyg'unligini ta'minlash zarur. Jamiyat ongida hozirgi dunyoda ro'y berayotgan barcha hodisalarga daxldorlik va mas'ullik hissini vujudga keltirish va doimo mustahkamlab borish darkor.

Hozirgi yoshlarda va kelgusi avlodda o'z davlati, xalqining tarixini shak-shubhasiz bilish bilan bir qatorda, jahon tarixi va madaniyati yutuqlarini chuqur o'rganish zarurligini tushunish va anglash hissini tarbiyalash lozim.

Bularning barchasi biz kelajakka ishonch bilan dadil qaray olishimiz, farzandlarimizning taqdiri va baxt-saodati haqida xavotir olmasligimiz uchun eng zarur shartlardir.

EKOLOGIK MUAMMOLAR

Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammoesi alohida e'tiborga molikdir. Ochiq e'tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Aniqrog'i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o'z mamlakatlarining kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa «qalb nidosi» bo'lib kelgan.

Biroq ularning vijdonga, fuqarolik burchiga, nihoyat, aql-idrokka da'vatlari to'ralashib ketgan sovet-partiya amaldorlarining sovuq, hatto aytish mumkinki, surbetlarcha loqaydligiga duch kelavergan. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Tabiiy va mineral-xom ashyo zaxiralaridan vahshiylarcha, ekstensiv usulda, juda katta xarajatlar va isrofgarchiliklar bilan foydalanishga asoslangan sotsialistik xo'jalik yuritish tizimining butun mohiyatiga mamlakat ixtiyoridagi beqiyos boyliklarga avaylab munosabatda bo'lish g'oyasi butunlay yot edi. Aksincha, boyliklardan bunday foydalanish ikki tuzumning iqtisodiy musobaqasida mamlakatning asosiy dastagi, eksport imkoniyatlarining negizi bo'lib keldi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi bosh maqsad ekstensiv omillarga qaratilgan edi. Tabiiyki, bunday sharoitda yashirin boyliklardan oqilona foydalanishni tartibga soladigan, tabiatning, atrof muhitning himoya qilinishini kafolatlaydigan biron-bir me'yorlar va qoidalarga rioya qilish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas darajada kam mablag' ajratilardi. Bu mablag' tabiatga yetkazilayotgan zararning mingdan bir qismini ham qoplamas edi. O'rmonlar o'ylamay-netmay, vahshiy-larcha kesib tashlanar edi. Yoqilg'i va mineral-xom ashyo zaxiralari real chtiyoj bilan taqqoslanmagan holda juda ko'p miqdorda qazib olinganidan ko'pchilik qismi qayta ishlanmagan chiqitlar sifatida uyulib yotar edi. Tabiatni muhofaza qiluvchi eng oddiy tozalash inshootlariga ega bo'limgan bahaybat sanoat korxonalari faol bunyod etildi. Natijada barcha zaharli va zararli sanoat chiqindilari ulkan havo kengliklarini, suv havzalarini, yer maydonlarini ifloslantiradigan bo'ldi. O'z ko'lami jihatidan beqiyos darajada katta gidroenergetika loyihibalarini ro'yobga chiqarish, transport kommunikatsiyalarini (BAM, Turksib kabi temir yo'llarni, avtomobil, neftgaz magistrallarini va irrigatsiya tarmoqlarini) bunyod etish nafaqat tabiiy zaxiralarni qashshoqlashtirdi. Butun boshli aholi punktlarining yo'q bo'lib ketishiga, ekologik muvozanat, iqlim, odamlarning hayot va faoliyat sharoitlarining buzilishiga ham olib keldi.

Bu muammo so'nggi yillarda yanada keskinlashdi. MDHga a'zo bo'lgan bir qancha mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga betartib suratda o'tishi, tabiiy va mineral-xom ashyo zaxiralaridan foydalanishda

boshqaruvning barham topgani, nazorat qilinmaganligi natijasida ular tashib ketila boshlandi. Vahshiyarcha qazib olindi va arzon narxlarda eksport qilindi. Ayrim «yangi boyvachchalar» deb ataluvchi va korrupsiya domiga ilingan butun-butun guruhlar uchun qo'shimcha foyda olish manbaiga aylandi. Shu bilan birga, ular o'zlarining ochko'z manfaatlari yo'lida hozirgi va kelgusi avlodlarning ekologik xavfsizligini, salomatligi va farovonligini qurban qilmoqdalar. Benihoya ulkan moddiy boyliklar, insoniyatning noyob yutuqlari vijdonsizlarcha o'g'irlab ketilmoqda, yo'q qilib tashlanmoqda. Bu bilan butun atrof muhitga ham juda katta zarar yetmoqda, iqlim buzilmoqda. Eng yomoni esa bir necha avlod kishilarining tabiiy hayot va faoliyat sharoitlariga putur yetmoqda.

Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish — o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiyligi muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Bu xavfni ancha kech, 70-yillarning boshlaridagi na anglay boshladik. O'shanda mazkur masala dunyo miqyosidagi taraqqiyotga bag'ishlangan dastlabki G'arb modellarida keskin qilib qo'yilgan edi. Bu hol

bamisol «bomba portlaganday» ta'sir etdi. Insoniyat qanday xavf qarshisida turganligini, atrof muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi.

Insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmay, jadal yuritilgan xo'jalik faoliyati, Rim klubining «XXI asr yo'li» deb atalmish tadqiqotlaridan birida ko'rsatib o'tilganidek, Yer yuzida tuproq nurashi, o'rmonlardan mahrum bo'lish, baliqlarning haddan tashqari ko'p ovlanishi, tuzli yomg'irlar, atmosfera ifloslanishi, ozon qatlami buzilishi va hokazolarning ro'y berishiga olib keldi. Mutaxassislarning baholashlaricha, 2000 yilga borib o'rmonlar egallab turgan maydon quruqlikning 1/6 qisminigina tashkil etadi, holbuki, 50-yillarda ular 1/4 qismni egallagan edi. Jahon okeanining suvlari halokatli ravishda ifloslanib bormoqda, uning takroriy mahsulдорлиgi keskin pasaymoqda. Jadal sur'atlar bilan yuz berayotgan urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning asosiy aglomeratsiyalari eng yirik ifloslantirish manbalariga aylanib qolishiga olib keldi. Tarkibida oltingugurt qo'sh oksidi va azot oksidi bo'lган tuzli yomg'irlar yog'ishi ko'paydi. Buning natijasida butun dunyoda ekologik muhitning yomonlashuvi bilan bog'liq turli-tuman kasalliklar soni ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtida jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zaxiralardan xo'jalik maqsadlarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Buning ustiga, dunyo aholisi yildan-yilga o'sib borib, ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoq-

da. Bu esa o'rmonlar egallab turgan maydonlarning jadal sur'atlarda qisqarishiga, cho'l-sahrolarning bostirib kelishiga, tuproqning buzilishiga, atmosferaning yuqorida joylashgan ozon to'sig'i kamayib ketishiga, yer havosining o'rtacha harorati ortib borishiga va boshqa holatlarga sabab bo'lmoqda.

Beto'xtov davom etayotgan qurollanish poygasi, atom, kemyoviy qurollar va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, saqlash va sinash insoniyat yashaydigan muhit uchun juda katta xavfdir.

Hozir, XXI asr bo'sag'asida, fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzilishi o'zgarmoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqi, balki to'laqonli va sog'lom turmush kechiriши учун зарур мотадил атроф-мухит шароитларига ham bo'lган huquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar e'tirof etgan.

Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbliji, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish bilan bog'liq tarmoqlarini ekologik jihatdan zararsiz texnologiya

yordamida rivojlantirishni ta'minlash imkoniga ega bo'linadi. Ma'lumki, tabiatning holati birdaniga va darhol yomonlashib qolmaydi. Bu jarayon uzoq vaqt davom etadi. Boshqacha aytganda, ekologik vaziyat asta-sekin yomonlasha boradi.

Ekoliya hozirgi zamonning keng miqyosdag'i keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson bilan tabiatning o'zaro ta'siriga oid bir qator muammolarni hal etish faqat bir mamlakat doirasida cheklanib qola olmaydi. Ularni butun sayyoramiz ko'lamida hal qilish zarur. Ko'rini turibdiki, tabiiy muhitni inson yuritadigan xo'jalik faoliyatining zararli ta'siridan himoya qilish bilan bog'liq ko'pgina muammolar keng ko'lam kasb etadi. Shu sababli ular faqat xalqaro hamkorlik asosida hal qilinishi lozim.

Ekoliya muammosi Yer yuzining hamma burchaklarida ham dolzarb. Faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida va mintaqalarida turlichadir.

Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik falokatning g'oyat xavfli zonalaridan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundaki, u bir necha o'n yilliklar mobaynida ushbu muammoni inkor etish natijasidagina emas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining deyarli barcha sohalari ekologik xatar ostida qolganligi natijasida kelib chiqqandir. Tabiatga qo'pol va takabburlarcha

munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi. Inson — tabiatning xo'jayini, degan soxta sotsialistik mafkuraviy da'vo, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida ko'plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojiaga aylandi. Ularni qirilib ketish, genofondning yo'q bo'lib ketishi yoqasiga keltirib qo'ydi.

Afsuski, bu jarayonlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Bu yerda, mutaxassislarning baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimadan iborat?

Birinchidan, yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavf to'xtovsiz ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoitida yer Olloh taoloning beba ho in'omidi. U tom ma'noda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dehqonchilik bilan bog'langan oilalarning emas, balki ma'lum bir tarzda qishloq xo'jaligi bilan aloqador barcha tarmoqlar va uning ne'matlaridan baramand bo'layotgan respublikaning barcha aholisi farovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi. Ayni vaqtida yer ulkan boylik bo'libgina qolmay, mammakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O'zbekistonda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda, chunki yerning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Respublikaning 447,4 ming kvadrat kilometrdan ortiq bo'lgan umumiyl maydonining atigi 10 foizinigina ekin maydonlari tashkil etadi. Ayni chog'da O'zbekiston egallab turgan maydonning ancha qismini Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt kabi cho'l va yarim cho'l yerlar tashkil etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jalik maqsadlarida

foydalanylayotgan yer maydonlariga to‘g‘ri keladigan demografik yuk hozirning o‘zidayoq o‘ta salmoqli. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistonda aholining zichligi ayniqsa yuqori bo‘lib, 1 kvadrat kilometrga 51,4 kishi to‘g‘ri keladi, holbuki, bu raqam Qozog‘istonda — 6,1, Qирг‘изистонда — 22,7, Turkmanistonda — 9,4 ni tashkil etadi. Respublikamizda har bir odamga 0,17 hektar ekin maydoni to‘g‘ri kelsa, Qozog‘istonda — 1,54, Qирг‘изистонда — 0,26, Ukrainada — 0,59, Rossiyada 0,67 hektar ekin maydoni to‘g‘ri keladi. Barcha aholining yarmidan ko‘prog‘i qishloq joylarda yashayotganligini hisobga olsak, dadil aytish mumkinki, bizning qishloqlarimizda insoniy zaxiralarning nisbiy ortiqligi emas, balki mutlaq ortiqligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Bizda aholining o‘sishi nisbatan yuqori bo‘lib, urbanizatsiya va hosildor yerlarni shaharlarni rivojlantirishga, uy-joy qurilishiga, yangi korxonalar, muhandislik hamda transport kommunikatsiyalari tarmog‘ini barpo etishga ajratib berish jarayonlari jadal bormoqda. Shuni hisobga olsak, yaqin yillar ichida, hatto XXI asr arafasidayoq yer zaxiralari bilan ta-minlanish muammosi yanada keskinlashishi mumkin.

XX asr oxirida yerlarning tabiiy ravishda cho‘lga aylanishi yuqori darajada borayotganligi yetmaganidek, odamlarning munosabati tufayli cho‘lga aylanib borish jarayoni shitob bilan davom etayotganligi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda. Ayni chog‘da tabiiy muhitning yomonlashuvi bilan birga, tuproq nurashi, sho‘rlanishi, yer usti va yer osti suvlarining sathi pasayishi va boshqa hodisalar ro‘y bermoqda.

Ilgari nurashga qarshi chora-tadbirlar yaxshi olib borilmaganligi tufayli shamol va suv ta'sirida yemirilish tuproqning unumdonligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu chora-tadbirlar juda past sur'atlarda va sifatsiz olib borilgan. Hatto 80-yillarning oxirida amalda butunlay to'xtatib qo'yilgan edi. Respublikada 2 million gektardan ortiq yer maydoni yoki barcha sug'oriladigan yerlarning qariyb yarmi buzilish xavfi ostida qolgan.

Yerlarning nihovat darajada sho'rlanganligi O'zbekiston uchun ulkan ekologik muammodir. Yerlarni ommaviy suratda o'zlashtirish, hatto sho'rangan va melioratsiyaga yaroqsiz yirik-yirik, yaxlit maydonlarni ishga solish ana shunga olib keldi. So'nggi 50 yil mobaynida sug'oriladigan yer maydoni 2,46 million gektardan 4,28 million gektarga yetdi. Faqat 1975—1985 yillar mobaynida 1 million gektarga yaqin yangi yer maydonlari o'zlashtirildi. 1990 yilga kelib sug'oriladigan yer maydoni 1985 yilda qaraganda 1,5 baravar ko'paydi.

Ekin maydonlari tarkibida so'nggi vaqlarga (1990 yilga) qadar paxta deyarli 75 foiz maydonni egallagan edi. Dunyoning birorta ham mamlakatida paxta monopoliyasi bu qadar yuqori darajaga ko'tarilmagandi. Bu hol yerning kuchsizlanishiga, tuproq unumdonligi pasayishiga, uning suv-fizikaviy xossalari yomonlashuviga, tuproqning buzilishi va nurashi jarayonlari ortishiga olib keldi.

O'zbekistonda noorganik mineral o'g'itlar, gerbitsidlar va pestitsidlarning qo'llanishi eng yuqori

normalardan ham o'nlab baravar ortiq edi. Ular tuproqni, daryo, ko'l, yer osti va ichimlik suvlarini ifoslantirdi. Bundan tashqari, yangi yerlardan foydalanishda zarur texnologiyalarga rioya qilinmadi. Hamma joyda paxta nazoratsiz sug'orildi. Tuproqning nami ko'payib ketdi. Bu esa uning qayta sho'rланishiga olib keldi.

Tuproqning har xil sanoat chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan shiddatli tarzda ifloslanishi real tahdid tug'dirmoqda. Turli kimyoviy vositalar, zararli moddalar va mineral o'g'itlarni, sanoat va qurilish materiallarini saqlash, tashish va ulardan foydalanish qoidalarining qo'pol ravishda buzilishi yerning ifloslanishiga olib kelmoqda. Undan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Foydali qazilmalarni jadal qazib olish, ko'pincha ularni qayta ishslashning texnologik sxemalari nomukammalligi ko'p miqdorda ag'darmalar, kul, shlkak va boshqa moddalar to'planib qolishiga olib kelmoqda. Bular dehqonchilik uchun yaroqli bo'lgan yerlarni egallabgina qolmay, balki tuproqni, yer usti va yer osti suvlarini, atmosfera havosini ifoslantirish manbaliga ham aylanmoqda. Respublikada zaharli chiqindilardan foydalanish sanoati esa hozircha yaratilgan emas.

O'zbekiston hududida qattiq maishiy chiqindilar tashlanadigan 230 dan ortiq shahar va qishloq axlatxonalari mavjud. Ularda taxminan 30 million kub metr axlat to'planadi. Ular asosan stixiyali ravishda, jo'g'rofiy, geologik-gidrogeologik va boshqa shart-

sharoitlarni kompleks o'rganmay turib tashkil etilgan. Ularda qattiq maishiy chiqindilarni zararsizlantirish va ko'mib tashlash ibridoiy usullar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, respublikaning yirik shaharlarida maishiy chiqindilarni ishlatalish va zararsizlantirish sohasida murakkab vaziyat vujudga kelgan. Respublikada hali-hanuz maishiy chiqindilarni sanoat usulida qayta ishlash masalasi hal qilinmagan. Yagona Toshkent maishiy chiqindilar tajriba zavodi 1991 yildagina ishlay boshladi.

Radioaktiv ifloslanish, ayniqsa, katta xavf tug'dirmoqda. Moylisuv (Qirg'iziston) daryosining qirg'oqlari yoqasida 1944 yildan to 1964 yilgacha uran rudasini qayta ishlash chiqindilari ko'milgan. Hozirgi vaqtida qoldiqlar saqlanadigan 23 ta joy mavjud. Bu yerlarda selni to'sadigan to'g'onlarni mahkamlash hamda ko'chki xavfi bo'lgan joylardagi qiyaliklarning mustahkamligini ta'minlash lozim.

Navoiy viloyatidagi qoldiqlar saqlanadigan joy ham ekologik jihatdan xavfli ifloslantirish o'chog'i hisoblanadi. Bu yerdagi radioaktiv qumni shamol uchirishi xavfi bor.

Shu sababli O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishdagi g'oyat muhim vazifa yerlarning holatini yaxshilashdan, tuproqning ifloslanishini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuuni amalga oshirishdan iborat. Bu o'rinda gap eng avvalo tabiiy zaxiralardan foydalanishni tubdan yaxshilash haqida bormoqda.

Ikkinchidan, O'zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtai nazaridan qaraganda, suv zaxiralarining, shu

jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug‘dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va hatto yer osti suvlari ham har taraflama inson faoliyati ta’siriga uchramoqda.

Sug‘oriladigan hududlarda suv tabiatning bebahoin omidir. Butun hayot suv bilan bog‘liq. Zotan, suv tamom bo‘lgan joyda hayot ham tugaydi. Shunday bo‘lsa-da, Markaziy Osiyoda suv zaxiralari juda cheklangan. Yiliga 78 kub kilometr suv keltiradigan Amudaryo va 36 kub kilometr suv keltiradigan Sirdaryo asosiy suv manbalaridir.

Hozirgi vaqtida xalq xo‘jaligida Orol dengizi havzasining barcha suv zaxiralaridan to‘la-to‘kis foydalaniilmoqda.

Daryolar oqimi asosan Qиргизистон va Тоҷикистон tog‘laridan boshlanadi. Suv zaxiralarining ko‘pchilik qismidan Markaziy Osiyodagi barcha respublikalarning yerlarini sug‘orish uchun foydalaniiladi. Shu munosabat bilan mintaqadagi barcha davlatlarning manfaatlari yo‘lida hamda ekologiya talablarini, daryolar deltalarida va Orol dengizida maqbul hayotiy shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bu yerlarga suvning o‘tishini ta‘minlash zarur. Shu bilan birga Orol dengizi havzasining cheklangan suv zaxiralarini birgalashib, kelishgan holda boshqarish muammosini amaliy hal qilish talab etiladi.

Mintaqaning yana bir muammosi suvni muhofaza qilish va tejash tadbirlari majmuini amalgalashish zaruriyati bilan bog‘liqdir. Bu tadbirlar suvning isrof bo‘lishini eng kam darajaga keltirish maqsadida

sug'orish tarmog'ining rejimi va o'lchamlarini sug'orish texnikasi bilan mustahkam bog'lashni o'z ichiga oladi. Endilikda kollektor-zovur suvlarini tashlab yuborishni tartibga solish, oqava suvlarni daryo va suv omborlariga oqizishni batamom to'xtatish zarur.

Suv zaxiralarining sifati eng muhim muammo-lardan biridir. 60-yillardan boshlab Markaziy Osiyoda yangi yerlar keng ko'lamda o'zlashtirildi. Sanoat, chorvachilik komplekslari ekstensiv rivojlantirildi. Urbanizatsiya kuchaydi. Kollektor-zovur tizimlari qurildi hamda daryo suvlari sug'orish uchun muttasil yuqori hajmlarda olindi. Shu bois havzalardagi suvning sifati tobora yomonlasha bordi.

Daryo suvlarining ifloslanishi ekologiya-gigiyena va sanitariya-epidemiologiya vaziyatini, ayniqsa, daryolarning quyi oqimlarida yomonlashtirmoqda. Ikkinchi tomondan, daryo suvlari tarkibida tuzlarning mavjudligi Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa daryolarning deltalarida tuproqning sho'rланishini kuchaytirmoqda. Bu esa qo'shimcha melioratsiya ishlarini amalga oshirishda, zovur tizimlarini barpo etish va tuproq sho'rini yuvishda yaqqol sezilmoqda.

O'zbekiston va qo'shni mintaqalar sharoitida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aholi punktlarini odatdag'i vodoprovod suvi bilan ta'minlash ko'rsatkichi respublikada faqat keyingi besh yillikning o'zida taxminan 1,5 baravar ortdi. Shunga qaramay, ushbu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Ichimlik suv ta'mnoti manbalarining ifloslanishi respublikada,

ayniqsa, Orol bo'yida kasallikka chalinishning yuqori darajasiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavf g'oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo'lib qoldi. Orol dengizi muammosi uzoq o'tmishtga borib taqaladi. Lekin bu muammo so'nggi o'n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun hududi bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ko'plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko'lamdag'i fojia — Orol halok bo'lishining sababiga ham aylandi. Yaqin-yaqinlargacha cho'lu sahrolardan tortib olingan va sug'orilgan yangi yerlar haqida dabdaba bilan so'zlanardi. Ayni chog'da ana shu suv Oroldan tortib olinganligi, uni «jonsizlantirib qo'yilganligi» xayolga kelmasdi. Endilikda Orolbo'yi ekologik kulfat hududiga aylandi.

Orol tangligi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. Dengiz havzasida yashaydigan qariyb 35 million kishi uning ta'sirida qoldi.

Biz 20—25 yil mobaynida jahondagi eng yirik yopiq suv havzalaridan birining yo'qolib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Biroq bir avlodning ko'z o'ngida butun bir dengiz halok bo'lgan hol hali ro'y bergen emas edi.

1911—1962 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqtada bo'lib, 53,4 metrni, suvning hajmi 1064 kub kilometrni, suvning yuzasi 66 ming kvadrat kilometrni va minerallashuv darjasasi bir litr suvda 10—11 grammni tashkil etgan edi. Dengiz transport,

baliq xo'jaligi, iqlim sharoiti jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Unga Sirdaryo va Amudaryodan har yili deyarli 56 kub kilometr suv kelib quyilar edi.

1994 yilga kelib Orol dengizidagi suvning sathi — 32,5 metrga, suv hajmi — 400 kub kilometrdan kamroqqa, suv yuzasining maydoni esa 32,5 ming kvadrat kilometrga tushib qoldi, suvning minerallashuvi ikki baravar ortdi.

Orolning sathi 20 metr pasayishi natijasida u endi yaxlit dengiz emas, balki ikkita qoldiq ko'lga aylanib qoldi. Uning sohillari 60-80 kilometrga chekindi. Amudaryo bilan Sirdaryoning deltalari jadal sur'atlar bilan buzilib bormoqda. Dengizning suv qochgan tubi 4 million getkardan ortiqroq maydonda ko'rinish qoldi. Natijada yana bitta "qo'l bola" qumli-sho'rxok sahroga ega bo'ldik. Shamol Orol dengizining qurib qolgan tubidan tuz va chang-to'ztonni yuzlab kilometrga uchirib ketmoqda.

Orolning qurib qolgan tubidagi chang bo'ronlari 1975 yildayoq kosmik tadqiqotlar natijasida aniqlangan edi. 80-yillarning boshlaridan buyon bunday to'fonlar bir yilda 90 kun davomida kuzatilmoxda. Chang-to'zon uzunligi 400 kilometr va eni 40 kilometr maydonga yetib bormoqda. Chang bo'ronlarining ta'sir doirasi esa 300 kilometrgacha yetmoqda. Mutaxassislar bergen ma'lumotlarga qaraganda, bu yerda har yili atmosferaga 15—75 million tonna chang ko'tariladi.

Bularning hammasi Orol bo'yi iqlimining o'zgarishiga olib keldi. 1983 yildan boshlab Orol baliq ovlashga yaroqsiz bo'lib qoldi. Sohilning hozirgi chizig'idan yiroqlarda bo'lgan baliqchilarning

qachonlardir qudratli flotiliyasining zang bosgan qoldiqlarini, vayronaga aylangan baliqchilar posyol-kalarini uchratish mumkin. Bo'zko'l, Oltinko'l, Qaratma ko'rfazlari yo'qoldi. Akpetki arxi pelagi quruqlik bilan qo'shilib ketdi. Yaylovlar va o'tloqlar yo'qolib bormoqda. Hudud botqoqqa aylanmoqda. Suvning tobora taqchillashib borayotganligi va sifati yomonlashayotganligi tuproq va o'simlik qatlamining buzilishiga, o'simlik va hayvonot dunyosida o'zgarishlar yuz berishiga, shuningdek, sug'orma dehqonchilik samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Orol dengizining qurib borishi va shu jarayon tufayli Orolbo'yi mintaqasidagi tabiiy muhitning buzilishi ekologik fojia sifatida baholanmoqda. Chang va tuz bo'ronlarining paydo bo'lishi, faqat Orol bo'yida emas, balki dengizdan ancha naridagi bepoyon hududlarda yerlarning cho'lga aylanishi, iqlim va landshaftning o'zgarishi — bular ana shu fojia oqibatlarining to'liq bo'limgan ro'yxatidir.

Orol fojiasini 70-yillarning boshlarida, juda kechi bilan 80-yillarning boshlarida, dengizning sathi unchalik pasaymagan bir paytda idora qilish mumkin edi. Hozirgi vaqtida uni boshqarish juda murakkab bo'lib qoldi. Keyinchalik esa bu jarayon yana ham mushkullashadi yoki umuman boshqarib bo'lmaydigan holga keladi.

Orol bo'yida dengizning qurib borishi munosabi bilan xalqaro, keng ko'lamli ahamiyatga molik bo'lgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolarning murakkab majmui vujudga keldi.

Orol dengizining qurib borishi va mintaqaning cho'lga aylanishi bilan bog'liq ekologik fofija bu havzada yashayotgan barcha xalqlarning dardu alamidir.

Suv zaxiralari bilan bog'liq bo'lgan muammo-
lar majmuasi keng ko'lamli va murakkab ko'p tar-
moqli yondashuvni, mintaqadagi davlatlar bilan
xalqaro hamjamiyat o'rtasida hamkorlikni rivojlan-
tirishni talab qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining 1993
yil mart oyida Qizilo'rdada bo'lib o'tgan uchrashuvi
ana shu muammolarni hal qilish yo'lidagi turtki bo'ldi.
Bu uchrashuvda Orol dengizi tangligini hal etish
yuzasidan birgalikda harakat qilish to'g'risida Bitim
imzolandi. Orol dengizi muammolari bo'yicha
Davlatlararo Kengash va uning ishchi organi — Ijroiya
Qo'mitasi, shuningdek, Orolni qutqarish Xalqaro fon-
di tashkil etildi. Markaziy Osiyo respublikalari davlat
boshliqlarining 1994 yil yanvarida Nukus shahrida
bo'lib o'tgan ikkinchi uchrashuvida Orol dengizi
havzasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan
yaqin uch — besh yilga mo'ljallangan, mintaqani
ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq harakatlar
dasturi tasdiqlandi. 1994 yil mart oyida Toshhovuzda
bo'lgan uchinchi uchrashuvda Davlatlararo Kengash-
ning ushbu dasturning bajarilishi haqidagi hisoboti
tinglandi.

1997 yil fevralda Markaziy Osiyodagi besh davlat
boshliqlarining BMT, Jahon banki va boshqa xalqaro
tashkilotlar vakillari ishtirokida Almatida bo'lib o'tgan
uchrashuvida Orol muammosini hal etish bo'yicha

tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi — Orolni qutqarish Xalqaro fondining ancha ishchan tarkibi va uning negizida harakatchan Ijroiya qo‘mitasi tuzildi.

Orol muammosining butun keskinligini, uni saqlab qolish yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar ko‘rish zarurligini tushungan holda, Markaziy Osiyo respublikalarining hukumatlari, mutaxassislari va mintaqaning ilmiy jamoatchiligi, xalqaro tashkilotlari 1995 yil 20 sentyabrda Nukus shahrida **Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammolari bo‘yicha Deklaratsiyasini** qabul qildilar. Deklaratsiya barqaror rivojlanish qoidalariga qat‘iy amal qilishni nazarda tutadi va e’tiborni quyidagi g‘oyat muhim muammolarni hal qilishga qaratadi:

- qishloq va o‘rmon xo‘jaligining yanada muvozanatli va ilmiy asoslangan tizimiga o‘tish;

- suv zaxiralaridan foydalanishning tejamli usullarini ishlab chiqish, sug‘orishda va atrof-muhitni muhofaza qilishda takomillashgan texnologiyalarni qo‘llash vositasida irrigatsiyaning samaradorligini oshirish;

- mintaqaning tabiiy zaxiralarini kompleks boshqarish tizimini takomillashtirish.

Pirovard natijada Orol tangligini barqaror rivojlanish, bu mintaqada yashayotgan odamlarning turmush darajasi pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, kelajakda yosh avlod uchun munosib turmushni

ta'minlash tamoyillari asosida hal qilish bo'yicha uzoq muddatli strategiya va dasturni ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarish zarur.

To'rtinchidan, havo bo'shlig'inining ifloslanishi ham respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdiddir.

Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 million tonnaga yaqin zararli moddalar qo'shilmoqda. Shularning yarmi uglerod oksidiga to'g'ri keladi, 15 foizini uglevodorod chiqindilari, 14 foizini oltingugurt qo'sh oksidi, 9 foizini azot oksidi, 8 foizini qattiq moddalar tashkil etadi va 4 foizga yaqini o'ziga xos o'tkir zaharli moddalarga to'g'ri keladi.

Atmosferada uglerod yig'indisining ko'payib borishi natijasida o'ziga xos keng ko'lamdag'i issiqxona effekti vujudga keladi. Oqibatda Yer havosining o'rtacha harorati ortib ketadi.

Arid mintaqasida joylashgan O'zbekiston Respublikasida tez-tez chang bo'ronlarini qo'zg'atib turuvchi, atmosferani chang-to'zonga chulg'aguvchi Qoraqum va Qizilqum sahrolaridek yirik tabiiy manbalar mavjud. So'nggi o'n yilliklar mobaynida Orol dengizining qurib borishi tufayli chang va tuz ko'chadigan yana bir tabiiy manba paydo bo'ldi.

80-yillarning boshlarida qo'shni Tojikistonda alyumin zavodi ishga tushirilishi munosabati bilan O'zbekistonning Surxondaryo viloyatiga qarashli ko'plab tumanlarida ekologik jihatdan tang ahvol vujudga keldi. Zavod atmosferaga ko'p miqdorda ftorli

vodorod, uglerod oksidi, oltingugurt gazi, azot oksidlarini chiqarib tashlamoqda. Vodiyning yuqori qismida, Tojikistonning O'zbekiston bilan chegarasida joylashgan zavodning chiqindilari tog'dan vodiy tomonga esadigan shamol bilan undan uzoqlarga, asosan respublikaning chegaradosh tumanlari — Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy tumanlari hududiga tarqalmoqda.

Ekologiyaga solinayotgan xavf O'zbekiston uchun, umuman butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun naqadar yuqori ekanligini hisobga olgan holda hukumat va davlat atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish masalalariga juda katta e'tibor bermoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilish borasidagi milliy tadbirlari boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan keng va har tomonlama hamkorlik qilish ishi bilan qo'shib olib borilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko'plab xilma-xil xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzildi.

O'zbekiston MDH davlat boshliqlarining 1992 yil 8 fevralda imzolangan Bitimiga muvofiq tuzilgan MDH mamlakatlari Davlatlararo Ekoliya Kengashining to'la huquqli a'zosidir. MDH mamlakatlarining ana shu ekoliya Kengashi doirasidagi hamkorligi a'zo davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida kelishib olingan, muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydi.

Hozirgi paytda respublikada istiqbolga, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish bo'yicha 2005 yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi butun faoliyat ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda respublikada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalari kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.

Ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Qishloq, o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarни qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Havo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifoslantirishni to'xtatish.

Qishloq xo'jalik ekinlarini, eng avvalo, g'o'zani sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Kollektor-zovur suvlarini daryolar va suv omborlariga tashlashni tartibga solish va oqava suvlarni chiqarib yuborishni batamom to'xtatish zarur.

Sanoat korxonalarida atmosferaga, suv havzalariiga va tuproqqa ifoslantiruvchi hamda zararli moddalarни tashlaganlik uchun solinadigan maxsus soliqdan keng foydalangan holda mas'uliyatni oshirish darkor. Ularda zamonaviy, samarali tozalash quril-

maliy tizimini joriy etish kerak. Boshlang'ich xom ashyodan tayyor, pirovard mahsulot olgunga qadar kompleks foydalanishga imkon beradigan yangi, zamonaviy, ekologik jihatdan samarali uskunalarini o'rnatish lozim.

2. Qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning taiiy ravishda kengayishini ta'minlagan hamda qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan holda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish darkor.

Respublikaning foydali qazilmalaridan oqilona foydalanish — dolzarb masala. U atrof muhitni muhofaza qilishning bosh omillaridan biridir. Foydali qazilmalarini olish va qayta ishslash chog'ida katta isrofgarchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Boshlang'ich xom ashyodan to'liq foydalanmaslik hollari mavjud. Eskirgan uskunalarini almashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ayrim sexlar, uchastkalar va butun boshli zavodlarni rekonstruksiyalash asosida foydali qazilmalarini sanoat usulida yanada to'liq va oqilona qazib olish muhim vazifa bo'lib turibdi. Atrofmuhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan qaraganda, tog'-kon sanoatining chiqindilarini o'zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Katta-katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslangan tarzda o'zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir havzadan ikkinchisiga tash-

lash, yerning namini qochirish, suv chiqarish tadbirlarini va boshqalarni amalga oshirish) lozim.

4. Jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak.

5. Shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslangan, hozirgi zamон urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimini joriy etish yo'li bilan shaharlarda va boshqa aholi punktlarida aholining yashashi uchun qulay sharoit yaratish zarur.

6. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim. Orol muammosi bugungi kunda chinakam keng ko'lamli, butun sayyoramizga daxldor muammo bo'lib qolganligini, uning ta'siri hozirning o'zidayoq biologik muvozanatni buzayotganligini, bepoyon hududlarda aholining genofondiga halokatli ta'sir ko'rsatayotganligini nazarda tutish lozim.

Xalqaro tuzilmalarning zaxiralari, imkoniyatlari va investitsiyalarini ana shu muammolarni hal qilishga jalb etish — birinchi darajali vazifadir.

Atrof muhitni muhofaza qilish borasidagi yuqorida tilga olingan ta'sirchan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish yaqin vaqt ichidayoq oldingi tizimdan yosh respublikaga meros bo'lib qolgan ekologiya sohasidagi ko'pgina illatlar, kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, keng

ko‘lamdagi ekologik tanglik tahdidini barham toptirish, respublika aholisi uchun, jismonan sog‘lom yosh avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar hamda ekologiya jihatidan musaffo hayotiy muhit yaratish imkonini beradi.

II BOB

BARQARORLIK
SHARTLARI HAMDA
TARAQQIYOT
KAFOLATLARI

MA'NAVIY QADRIYATLAR VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TIKLANISHI

Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarni hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebahoh ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tari-xining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi.

Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, ma'naviy qadriyatlarni hamda biz uchun muqaddas bo'lgan diniy

qadriyatlar va an'analarni qaytarish va tiklash, o'zligimizni anglash ancha murakkab sharoitlarda — eski imperiya tuzumi barbod bo'lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi.

Bir asrdan ziyod davom etgan totalitar qaramlikdan keyin bu jarayon dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o'ziga xos «inkorni inkor» sifatida kechdi. Lekin biz avvalgi tuzumning qadriyatlarini shunchaki inkor etishning o'zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo'limgan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug'dirishini anglar edik. Shu bilan birga, o'tmis qadriyatlariga, an'analariga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka — hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin.

Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi muxolifatning vujudga kelish xavfi tug'ildi. U aslini olganda, ma'naviyatga qarshi muxolifat bo'lishi mumkin edi. Jangari millatchilik, diniy murosasizlik va «o'zimizniki» bo'limgan hamma narsaga nafratning qorishmasi shunday muxolifatning siyosiy maqsadlaridir. Jamiyatimiz o'sha kunlari yuz bergen aniq ekstremistik ruhdagi xatti-harakatlarda bunday munosabat naqadar tajovuzkorona ekanligini, undagi vayron etuvchi omil hamda ayrim siyosiyashgan jangari guruhlarning idroki doirasiga sig'maydigan narsalarga nisbatan nafratning naqadar kuchliligini ko'rmasligi mumkin emas edi.

Voqealarning bunday rivojlanishi xavfli ekanini anglash chuqr o'ylab va har tomonini hisobga olgan

holda yondashishni, ma'naviy tiklanishning ijobiy, bunyodkorlik mohiyatini kuchaytirishga qaratilgan, bir-birini to'ldiradigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy dasturlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirishni zarur qilib qo'ymoqda edi. Ushbu dasturlar, birinchi navbatda, qayta tiklanayotgan merosga farqlab yondashishga, eng muhim, umuminsoniy qadriyat-larni boyitadigan hamda jamiyatimizni demokratiyalash va yangilash talablariga javob beradigan, axloq jihatdan ahamiyatli an'analarni, urf-odatlarni tanlab olish zaruriyatiga asoslangan edi.

Ayni chog'da o'sha davrning ekstremal sharoitlari-da etnoslar o'rtasida qarama-qarshilik chiqishidan saqlab turgan zaif chegarani, chiziqni osongina bosib o'tishi mumkin bo'lgan ehtiroslarni pasaytirish va ularning junbushga kelishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyat kasb etdi.

O'sha kunlarda bunday xavf mavjudligi aniq edi. Faqat xalqimizning aql-idrokiga, irodasiga, sabr-toqatiga va insonparvarligiga tayanib unga murojaat qilishgina hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan fojianing oldini olishimizga yordam bergenligiga hozir ham ishonaman.

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkanning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi.

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari

tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblar ko'p bo'lgan.

Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalari hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum.

Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi — bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodifiy emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan.

O'zbek olimlarining kuch-g'ayratlari bilan tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, XIX asr oxiri — XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, o'tmishimizni «oqlash» vazifalari umuman olganda bajarib bo'lindi; hozir esa asosiy vazifa tarixiy

tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirishdan iboratdir.

Amir Temur yubileyining bayram qilinishi haqida alohida to'xtalib o'tmoqchiman. O'tgan yillar mobaynida «bosqinchi» Temur, «vayron qiluvchi» Temur haqida o'qigan va eshitgan vaqtimizda necha bor o'zimizga o'zimiz: «Qanday qilib uning davrida ona zaminimizda madaniyat va iqtisodiyot bu qadar ravnaq topgan ekan?», deya savol berar edik. Mustaqillikka erishganimizdan keyingina biz buyuk ajdodimizning hurmatini o'rniga qo'ya oldik. Bizning bu intilishlarimizni Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatladi. Bu hol tasodify emas — sohibqiron Amir Temur shaxsi uning avlodlari bo'l mish faqat bizning emas, balki mintaqamizdag'i barcha xalqlarning, butun ma'rifiy insoniyatning boyligidir.

Xalqimizning **etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi** ma'naviy Uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an'analarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar.

Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatları dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu

yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar. So'nggi ikki asr davomida ham o'zlarini «madaniyatli» va «ma'rifatli» hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg'inlar va diniy ta'qiblar bilan o'zlariga dog' tushirgan bir paytda, O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch birlashgan joygina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi.

Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini vatanparvarlik, milliy iftixor, butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi. Bu esa xalq Ruh qudratining birinchi belgisidir. Bu Ruh shu qadar yorqin va o'ziga xoski, u integratsiyadan aslo cho'chimaydi, aksincha, jahon hamjamiyatining uzviy bir qismiga aylanishga harakat qilmoqda.

Istiqlolimiz besh yilligining eng muhim yakuni barcha xalqlar uchun «Umumiy uy»ga asos solinganligi, yangi ko'p elatli birlik vujudga kelganligi bo'ldi. O'zbek madaniyatining umuminsoniy mohiyati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlarning va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi bu birlikning negizini tashkil etdi.

O'zbek xalqi Ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lган hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar, o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'imqodalar. Bu esa mustaqillik

yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy-ruhiy negizni vujudga keltirdi.

Xalqimiz tarixan turkiy xalqlar oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, panturkizmni va «Buyuk Turon» shovinistik g'oyasini qat'ian rad etdi. Biz uchun Turon — mintaqadagi turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning o'ta siyosiy emas, balki madaniy birligining ramzidir. Bundan tashqari, umumiyligi madaniy, tarixiy va antropologik ildizlarimiz bizni tojik xalqi bilan ham tutashtiradi. Bu hol bizga o'z madaniyatimizni Markaziy Osiyo uchun ma'lum darajada noyob bo'lgan turk va fors madaniyatlarining sintezi deb hisoblashga to'la huquq beradi. Ana shunday boylikka ega bo'lgan O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniy integratsiyalashuvining tashabbuskori bo'lishi mumkin va lozim. O'zbekiston mintaqaviy mezonlarga ko'ra yuksak darajadagi urbanizatsiya va sanoatlashuvni, shuningdek, ilmiy-texnikaviy kadrlar bilan ta'minlanganlikni, turmush tartibi va tarzining chuqur an'analigini o'zida mujassamlashtirgan. Shu bois u Sharq bilan G'arb muloqotida vositachi, ko'plab sivilatsiyalar ma'naviy aloqasining ramzi ham bo'lishi mumkin.

Jamiyatning **diniy-ruhiy asoslarini**, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka ega bo'lish yo'llidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi. Eski masjidlar ta'mirlanmoqda va yangilari bunyod qilinmoqda. O'quv yurtlari tarmog'i kengaymoqda. Diniy adabiyotlar nashr etilmoqda.

Islom milliy an'analarining, islom madaniyating Tiklanish jarayoni islomni tashqaridan har qanday «import» qilishdan voz kechish, islomga siyosiy tus berish va siyosatga islom ruhini baxsh etishidan voz kechish to'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Movarounnahrning musulmon madaniyati etnik sabr-toqat va bag'rikenglik ruhini o'zida aks ettirdi. Uning Forobiy va Ibn Sino asarlarida o'z in'ikosini topgan ideali — Fozil kishilar shahri nafaqat diniy asosda, balki madaniy va axloqiy negizda ham uyushgan odamlarning hamjamiyatidan iborat bo'lganligi tasodifiy hol emas. Konstitutsiyamizda yozib qo'yilgan dinga e'tiqod qilish erkinligi O'zbekiston yoppasiga «islomlashtirilishi» mumkinligi haqidagi noo'rin hadiksirashlarga barham berdi. Boshqa diniy oqimlarning tiklanishi va normal rivojlanishini mumkin qilib qo'ydi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyodagi islom dinining ruhan o'ziga xosligini anglab yetish madaniy boyligimizning bir qismi bo'lmish islomdan oldingi madaniyatni chuqur o'rganishni taqozo qiladi.

Ma'naviy-ruhiy tiklanish insonning yerga va uning boyliklariga bo'lgan munosabatini ham o'z ichiga olishi lozim. Sivilizatsiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa, qishloq xo'jaligi ming yillar mobaynida butunlay sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan mintaqada **yer va suvni asrab-avaylash ham** shunchalik muhimdir. Yer, havo, suv va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadr lab kelingan.

Afsuski, oxirgi yuz yillikda aynan mintaqaning ekologik tizimiga juda katta zarar yetkazildi. Ajdod-

larimizning tabiatdan foydalanish sohasidagi an'anaviy odob-axloq qoidalari unutib yuborildi. Bu qoidalarga ko'ra suv va yerni o'ylamay-netmay bulg'ash, isrof qilish gunohi azim hisoblanar edi.

Markaziy Osiyo xalqlari islomdan oldingi mada-niyatining tabiatdan oqilona, uyg'un foydalanish an'analarini o'rganish va ommalashtirish zarurligini alohida ta'kidlash joiz.

Odamlarni daryolarning musaffoligi va tuproq unumdarligi haqida g'amxo'rlik qilishga da'vat etgan zardushtiylik aynan bizning zaminimizda vujudga kelganligi tasodifiy emas. Boshqa ta'limotlar — buddizm va manixeylik ham tabiatni avaylab-asrash ideal jamiyatga olib boradigan eng muhim yo'llardan biri ekanligini targ'ib qilgan. Inson bilan Tabiatning uyg'un munosabatlari to'g'risidagi ana shu g'oyalar Movarounnahrda musulmon Uyg'onish davriga juda katta hissa qo'shgan Markaziy Osiyodagi so'fiylik ta'limotlarida ham uchrashi tasodifiy emas.

O'z vaqtida gollandlar tabiatga oqilona yaratuv-chilik munosabatida bo'lishdan iborat o'z milliy modellarini amalga oshirib, dengizdan serhosil yerlarni ajratib oldilar. Mana shu misol biz uchun chuqur ramziy ma'noga ega. Oroldagi ekologik fofia tufayli dengizni quruqlikka emas, balki quruqlikn ni dengizga aylantirishimiz kerak bo'ladi.

Ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbai an'anaviy **oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan** iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordam-lashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan. Afsuski, bu

qadriyatlarga ham sovet davrida jiddiy putur yetdi. Sovet tuzumi xususiy tadbirdorlikni taqiqlab, «yaqinlarini qo'llash»ga qarshi kurash bahonasida oilalardagi va qarindosh-urug‘ ichidagi kasbiy ko'nikmalarning meros bo'lib o'tishini yo'qqa chiqardi. Oilalar va urug‘larning an'anaviy kasbiy va iqtisodiy «o'rni» yo'qotilishiga sababchi bo'ldi. Natijada bu ko'nikmalar va axloqiy normalar to'siqqa uchradi. Urug‘-aymoqchilik va oshnalog‘aynigarchilikning ijtimoiy buzuq shakllari yuzaga kela boshladи. Shu bilan birga, qarindoshlarning o'zaro yordami ba'zi hollarda jamiyat taraqqiyotini sekinlash-tirib qo'yadigan tayyorga ayyorlikka va tanish-bilishchilikka aylanib ketdi.

Oila qadriyatları va qon-qarindoshlik munosabatlarining qayta tiklanishi o'z umrini yashab bo'layotgan oila-urug‘ munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, madaniy va kasb jihatidan erkin bo'lish imkoniyatini anglatishi lozim.

Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadriyatlari-ga moslashishini ham anglatadi.

Biz hozirgi sivilizatsiya o'zida ifoda etadigan ijobiy qadriyatlar jumlasiga huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayoni bilan bog'liq bo'lган qadriyatlarni kiritamiz. Bu — inson huquqlariga rioya etish, tadbirdorlik erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va hokazolardir.

Ushbu demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar tarixiy jihatdan ham, etnik-madaniy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga

zid emasligini qayta-qayta ta'kidlashni istardik. Qolaversa, tadbirkorlik, erkin savdo, ijtimoiy adolat, o'zaro murosayu madora va boshqalarning fikrini hurmat qilish degan tushunchalar bizning zaminimizda tarihiy ildizlarga ega.

Shu bilan birga, biz o'ylamay-netmay nusxa ko'chirishga ham qarshimiz. Amaliyot bunday qadamning tayyorgarlik ko'rmagan omma ongi uchun xavfli ekanligini ko'rsatmoqda. Siyosiy erkinlikni ancha tez va nizolarsiz qo'lga kiritish mumkin. Bunga sobiq sovet respublikalarining siyosiy suverenitetni qo'lga kiritishi misol bo'la oladi. Nisbatan tez iqtisodiy erkinlikka erishish mumkin. Buni ham biz Sharqiy Osiyoning sanoati rivojlangan mamlakatlari misolida ko'rib turibmiz. Lekin davlatning ichida siyosiy erkinliklarni ta'minlash — puxta o'ylab, har tomonni hisobga olib yondashishni, odamlar ongida uzoq muddat moslashishni talab qiladigan jarayondir.

Hozirgi demokratik jamiyatning eng muhim voqeliklaridan biri ijtimoiy raqobatdir. Xalqimizning an'anaviy qadriyatları u bilan uyg'unlashtirilmog'i kerak. Bozor tuzilmalari rivojlanib borgan sari bu raqobat ancha bema'ni tus olishi, ijtimoiy ziddiyatga aylanib ketishi mumkin. Bunday raqobatga ma'rifiy, ijodiy tus berishga, uni musobaqaga, bunyodkorlikka aylantirishga birinchi navbatda iqtisodiyot bilan bog'liq bo'limgan, eng avvalo, madaniy-axloqiy mexanizmlar yordamida erishish mumkin. Bu mexanizmlar qayta tiklanayotgan milliy qadriyatlar bilan hozirgi zamon sivilizatsiyasi singdirayotgan yashash me'yollarining umumlashmasidan iborat bo'lmg'i darkor.

Jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga yanada kuch baxsh etdi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratdi. Ayni mahalda o'zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni tez o'rghanib olish kabi noyob fazilatlari to'la-to'kis ro'yobga chiqishiga imkon berdi. Ana shu aloqalar tufayli milliy mehmonnavozlik va saxovat an'analari yanada rivojlandi.

Bunday aloqalarning kengayishi haqiqiy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni munosib baholash imkonini berdi. Hozirning o'zidayoq aholining keng qatlamlari orasida 80-yillarning oxirlarida mamlakatimiz tomoshabinlari va kitobxonlariga yog'dirilgan g'arbning sun'iy san'atidan, «keng iste'mol»dagi madaniyatidan norozilik sezilib turibdi. Bunday mahsulotning ilgarigi «man etilgan ne'mat»ga xos «lazzati», jozibadorligi qolmagan. Hozirgi kunda xorijning madaniy qadriyatlaridan foydalanishga ancha jiddiy va tanlab yondashish ehtiyoji kuchayib bormoqda.

Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo'lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqivotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va, aksincha, bilimi kam, omi odamlar av-

toritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishini
hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda.

Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganib olishimiz lozim. O'zbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san'at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodifiy emas. Bu san'at turlari chet elda keng e'tirof etilgan. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmosg'i kerak.

Mustaqillik mamlakatimiz aholisining bilim doirasini kengaytirdi. Tarix va hozirgi zamon voqeiliklariga murojaat qilish bizning ijtimoiy tafakkurimizdan hayotni idrok etishning mavhum va aqidaparastlik qoliplarini yengib o'tishni, mustaqil fikr yuritish va ro'y berayotgan hodisalarni baholay olish qobiliyatini talab etdi.

Ma'naviy Tiklanish — fikrlash tarzini mustaqillik ruhi belgilaydigan yangi avlodga mansub ijodiy ziylolilarning paydo bo'lishi demakdir. Bizning tushunishimizcha, qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish — o'z tarixiy o'tmishimizdan voz kechish degani emas. Bu biryoqlama va tor fikrlashdan voz kechish demakdir. Milliy tafakkur o'z taraqqiyotida madaniy qurilish vazifalariga dunyo miyosida yondashishi, boshqa xalqlarning taqdiri, ularning o'zaro munosabatlari bilan yaqindan qiziqishi, ular hayoti-

ning eng teran nuqtalarigacha kirib borishi, milliy manfaatlarni hisobga olishi kerak.

Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongingin ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi.

Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish keljakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir.

DAVLATCHILIKNI SHAKLLANTIRISH VA MUDOFAA QOBILIYATINI MUSTAHKAMLASH

Istiqlol yillari yangi mustaqil O'zbekistonning milliy davlatchiligi poydevorini barpo etish sohasida puxta va jiddiy ish olib borilgan davr bo'ldi. Ma'lumki, davlatchiligidan ming yillik tarixi Rossiya imperiyasiga zo'rlik bilan qo'shib olinishimiz natijasida uzilib qolgan edi. Faqat mustaqillikka erishilgandan keyingina xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga aylangan suveren O'zbekiston yangi davlatchiligini qurish va rivojlantirishga kirishdi. Boshqacha qilib aytganda, faqat istiqlolgina xalqimizga o'z Vatanida o'zini erkin his qilish, chinakam milliy qadriyatlarni tiklash, o'z milliy davlatchiligini shakllantirish imkonini berdi.

Mustaqillikka erishilgach, xalqimiz oldida keskin muammolar ko'ndalang bo'ldi. Ularni hal qilmasdan turib, demokratiya va hokimiyatni taqsimlash princi plariga asoslangan yangi davlatchilikni barpo etish, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish mumkin emas edi.

O'zbekiston demokratiya qadriyatlarini, shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash, erkin bozor iqtisodiyotini barpo etishni o'zi uchun eng ustuvor qadriyatlar sifatida tanladi.

E'lon qilingan maqsadlarga avvalgi, mafkuraviy totalitar tuzumni tubdan buzib tashlamasdan, o'tmish odatlardan voz kechmasdan erishib bo'lmasdi.

Shu bois quyidagilar eng asosiy vazifamiz bo'lib qoldi:

Birinchidan. Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlarini tugatish.

Ikkinchidan. Yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy, konstitutsiyaviy asoslarini yaratish. Konstitutsiya va qonunlarda ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimini, ham markazdagi, ham joylardagi davlat hokimiyati organlarining yangi tizimini mustahkamlab qo'yish.

Yangi o'zbek davlatchiligining qaror topish jarayoni ham tashqi, ham ichki murakkab sharoitlarda ro'y berdi.

Ichki siyosatimizda biz bir-biriga bog'liq ikki vazifani hal qilishimiz lozim edi. Bu — yangi davlatchilikni barpo etish hamda keng ko'lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish vazifasi edi.

Yangi mustaqil davlatlarda islohotlarni amalga oshirish shuni ko'rsatmoqdaki, bozor islohotlarini ro'yobga chiqarish iqtisodiyotda tanazzulga, aholining ko'pchilik qismi turmush sharoitining pasayishiga olib keldi. Bu jamiyatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Amaliy ish yurita olmaydigan, ko'pincha mas'uliyatsiz va ekstremistik kayfiyat-dagi, kalondimog' muxolifat bu muammoni ayniqsa keskinlashtirib yubordi. Demokratiya bayrog'i ostida o'zining xatti-harakatlari bilan jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqardi.

Avvalambor, qo'shni Afg'onistondagi harbiy-siyosiy mojaro va Tojikistonda davlatchilikning qaror topishidagi qiyin kechayotgan jarayonlar yangi davlatchilikni barpo etishga tahdid tug'diruvchi tashqi siyosiy omillar bo'ldi. Bu omillar yanada kuchayib ketgan taqdirda, butun Markaziy Osiyo mintaqasiga yoyilishi, eng avvalo O'zbekistonni qamrab olishi muqarrar edi.

Sovetlardan keyingi makonda vujudga kelgan yangi mustaqil davlatlarda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va Hamdo'stlik doirasida vujudga kelayotgan davlatlararo munosabatlar, integratsiyani jadallashtirish va chuqurlashtirish shiori ostida milliy suverenitetning qaror topishi va mustahkamlanishi jarayonini to'xtatib qo'yishga turlichay urinishlar yangi davlatchilikning vujudga kelish jarayoniga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas edi.

Bulardan tashqari, yangi davlatchiligidan biz ko'p ishlarni ibtidosidan boshlashga hamda tashqi siyosiy faoliyat bobida yetarli tajribaga ega bo'limgan

holda jahon hamjamiyatida o'z o'rnimizni topishga majbur bo'lgan bir vaziyatda qaror topdi.

Mana shu omillarning barchasi O'zbekistonning yangi mustaqil davlatchiligi murakkab sharoitlarda qaror topishiga sabab bo'ldi.

Hozir biz bu yillar mobaynida milliy davlatchilikka poydevor qo'yilganligini ishonch bilan ayta olamiz. Eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va unga mos bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham toptirildi. Siyosiy va iqtisodiy boshqarish hamda tartibga solishning ko'pgina tuzilmalari va organlari tugatildi. Ular ma'muriy-buyruqbozlik tiziminining, markazlash-tirilgan rejalash-taqsimlash iqtisodiyotining ustunlari edi. Ular demokratik qadriyatlar va tamoyillarga yo'naltirilgan yangi davlatchilikning qaror topishi va erkin bozor iqtisodiyotining poydevorlarini yaratish yo'lidagi asosiy to'siq bo'lib keldi.

1992 yil dekabrida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat hayotida ulkan siyosiy voqeа, yangi O'zbekistonni qaror toptirish jarayonidagi muhim qadam bo'ldi. O'zining Asosiy Qonunida davlat tuzumi prinsiplerini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy negizlari va strategik yo'naliishlarini mustahkamlab qo'yagan davlat chinakam suveren davlat bo'la olmaydi. Konstitutsiya suveren davlatimizning qonunchilik-huquqiy negizini shakllantirishning asosiy poydevori, mustaqil davlatchili-gimizning tamal toshi bo'ldi.

Konstitutsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati organlarining avvalgi totalitar tuzumdan mutlaqo farq

qiladigan, hokimiyatlarning, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining bo'linishi prinsipiiga asoslangan tizimi yaratildi. Ularning har biri faoliyatida huquqiy asosda avtoritarizm va totalitarizmning xurujlarini istisno etadigan chinakam demokratik me'yorlar va yo'l-yo'riqlar qaror toptirildi.

Tashkil etilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi oldingilaridan tubdan farq qiladi. Ular rejalash-taqsimlash vazifalaridan xoli bo'lib, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish va tartibga solish rolini bajarmoqda. Ko'plab vazirliklar o'rniga bozor sharoitlariga mos bo'lgan xo'jalik birlashmalari, uyushmalari, konsernlar, korporatsiyalar, xolding kompaniyalar tashkil etildi.

Davlat hokimiyati mahalliy organlarining yangi tizimi vujudga keltirildi. Uning asosini hokimlar instituti tashkil etadi. Unda joylardagi ijro etuvchi hokimiyat bilan vakillik hokimiyati rahbarining vazifalari birlashtirilgan.

Mahalliy hokimiyat organlarining muntazam tizimini fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu organlarning asosini fuqarolar yig'inlari — mahallalar tashkil etadi. Ular xalqning tarixiy an'analari va ruhiyatini hisobga olish asosida tuzilgan. O'z-o'zini boshqarishning muhim ijtimoiy organi bo'lmish mahallaning ahamiyati hamisha juda yuqori bo'lgan.

Mahalla odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshi qo'shnichilikni, hurmat va insonparvarlikni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. U fuqarolarning ijtimoiy

manfaatlarini himoya qiladi, aholining muhtoj qatlamlariga aniq yordam ko'rsatadi.

Ayni chog'da, hozirgi sharoitda mahallaning vazifalari yangi mazmun bilan boyitilishi lozim. Gap shundaki, mahalla iqtisodiy va demokratik o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishda amaliy madad bo'lmog'i zarur.

Konstitutsiyaga muvofiq, yangi demokratik saylov tizimi asosida O'zbekiston tarixida ilk bor Respublika parlamenti — Oliy Majlis hamda vakillik hokimiyatining mahalliy organlariga ko'ppartiyalilik asosida erkin, muqobil saylov o'tkazildi. Natijada davlat hokimiyatining Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy kengashlari dan iborat qonun chiqaruvchi tarmog'i vujudga keltirildi. U samarali ishlab turibdi.

Huquqiy islohotlar borasidagi ulkan va aniq maqsadga qaratilgan kuch-g'ayratlar natijasida, Asosiy Qonunning qoidalari negizida respublika sud tizimi mustaqil va boshqa tarmoqlarga bog'liq bo'limgan hokimiyat sifatida qaror toptirildi. Sud hokimiyatining yangi tuzilmalari vujudga keldi. Sudning huquq doirasi kengaydi.

Jamiyatni demokratik rivojlantirishning strategik maqsadlari va qoidalari muvofiq, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, milliy xavfsizlik organlarining ko'p jihatdan yangi bo'lgan tizimi barpo etildi. Milliy armiya — O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi milliy davlatchilikni qaror toptirish yo'lidagi g'oyat muhim yutuq bo'ldi.

Tashqi aloqalarni ta'minlaydigan institutsional tuzilmalar: Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy

banki hamda boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalarning butun boshli tarmog'i vujudga keltirildi.

O'zbekiston tarixida ilk dafa joriy etilgan Respublika Prezidenti lavozimi yangi O'zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o'rinni egalladi. U siyosiy tizimning o'zagi bo'lib qoldi.

Prezidentlik hokimiyatida Prezidentning davlat boshlig'i va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sifatidagi vakolatlari mujassamlashgan. Bu hokimiyat jamiyatdagi barqarorlikning va O'zbekiston islohotlar yo'lidan muvaffaqiyatli olg'a borishining kafolati bo'lgani holda, yangi o'zbek davlatchiligi binosining asosiy tayanchiga aylanib qoldi.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi, o'tgan yillar mobaynidagi jo'shqin qonunchilik faoliyati huquqiy davlatni shakllantirishning barcha fuqarolar qonun oldida tengligini, qonunning ustuvorligini kafolatlaydigan mustahkam negizlarini yaratish imkonini berdi.

Shu bilan birga, davlatning mohiyati butunlay, tubdan o'zgardi. Davlat dastlabki bosqichda jamiyatni yangilashning eng faol kuchiga aylangani holda, islohotlarning bosh tashabbuskori va yo'naltiruvchisi, ijtimoiy hayotdagi yangi g'oyalarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lib qoldi.

Yangi o'zbek davlatchilagini qaror toptirishning birinchi bosqichidagi vazifalar bajarilishi O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tibori ortishi va mustahkamlanishida, jahon hamjamiyatidagi ko'plab mamlakatlar bilan do'stlik va hamkorlik munosabatlarini o'rnatishda va rivojlantirishda o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston mustaqil, suveren davlat sifatida eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'ldi.

Hozirgi vaqtida demokratik siyosiy tizimning eng muhim subvekti bo'lmish davlatchilikni isloh qilishda yangi vazifalar ko'ndalang turibdi. Bu, avvalambor, hozirgi bosqichda sivosiv institutlarning va nodavlat ijtimoiy uyushmalarining xilma-xilligi hamda ularning roli mustahkamlanishi, shuningdek, aholining siyosiy faolligi oshishi asosida jamiyat havotini vanada demokratiyalash vazifalari muhim va dolzarb bo'lib qolganligi bilan izohlanadi.

Yangi sharoitda davlatning, davlat hokimiysi va boshqaruv organlarining g'oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy strukturalar, fuqarolik jamiyatining endigina paydo bo'lib kelayotgan xilmayxil institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir.

Butun davlat hokimiysi organlari ishining samaradorligini saqlab qolgan holda hokimiyat vakolatlarini markaz ixtiyoridan soqit qilish, bu vakolatlarning bir qismini markazdan mintaqalarga, mahalliy hokimiyat organlariga olib berish yo'llarini izlab topish zaruratga aylanib bormoqda.

O'z navbatida, davlat hokimiysi mahalliy organlari yangi sharoitlarda o'z hokimiyat vakolatlari hamda vazifalarining bir qismini fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga topshirish yo'li bilan ularning rolini kuchaytirish va obro'-e'tiborini mustahkamlash imkoniyatlarini belgilab olishlari lozim.

Islohotlarning dastlabki bosqichida davlatning faol roli asosiy vakolatlar davlatning va, eng avvalo, ijro

etuvchi hokimiyatning ixtiyorida bo‘lishini taqozo etdi. Demokratik o‘zgarishlarning hozirgi bosqichi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning uzoq vaqtga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Bunda davlatning roli demokratik taraqqiyotimizning pirovard maqsadi — fuqarolik jamiyatni barpo etish maqsadiga asoslangan holda tubdan o‘zgarishi darkor. Biz bunda kuchli markaziy davlat hokimiyati o‘zining kuch-g‘ayratlarini asosiy, umummilliy vazifalarga, chunonchi, mudofaa, davlat xavfsizligi va fuqarolar xavfsizligi, tashqi siyosat, valuta-moliya hamda so‘liq tizimlarini shakllantirish, qonunlar qabul qilish va taraqqiyotning boshqa strategik vazifalariga qaratadigan davlat ijtimoiy qurilish tizimini barpo etishimiz lozim. Boshqa masalalarni hal qilish esa asta-sekin markazdan joylarga, davlat hokimiyati organlaridan jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga topshirilmog‘i kerak.

Bu davlatchilikni shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi strategik vazifamizdir. U biz tanlab olgan jamiyatni demokratik rivojlantirish yo‘liga asoslanadi.

Shu bilan birga, hozirgi sharoitda O‘zbekistonning yangi davlatchiligini mustahkamlash uchun jamiyatning siyosiy institutlari tizimida davlatning rolini yanada aniqroq belgilash kerak. Bu, eng avvalo, milliy xavfsizlik asoslarini mustahkamlash, mamlakatning barqarorligini, qat’iy siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotini saqlab qolish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari tashqi

va ichki tahdidlardan kafolatlangan tarzda himoya-
langanligini bildiradigan milliy xavfsizlik — kompleks
tadbirlar tizimidir. Unda kuchli davlat bilan bir qatorda,
fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari amalga
oshirayotgan faol ishlar, shuningdek, turli nodavlat
tuzilmalarining keng tarmog'i milliy xavfsizlikni
ta'minlashning zarur va muhim tarkibiy qismlariga
aylanib bormoqda.

Milliy xavfsizlikka mamlakat ichida tug'ilayotgan
tahdid demokratik nodavlat, fuqarolik tuzilmalarini
mustahkamlash yo'li bilan ancha samarali barham
toptiriladi. Bu tuzilmalarda aholining fuqarolik faolligi
yuzaga chiqadi va ularning jo'shchin faoliyati orqali
yashirin siyosiy ekstremizm xavfi bartaraf etiladi.

Davlat milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi
asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu hol davlat
hokimiysi organlarini isloh qilish muammolariga
e'tiborni kuchaytirishni zarur qilib qo'yadi. Bunda
hokimiyatning markazdan joylarga o'tish jarayoni
mintaqaviy separatizmga olib kelmasligi kerak. Jamiat
hayotini demokratiyalash esa turli shiorlar ostida si-
yosiy ekstremizmning avj olishi uchun asos bo'lmas-
ligi lozim. Shu sababli yangi bosqichda gap ijtimoiy
taraqqiyot jarayonlarida davlatning roli pasayishi haqida
emas, balki yanada aniqroq yuzaga chiqishi, strategik
yo'nalishlar belgilanishi va ularda yaqin kelajakda
davlatning yetakchi roli saqlanib qolishi to'g'risida
boradi.

Milliy xavfsizlik, mamlakatning suvereniteti va
hududiy yaxlitligini ta'minlashga hozirgi bosqichda
birinchi galda tashqi kuchlar ko'proq tahdid solmoqda.

Vatanimiz janubiy chegaralari yaqinidagi qurolli mojarolarning o'choqlari harbiy xavfning potensial manbalaridir. Bu vaziyat davlatimizning mudofaa qobiliyatini, ya'ni ro'y berishi mumkin bo'lgan tajovuzdan himoyalanishga tayyorlik darajasini faqat bizning mamlakatimiz uchun emas, balki butun mintaqa uchun ham milliy xavfsizlikni va barqarorlikni ta'minlashning eng muhim sharti darajasiga ko'tarmoqda.

Ma'lumki, davlatning mudofaa qobiliyati uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy va ma'naviy imkoniyatlaridan tarkib topadi. Bu sohada biz yuritadigan siyosatning asoslari Oliy Majlis tomonidan jamiyatimiz hamma qatlamlarining keng va har tomonlama muhokamasidan so'ng qabul qilingan harbiy doktrinada mustahkamlab qo'yilgan. Xalqimiz uning mudofaa xussiyatini hamda unga asos bo'lgan qoidalarni ma-qulladi. Bu, eng avvalo, kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish, mudofaa qobiliyatini oqilona darajada saqlab turish, xalqaro huquq qoidalari va normalariga og'ishmay rioya etish majburiyatlarini qabul qilish, xalqaro bitimlar bo'yicha o'z zimmamizga olgan majburiyatlarni bajarish va shu kabilardir.

Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir. Ularning jangovar qudrati hamda bosqinchini qurolli mojarolar va urush boshlab yuborishdan tiyib turish vazifalarini bajarishga tayyorlik darjasidan hamda mamlakat hududiga bosqinchilik qilingan taqdirda oddiy qurol-yarog'larning har xil turlaridan foydalangan holda bosqinchini tor-mor qilishdan iboratdir.

Harbiy qurilish sohasidagi maqsad professional armiyani, o'z tarkibida yaxshi tayyorlangan va ta'lif olgan, o'z xalqiga, ona zaminiga sadoqatli bo'lgan, o'z Vatanining sha'ni va qadr-qimmatini oxirigacha himoya qila oladigan jangchilarga ega bo'lgan armiyani bosqichma-bosqich vujudga keltirishdan iborat bo'lishi lozim. Maqsad miqdor jihatdan uncha katta bo'limgan, lekin yaxshi shaylangan, zamonaviy qurollar va harbiy texnika bilan bekamu ko'st qurollangan, O'zbekistonning xavfsizligini mustaqil ravishda va puxta ta'minlashga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlarni shakllantirishdir.

Bizning Qurolli Kuchlarimiz har qanday vaziyatda harakat qilishga tayyor turishi, mamlakatning jo'g'rofiy-strategik mavqeini va hududining jo'g'rofiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ehtimol tutilgan bosqinchiga quruqlikda va havoda munosib zarba bera olish uchun jangovar salohiyatga ega bo'limg'i zarur.

Qurolli Kuchlarning harbiy qudrati, jangovar qobiliyati ko'plab omillardan tarkib topadi.

Birinchisi — bu, shaxsiy tarkibning miqdori va sifati. Bu sifat uning professional darajasi, axloqiyruhiy qat'iyati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi.

Ko'rini turibdiki, Qurolli Kuchlarimizning tarkibi, tuzilishi va miqdori, bir tomonidan, mintaqadagi haqiqiy harbiy-siyosiy vaziyatga, tashqaridan tug'ilishi mumkin bo'lgan harbiy tahdidlarga muvofiq bo'limg'i lozim. Ikkinci tomonidan esa, davlatimizning real imkoniyatlari va resurslariga mos bo'limg'i kerak.

Shaxsiy tarkibning talabga javob beradigan sifat darajasini ta'minlashda uning professional tayyorgarligi,

o'quv-moddiy bazaning holati g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bunda yoshlarga harbiy ta'lif beruvchi butun tizimning roli ham beqiyosdir. U jamiyatimizning jismonan va ma'nani baquvvat a'zolarini, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini, xalqimizning madaniy va ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirib olgan Vatan fidoyilarini tayyorlashi kerak.

Bu yo'nalishda ancha ish qilindi. Xususan, xilmalix qo'shin turlari uchun ofitser kadrlar tayyorlash tizimi barpo etildi. Bizda to'rtta harbiy bilim yurti, shu jumladan uchuvchilar tayyorlaydigan harbiy bilim yurti, shuningdek, 1994 yilda ochilgan, aloqa mutaxassislarini tayyorlaydigan harbiy fakultet ham mavjud. 1995 yilda tashkil etilgan Qurolli Kuchlar Akademiyasi ofitser kadrlarga oliy harbiy ta'lif bera boshladi.

Davr bizdan o'quv-tarbiya jarayonini, milliy kadrlar tayyorlashni tashkil etish va takomillashtirishga jiddiy e'tibor berishni talab etmoqda. Bu jarayon eng zamonaviy talablarga javob berishi, harbiy fanning eng so'nggi yutuqlarini, jangovar harakatlarni olib borish tajribasini, shu jumladan chet el tajribasini ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Bunda Markaziy Osiyo mintaqasining xususiyatlarini nazarda tutish, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Bobur singari buyuk ajdodlarimizning sarkardalik qobiliyatlarini, harbiy san'atlarini va strategik tafakkurlarini o'rganish, ulardan saboq olish zarur.

Ikkinchisi — bu, Qurolli Kuchlar harbiy qudratining eng muhim qismi bo'lgan qurolyarog'lar va harbiy texnikanining miqdori va sifati masalasidir.

Davlat Qurolli Kuchlarni jangovar texnika va qurolyarog'larning eng so'nggi namunałari bilan qurollantirish choralarini ko'rmoqda. Zotan, Qurolli Kuchlarni qurolyarog' va jangovar texnika bilan qurollantirish, ularning sifatini potensial dushmandan ustunlikni ta'minlashga erishadigan darajada tutib turish har qanday davlat uchun ham juda murakkab muammodir.

Uchinchisi — bu, harbiy infrastruktura bo'lib, Qurolli Kuchlardan jangovar holatda foydalanishda uning roli beqiyosdir.

Qurolli Kuchlarni barpo etish yillarida boshqaruva va aloqa tizimi, harbiy, ichki va texnikaviy ta'minot, xilma-xil qo'shin turlarini joylashtirish tizimi umuman shakllandi. Hududni tezkor jihozlash takomillashtirilmoqda. U qo'shirlarning bugungi tuzilishi, miqdori va joylashuviga mosdir.

Qurolli Kuchlarni barpo etishning gal dagi vazifalari bu boradagi kuch-g'ayratlarni oshirib borishni talab qiladi. Ravshanki, ular o'zaro mutanosib bo'lishi, bir-biriga munosib jangovar va ichki qismlardan tashkil topishi lozim. Harbiy infrastruktura qo'shirlarning joyini tezlik bilan o'zgartirishni ta'minlashi shart. Biz Qurolli Kuchlarni samarali boshqarish va barpo etish uchun strategik va operativ jihatdan oldindan ko'ra olish imkoniyatini ta'minlamog'imiz zarur.

To'rtinchisi — sanoatni tezda qayta qurish va safarbarlik rejasi topshiriqlarining bajarilishini ta'minlash uchun zamin hozirlash. Safarbarlik resursini qabul qilish va sharoitga moslashtirish. Belgilab qo'yilgan eng qisqa muddatda harbiy jihatdan uyg'unlashuvni tugallash. Keng ko'lamdagi bosqinchilik yuz bergan taqdirda jangovar vazifani

bajarishga tayyor bo‘lishni ta’minlash. Bular mamlakatning mudofaa qobiliyati uchun g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.

Davlatning iqtisodiyoti, sanoatning imkoniyatlari, uning safarbarlik tayyorgarligi mamlakat mudofaa qibiliyati holatiga ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz. Zero, iqtisodiy imkoniyat — Vatanimiz mudofaa qobiliyatining asosidir.

O‘zbekistonning mudofaa qobiliyatini, harbiy xavfsizligini mustahkamlashda tashqi iqtisodiy va tashqi siyosiy sohalarning ham roli bebahodir.

Hozirgi sharoitda xavfsizlik faqat kollektiv bo‘lishi mumkin. U hamfikr davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan, ularning imkoniyatlarini birlash-tirish bilan ta‘minlanadi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston BMT, YEXHT bayrog‘i ostida tinchlikni qo‘llab-quvvatlash sohasida amalga oshirilayotgan har qanday tadbirlarda ishtirok etishga tayyor. U mintaqada kollektiv xavfsizlik tizi-mini vujudga keltirishning tashabbuskorlaridan biridir. Toshkentda 1992 yil may oyida MDH davlatlari o‘rtasida ana shunday dastlabki shartnomalardan biri imzolandi.

Qo‘silmaslik harakatining a’zosi bo‘lgan O‘zbekiston biron-bir harbiy-siyosiy blokda qatnashishni nomaqbul deb hisoblaydi, buni milliy xavfsizlikning, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlashning kafolati deb biladi. Shuningdek, MDH hududida harbiy-siyosiy blokni shakllantirish dunyoni eski, boshdan kechirilgan «sovuv urush» davrlariga qaytarishini nazarda tutib, bunday blokni tuzishga qarshi chiqadi.

Biz O'zbekistonning milliy xavfsizligini mustahkamlash va tashqaridan bo'ladigan tahdidiga qarshilik ko'rsatish borasidagi munosabatlarni bevosita manfaatdor bo'lgan davlatlar bilan shartnomaga asosida tashkil etish niyatidamiz. Bunda umumiy xavfsizlik hamda mintaqada barqarorlikni saqlab qolish prinsipiiga amal qilamiz. Yana bir bor ta'kidlab aytmoqchimanki, bunday harbiy-siyosiy shartnomalarni tuzish mamlakatimizning to'la suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda uning mavjud chegaralari daxlsizligini ta'minlashi kerak.

1994 yil iyul oyida O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» Dasturiga qo'shildi. Bu Dastur kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini, shu jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida ham vujudga keltirishga qaratilgandir. NATO bilan hamkorlik qilish harbiy-siyosiy voqealardan xabaridor bo'lib turish, bu uyushma doirasida amalgalashirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan bahramand bo'lish uchun imkon beradi. NATO mamlakatlarining tadbirlarida, jumladan harbiy bo'linmalarning birgalikdagi mashqlarida qatnashish mumkin bo'ladi. Bularning barchasi qismlarimizning jangovar tayyorgarligini ko'tarishga, ilg'or jangovar tajribani o'rganish, ya'ni pirovardida mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini yuksaltirishga yordam beradi. Shu bilan birga davlatimizning jahondagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan demokratik mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, gumanitar sohalardagi aloqalarini mustahkamlashga sharoit tug'diradi.

O'zbekiston chet mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zining ikki tomonlama va ko'p tomon-

lama hamkorligini keng rivojlantirar ekan, aftidan, ular bilan harbiy-siyosiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni ham faollashtirishi zarur bo‘ladi.

Xavfsizlik tizimini shakllantirish haqida gapirganda, biz mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash muammolarini samarali hal qilish, birinchidan, bitta idora doirasida amalga oshirilishi mumkin emasligini, harbiy infrastrukturani, sanoatning mudofaa tarmoqlarini rivojlantirishga aloqasi bo‘lgan boshqa tashkilotlar va institatlarni tashqi siyosatni amalga oshirishga jalb etishni hamda bu idoralarning barchasining faoliyatini o‘zaro aniq uyg‘unlashtirishni talab qilishini nazarda tutamiz.

Ikkinchidan, mudofaa qobiliyatini ta‘minlashning ayrim jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil idoraviy rejalar va dasturlarni ishlab chiqishdan voz kechish hamda yagona kompleks rejani ishlab chiqishga o‘tishni, mamlakatning harbiy xavfsizligi va mudofaa qobiliyati ta‘minlanishini taqozo etadi. Bu esa resurslar va mablag‘lar cheklangan bir sharoitda, ulardan samarali foydalanish hamda mudofaa qobiliyati talab darajasida bo‘lishini ta‘minlash imkonini beradi.

Vazirliklar va idoralarning mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishda, uni ta‘minlashga qaratilgan yagona kompleks rejani ishlab chiqish va amalga oshirishda Milliy xavfsizlik kengashi muhim rol o‘ynamoqda.

Uchinchidan, ichki va tashqi sharoitlar, masalan, aholining demografik tuzilishi, qurol-yarog‘-larning texnikaviy darajasi va boshqalar o‘zgarib turadi. Shu tufayli mamlakatimiz mudofaa qobiliyatining

holatini va uni rivojlantirish istiqbollarini, boshqa davlatlarning bu sohadagi tajribasi hamda amaliyotini muntazam o'r ganib borishga har doim e'tibor berish talab qilinadi.

Bu muhim qoidalarni tushunish hamda bizning davlat va mudofaa qurilishimizning muayyan sharoitlarida ularni ro'yobga chiqarish, shuningdek, muayyan ijrochilarining bu soha uchun javobgarligini muttasil oshirib borish — O'zbekistonning barqaror va qat'iyat bilan rivojlanib borishini ta'minlab beradigan shartlar ana shulardan iboratdir.

DEMOKRATIK INSTITUTLARNI VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

XX asrning so'nggi o'n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o'zgarishlar davri sifatida kiradi.

Birinchidan, mustamlakachilik va irqiy kamsitish tarixning yo'qlik qa'riga ketdi. Sotsializm va uning butun jahonni kommunistik mafkura vositasida bosib olishga bo'lган da'volari ham o't mishga aylanib bormoqda.

Ikkinchidan, tarix sahnasiga yangi mustaqil davlatlar chiqmoqda. Ularning ovozi jahon hamjamiyati mamlakatlari orasida borgan sari dadil eshitilmoqda.

Uchinchidan, kuchlarning an'anaviy joylashuvida Osiyo qit'asi mamlakatlarining roli tobora ortib borayotganligini hisobga olib, unga tuzatishlar kiritishga majbur bo'linmoqda. Bu mamlakatlar jahon taraqqiyoti tajribasiga o'z nuqtai nazarları, me'yorları va qadriyatlarını olib kirmoqda.

To'rtinchidan, demokratik taraqqiyot qadriyatlarini, tamoyillari va me'yordi tobora hammabop bo'lib bormoqda. Endilikda ularning zarurligi va amaliy ta'sirini hech qayerda inkor etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, demokratiya va taraqqiyot tomon borishning o'ziga xos yo'llari borgan sari katta rol o'ynamoqda.

Murakkablashib borayotgan ko'p qutbli dunyodagi shu kabi ulkan o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanshini bevosita va bilvosita belgilab beradi. Borgan sari ochiqlik, demokratik tamoyillarga, umuminsoniy qadriyatlar va me'yordi mansublik siyosati respublika ijtimoiy hayatini demokratlashtirish jarayonlarida o'z izini qoldirmoqda. Shuningdek, bu o'zgarishlarning jahon hamjamiyati ko'z o'ngida idrok qilinishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda va bu bilan respublikaning hozirgi obro'-e'tiborini shakllantirmoqda.

Xalqaro hamjamiyat O'zbekistonning, u puxta o'ylab amalga oshirayotgan izchil tashqi va ichki siyosatning notinch Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni barqarorlashtirish hamda keskinlik keng tarqalishining oldini olishdagi ahamiyatini va kuchayib borayotgan rolini borgan sari ko'proq anglamoqda.

Demokratik tamoyillar, qadriyatlar va institutlar hayotimizning barcha sohalariga tobora ko'proq kirib bormoqda. O'zbekistonning va mintaqaning mavjud sharoitlarida o'z mazmuniga ega bo'lmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy sohasida demokratik institutlarni shakllantirish siyosiy tizimni isloh qilishga va ijtimoiy hayatni demokratiyalash jarayonlariga jo'shqinlik baxsh etishga qaratilgandir. Yanada muhi-

mi — bu ish islohotlarning olg'a bosishiga yo'naltirilganligidir.

Birinchi navbatda, jamiyatda mavjud manfaatlar va munosabatlarni mujassam holda ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy institut bo'lmosg'i lozim bo'lgan demokratik, huquqiy davlatning qaror topish jarayonini ko'rsatib o'tish darkor.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatni demokratik yo'ldan rivojlantirishning huquqiy kafolatidir.

Asosiy Qonun demokratik jamiyatning qaror topishiga qo'shgan juda katta hissa shundan iboratki, u mavhum jamiyat yoki umuman xalqning emas, balki muayyan insonning ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklariga qaratilgandir. Konstitutsiya insonni eng katta boylik sifatida alohida ko'rsatgani holda fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni oqilona huquqiy hal etishni siyosiy jihatdan rasmiylashtiradi. Konstitutsiyaviy me'yorlar va qonunlarning ustuvorligi, ular inson manfaatini ko'zlab ish tutishga va shu doirada ijtimoiy o'zaro munosabatlarni maqbul holga keltirishga yo'naltirilganligi mamlakatda barqarorlikni huquqiy jihatdan ta'minlashning, fuqarolik jamiyati asoslarini qaror toptirishning asosiy omilidir.

Biz uchun fuqarolik jamiyati — ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq

va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioxaya qilishlari shart.

Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etishi masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o'zlar qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va bu huquqdan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. Shunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdon shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z mas'uliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur. Barqaror, mustahkam tizimlarda, agar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun hamma huquqiy, demokratik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, aholining o'zi ixtiyoriy ravishda, professional asosda mamlakatning siyosiy hayotida tobora keng ishtirok etadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekistonda fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishidek bu demokratik jarayon tobora kuchayib bormoqda.

O'tish davri sharoitida, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan bir paytda O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishi lozim bo'lgan keng tarmoqli, ko'ppartiyali

tizim kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan olganda, davlatning roli siyosiy partiyalar va jamoatchilik harakatlarining vujudga kelishi, qaror topishi va rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadigan har qanday g'ov va to'siqlarni bartaraf etishdan iboratdir. Zero, siyosiy partiyalarsiz va jamoatchilik harakatlarisiz respublikada vakillik demokratiyasini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shu bilan birga, demokratiyaning sifati partiyalar sonining ko'p bo'lishi bilan belgilanmasligini ham yodda tutish darkor. Haqiqatan ham keng ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qodir bo'lgan siyosiy partiyalar uchun normal siyosiy makon yaratib berish muhimdir. Partivalarning paydo bo'lishi, ularning soni, dasturiy yo'l-yo'riqlarining o'ziga xosligi va hokazolar esa ijtimoiy manfaatlar vig'indisi va jamlanishi orqali tabiiy yo'l bilan belgilanmog'i kerak. Sivosiv partivalar mavjud bo'lishining asosiy va birdan-bir prinsipi davlatning konstitutsiyaviy me'yorlarini hurmat qilish va ularga rioya etishdan iborat bo'lmos'i lozim.

Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar xalq bilan hokimiyat o'rtasida asosiy bog'lovchi bo'g'in bo'lgan demokratik institutga tezroq aylanishi g'oyat muhimdir.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy muammolariga fuqarolar jonli qiziqish bilan qaraganlarida, ular u yoki bu partiya yohud harakatning faoliyatida madaniyatli ishtirok etganlaridagina buni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Jamiyatda barqarorlikni saqlash zarurligi haqida gapirar ekanmiz, siyosiy institut sifatidagi muxolifat

masalasini tilga olmaslik mumkin emas. Bunday institutning mavjud bo'lishi demokratik jamiyat uchun shart bo'lgan va normal holdir. Ayni mahalda shunisi ham muhimki, u tashkiliy jihatdan rasmiylashgan, tegishli yuridik maqomga ega bo'lishi, konstitutsiya va qonun normalalarini hurmat qilishi, o'z harakatlari bilan mamlakatdagi davlat va ijtimoiy tuzumning qat'iy, barqaror holati uchun mas'ul bo'lishi, davlat qurilishining muqobil loyihibariga ega bo'lishi lozim.

O'zlarini xafa qilingan, orzu qilgan amallaridan mahrum etilgan deb hisoblaydigan, shu sababli mamlakatimizda ro'y berayotgan hamma hodisalarga nisbatan «muxolifatcha» munosabatda bo'layotgan, urug'-aymoqchilik va mahalliychilik manfaatlarini ko'zlaydigan izzattalab odamlarni konstruktiv muxolifat deb bo'ladimi, axir?! Afsuski, bunday kimsalar davlat va jamiyat oldida turgan biron-bir muammoni hal qilish jarayonida hokimiyat tuzilmalariga amaliy va madaniy raqobatchi bo'lish o'rniliga, faqat rasmiy hokimiyatgagina emas, balki davlatning amaldagi qonunlariga ham, Konstitutsiyasiga ham qarshi chiqishga harakat qiladilar.

Shunday bo'lsa-da, ishonchim komilki, demokratik muxolifatning shakllanish jarayoni vaqt bilan bog'liq bo'lib, aslida totalitar tuzumdan erkin jamiyatga o'tish bosqichini boshdan kechirayotgan boshqa davlatlardagi kabi. O'zbekistonda ham demokratik institutlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir.

Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamoatchilik fikrining holatiga yetarli darajada bog'liq bo'lib, uni shakllantirishda boshqa bir ijtimoiy institutga —

ommaviy axborot vositalariga muhim o'rinn beriladi. Bugungi kunda O'zbekistonning ommaviy axborot vositalari faoliyatini tubdan isloh qilish zarurligi borgan sari ayon bo'lmoqda. Chunki hozirgi chuqur o'zgarishlar, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini demokratiyalash sur'atlari qarshisida ommaviy axborot vositalarining faoliyati talabga javob bermayapti.

Ommaviy axborot vositalarini haqiqiy «to'rtinchchi hokimiyat»ga aylantirish jarayoni hamma joyda ham ancha murakkab kechyapti. Eskicha fikr yuritish o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Eski sarqitlardan judo bo'lish esa dunyoqarashlar, psixologiyalar, turli da'veolar o'rtasidagi ko'zga ko'rinxmaydigan, lekin tinki quritadigan kurash bilan birga bormoqda. Hayotning o'zi ana shu dunyoqarashlar, psixologiyalar, da'veolar orasidan o'tishga majbur qilmoqda. Haqiqatan ham respublikadagi yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar ommaviy axborot vositalari oldiga mutlaqo yangi, shu paytgacha notanish bo'lgan vazifalarni qo'yemoqda.

Hozirgi paytda jamiyat hayoti va faoliyatida ommaviy axborot vositalarining rolini faollashtirishni qanday tasavvur qilamiz?

Birinchidan, ommaviy axborot vositalari imkoniyatini oshirish uchun kerakli sharoitlar yaratish, ularga jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida munosib o'rinn berish, jurnalistlar faoliyatini ijtimoiy va huquqiy kafolatlash zarur.

Ommaviy axborot vositalari mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga turlichay qarashlarni erkin va xolis ifodalashga qodir bo'lishi, hokimiyat bilan jamiyat o'rtasida xolis vositachi bo'lishi va, muhim, inson

hamda jamiyat manfaatlarining faol va izchil himoyachisi bo'lishi uchun professional jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini tayyorlash jarayonini qayta ko'rib chiqish, axborot olish, tahlil qilish, ishlash va yetkazishning zamonaviy usullari va vositalarini o'zlashtirishda ularga yordam berish zarur.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini va ularning samarali ishlashiga yordam beradigan mexanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish muammosi ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Ayni chog'da ommaviy axborot vositalarining manfaatlarini va ularning vakillarini qonun yordamida himoya qilish, ularning axborot olish manbalaridan foydalanish huquqini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Nodavlat nashrlar va televide niye kanallarini tashkil qilish, shuningdek, eng iste'dodli jurnalistlarning professional jihatdan kamol topishiga xalqaro miqyosda yordam berish matbuot hamda axborot vositalari erkinligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Eng asosiy ijtimoiy institut bo'lgan mulkka (asosan, xususiy mulkka) munosabatning o'zgarishi butun jamiyatni va, xususan, iqtisodiy hayotni demokrativalashning bosh bo'g'ini bo'ldi. Jamiyatni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangilash asosan yangi mulkchilik munosabatlari orqali o'tadi.

Biz iqtisodiy sohaning ijtimoiy institutlarini demokratlashtirish va rivojlantirishga ustun darajada c'tibor berar ekanmiz, eng avvalo, mamlakatda iqt-

sodiy barqarorlik bo'lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkinligiga asoslanamiz.

Shu bilan birga, jamiyatda siyosiy institutlarni shakllantirmay, ijtimoiy o'zaro munosabatlarning demokratlashuvini yanada rivojlantirmay turib, uni iqtisodiy isloh qilish va yangilash jarayonini davom ettirish mumkin emas.

Jamiyatni bosqichma-bosqich isloh qilib borish siyosiy tizimning turli subyektlari harakatida izchillik bo'lishini ta'minlash imkonini beradi. Davlat bosh islohotchi sifatida o'z vazifasidan foydalanar ekan, ijtimoiy manfaatlarni puxta o'ylab tabaqa lashtirish hamda bosqichma-bosqich, uyg'un ro'yobga chiqarish maqsadida shakllantirilayotgan demokratik institutlar va fuqarolik jamiyati elementlari imkoniyatlarini oshirishga har jihatdan ko'mak bermoqda. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sotsial aloqalar maqbul tarzda amal qilishini yo'lga qo'yishga barcha choralar bilan yordam bermoqda.

Umuminsoniy tamoyillar va me'yorlarni, butun dunyoda chuqur ildiz otgan demokratik qadriyatlarni o'r ganmay va ulardan foydalanmay turib, demokratik institutlarni shakllantirish, fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratish mumkin emas.

Insoniyat ming yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarni to'la-to'kis o'zlashtirib olish jamiyatda islohotlarni chuqurlashtirishning muhim shartidir. Umumiy tarzda demokratiya deganda hammaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladi. Batafsil tahlil qilinganda esa demokra-

tiya — xalqning o'z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini o'zboshimchalik bilan cheklashlar va shu vo'sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish shakli ham ekanligi avon bo'ladi.

Demokratiya atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyligi, yashashga qobiligi muhimdir. Binobarin, biz o'z istagimizdagi demokratiyaga qanday mazmun baxsh etmaylik, agar u hayotimizning har bir soniyasiga singib ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va ta'riflar yo mazmunsiz baqir-chaqir, yoki hech narsani anglatmaydigan so'z o'yini bo'lib qolaveradi. Bundan tashqari, bizningcha, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan tayyor bo'Imagan zaminda demokratiyaning barcha tamoyillariga — erkin saylovga, so'z erkinligi, uyushmalar, yig'ilishlar erkinligi va shu kabilarga «yashil yo'l» ochib bersak, haqiqiy demokratiyani bo'g'ib qo'yish xavfi yuzaga kelishi ham mumkin.

Jamiyatda demokrativa qav darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular — xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir. Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo'lmas ekan, demokratiya haqidagi hamma gap-so'zlar yo xalqqa hushomad qilish, yoki oddiy siyosiy o'yin bo'lib qolaveradi. Bunday siljishlar esa bir kunda bo'ladigan ish emas.

Iqtisodiy, siyosiy va, eng avvalo, huquqiy makon tegishlicha bosqichma-bosqich ta'minlab borilmas ekan, insonning barcha huquqlari — davlat ishlarini yuritishda qatnashishi, e'tiqod erkinligi, yig'ilishlar, uyushmalar erkinligi va shu kabi huquqlar havoda muallaq bo'lib qolaveradi. Aniq yo'lga qo'yilgan qonun tizimi bo'lmas ekan, demokratiya ham bo'lmaydi. Shu bilan birga qonunlarning o'zini qabul qilish, hukumat va beistisno hamma mansabdor shaxslarning amaliy sa'y-harakatlari aynan shu demokratik mezonlar orqali o'tishi lozim. Bu juda muhim, chunki demokratiya huquqiy davlatning asosiy tarkibiy qismidir. Huquqiy davlat esa shunchaki rasmiy qonuniylikni bildirmaydi, u inson shaxsini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etishga va to'la-to'kis qabul qilishga asoslangan yaxlit amal qiluvchi tizimdir.

O'z-o'zidan ravshanki, siyosiy tuzum to'la-to'kis amal qilishini va uning yanada erkinlashuvini ta'minlash uchun uni tashkil etuvchi hamma tuzilmalar, ya'ni mavjud subyektlar — shaxs, siyosiy institutlar, aholining ijtimoiy guruhlari hamda qatlamlari va hokazolar to'laqonli faoliyat ko'rsatishiga erishish zarur. Shu sababli, bunda ushbu jarayonning barqarorligini ta'minlash zarurligi nazarda tutiladigan bo'lsa, siyosiy tuzumni erkinlashtirish usullarini, uning mexanizmini va sur'atlarini ishlab chiqish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy tuzumning har bir bo'lagi, har bir darajasi rivojlanish va erkinlashtirish strategiyasini ishlab chiqishda alohida yondashuvni talab qiladi. Siyosiy hayotni erkinlashtirishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yish, muntazamlilik bo'lmasligi oldindan aytib bo'lmaydigan xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish muqarrar ravishda shu paytgacha misli ko'rilmagan siyosiy faollik sharoitida yuz beradi. Bu hol tabiiydir. Shu paytga kelib karaxtlik holatidan xalos bo'lgan jamiyat to'planib qolgan jami ijtimoiy ziddiyatlarni bir zumda yuzaga chiqaradi. Ana shu lahzada aholining siyosiy faolligi, siyosiy manfaatlari va ehtiroslari qaysi yo'nalishga, qanday qilib va kim tomonidan burib yuborilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Hammaga ma'lumki, qurishdan ko'ra buzish osonroq. Bunda «islohotchi», «demokrat» degan siyosiy obro' orttirish osonroq. «Hammasini tag-tubigacha buzamiz, shundan keyin esa...» degan mashhur shiorni odat yuzasidan «demokratiya»ning ko'plab yetakchilari ko'tarib chiq-qandilar. Lekin, afsuski, ularning ko'pchiligi bu mashhur shiorning birinchi qisminigina amalga oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

O'zbekistonda demokratiyaga borishning boshqa yo'li tanlab olindi. Biz mustaqil huquqiy davlatni barpo etishning asosiy maqsad va vazifalarini belgilar ekanmiz, O'zbekistonning sivilizatsiya va taraqqiyotning yuksak, yorqin cho'qqilariga erishishida madaniy va tarixiy merosning, xalqning insonparvarlik an'analarining yuksak marralarini egallagan, umuminsoniy qadriyatlar va me'yirlarga sodiq bo'lgan ozod va har tomonlama uyg'un kamol topgan shaxs asosiy tayanch bo'lishini qayta-qayta ta'kidlaganimiz.

Umumi ijtimoiy havoyilik va inqilobiy vayron qiluvchilik kayfiyati hukm surgan o'sha davrdayoq, O'zbekistonda barcha tuzilmalarni farqlamagan holda parchalab tashlash mustaqil davlatchiligidimizning

taqdiri uchun xavflidir, degan qat'iy ishonch paydo bo'ldi. Bizning maqsadimiz,— deb ta'kidlagan edik biz 90-villarning boshlaridavoq,— bir necha avlod mehnati bilan yaratilgan narsalarni yo'qotmaslik, ularning eng yaxshilarini saqlab qolish, demokratik me'yorlarga, milliv manfaatlarimizga, mustaqilligimizga mos kelmaydiganlarini qayta tashkil etishdan, mazkur tuzilmalarni yangi mazmun bilan boyitishdan iboratdir. O'zbek xalqining bov madaniyati, ta'lim, maorif tizimi, fan totalitarizmdan qolgan meros deb parchalab tashlanishi mumkin emas edi. Biz tanlab olgan yo'l o'zbek xalqining asriy an'analariga, odatlariga, madanivati va tiliga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga asoslangan holda mazkur tuzilmalarni yangi mafkuraviy negizga o'tkazish, moslashtirishdan iborat edi. Shuni yana ta'kidlab o'tamizki, ma'naviyat odamlar qalbi va ongiga kelajakka ishonch tuyg'usini olib kirishi, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, mardlik va sabot-matonat,adolat hissini tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Bir qarashda ushbu fikrlar an'anaviy bo'lib ko'rinishi mumkin. Xo'sh, an'anaviylik shu qadar yomonmi?! Haqiqatan ham, xalqimizning ming yillar davomida qaror topib kelgan va biz saqlab qolishga intilayotgan an'anaviy sharqona madaniyati G'arb madaniyatidan ko'p jihatdan farq qiladi. Bunda asosiy masala—an'anaviy madaniyat hozirgi vaqtida qanchalar ochiq, boshqa qadriyatlarni qabul qilishga qanchalar qodir ekanligidadir. Faqat o'ziga xos madaniyatlargina emas, balki, birinchi navbatda, bir-birini boyitadigan madaniyatlargina yashashga qodirdir.

An'anaviy madaniyat bilan qotib qolgan madaniyatni chalkashtirib yubormaslik kerak. An'anaviy madaniyat ikkita o'zaro qarama-qarshi bo'lган, lekin bir-birini to'ldiradigan tamoyilni — ma'lum darajada mahdudlikni, tashqaridan bo'ladigan yengil ta'sirlarga qarshilik ko'rsatishni va shu bilan birga, ma'lum darajada ochiqlikni o'zida uyg'unlashtirib, kelajakda rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga egadir. O'zbek madaniyatining, jahon xalqlari madaniyatining rivojlanish xususiyatlarini chuqur bilish yosh davlatni ma'naviy jihatdan qayta tiklash sohasidagi butun siyosatning asosi bo'lmoq'i lozim. Chunonchi, milliy davlatchilikni qaror toptirishning dastlabki yillardayoq biz O'zbekiston tanlab olgan yangilanish va taraqqiyot yo'lida o'zbek xalqini ma'naviy qayta tiklash jarayonlarining xususiyatlarini muqarrar hisobga oldik. Demokratiyaning umum e'tirof etilgan me'yollariga sodiq ekanligimizni qat'iy ma'lum qildik.

Haqiqatan ham demokratiya — faqat nazariya yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlari hamdir. Demokratiya g'oyalarini bayon qilish mumkin. Siyosatda demokratiyanı yuqorida «tushirish» mumkin. Lekin bu bilan demokratiya sizu bizning amaliy hayotimizga singmaydi. Demokratiya jamiyatning qadriyati-ga, har bir insonning boyligiga aylanmog'i kerak. Bu esa bir zumda bo'ladigan ish emas. Xalqning madaniyatidan joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo'la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko'rish va demokratiya tamoyillarini o'zlashtirishdan

iborat ancha uzoq muddatli jarayondir. Ba'zi davlatlarda bunga erishguncha ko'plab avlodlar yashab o'tgan.

Baxtimizga O'zbekiston ana shunday demokratik rivojlanish an'analariga ega. Shu sababli demokratiyaga bosqichma-bosqich, mumkin qadar qisqa muddatda o'tish g'oyasining strategik ahamiyati, bizningcha, faqat jamiyatda barqarorlikni saqlab qolishdangina iborat emas. U fuqarolik jamiyatining hayotbaxsh kurtaklarini avaylab saqlash, o'stirishdan ham iboratdir. Shu bilan birga, biz an'anaviy madaniyatimiz va xalqimizning xususiyatlari, uning ahvol-ruhiyasi va ijtimoiy tashkil bo'lish shart-sharoitlari O'zbekiston Respublikasida demokratiyani shakllantirishning, fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning eng samarali omillari bo'lishini chuqur tushunamiz.

Yana bir jihatga to'xtalib o'tmoqchiman. Hatto demokratiya barqaror bo'lgan mamlakatlarda ham individualizmning ba'zi bir salbiy oqibatlari ancha qattiq sezilmoqda. O'zbekistonda ham bu hodisaning ahamiyatini kansitish yaramaydi.

Individualizm har bir kishining psixologiyasiga kirib boradi, bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson tabiatidagi ongli va ongsiz xatti-harakatlarning hammasidan foydalanadi. Yoshlarning ayrim qismi o'qishga, yuksak kasb mahoratini egallashga intilish o'rniغا yengil-yelpi hayotni izlashga, bozorda savdo-sotiq qilib, mo'may daromad orqasidan quvib, bozor munosabatlarining ibridoiy yo'llaridan foydalanib, mol-dunyo orttirishga intilayotganligi tasodifiy emas. Nihilizm, shafqatsizlik darajasiga borib yetayotgan xudbinlik hollari yuz berayotganligi ham tasodifiy emas. Bularning barchasi,

bizning nazarimizda, yana o'sha individualizmning buzilgan ko'rinishi, tarbiyadagi nuqsonlar va atrof muhit ta'siridan boshqa narsa emas.

Bunga qarshi, huquqiy ta'sir ko'rsatish choralari dan tashqari, yana qanday tadbirlarni ishlab chiqish zarur?

Ma'lumki, mafkura sohasida bo'shliq, vakuum bo'lmaydi. O'zbekiston xalqlarining dunyoqarashi, ma'naviy va siyosiy madaniyatining eng ilg'or an'analari asosida ishlab chiqilayotgan milliy mustaqillik mafkurasi individualizmning vayron qiluvchi ta'siriga qarshilik ko'rsatishga qodir. Mafkuraviy ish, mustaqillik, yuksak ma'naviyat, axloqiylik, madaniyat g'oyalalarini targ'ib qilish o'tkinchi holga aylanib ketmasligi kerak. Axloq va ma'naviyat mavhum kategoriyalarga aylanmasligi, faqat tashviqotchi va tarbiyachilarning ishi bo'lib qolmasligi lozim. Yuksak darajada axloqli fuqaroni voyaga yetkazish — har bir insonning burchidir.

Mamlakatimizda erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlatni fuqarolik jamiyatini va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq holda kelajagimizni qurish uchun hamma asoslarga egamiz.

Jahon sivilizatsiyasi xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz; ko'p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aql-zakovat imkoniyatlarimiz, xalqimizning yuksak ma'naviyati va axloqiy qadriyatlari; zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, saxovatliligi, bag'ri kengligi va jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rinni egallashga bo'lgan istagi buning garovidir.

Mintaqamiz hududida asrlar mobaynida ko'plab sivilizatsiyalarning ravnaq topishiga hissa qo'shgan milliy o'ziga xoslikning mazkur barcha xususiyatlari, XXI asr arafasida va boshlarida O'zbekistondagi g'oyat ulkan o'zgarishlar hamda yangilanishlarning qudratli poydevori va rag'batlantiruvchi kuchi bo'lib qolishi shubhasiz.

BOZOR MUNOSABATLARINING QAROR TOPISHI VA MULKDORLAR SINFINING SHAKLLANISHI

Mustaqillik yo'lidan olg'a borar ekanmiz, barqarorlikni saqlash va milliy xavfsizlikni ta'minlashning hal qiluvchi shartlari jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy hayotini, ijtimoiy sohalarini chuqur isloh qilish va yangilash jarayonlarini jadal amalga oshirishdan iborat ekanligi ayon bo'lib bormoqda.

Iqtisodiy o'zgarishlarni ustuvor deb hisoblayotganimiz, taqsimotning ma'muriy buyruqbozlik tizimidan butkul voz kechayotganimiz hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirayotganimiz jamiyatni isloh qilishga qat'iy yondashuvimizning ifodasıdir.

Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishtagi iqtisodiyotni biryoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi.

Ayni chog'da bizning modelimiz jahon tajribasi, mamlakat va jamiyatni yangilash hamda o'zgarishning murakkab yo'lini bosib o'tgan mamlakatlar to'plagan eng yaxshi jihatlarni o'zida mujassam etgan.

Mustaqil rivojlanishning o'tgan davrini umumlashtirish va tahlil etish isloh qilishning O'zbekiston modeli asosli va to'g'ri bo'lib chiqdi, deb aytish uchun to'la asos beradi. Bugun uni obro'li xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jahonning ko'pgina mamlakatlari tan olmoqda. Eng asosiysi — hayotning o'zi uni tasdiqlamoqda.

Sovetlardan keyingi ahvol hozirgi paytda ko'pgina rahbarlar, siyosatchi va iqtisodchilarни bozor o'zgarishlarining biz amal qilayotgan modeliga xos tamoyillar va jihatlarga ma'lum darajada murojaat etishga majbur qilmoqda.

Gap nima haqida bormoqda?

Eng avvalo, gap shu haqdaki, ular iqtisodiyotga ortiqcha siyosiy tus berish, uni mafkuraga, turli partiylar va harakatlarning manfaatlariga bo'ysundirish iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar yo'lida g'ov bo'lib qolishiga o'z tajribalarida ishonch hosil qilmoqda.

Ikkinchidan. Davlatning boshqaruв sohasidagi roli inkor etilsa, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o'tishini ta'minlash qiyin kechadi.

O'z-o'zidan ravshanki, bozor munosabati me-yorlari mustahkamlanib, islohotlarning ortga qaytmasligi ta'minlanib borgan sari davlatning ta'siri ham shunga muvofiq ravishda izchillik bilan kamayib boraveradi.

Uchinchidan. Odamlarning tafakkurini o'zgartirish, ularning ongida demokratik qadriyatlarni, qonunga bo'y sunishni mustahkamlash, qonun ustuvorligiga erishish zarurligiga (sovet davridagi o'tmishimizni hisobga olgan holda) kun sayin ko'proq ishonch hosil qilmoqdamiz. Mazkur mamlakatlarda jamiyatning korrupsiya tuzog'iga ilinishi, uyushgan jinoyatchilik kuchayib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu vazifalar alohida ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan. Bozor islohotlarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosatga yetarli baho berilmagan joyda ijtimoiy keskinlik va qaramaqarshilik vujudga kelishini bugungi kunda hayotning o'zi isbotlamoqda. Bu esa, o'z navbatida, islohotlarni obro'sizlantirib qo'yishi mumkin.

Beshinchidan. Donishmand xalq o'git bergenidek, ortiqcha chirani shaxsiy belni sindiradi, ya'ni hamma muammolarni bir yo'la hal qilib bo'lmaydi. Muammolarni, ahamiyati va ustunligini hisobga olib ketma-ket va bosqichma-bosqich hal qilish muhim.

Bu, bir tomondan, cheklangan resurslarni sochib yubormay, ulardan samarali va aniq maqsadni ko'zlagan holda foydalanish imkonini beradi. Ikkinci tomondan, o'z faoliyati natijalarini haqqoniy baholab, islohotlarni amalga oshirish dasturining zarur joylariga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Shu o'rinda respublikamiz hayotidan olingan ba'zi misollarni keltirib o'taman. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatni neft mahsulotlari, gaz, yoqilg'i hamda don bilan ta'minlash vazifasini

qo'yagananimizda, oldimizda turgan yana boshqa muhim muammolarni hal qilishga o'tishimiz qiyin bo'lardi.

Iqtisodiyotimizni bozor yo'liga o'tkazishdek keng ko'lamdag'i strategik vazifani hal etar ekanmiz, ishlab chiqarishning keskin pasayib ketishiga va iqtisodiyotni boshqarib bo'lmaydigan holga kelib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun mumkin bo'lgan hamma ishni qildik.

Ha, makroiqtisodiy proporsiyalar, inflyatsiyani pasaytirish, pul hajmini va davlat byudjeti taqchilligini cheklash — bularning barchasi bozor mexanizmi amal qilishining, iqtisodiy, moliyaviy barqarorlikning va sobitqadamlik bilan o'sishning muqarrar, eng muhim shartlaridir.

Shu bilan birga, nazarimizda, ana shu maqsadlarga erishish sur'atlari va usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqsadlarga ishlab chiqarishning halokatli tarzda pasayib ketishi, to'xtab qolishi va tanazzulga uchrashi hisobidan erishishni normal va barqaror holat deb bo'lmaydi. Buning oqibatida to'lanmagan pullar va davlat qarzining hajmi boshqarib bo'lmaydigan darajada o'sadi, budget muntazam suratda va tobora ko'proq miqdorda bajarilmay qoladi, aholi aksariyat qismining moddiy ahvoli keskin yomonlashadi va qashshoqlashadi.

Modomiki, bu mazkur davlatlarning ko'pchili-gida ish haqi, pensiya va nafaqalarni to'lamaslik bilan bog'liq muammolar hozirgi kunda ijtimoiy portlash xavfini tug'dirayotgan ekan, buning sababini tanlab olingan islohotlar yo'lini amalga oshirishdagi xato va kamchiliklardan, bozor islohotlarining o'z sharoitlari

uchun yaroqsiz bo'lgan andoza va modellaridan ko'rko'rma, o'ylamay-netmay nusxa ko'chirishdan izlamoq darkor.

Shu o'rinda, nazarimizda, muhim bo'lgan yana bir masala ustida to'xtalib o'tish joiz. Gap bozor iqtisodiyoti qaror topib borayotgan sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash haqida boradi. Ma'lumki, sovetlardan keyingi makondagi ko'pgina mamlakatlar islohotning dastlabki bosqichlarida ichki va qarz olingan valuta zaxiralarining ko'pchilik qismini eng avvalo xorijdan iste'mol mollari keltirishni kengaytirishga sarfladi. Shu tariqa ular o'z ishlab chiqaruvchilarini ichki bozorda istasa-istamasa siqib chiqardi. Oqibatda milliy sanoat va qishloq xo'jaligi inqirozga yuz tutdi, ba'zan esa barbod bo'lgani holda katta valuta mablag'lari yeb bitirildi.

Biz esa yengil yo'lni qidirmadik. Isloh qilishning dastlabki bosqichlarida iste'mol bozorini bir qadar cheklashga majbur bo'ldik. Ayni chog'da mablag' va zaxiralarini iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga sarflab, xorijga mahsulot tayyorlaydigan, ilg'or texnologiya bazasi bilan jihozlangan zamonaviy korxonalar barpo etib, ichki bozorni o'z mollarimiz bilan to'ldirish yo'lidan bordik. Shu maqsadlardan kelib chiqib, o'z mablag'larimiz va olgan qarzlarmizning asosiy qismi investitsiyalarga, respublikaga yangi texnologiya va texnika keltirishga sarflanmoqda. Iste'molni emas, balki investitsiyalarni ko'paytirdik. Bugunga kelib bu siyosat o'z samarasini bermoqda. Bu — Asaka shahridagi avtomobil zavodidir. Bu — Buxoro neftni qayta ishlash zavodini ishga tushirishdan

iboratdir. Bu — Ko'kdumaloq va Mingbuloq konlari-ni ishga solish, chet elliq sheriklar ishtirokida o'nlab to'qimachilik va i p-yigiruv fabrikalarini, Andijon, Qo'qon va Yangiyo'lda spirit ishlab chiqaruvchi korxonalarini, Xorazm viloyatida qand zavodi, Qizilqum fosforit kombinati, Qoraqalpog'istondag'i Qo'ng'irot soda zavodini qurish, O'zbekiston qiyin eriydigan va o'tga chidamli materiallar kombinatini, Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinatlarini, kimyo tarmog'i korxonalarini qayta ta'mirlash, yangi temir yo'l va avtomobil yo'llari, yangi telekommunikatsiyalar obyektlarini barpo etish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, shuningdek, oziq-ovqat va mahalliy sanoatga qarashli o'nlab yangi va zamонавиy korxonalar demakdir.

Shu yillarda yaratilgan yangi ilg'or ishlab chiqarishlar va tarmoqlar rivoj topgani sari, odamlar biz tanlagan yangilanish va islohotlar yo'li to'g'rilibini yil sayin ko'proq his etib borishlariga ishonchim komil.

O'z davlatchiligidanizni va mamlakatning iqtisodiy bazasini yaratish, respublika va uning xalqi manfaatlarini himoyalash uchun aniq maqsadni ko'zlab qattiq mehnat qilingan qiyin yillar ortda qoldi.

O'zbekistonni dunyoga tanitish, hamkorlik va jahon iqtisodiyotiga qo'shilish uchun zarur huquqiy va shartnomaviy negizni yaratish borasida ancha ish qilindi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotni isloh qilishda to'plangan tajriba bugungi kunda islohotlarni yanada demokratiyalash, jamiyatda sobitqadamlik va barqarorlikni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat

qiladigan bir qator muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

Birinchi xulosa. Zarur shart-sharoitlar varatmay, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarishning ta'sirchan vositasini vujudga keltirmav. bu manfaatlarni faol harakatlantiruvchi kuch sifatida ishga solmay turib, biz yangilanish va taraqqiyot yo'lidan aniq maqsadni ko'zlagan holda va tinimsiz ilgarilab bora olmaymiz. Bu oddiy haqiqatni teran anglab olmog'imiz lozim. Shu bois inson va korxonalarning, barcha xo'jalik yurtuvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi darkor.

Keng ko'lamli, aniq maqsadga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, odamlarni islohot jarayonlariga keng jalb etish natijasidagina totalitar merosning mudhish oqibatlarini yengish, iqtisodiyotga barqaror rivojlanish tusini berish mumkin. Binobarin, har bir rahbar, har bir xodim, respublikadagi har bir ilg'or fikrli kishi islohotlarni o'ylab yashamog'i lozim.

Ayni chog'da boshqarishning obro'sizlangan ma'muriy-buyruqbozlik tamoyillaridan, markazlash-tirilgan taqsimotning yaroqsiz tizimidan, vujudga kelgan tekischilik kayfiyati va boqimandalikdan qat'ian voz kechish zarur.

O'tmishdan meros bo'lib qolgan nomaqbul bir illat borki, undan voz kechish lozim. Ya'ni inson jamiyatdagi o'z o'rni va qadrini to'g'ri tushunishi zarur. U o'zini kichkina bir murvat deb his etishi, hamma muammolarni uning o'rniga davlat hal qilishi kerak deb bilishi zararli tushunchadir. Hayotga bunday mu-

nosabatda bo'linsa, o'z faoliyatining maqsadga muvo-fiqligi, o'z mehnati bilan munosib turmush sharoitini yaratishi mumkinligi haqidagi tasavvur so'nadi.

Bu merosning vana bir kamchiligi shundaki, oila, har bir odam boy bo'lsa, davlat ham boy bo'ladi, deb emas, aksincha — davlat boy bo'lsa, oila, har bir odam boy bo'ladi, deb hisoblanar edi. Munosabat shunday bo'lganda ishlab chiqarish va mehnatning samaradorligiga erishish mumkinligiga umid bog'lash qiyin. Bunday dunyoqarashning halokatli tomoni shundaki, hali ham ayrim kishilarning ongida: davlat boy, u bizni boqib olishi kerak, degan o'y-fikrlar mahkam o'rashib olgan.

Faqat bozor munosabatlariga o'tishgina bugungi kunda odamning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini keng ochishga, boqimandalikni yengishga, yo'qolib ketgan xo'jayinlik hissini qayta tiklashga qodir.

Ikkinci xulosa. Mamlakatda chinakam o'rta mulkdorlar sinfi shakllangan taqdirdagina islohotlar sezilarli samara beradi, mulkchilik masalalari hal bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan sobitqadam va barqaror jamiyatni shakllantirish masalalarini ko'rib chiqar ekanmiz, eng avvalo tadbirkorlik va umuman mulkdorlar sinfi davlat va jamoat qurilishida, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab turish va mustahkamlashda qanday rol o'ynashini nazarda tutish lozim. Ayni o'rta mulkdorlar sinfi shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining tayanchidir.

Bu o'rinda gap, agar mulk shakllari xilma-xilligi va birinchi navbatda xususiy mulk har qanday davlatning

demokratik negizlari barqarorligining iqtisodiy asosi hisoblansa, real ishlab chiqarish vositalarining o'rta mulkdorlaridan iborat kuchli qatlarning mavjud bo'lishi uning siyosiy asosi ekanligi haqida bormoqda. Aholi orasida haqiqiy mulkdorlar o'rta qatlarning ko'pchilikni tashkil etishi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etishning kafolati hisoblanadi.

Shu sababli biz iqtisodiy o'zgarishlar jarayonini respublikada o'rta mulkdorlarning chinakam sinfini shakllantirishdek dolzarb vazifani hal qilish bilan bog'lamoqdamiz. Odam o'zini chinakamiga mulkdor deb his etmas ekan, o'z huquqlari uchun, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun mulkdor sifatida kurashmaydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va himoya qilishga intilmaydi.

Uchinchi xulosa. Chinakam mulkdorlar sinfi ham mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni izchil amalga oshirish hisobiga, ham kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorini yaratish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish yo'li bilan shakllantiriladi.

Strategik jihatdan olganda, biz ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish vazifasini qo'ymoqdamiz. Bunda ustuvorlik xususiy mulkka, kichik va o'rta biznesga beriladi.

O'l kamizning o'ziga xosligi, ishchi kuchining haddan tashqari ko'pligi, rivojlangan qishloq xo'jalik va xom ashyo bazasi, hatto aytish mumkinki, aholining an'analari, ruhiyati kichik va oilaviy biznesni, xususiy

tadbirkorlikni faol rivojlantirishni obyektiv zarurat qilib qo'ymoqda.

Kichik biznes — jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirkorlar sinfining paydo bo'lishi demakdir. Bu — respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu — yangi ish o'rinalidir. Shuni hamisha nazarda tutish kerakki, faqat kichik va xususiy tadbirkorlikni keng, hamma joyda rivojlantirish hisobigagina g'oyat keskin muammoni — aholining (ayniqsa ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo'lgan qishloq joylar va mintaqalarda) ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini hal qilishga qodir bo'lamiz.

Xalqning tarixiy ildizlaridan, ruhiyatidan foydalangan holda ichki bozorni zarur iste'mol tovarlari bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga tashqi bozorlarda ham raqobatga bardoshli mahsulot chiqarishga qodir kichik korxonalarining keng tar-mog'ini vujudga keltirish mumkin.

Aslida yaqin kelajakda kichik va o'rta biznes respublikaning ishlab chiqarish tuzilmasida va eksport tuzilmasida iqtisodiyotning harakatchan, oson o'zgartiriladigan sohasi sifatida yetakchi o'rinni egallashiga erishish lozim.

Biz uchun olamshumul ahamiyatga ega bo'lган ushbu siyosatni ro'yobga chiqarishda aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari samaradorligi va mahsul-dorligini yanada oshirish, ularga davlat yordamini ko'rsatish muhimdir.

Bunda biz kichik va o'rta korxonalar ibridoiy, eskirgan asosda emas, balki sifatli va zamonaviy texnika

negizida barpo etilishi kerakligiga asoslanamiz. Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalari ham chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hisobiga, ham ichki manbalar, bank kreditlari hisobiga doimo kashf etib borilishi darkor.

O'zbekistonda islohot yillarida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yordam beradigan huquqiy shart-sharoitlar va institutsional tuzilmalar vujudga keltirildi. Bular — Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Biznes-fond, «Madad» sug'urta agentligidir. Shuningdek, konsalting, injiniring hamda lizing firma va kompaniyalar, biznes-inkubatorlar tarmog'i mavjud.

Eng asosiysi, kichik va o'rta korxonalar hozirning o'zidayoq amalda bo'y ko'rsatdi. 1997 yil boshida xususiy va kichik korxonalar soni 100 mingdan oshib ketdi. Bundan tashqari, 19,5 mingdan ortiq dehqon (fermer) xo'jaligi tashkil etilgan. Muhimi — kichik va o'rta korxonalar iqtisodiyotning hamma sohalarida tashkil etilmoqda.

To'rtinchi xulosa. Bozor tuzilmasi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi haqiqiy o'rta mulkdorlar qatlaming asosiy qismi aholining pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozoriga, odamlar uchun foydali turli bank depozitlariga va omonatlarga jalb etish vositasida shakllanayotganligidan dalolat beradi. Binobarin, qimmatli qog'ozlar bozorining ahvoliga qarab bozor munosabatlarining qaror topish jarayoni qay darajada jo'shqin borayotganligi haqida fikr yuritish mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish hisobiga aholining bo'sh turgan mablag'lari aylanishga jalb etiladi. Bu ayni chog'da iqtisodiyotni barqarorlashtirish sohasidagi muhim vazifani hal qilishga — pul muomalasini, demakki, milliy valutani mustahkamlashga yordam beradi.

Eng asosiysi — aksiyalashtirish, fond bozorida qatnashish orqali aholida qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lishga qiziqish, ular bilan muomala qilish ko'nikmalari va madaniyati paydo bo'ladi.

Muhimi, ular shunchaki aksiyalarning egasi bo'lganlik uchungina emas, balki mol-mulk bir qismining real mulkdorlari hisoblanganliklari hamda mulkdorlar sifatida korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatiga ta'sir ko'rsatish huquqiga ega bo'lganliklari uchun ham aksiyadorlar deb atalishi darkor. Odamlar qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qodir bo'lganlaridagina mulkdorlar sinfi amalda vujudga keladi.

Yana bir gap. Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan maqsadlarga qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini jadal shakllantirgan, bizning bozorimiz xalqaro fond va valuta bozorlariga chiqqan hamda qo'shilib ketgan taqdirdagina chinakamiga erishish mumkin.

Beshinchi xulosa. Biz huquqiy davlat quryapmiz. Demak, iqtisodiyot ham mustahkam qonunchilik va normativ bazaga asoslanishi, uning negizida isloh qilinishi lozim. Isloh qilish jarayonlari mustahkam huquqiy negizga asoslangandagina, ular barqaror va sobitqadam bo'ladi.

Iqtisodiyotni islohol qilishda haqsizlikka, o'zboshimchalik va subyektivizmga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Qonunchilik va huquq-tartibot oyoq osti qilinsa, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari, ayniqsa ular mafkuraviy aqidalarga bo'ysundirilgan taqdirda, qanday oqibatlargaga olib kelishi yaxshi ma'lum.

Basharti islohotlar yo'liga tuzatishlar kiritish, nimanidir to'g'rakash, o'zgartirish zarurati tug'ilsa, birinchi navbatda normativ hujjatlarni o'zgartirish, qonun hujjatlariga zarur tuzatishlar kiritish lozim bo'ladi. Buni o'zboshimchalik bilan, ma'lum muddat ish beradigan qarorlarga qarab emas, balki izchil qonunchilik asosida amalga oshirish zarur.

Ishlab chiqarish, iqtisodiyot vujudga keltirilayotgan huquqiy maydon doirasida o'zgarib borishi kerak. Bu hol islohotlarning orqaga qaytmasligini ta'minlash uchungina zarur emas. Eng asosiysi shundaki, bunday o'zgarish islohotlarning o'ziga kafolat bo'ladi. Shu o'zgarishsiz islohotlarning obro'si oshmaydi, ular aholining barcha qatlamlarini qamrab ololmaydi.

Mustaqillik yillarda respublikada xalqaro amaliyotda qabul qilingan, inson huquq va erkinliklari ustuvorligidan kelib chiqadigan huquqiy qoidalar va normalarga asoslangan keng huquqiy makon vujudga keltirildi. Biz totalitar tuzumning o'z hukmini o'tkazishi va boshboshdoqligidan voz kechdik. Odamning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan, shuningdek, mulkchilikning hamma shakllaridagi ma'muriy-xo'jalik tuzilmalari bilan xilma-xil munosabatlarini tartibga solishning huquqiy normalari sari dadil qadam tashladik.

Oltinchi xulosa. Islohotlarning strategiyasi va taktikasini belgilash chog'ida jamiyatni isloh qilish va yangilashda belgilovchi ahamiyatga ega bo'lgan bo'g'inxilarga alohida e'tibor berish darkor.

1. Iqtisodiy islohotlarning yaxlit zanjirida biz agrar sektordagi o'zgarishlarga ayniqsa katta ahamiyat bermoqdamiz. Hozirgi vaqtida aynan iqtisodiyotning agrar sektorida katta-katta zaxiralar mavjud. Ularni ishga solish yaqin vaqt ichidayoq sezilarli natijalar berishi mumkin.

Butun iqtisodiy o'zgarishlarning yakuni, barqarorlik va xalq farovonligi ko'p jihatdan tub o'zgarishlar jarayonlari agrar sektorni qanchalik keng qamrab olishiga, qishloqda islohotlar qanchalik chuqur borishiga bog'liq bo'ladi.

Qishloqda bozor mexanizmlarini rivoilantirish, dehqonda sohiblik hissini uvg'otish mulkchilik munosabatlарини takomillashtirish, jamoa xo'jalikларини qayta tuzib, ularni xo'jalik mol-mulkining bir qismini, muavyan ulushini dehqonlarga biriktirib qo'vishga asoslangan xo'jaliklarga aylantirish, xo'jalikларинг о'зидаги ijara munosabatlарини chuqurlashtirish, yerni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berib qo'vish orqali, shuningdek, dehqon (fermer) hamda shaxsiy yordamchi xo'jalikларни keng rivoilantirish asosida ro'y berishi lozim.

Eng asosiysi — qishloqda xo'jalik yuritishning shunday mexanizmini vujudga keltirish kerakki, u har bir dehqonga manfaatdorlik bilan mehnat qilish, yetishtirgan mahsulotini mustaqil tasarruf etish, o'z oilasining ma'murchiligini ta'minlash imkonini bersin.

Qishloq xo'jaligini isloh qilishning eng muhim yo'nalishi hozirgi kunda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida band bo'lgan ortiqcha ishchilarni bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa sohalariga jalb etishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligining o'zi qishloq joylarda yashayotganlarning hammasini ish bilan ta'minlav olmayotir. Natijada bu hol qishloq xo'jaligini rivojlantirish va isloh qilishga g'ov bo'lmoqda. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining yuqori samarali industrial usullari, ilg'or agrokimyo usullari sust joriy etilmoqda. Mehnat unumdarligi ham past darajada qolmoqda. Lekin bu faqat masalaning iqtisodiy jihatni, xolos. Uning ijtimoiy jihatni ham bor. Qishloqda yashovchilarning ko'plari, ayniqsa yoshlar, ishga joylashish, o'z hayotlarini yo'lga qo'yish imkoniga ega emaslar. Bu esa qishloqda keskin ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy beqarorlik xavfming manbaiga aylanmoqda.

Shu sababli biz qishloq joylarda zamonaviy texnologiyaga ega harakatchan kichik korxonalar ochish hisobiga yangi ish joylari tashkil etishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Biz o'z zimmamizga qishloqda mutlaqo yangi tarmoqlarni — ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani, kommunikatsiyalar tar-mog'ini, zamonaviy maishiy va servis xizmati ko'rsatishni barpo etish vazifasini olganmiz. Xizmat ko'rsatish sohasi yetarlicha tashkil etilsa, qishloqdagagi xohlovchilarning hammasini ish bilan ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, qishloqning qiyofasini, turmush madaniyatini tubdan o'zgartirib yuborish imkoni tug'iladi. Bu esa mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga yordam beradi.

2. Strategik jihatdan barqarorlikni saqlash, iqtisodiy mustaqillikka erishish va iqtisodiy o'sish, respublika aholisining farovonligini ta'minlashning eng muhim sharti — iqtisodivotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdan iborat.

Tarkibiy o'zgarishlar respublikamiz iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashning muhim tayanchidir. Bizga meros bo'lib qolgan iqtisodiyot tarkibi sobiq SSSR manfaatlarini hisobga olib tuzilgan edi. U mehnat taqsimotining ittifoq bo'yicha shartlariga mos bo'lib, unda O'zbekistonga xom ashyo bazasi rolini bajarish yuklatilgan edi.

Shu sababli ichki siyosatimizda eng muhim vazifa — iqtisodiyotimizning biryoqlama xom ashyo yo'nalishiga, avvalgi yillardagi ittifoqqa xos ixtisoslashuvda chekimizga tushgan biqqlikka qat'iyan barham berishdan iboratdir.

Bir necha o'n yillar mobaynida respublika iqtisodiyoti Markazdan boshqariladigan yagona xalq xo'jaligi kompleksining bir qismi bo'lib keldi. Markaz qabul qilgan qarorlarning ko'pchiligi O'zbekiston manfaatlaridan yiroq edi. Respublika arzon xom ashyo va strategik mineral zaxira yetkazib beruvchi o'lka bo'lib qolaverdi. Ayni vaqtda uning katta bozori sobiq Ittifoqning boshqa joylarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot sotiladigan makonga aylantirilgan edi. Korxonalarining ko'pchiligi respublika ichki bozorini boyitishga emas, balki chetga mahsulot chiqarishga xizmat qildi. Bu mahsulot esa asosan dastlabki ishlov berilgan chala mahsulot bo'lar edi. Respublikaning ulkan tabiiy imkoniyatlaridan ayamay foydalanilar, undan ko'rila-

digan daromad esa vurtimizdan ancha viroqlarda qolib ketar edi.

Bugungi kunda ham ko'plab tarmoqlarda texnologiya jarayoni tugallanmagan ishlab chiqarishlar ustun. Bu jarayon xom ashyni birlamchi qayta ishlash va yarim tayyor mahsulot hosil qilish bosqichida uzilib qoladi. Bu esa hozir respublika iqtisodiyotini zaif ahvolga solib qo'ymoqda. Uning barqaror rivojlanishini sekinlashtiradigan omilga aylanmoqda.

Respublikaning mustaqilligi iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga mutlaqo yangi talablar qo'ymoqda. Tarkibiy o'zgarishlar qilish murakkab, mashaqqatli va uzoq davom etadigan jarayondir. Biz tarkibiy tuzilish borasidagi siyosatimizni amalga oshirar ekanmiz, bozor iqtisodiyoti talablariga amal qilishimiz, bozor eng yuqori samaradorlik va foyda berish tamoyili asosida mehnat taqsimotining mutlaqo yangi shaklini vujudga keltirishini hisobga olishimiz lozim.

Iqtisodiyotimizning hududiy tuzilish jihatidan takomillashuvi ham foydalanilmagan manbalar va iqtisodiy imkoniyatlardan yuksak darajada va samarali foydalanish, vujudga kelgan hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish hamda hozirgi kundagi muhim masala — ishsizlikka qarshi samarali kurashishga imkon beradi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, eng avvalo, qishloq xo'jalik xom ashysi va mineral zaxiralarni yanada jiddiy qayta ishlashga, texnologiya jarayonining tugallanganlik darajasini oshirishga qaratilishi lozim.

Bunda ilg'or texnologiyalarga, ishlab chiqarishning zamонавиј тузилмасига о'tishni ta'minlash, mineral xom ashyo zaxiralarini kompleks qayta

ishlovchi tarmoqlarning o'zaro aloqasi tizimini shakllantirishni ta'minlash muhimdir.

Shunga qaramay, biz iqtisodimizni va ayniqsa, iste'mol bozorini tashqi beqarorlashtiruvchi omillar ta'siriga qaram bo'lishdan asrashimiz lozim.

Qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga ega bo'la turib, iste'mol qilinadigan qand-shakar, quruq sut va bolalar ozuqasining qariyb hammasini, don, go'sht, sut mahsulotlari, kartoshka va iste'mol spirtining ko'pchilik qismini chetdan keltirishga majbur bo'lganligimiz milliy xavfsizligimiz manfaatlariga javob beradimi? Hatto kundalik ro'zg'orimizga zarur bo'lgan narsalar, masalan, gugurt, tuzni ham chetdan keltirishga majbur edik.

Shu sababli respublikani zarur, hayotiy muhim tovarlar bilan ta'minlash, eng avvalo, ularni o'zimizda ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga ta'minlash milliy xavfsizlik, sobitqadamlik va barqarorlikka erishishning asosiy vazifalaridan biridir. Bu masala nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega-dir.

Biz uchun muhim vazifa respublikaning o'zidagi-na emas, balki eng avvalo jahon bozorida xaridorgir bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashdan iboratdir.

Qo'shma korxonalar tuzish orqali biz o'zimiz uchun, bir tomonдан, zamonaviy texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil etishning hozirgi zamon darajasiga ega bo'lish imkoniyatini ochamiz. Ikkinchi tomonдан, hatto eng yaxshi mahsulotning ham eksport qilinishini ta'minlash va uni sotish bozorini

topish uchun kuchli raqobat sharoitida faoliyat ko'rsatishga qodir sherik — nufuzli chet el firmalari kerak.

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy islohotlarning asosiy natijalarini tanqidiy baho-lagan holda shuni to'la asos bilan aytish mumkinki, biz belgilangan yangilanish va taraqqiyot das-turidagi ko'pgina ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldik.

Iqtisodiyotimiz vujudga keltirilgan mustahkam huquqiy normalar negizida institutsional o'zgarishlarga tayanib, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich kirib, barqaror va sobitqadam bo'lib bormoqda. O'tgan yillar, xususan, 1996 yil yakunlari shundan dalolat beradi.

Birinchidan, butun iqtisodiyotimizni muvaffaqiyatli isloh qilishning eng muhim natijasi sifatida sobitqadam makroiqtisodiy barqarorlikka erishildi. Nazarda tutilgan dasturning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishiga erishildi. Yalpi ichki mahsulot, sanoat mahsuloti hajmi, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, davlat budgeti taqchilligi eng kam da-rajada barqaror turishi, bir yilda pul qadrsizlanishi darjasasi ikki baravar qisqarganligi — bularning hammasi chiqarilgan xulosaning yorqin tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Respublikada iqtisodiyotning bundan buyon o'sishi, investitsiya faoliyatining kuchayishi uchun mustahkam moddiy, moliyaviy, institutsional asos yaratildi.

Ikkinchidan, milliy pul tizimimizni barqarorlash-tirish ishi nihovasiga yetay deb qoldi. Milliy valutani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu esa uning yagona to‘lov vositasi sifatidagi rolini kuchaytirish imkonini berdi. Birjadan tashqari valuta bozorini rivojlantirish uchun tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Yetarli miqdorda va barqaror oltin-valuta zaxiralari yaratilgan bo‘lib, bu zaxiralar O‘zbekiston respublika valuta birjasida kim oshdi savdosini muntazam o‘tkazib turish imkonini bermoqda.

Uchinchidan, umuman bozor infrastrukturasi shakllantirildi. Bank, moliya, soliq tizimlari, fond va tovar-xom ashyo birjalari, sug‘urta, auditorlik, lizing kompaniyalari va boshqa bozor tuzilmalarining yangi tarmog‘i vujudga keltirildi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyati kuchaytirilmoqda. Markaziy Osiyoda eng yirik, zamонави komputer texnikasi va telekommunikatsiya tizimi bilan jihozlangan birja markazi ishga tushirildi. Eng muhimmi, bozor tuzilmalari amalda ishlay boshladи.

To‘rtinchidan, xususiylashtirish jarayoni chuqlashdi va ko‘lamni kengaydi. Bozor islohotlari natijasida hozirgi vaqtida xalq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi umumiyl miqdorining va hosil qilingan milliy daromadning 70 foizi, sanoat mahsulotining 53,5 foizi, qishloq xo‘jalik mahsulotining 97,7 foizi davlatga qarashli bo‘lмаган sektor hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Shu bilan birga, xususiylashtirish nomigagina emas, balki mulk o‘zining haqiqiy egasini topishi uchun, ishslashga qodir bo‘lgan, boshqarishni tashkil etish oldiga qo‘yilayotgan talablarni chuqr ang-

laydigan, investitsiyalarni jalb eta oladigan, odamlarning va butun jamiyatimizning manfaatlarini ko'zlab raqobatga bardoshli mahsulot chiqarilishini ta'minlay oladigan kishilarning qo'lida bo'lishi uchun amalga oshirilmoqda.

Beshinchidan, mo'ljallangan investitsiva lovhalarining natijasi o'laroq, iqtisodiyotda salmoqli tarkibiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Sanoatning mutlaqo yangi tarmoqlari — avtomobilsozlik, mikrobiologiya, sellyuloza-qog'oz tarmoqlari va boshqalar barpo etildi. Iqtisodiyotimizning qiyofasini o'zgartiribgina qolmay, shu bilan birga uning tashqi omillardan mustaqilligini ham ta'minlaydigan va yalpi ichki mahsulotni hamda aholi turmush darajasini yuksaltiradigan tarmoqlar jadal rivojlanmoqda.

Oltinchidan, odamlarimizning ruhiyati o'z-garmoqda, yangicha turmush sharoitlariga moslashish kuchaymoqda. Buning sababi, avvalo, O'zbekiston umuman islohotlar va yangilanish yo'lidan olg'a rivojlanib borayotganligida, va eng muhimi, islohotlarning bugungi kunda sezilarli bo'lib qolgani ularning butun iqtisodiyot tarziga va hayotimizga ko'rsatayotgan ta'siridadir.

Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-ma'naviy sohalarda erishilgan yutuqlar fuqarolarning ijtimoiy ahvolruhiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Dastlabki paytlarda odamlar ongida va xulq-atvorida ishonchsizlik, hatto o'zini yo'qotish holatlari sezilgan edi. Endilikda bu hol barham topdi. Hozir aholining keng qatlamlari asta-sekin iqtisodiy voqeliklarga moslashmoqda. Moslashibgina qolmay, o'zlari ham jamiyatimiz hayoti-

ning hamma jabhalarini isloh qilish jarayonida faol qatnasha boshladilar.

O'zbekiston fuqarolari ijtimoiy xulq-atvorini baholash va unga munosabatdagi bu o'zgarishlar mamlakatda yangilikning o'ziga xos, orqaga qayt-maydigan, ijobiy xususiyatlarini egallashda burilish ro'y berdi, respublikani sobitqadam va barqaror rivojlantirish, uning xavfsizligi va barqarorligini mustahkamlashning kuchli asoslari yaratildi, deya xulosa chiqarishga imkon beradi.

KUCHLI IJTIMOIY SIYOSAT VA AHOLI IJTIMOIY FAOLLIGINING ORTISHI

Milliy davlatchilikni shakllantirish, demokratik islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish hamda bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy muammolarga alohida e'tibor berish zarur. Jahondagi ko'pgina mamlakatlarning ijtimoiy rivojlanish sohasidagi g'oyat boy tajribasi shundan dalolat beradi. Yangi mustaqil davlatlarning islohot davridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy holatining tahlili ham buni tasdiqlaydi.

Tarix sabog'i shundaki, uning aynan keskin burilishlarida, ijtimoiy formatsiyalar almashinayotganda ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar g'oyat keskinlashadi, milliy xavfsizlikka, fuqarolar tinchligiga va barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanadi.

Bu holni nimalar keltirib chiqaradi, o'tish davrida ijtimoiy barqarorlik masalalariga alohida e'tibor berishning qanday muhim sabablari bor? Mening nazarimda, bu sabablardan eng muhimlari quyidagilar:

Birinchi. Ijtimoiy ziddiyatlar o'z mohiyatiga ko'ra hamisha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi. O'zgarishlarning qay tarzda — yo izchil, tadrijiy yo'l bilan borishi, yo bo'lmasa, keskin shakllarga kirishi: ijtimoiy noroziliklar, stixiyali portlashlar, hatto fuqarolar urushlari va inqiloblar tusini olishi to'planib qolgan ijtimoiy muammolarning qay darajada keskinligiga, hukmron tuzilmalarning bu muammolarni hal qila olishi yoki hal qila olmasligiga bog'liq.

Shu sababli taraqqiyotning hamma bosqichlarida odamlarning ijtimoiy kayfiyatlarini, ijtimoiy muammolarni nazar-pisand qilmaslik barqarorlikka va milliy xavfsizlikka katta xavf tug'diradi.

Ikkinchi. Odamlarni da'vat etuvchi ijtimoiy sabablarning ro'yobga chiqishi juda muhim ahamiyatga molikdir. Odam o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Shu sababli inson uchun islohotlar jarayonida o'z imkoniyatlarini qanchalik ro'yobga chiqara olishi, islohotlarning mazmuni va maqsadlari haqidagi tasavvurlari islohotlarning amaliy natijalariga qanchalik mos kelishi g'oyat katta ahamiyatga molikdir.

Zaminimizda yashayotgan odamlarning munosib va erkin, farovon hayotini ta'minlash, har bir kishi huquq va imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish — jamiyatimizni isloh qilish va yangilash paytida oldimizga qo'yayotgan g'oyat muhim vazifalardandir. Shu bois eski totalitar, mafkuraviy, buyruqbozlik-taqsimot tuzumiga hamda soxta tenglik va mehnatni qadrlash uchun sog'lom negiz bo'lmagan bir holatga qaytish biz uchun maqbul emas.

Agar o'tish davrida pirovard maqsadga erishish — jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyotini ro'yobga chiqarish uchun ayrim bosqichlarda odamlarning moddiy ahvoli yomonlashuviga olib keladigan nomatlub, ba'zan keskin qarorlar qabul qilishga to'g'ri kelishi hisobga olinsa, aholining ijtimoiy himoyalangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga doir choralar ko'rish qanchalik ahamiyat kasb etishi ayon bo'lib qoladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, islohotlarning mohiyatiga to'ralarcha putur yetkazish, ijtimoiyadolatni buzish, hokimiyatning turli pog'onalaridagi korrupsiya aholining shunday ham tang ahvolini yanada og'irlashtirib, jiddiy ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Bu hol o'tmishni qo'msash kayfiyatları uyg'oniishi uchun qulay zamin yaratadi, shovinizm va soxta vatanparvarlikdan tortib to murosasoz sotsialistik kayfiyatdagi turli harakatlargacha oziq beruvchi muhit bo'lib xizmat qiladi. Bunday holatda aholi orasida ijtimoiy norozilik kayfiyatlarining g'arazli, tor siyosiy manfaatlarni ko'zlab muttasil qo'zg'atib turilishi ham fuqarolar tinchligiga, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid soladi.

Uchinchi. Keng ko'lAMDAGI UZOQ MUDDATLI ISLOH qilish jarayonining dastlabki bosqichini men eng qiyin, ijtimoiy portlash xavfi bo'lgan bosqich, deb atagan bo'lardim. Buning sababi shundaki, o'tish davrining o'zi ko'p hollarda bir qancha hal qilinmagan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi va ular zamiridagi larzaga soladigan kuchni o'zida saqlab turadi. Shu bilan

birga bir siyosiy va iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o't ham yangi muammolarni tug'dirishi va muayyan ijmoiy kamchiliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ko'p mamlakatlarning tajribasi bozor munobatlariga o'tish silliq, ijtimoiy qiyinchiliklarsiz, os kechmasligini ko'rsatadi. Bu obyektiv jarayondir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, ayniqsa iste'mol narxlari va tariflarning «esankiratadigan» tarzda qo'shib yuborilishi, ishlab chiqarishning pasayib ketish to'lovlarni amalga oshirmaslik bilan bog'liq tanglikni keskinlashuvi, pul muomalasining buzilishi ko'pchilik yangi mustaqil davlatlarda iste'mol narxlarini keskin o'sishiga, jamg'armalarning qadrsizlanishi aholining anchagina qismi turmush darajasini pasayishiga, butunlay yoki qisman ishsizlar sonini o'sishiga olib keldi. Bu davrda aholini ijtimoiyalash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgachorralarga yetarli e'tibor bermaslik aholining and qismi qashshoqlashuviga, ularning lyumpenlashuv olib kelishi mumkin. Bir qancha mamlakatlarda shunday bo'ldi ham. Ma'lumki, bunday holat ijtimoiyalashni vujudga keltiruvchi muhit bo'lib xiziqiladi.

To'rtinchi. O'tish davrining keskin ijtimoiy muammosi ko'p kishilar uchun qaror topgan turnuvtarzining buzilishidan, hayotiy mo'ljallarning, fikrlarini, ijtimoiy fe'l-atvor, boqimandalik kayfiyatini o'zgarishidan iborat. O'tish davrida odamlarning tafakkur yuritish psixologiyasi o'zgaradi, bu ayonki, hamma vaqt ham oson kechavermaydi.

Sobiq SSSR sharoitida uchdan ziyod avvakiillari nafaqat xususiy mulkni tan olmaydigan

mustaqil xo'jalik faoliyati ko'nikmalarini bermaydigan mafkuraviy aqidalar asosida, balki, ustiga-ustak, markazdan turib taqsimlash g'oyalari, ijtimoiyadolat tushunchasi haqidagi soxta tasavvurlar asosida tarbiyalangan edilar.

O'tish davrida eskicha va yangicha fikrlesh o'rtasidagi, o'tmish va hozirgi zamonning qadriyatlar tizimi o'rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashadi.

Xalqimizning ma'naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasi eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan yangi avlodni shakllantirish bugunning eng muhim vazifasidir. Faqat ana shu asosdagina, oldimizga qo'yilgan yuksak maqsadlar barchamiz uchun hayotimizning mazmuniga aylanib qolganidagina millatning ongli vatanparvarlik ruhini yuksaltirib, rivojlangan ilg'or mamlakatlar kabi taraqqiyot yo'lidan ildam qadam tashlash imkonini tug'iladi.

Har qanday mamlakatda turli ko'rinishdagi tengsizliklar ko'paysa yoki ularning o'sishiga imkon paydo bo'lsa, ular ijtimoiy barqarorlik uchun xavf tug'diradi. Ijtimoiy muammolarning keskinligi kimlarningdir kambag'alligi yoki boyligida emas, balki ushbu ijtimoiy tabaqalar o'rtasida haddan tashqari katta farq paydo bo'lishidadir. Bu esa beixtiyor ularning qarama-qarshiligidaga olib keladi.

Ayonki, agar jamiyat manfaatlari va intilishlari mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan odamlar guruhlaridan iborat bo'lsa, hamma vaqt ijtimoiy ziddiyat xavfi, demakki, milliy xavfsizlikka tahdid ham mavjud bo'ladi. Ijtimoiy ziddiyatlarning haddan tashqari keskinlashuvi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning barham topishiga,

ichki mojarolarga va hatto fuqarolar urushiga ham olib borishi mumkin.

Shuning uchun ham o'tish davrida demokratik davlatning eng muhim vazifasi ijtimoiy ziddiyatlarining keskinligini kamaytirishdan, bu davrning muqarrar qiyinchiliklarini ehtiyoj choralari hisobiga yumshatishdan va odamlarning yangi turmush sharoitlariga moslashishini osonlashtirishdan iborat. Aslini olganda, O'zbekiston amalga oshirayotgan siyosatning bozor munosabatlariiga o'tayotgan boshqa davlatlar siyosatidan eng muhim afzalliklaridan biri ham shundadir.

Ijtimoiy kelishuvni qanday ta'minlash mumkin, ijtimoiy hamjihatlikka, shu jumladan millatlararo totuvlikka qanday erishish mumkin, degan murakkab savollarga javob topishga qodir bo'lgan davlat demokratik va iqtisodiy rivojlanishga umid bog'lashi mumkin.

Ijtimoiy birdamlikni ta'minlash — ijtimoiy ziddiyat va tengsizliklarning o'zlarini adolatsiz ravishda hamma narsadan bebahra bo'lib qolgan yoki haq-huquqlari kamsitilgan deb hisoblovchi butun-butun aholi guruhlari va tabaqalari vujudga keladigan darajaga borib yetmasligiga erishish demakdir.

Shu boisdan ham O'zbekistonning o'z vangilanish va taraqqiyot vo'liga asos qilib olingan yetakchi tamovillardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Bu demokratik va iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning, ular orqaga qaytmasligining juda muhim sharti va garovidir.

Ishonchli ijtimoiy kafolatlarni va aholini ijtimoiy himoyalash choralarini ta'minlash bozor o'zga-

rishlarining hamma bosqichlari orqali o'tadi va jamiyatimizni yangilashdan iborat g'oyat keng jarayonning boshqa yo'nalishlarini ham qamrab oladi.

Gap ijtimoiy himoya tizimining ustuvorligi haqida borar ekan, bunda eng avvalo bozor iqtisodiyotini barpo etish biz uchun birdan-bir maqsad emasligi nazarda tutiladi. Islohotlarning mazmuni va maqsadi O'zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va maslagidan qat'i nazar, shaxs sifatida namoyon bo'lish, o'z qobiliyatini, iste'dodini namoyish etish, o'z hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy boyroq qilish imkoniga ega bo'ladigan zarur shartlarni yaratishdan iboratdir.

Mustaqillik yillarda haqiqiy iqtisodiy vaziyatni, mavjud zaxiralar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, aholini ijtimoiy himoya qilishning möhiyatani yangi mexanizmi yaratildi. Bunda biz jamiyatni isloh qilishning turli bosqichlariga ijtimoiy siyosat borasidagi o'z konsepsiymiz mos kelishi kerakligiga ham asoslandik.

Islohotlar chuqurlashib, bozor iqtisodiyoti tomon ilgarilab borilgan sari ijtimoiy siyosatning ustuvor jihatlari ham, aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ham o'zgarib bormoqda. Turli bosqichlarda davlat tomonidan tartibga solish usullari va uslublarining keng vositalaridan foydalanmoqda. Bular orasida muntazam suratda qayta ko'rib turilgan ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalarning miqdoridan iborat bevosita pul to'lovlarini ham, imtiyozlar, tovon to'lovlarini, dotatsiyalar va subsidiyalar sifatidagi bavosita pul to'lovlarini ham bor.

Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijtimoiy himoyalash yo'lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning tur mush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi. Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo'ldi.

Islohotlarning dastlabki yillarida himoya chorasi sifatida iste'molchilarga subsidiyalar berish tizimidan va iste'mol bozorini asosiy oziq-ovqat tovarlari mamlakatdan tashqariga chiqib ketishidan himoya-lashning turli shakllaridan keng foydalanildi.

Bu majburiy chora edi. Uni zarur qilib qo'ygan hol shuki, biz narxlarni erkinlashtirish sharoitida aholining xarid qobiliyatini himoya qilishimiz kerak edi.

Ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarni, ishsizlarni, daromadi cheklangan shaxslarni, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va yolg'iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, ikki yoshga yetmagan bolalar uchun, shuningdek, kam-qonlik kasaliga duchor bo'lgan homilador ayollar uchun bepul ovqat, barcha maktab o'quvchilari va talabalarni imtiyozli ovqatlantirish kabi ijtimoiy imtiyozlar ham byudjet mablag'laridan to'lab turildi. Kommunal xizmatlar, shahar elektr transportida yurish haqini to'lash bo'yicha va yosh kelin-kuyovlarga imtiyozlar amal qilib turdi.

Shunday yondashuv tufayli islohotlar arafasida eng noqulay boshlang'ich shart-sharoitlarga va sezilarli

ijtimoiy ziddiyatlarga ega bo‘lgan O‘zbekiston ijtimoiy mojarolarni chetlab o‘tishga muvaffaq bo‘ldi.

Oldindan ko‘rilgan ijtimoiy chora-tadbirlar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlash imkonini berdi, aholida amalga oshirilayotgan islohotlar yo‘liga ishonch paydo qildi.

Ayni vaqtida islohotlarning boshlang‘ich bosqichida qo‘llanilayotgan ijtimoiy himoya choralarini chuqur tahlil qilish ularning kamchiliklarini, eng avvalo, isrofgarchilikni va boqimandalik kayfiyati kuchaya-yotganligini ko‘rsatdi. Dotatsiya va imtiyozlar muhtojlik darajasini hisobga olmagan holda barcha aholiga baravar taalluqli qilib qo‘yildi. Bu hol ko‘pincha o‘ziga to‘q oilalar ham dotatsiya va imtiyozlardan foydalani-shiga olib keldi.

Shu sababli islohotlar chuqurlashib borgan, bozor munosabatlari rivojlangan sari amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlariga tuzatishlar kiritildi. Eng katta e’tibor haqiqatan ham muhtoj oilalarga yordam berishga qaratildi. Aholini aniq ijtimoiy himoyalash mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida katta ishlar qilindi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning butun tizimi tengchilik va boqimandalik kayfiyatini tugatishga qaratildi. Barcha nafaqalar va moddiy yordam faqat oila orqali ko‘rsatiladigan bo‘ldi. Ularni asosan kam ta‘minlangan oilalar, keksalar va bolalar ola boshladilar. Ijtimoiy himoya yangi tizimining eng muhim xususiyati aholining turli qatlamlariga qat’iy tabaqlashtirilgan tarzda yondashish xususiyati bilan ajralib turadi.

Biz aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash, uning samarasini ko'tarish quyidagi muhim vazifalarni hal etishga bog'liq deb bilamiz.

Birinchidan. Bu — ishlab chiqarishni barqarorlash-
tirish va muttasil rivojlantirish. Pul qadrsizlanishiga qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, milliy valyutani va ichki iste'mol bozorini mustahkamlash natijasida islohotlarning boshlang'ich bosqichidayoq turmush darajasini saqlab qolish va uning keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik imkoniy yaratildi.

Umr ko'rish darajasi uzaydi, go'daklar o'limi, jinoyatchilik kamaydi. Bizda jinoyatchilik MDH mamlakatlari orasida eng past darajada.

Iqtisodiyotning barqarorlashuvi, investitsiya faoliyatining kuchayishi, kichik va o'rtalig' biznesni qo'llab-quvvatlash yo'li yangi ishchi o'rinlarini tashkil etish, ish bilan bandlik muammolarini hal qilish, ish haqi saqlanib qolmagan yoki qisman saqlanib qolgan holda to'liqsiz ish kunida ishlayotgan va majburan mehnat ta'tilda yurgan shaxslar sonini keskin qisqartirish uchun qulay zamin yaratdi.

Garchi O'zbekiston nufus sohasidagi vaziyat murakkab bo'lgan, ishga joylashish muammolari hamma vaqt keskin turgan mamlakat bo'lsa-da, hozir respublikada iqtisodiyot barqaror rivojlanib bora-yotganligi tufayli bu yerdagi ishsizlik eng past darajada deyish mumkin. Ayni chog'da biz bundan buyon ham iqtisodiyotda tarkibiy jihatdan o'zgarishlar qilish, eng avvalo, qishloq joylarda ixcham ishlab chiqarish kor-

xonalari tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish hisobiga aholining ish bilan bandligini ta‘minlash siyosatini faol amalga oshirmoqchimiz.

Ikkinchidan. Bu — davlat mablag‘lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari va jamg‘armalarining mablag‘larini keng jalb etish.

Aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari ancha kengaytirilishi hamda mas’uliyati oshirilishi lozim. Ular mintaqalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasida qo‘srimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga haqlidir. Mahalliy organlarining asosiy vazifasi — odamlarga o‘z farovonliklarini yuksaltirish maqsadida mehnat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishdan iborat.

Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligini va tadbirkorligini o‘stirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilishi darkor.

Uchinchidan. Bu — odamlarning kuch va qobiliyatlari to‘la-to‘kis faollashuvini ta‘minlashga qodir bo‘lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish. Bu mexanizmni birinchi navbatda, har bir kishining iqtisodiy erkinligi, uning o‘zi va oilasining baxt-saodati uchun iqtisodiy javobgarligi bilan uyg‘unlashadigan shart-sharoitlarni yaratish hisobiga shakllantirish lozim. O‘z qobiliyat va mehnatiga tayanib ish tutish — farovonlikning birdan-bir va eng barqaror manbai bo‘lib qoladigan munosabatni vujudga keltirish. Buning uchun xususiy mulk institutining rivojlanishini tez-

lashtirish juda muhim. Bozor sharoitlariga moslashish hozirgi kunning o'zidayoq aholi jami daromadining ancha qismi tadbirkorlik faoliyati hamda mulkdan kelgan daromad hisobiga vujudga kelishini ta'minlamoqda.

To'rtinchidan. Bu — aholining daromadlarida va turmush darajasida asossiz katta farqlarga vo'l qo'vmaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni shakllantirish.

Aholini ijtimoiy himoyalash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining daromadlar darajasi bo'yicha keskin tabaqalashishi mumkinligining oldini oldi. Bugungi kunda aholining eng yaxshi ta'minlangan guruhi bilan eng kam ta'minlangan qismi olayotgan daromadlar o'rtasidagi farq yuqori hisoblanuvchi 8 baravardan 7,5 baravarga tushdi. Bu farqning 8 baravardan yuqori bo'lishi jamiyat ijtimoiy jihatdan keskin tabaqalanganligidan darak beradi.

Beshinchidan, bu — qashshoqlikka qarshi kurash. Aholi eng muhtoi qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Hozirgi jamiyatning asosiy illatlaridan biri qashshoqlikdir. Jahondagi bironta ham mamlakat, hatto eng boy mamlakat ham hozircha undan qochib qutula olmagan. BMT Bosh Assambleyasi 1996 yilni qashshoqlikni tugatish Xalqaro yili deb e'lon qilganligi bejiz emas.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qashshoqlik muammosi yanada chuqur his etiladi. Bu hol, eng avvalo, kambag'allar toifasiga ijtimoiy nochor guruhlardan tashqari, aholining ilgari ular jumlasiga

kirmagan guruhlari, shu jumladan daromadlari o'rtacha yoki o'rtadan yuqori darajada bo'lganlar guruhiga mansub ko'plab kishilar ham kirib qolishi bilan bog'liqdir.

Qashshoqlikni tugatish muammolarini hal etishda aholining vujudga kelgan vaziyatlar tufayli kambag'alilik darajasiga tushib qolishi mumkin bo'lgan "nochor guruhlari": nogironlar, yolg'iz onalar, yetim bolalar, keksalarga alohida e'tibor berish talab qilinadi. Biroq bunda ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning aniq maqsadga yo'naltirilganligi yaqqol ko'rinish turishi lozim.

Oilani ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi ijtimoiy siyosatimizning tamal toshidir. Biz davlatimizning ijtimoiy negizlarini, uning barqarorligini mustahkamlashda, jismonan baquvvat, ma'naviy boy avlodni — mamlakatimizning ertangi kuni egalarini tarbiyalashda oilaning rolini oshirishga juda katta ahamiyat bermoqdamiz. Respublikada onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha kuchli kafolatlar yaratilgan. Yosh avlodga ta'lim berish va unga kasb o'rgatish tizimi shakllanmoqda, oilaning mustahkamlanishiga yordam berishi, unga moddiy yordam ko'rsatishi kerak bo'lgan turli ijtimoiy fondlar tashkil etilgan. So'nggi paytlarda aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga oila orqali beriladigan nafaqalarning yangi tizimi joriy etildi.

Milliy ruhiyatning va aholi turmush tarzining xususiyatlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy jihatdan eng nochor oilalarni mahalla qo'mitalari orqali aniqlash va ularga muayyan moddiy yordam ko'rsatishdan iborat ijtimoiy madad berish shakli joriy

etildi va keng qo'llab-quvvatlandi. Masalaga bunday yondashish aholi orasida ko'p asrlik ildizlarga ega. Tajriba bu usul aholining ijtimoiy nochor, muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan mablag'lar aynan egalariga tegadigan qilib taqsimlanishiga kafolat berishini ko'rsatadi. Oilani qo'llab-quvvatlashning biz amalga oshirgan yangi mexanizmi o'zaro yordam va bir-birini qo'llab-quvvatlash borasidagi milliy an'analarni to'la-to'kis hisobga oladi va ulardan foydalanadi, moddiy yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilish chog'ida demokratizm va oshkorlikni ta'minlaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, zim-maga olingan vazifalarni amalga oshirishda aholining sivosiv va ijtimoiy faolligini kuchavtirish juda muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidlashni istar edik.

Fuqarolarga juda keng huquq va erkinliklar berilgan, ta'bir joiz bo'lsa, ularning jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi rag'bat-lantirilgan taqdirdagina mamlakatimizni yangilash va taraqqiy ettirishga erisha olamiz.

Har bir kishi o'z mamlakatining fuqarosi ekanligini his qilishi, uning o'ziga berib qo'yilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatda bo'lishi va qadrlashi, mashaqqatli mehnat bilan qo'lga kiritilgan demokratik qadriyatlarni asrab-avaylashi va himoya qilishi g'oyat muhim.

Odamlar ijtimoiy faolligining ortishida, hayotimizning ko'plab yetilgan muammolarini hal qilishda nodavlat tuzilmalari katta rol o'ynaydi.

Biz jamiyatimizning tuzilmalarida kuchli ommaviy, ijtimoiy raqobat bo'lmas ekan, hamma darajalarda subyektivizm va ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishlari ro'y bermasligiga ishonchli kafolatlar ham bo'lmasligini aniq tushunib olishimiz zarur.

Respublikadagi hozirgi ijtimoiy ahvolni ana shu nuqtai nazardan baholab dadil aytishimiz mumkinki, xalqimiz chekiga tushgan va o'tish davrida muqarrar bo'lgan eng qiyin sinovlar ortda qoldi. Tor fikr yuritish, mafkuraviy mahdudlik bilan bog'liq bo'lgan hamma holatlar o'tmishta aylanmoqda. Mamlakat ichidagina emas, balki uning tashqarisida ham yuz berayotgan barcha hodisalarga daxldorlik hissi kuchayib bormoqda. Mustaqillik yillarda nafaqat o'zimizning, balki boshqa mamlakatlar misolida to'plangan oz, ammo achchiq tajriba ko'p masalalarda odamlarning ko'zini ochdi, ularni yanada donoroq va sabr-toqatliroq qilib qo'ydi.

Inson ma'naviyatining, yuksak axloq va madaniyatining, go'zal milliy an'analarni qayta tiklashning muazzam qatlamlari ochildi.

Bugungi kunda aholining moddiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsata oladigan omillar deyarli yo'q. Aksincha, barqarorlashtiruvchi, aholining turmush darjasasi o'sishi uchun shart-sharoit va ishonchli kafolatlar yaratib beruvchi omillar tobora ortib bormoqda.

Eng muhimmi esa — inson va fuqaroning fikrlashi va dunvoqarashi o'zgarmoqda, sivosiv va ijtimoiy ongi, uning umumiy saviyasi to'xtovsiz o'sib bormoqda. Bugun biz bundan besh yil burungi kishilar emasmiz.

Ishonchim komilki, bunday iymon-e'tiqodli kishilarni tanlab olgan yo'llaridan endi ortga qaytarib bo'lmaydi.

JO'G'ROFIY-STRATEGIK IMKONIYATLAR VA TABIIY-XOM ASHYO RESYRLSLARI

Hozirgi dunyoda hech qaysi mamlakat, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham, boshqalardan ajralgan hudud emas. Bu mamlakatlar jahon xo'jalik aloqalarining muayyan jo'g'rofiy va siyosiy tizimlari tarkibiga kiradi.

Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jo'g'rofiy-strategik mavqega ega. Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillik va suverenitetni qo'lga kiritganidan keyin bu aloqalar jonlanib, ahamiyati yana ham oshdi. Bu tasodifiy emas. Chunki Markaziy Osiyo mamlakatlarining hududi Sharqda Xitoy chegaralaridan boshlanib, G'arbda Eron va Kaspiy dengizigacha cho'zilib ketgan. Ular Hindiston yarim orolini Rossiya va Yevropa bilan bog'lab turadi.

O'zbekistonning va Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalarning hozirgi jo'g'rofiy-siyosiy tizimlardagi

roli juda sezilarli va kattadir. Shu tufayli bu respublikalarda yuz berayotgan hodisalar jahondagi eng yirik davlatlar, turli jo‘g‘rofiy-siyosiy tuzilmalarning manfaatlariga bevosita daxldordir. Har qanday davlat ham o‘zining jo‘g‘rofiy-siyosiy yo‘lini belgilagan vaqtida ana shu vaziyatni hisobga oladi va o‘zi uchun siyosiy, iqtisodiy va strategik foyda chiqarib olishga harakat qiladi.

O‘z navbatida, O‘zbekistonning hududiy-makon xususiyatlari, uning jo‘g‘rofiy o‘rni bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyoda jo‘g‘rofiy-siyosiy jihatdan markaziy o‘rin tutgan O‘zbekiston kuchlar tengligi va muvozanatini ta‘minlash, strategik muhim bo‘lgan ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonida sezilarli rol o‘ynash uchun hamma imkoniyatlarga ega. Uning hududi o‘zining mavjud va potensial tabiiy hamda xom ashyo zaxiralari bilan hozirdayoq — XXI asr arafasida dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritasida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakat, katta ma’naviy va madaniy kuch-qudratga ega bo‘lgan O‘zbekiston bugungi kunda qo‘sni davlatlar — Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Тоҷикистон, Turkmaniston va Afg‘онистон о‘rtasida bog‘lovchi halqa vazifasini o‘taydi. O‘zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali butun Markaziy Osiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o‘rnatish imkoniyati ochiladi.

Markaziy Osiyoning yuragi bo‘lgan Toshkent, ramziy qilib aytganda, Sharq darvozasi hisoblanadi.

Ko'pgina xalqaro tashkilotlar buni munosib baholab, o'z vakolatxonalarini va byurolarini aynan Toshkent shahrida ochdi. Bular Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik Tashkiloti, Nemis texnikaviy yordam jamiyati va boshqa ko'plab tashkilotlardir. 350 dan ortiq chet el kompaniyalarini, firma va banklari ham o'z vakolatxonalarini O'zbekistonda akkreditatsiya qilgan.

Bularning barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O'zbekistonni davlatlar o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzitining o'ziga xos mintaqaviy markaziga aylantiradi. Transport, sayyohlik va moliyaviy xizmatlarning rivojlaniishi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Noyob tabiiy-xom ashyo imkoniyatlari haqida alohida aytib o'tish lozim. Qulay iqlim sharoiti, ulkan mineral-xom ashyo zaxiralari, strategik materiallar va qishloq xo'jalik xom ashyosining katta zaxiralari haqli suratda O'zbekistonni mintaqqa va dunyoning eng boy mamlakatlari qatoriga olib chiqadi.

O'zbekiston zaminida mavjud bo'lgan boyliklarga ega davlatlar jahon xaritasida ko'p emas. Bu boyliklarning ko'pchiligi hali ishga solinmagan. Bu esa butun dunyoga mashhur chet el kompaniyalarini va banklarining e'tiborini jalb etishi aniq.

O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi — bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma

konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral-xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalg etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiyl mineral-xom ashyo potensiali 3,3 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.

G'oyat muhim strategik manbalar — neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha — 40 dan ortiq, rangli, nodir va radioaktiv metallar bo'yicha — 40, konchilik-kimyo xom ashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan.

Qidirib topilgan foydali qazilmalarning hozirgi darajasi va u bilan bog'liq holda qimmatbaho, rangli va nodir metallar, barcha turdag'i yonilg'i zaxiralari — neft va gaz kondensati, tabiiy gaz, ko'pgina mineral-xom ashyo va qurilish materiallari xillarining g'oyat boy konlarini o'zlashtirish respublikaning kelajagiga ishonch bilan qarash imkonini bermoqda.

Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6,0 — 7,0 milliard dollarlik yangi zaxiralar qo'shilmoqda.

Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforitlar, kaolinlar bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zaxiralar va istiqbolli rudalar jihatidan MDHdagina emas, balki butun dunyoda ham yetakchi o'rinni egallaydi.

Masalan, oltin zaxiralari bo'yicha respublika dunyoda 4-o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis zaxiralari bo'yicha 10—11-o'rinda, uran zaxirasi bo'yicha 7—8-o'rinda turadi.

Ko'pchilik mineral xom ashynoning tayyorlangan zaxiralari mavjud tog'-kon sanoati komplekslarining uzoq muddat davomida ishlab turishini ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga bir qator strategik foydali qazilmalarni qazib olish quvvatlarini oshirishga ham imkon beradi.

Hozirning o'zidayoq O'zbekiston iqtisodiyotida mineral xom ashynoni qazib olish va qayta ishlash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. U sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Qidirib topilgan zaxiralar negizida 400 ga yaqin kon, shaxta, karyer, neft-gaz konlari ishlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlari MDHdagi boshqa mam-lakatlarnikidan o'zining juda katta zaxiralari bilangina emas, balki bir qator xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Bu xususiyatlardan quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Birinchidan, tabiiy va mineral-xom ashyo zaxiralari yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;

Ikkinchidan, foydali qazilmalarning ko'pgina turlari tarkibidagi foydali komponentlar yuqori darajada bo'libgina qolmay, katta miqdorda yo'l dosh elementlarga ham ega;

Uchinchidan, konlarning ko'pchiligidagi ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy. Bu texnologiya foydali komponentlarni ko'p miqdorda chiqarishni va jahon bozorida xaridorgir mahsulot olishni ta'minlaydi;

To'rtinchidan, ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, aholi zinch yashaydigan mintaqalarda joylashgan. Ular transport yo'llariga va hududlar o'rtaida resurslarni tashish vositalariga, shu jumladan suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega;

Beshinchidan, ishlab chiqarish va sotsial infrastruktura, malakali kadrlar, tog'-kon mutaxassislari tayyorlaydigan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tizimi mavjud.

Ushbu kitobda respublikadagi barcha mineral-xom ashyo zaxiralarni baholashga imkon yo'q. Shu bois respublika, uning mustaqilligi va iqtisodiy qudrati uchun hal qiluvchi, strategik ahamiyatga molik resurslargagina e'tiborni qaratmoqchiman.

Birinchi. O'zbekiston novob yonilg'i-energetika resurslariga ega. Qidirib topilgan gaz zaxiralari 2 trillion kubometr ga yaqin, ko'mir — 2 milliard tonnadan ortiq. 160 dan ortiq neft koni mavjud.

Neft, gaz va kondensat zaxiralari o'z ehtiyojlari-mizni to'la ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga energiya manbalarini eksport qilish imkonini ham beradi. Hozir bu kapital mablag' sarflashning eng foydali sohalaridan biri bo'lib qoldi.

Mutaxassislar baholashicha, O'zbekistonning yer ostida juda katta neft va gaz qatlamlari bor. Respublika

hududining qariyb 60 foizida ularni istiqbolda qazib olish mumkin.

Neft va gaz mavjud bo'lgan beshta asosiy mintaqani ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: **Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi-G'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'on'a** mintaqalaridir. Neft va gaz resurslarining zaxiralari bir trillion AQSH dollaridan ziyod baholanmoqda.

Qidirib topilgan zaxiralar respublika ehtiyojini tabiiy gaz bo'yicha 35 yildan ko'proq, neft bo'yicha esa — 30 yilgacha qoplaydi. Neftning 90 foizdan ortiqrog'i eng arzon favvora usulida olinmoqda.

1992 yilda Namangan viloyatida istiqbolli Mingbuloq neft koni ochildi. Uni sanoat usulida ishlatish O'zbekistonning neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlash imkonini beradi.

Yana bir narsa alohida e'tiborga loyiq. O'zbekistonning neft va gaz konlari bir qancha ko'rsatkichlar, chunonchi, quduqlarning mahsuldarligi, qazib olish tannarxi bo'yicha qo'shni mintaqalarning konlaridan sezilarli darajada ajralib turadi. Bu esa ularda samarali ishlashga va yuqori foyda olishga umid bog'lash imkonini beradi. Shu bilan birga, ana shu neft zaxiralarini qazib olishga sarflanadigan qo'shimcha xarajatlar uncha ko'p bo'lmaydi, chunki neftni qazib olish, tayyorlash va tashish uchun infrastruktura barpo etish zarurati yo'qoladi.

Yana bir xususiyati shuki, O'zbekistondagi neft zaxiralarining qazib olinganlik darajasi bor-yo'g'i 32 foizni tashkil etadi. Holbuki, bu ko'rsatkich Turkmanistonda 61 foizga, Qirg'izistonda 41 foizga,

Tojikistonda 60 foizga teng. Tabiiy gaz bo'yicha ham ahvol shunday.

O'zbekistonning neft va gaz qazib chiqariladigan mintaqalarida rivojlangan infrastruktura mavjudligini hisobga olganda, mazkur omillar ularni yanada rivojlantirish va investitsiyalar qo'yish uchun qulaydir.

Respublika gaz qazib chiqarish sanoatini hamda tabiiy gazni va gaz kondensatini qayta ishlash bilan bog'liq ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga katta umid bog'lamoqda.

Eng yirik gaz konlari Janubi-G'arbiy Hisor va Buxoro-Xiva neft va gazli mintaqalarida joylashgan bo'lib, bular Sho'rtan va Muborak guruhlariga kiruvchi konlardir.

Qazib olinayotgan gazlar tarkibida **etan, propan, butan** va boshqa komponentlar mavjud bo'lib, ular polimer materiallar — polietilen, polivinilxlorid va boshqa moddalarni olish uchun yaroqlidir. Bundan tashqari, Sho'rtan gazkimyo kompleksidan olinayotgan propandan nitril-akril kislota olib, undan nitron tolasi ishlab chiqarish mumkin.

Gazni va gaz kondensatini qayta ishlash bo'yicha ishlab turgan va loyihalashtirilayotgan obyektlarning hammasida oltingugurtli birikmalardan foydalanish nazarda tutilgan.

Keyingi yillarda O'zbekistonda neft va gaz tarmog'i ildam rivojlandi. Respublika hududida ikkita neftni qayta ishlaydigan (Farg'ona va Oltiariq) hamda ikkita gazni qayta ishlaydigan (Sho'rtan va Muborak) zavodlari ishlab turibdi. Ular xilma-xil neft va gaz mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Mustaqillik yillarida respublikada

yangi mahsulot turlari — benzin, aviakerosin, aviabenzin, neft moylarining xilma-xil turlarini, suyultirilgan gaz va boshqalarni olish o'zlashtirildi. Hozirning o'zidayoq respublika xom neftni va neft mahsulotlarining ko'pgina turlarini chetdan keltirishdan voz kechdi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirilganidan keyin esa respublikaning neft mahsulotlariga bo'lgan chtiyojini to'la ta'minlabgina qolmay, ularni eksport qilishni ancha kengaytirish imkoniga ham ega bo'lamiz.

O'zbekiston katta ko'mir zaxiralari ega. Uning geologik zaxiralari bo'yicha Markaziy Osiyoda ikkinchi o'rinda turadi. O'zbekistonda ko'mir Angren, Sharg'un va Boysun konlarida gazib chiqariladi. Ularning umumiy zaxirasi — 2 milliard tonna.

Ular orasida Angren ko'mir koni eng noyob kon hisoblanadi. Bu yerda ko'mir zaxiralari ilg'or hamda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq usullar bilan: 150—250 metr chuqurlikdagi ko'mir qatlamlarini ochiq usulda, yer osti usulida va yer ostida gazga aylantirish usulida qazib olinmoqda. Bunda chiqitsiz texnologiyadan foydalanilmoxda.

Ko'mir bilan birga juda qimmatbaho mineral-xom ashyo zaxiralari: kaolinlar, ohaktoshlar, kvars qumlar, tosh qotishmalar va kam uchraydigan boshqa elementlar ham qazib olinmoqda. Ular hozirgi ishlab chiqarishlarning ko'pgina turlarini rivojlantirish uchun kuchli xom ashyo bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Kaolin sanoat usulida o'zlashtirish uchun g'oyat katta qiziqish tug'diradi. Angren kaolinidan sanoatning ko'pgina tarmoqlarida glinozyom (aluminiy oksidi)

va aluminiy, o'tga chidamli materiallar, keramik qoplamlar, pardozlash va metlax plitkalari, chinni va fayans elektr izolatorlar, drenaj va kanalizatsiya quvurlari, qog'oz sanoatida ishlataladigan to'ldirgich, oq va rangli sement, o'ta pishiq g'isht kabi mahsulotlarni tayyorlash uchun xom ashyo sifatida foydalanish mumkin.

Yaxshi xom ashyo, obod joy, bo'sh yer, suv, ish kuchi resurslari, elektr va issiqlik energiyasi, tutash-tiruvchi stansiyalari bo'lgan temir yo'llar, xalqaro aeroportning mavjudligi maydalangan va boyitilgan kaolin ishlab chiqaradigan sanoat kompleksini barpo etish uchun ishonchli istiqbollarni ta'minlab beradi. Birinchi bosqichda boyitilgan kaolin va glinozyom ishlab chiqaradigan zavod qurish nazarda tutilmoxda. Dastlabki hisob-kitoblarga qaraganda, sarflanadigan mablag' yuqori darajada samara keltiradi va ular tegishli suratda 4 va 7 yilda qoplanadi.

Ikkinci. O'zbekiston dunyodagi juda katta oltin, kumush va boshqa qimmatbaho hamda yer bag'rida kam uchravdigan metallar zaxiralari ega bo'lgan davlatlar jumlasiga kiradi.

Hozirgi vaqtida 40 ta qimmatbaho metall konlari qidirib topilgan. Oltinning asosiy zaxiralari oltin konlarining o'zida — Markaziy Qizilqumda joylashgan bo'lib, tasdiqlangan zaxiralari bo'yicha respublikani dunyoda to'rtinchi o'ringa olib chiqadi.

Muruntov koni dunyodagi gigant konlar jumlasiga kiradi. U Yevroosiyo qit'asidagi ruda tarkibida oltin yuqori darajada bo'lgan eng yirik kondir. Muruntov konining topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi

tomonidan yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida oltin sohasida qilingan eng katta kashfiyot deb e'tirof etildi.

Muruntov koni — juda katta manba bo'lib, undan har yili millionlab kub metr kon tuprog'i qazib olinadi. Undan dunyodagi eng sifatli oltin olish mumkin. Bu holning o'ziyoq dunyoning oltin qazib oluvchi sanoati uchun noyob namunadir.

Oltin tozalashda affinaj (eng sof metall olish) jarayonining zamonaviy texnologiyasi joriy etilgan. Bu texnologiya bir qator «nou-xau»ni o'z ichiga oladi. Natijada oliy tovar ko'rinishiga ega bo'lган, soflik darajasi «to'rtta to'qqiz» ga teng asl oltin olinmoqda. Ana shu oltin O'zbekistonga ko'plab xalqaro sovrinlar keltirdi.

Ko'p yillar foydalanish natijasida Muruntov konining chetida katta hajmda minerallashgan uyumlar ajratilgan va to'plab qo'yilgan edi. Uning tarkibidagi oltin miqdorini olish imkonи yo'q edi. Bugungi kunda ana shu minerallashgan uyumlar Amerikaning «Nyumont Mayning Korporeyshn» kompaniyasi ishtirokida eng yangi texnologiyalar jalb etilib, qayta ishlanmoqda.

So'nggi yillarda infrastrukturasi yaxshi rivojlangan Samarqand va Toshkent viloyatlarida oltin rudali konlar aniqlandi va qidirib topildi. Dunyoning eng yirik oltin rudali mintaqasi bo'lган Qizilqumda Muruntovdan tashqari Ajibugut, Bulutkon, Balpantov, Aristontov, To'rboy va boshqa yangi konlar aniqlanib, o'rganilmoqda.

Qizilqum mintaqasidagi barcha oltin konlarining muhim xususiyati shundan iboratki, rudaning tarkibida

oltin ko‘p miqdorda bo‘lib, u o‘chiq usulda qazib olinadi. Muhandislik tarmoqlari, kommunikatsiyalar (suv, gaz, elektr energiyasi, temir yo‘l va avtomobil yo‘llari) ham mavjud.

Respublikada kumush konlari ham bor. Bular Navoiy viloyatidagi Visokovoltnoye, O‘qjetpes, Kosmonachi konlari va Namangan viloyatidagi Oqtepa konidir. Tasdiqlangan zaxiralarning katta miqdori oltin va mis-porfir konlaridir.

Oqtepa koni kumush qazib chiqarish bo‘yicha eng istiqbolli bo‘lib, chet el investitsiyalarini o‘ziga jalb etadigan kondir.

O‘zbekistonda qimmatbaho metallar bilan bir qatorda uran ham ishlab chiqariladi. Uning uchun yirik mineral-xom ashyo bazasi barpo etilgan. Aniqlangan uran zaxiralari 50—60 yil mobaynida qazib olishga yetadi.

Uran bilan yo‘l-yo‘lakay reniy, skandiyl, lantanoidlar va boshqalar ham qazib olinmoqda. Mazkur elementlarning aksariyati ma‘lum darajada eritmaga o‘tadi. Binobarin, ularni ajratib olish texnologiyasini joriy etish konlarni ishlash samaradorligini anche oshirish imkonini bergen bo‘lur edi.

Uchinchi. O‘zbekiston rangli metallar — mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram va shu guruhga kiruvchi boshqa metallarning aniqlangan zaxiralariga ega.

Mis rudalari bilan birga rangli metallarning 15 dan ortiq turi, chunonchi, oltin, kumush, molibden, kadmiy, indiy, tellur, selen, reniy, kobalt, nikel, osmiy va boshqalar ham qazib olinadi.

Muhimi shuki, ruda asosan o‘chiq usulda qazib olinadi. Bu esa konlarning rentabelli ishlashini

ta'minlaydi. Ishlab turgan konlar mis va unga yo'ldosh metallarni 40—50 yil, rux va qo'rg'oshinni 100 yildan ko'proq vaqt qazib olishni ta'minlaydi.

Rangli metallar rudalarining zaxiralari asosan Olmaliq ruda maydonida jamlangan. Qalmaqir koni noyob konlardan bo'lib, u mis-molibden rudalarini qazib chiqarish bo'yicha chet eldagilardan ancha ustun turadi. Bu konning rudasini Olmaliq kon-metallurgiya kombinati qayta ishlaydi. Kombinat O'zbekistondagi eng yirik korxonalardan biridir.

Bundan tashqari, istiqbolli Dalnee mis koni topilgan. Uning mis, molibden, oltin, kumush, reniy, tellur, selen va oltingugurt zaxiralari katta.

Bu konda chet el sarmoyasi ishtirokida mis qazib chiqaradigan va yo'ldosh metallarni ajratib oladigan ishlab chiqarishlar qurilishini amalga oshirish yangi boyitish fabrikasi qurishni talab qiladi. Bu fabrikani ruda xom ashyosi bilan ta'minlash ikki yuz yilga mo'ljalangan.

Mazkur kon qidirib topilgan zaxiralari, qazib olishning tannarxi, foydali qazilmalarning ajratib olinishi jihatidan MDH mamlakatlari orasida tengi yo'qdir.

Qo'rg'oshin-rux asosan Jizzax viloyatining Uchquloch va Surxondaryo viloyatining Xondiza konlarida jamlangan.

Xondizadagi konda qo'rg'oshin va rux bilan birga mis, kumush, kadmiy, selen, oltin va indiy bor. Xalqaro bozorda bu metallarning mavqeい oshgan sari O'zbekistonda ularni qazib chiqarishni kengaytirish mumkin.

Ishlab turgan korxonalarni texnikaviy va texnologik qayta jihozlash uchun oz miqdorda investitsiya sarflab, mis rudalarini qayta ishlash chog'ida ajratib olinadigan nodir metallarning oliy markalarini olish imkonи mayjud. Ularning tarkibida asosiy metall 99,99 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi bir qator nodir va tarqoq holda uchravdigan metallarni ajratib olish hamda ishlab chiqarish uchun ishonchli xom ashvo bazasiga ega. Ularning bir qismi, masalan, litiy, mustaqil konlarda jamlangan, boshqalarini mis, polimetallar, uran va boshqa foydali qazilmalar konlaridan yo'ldosh moddalar sifatida ajratib olish mumkin.

Selen va tellurdan asosan yarim o'tkazgichlar, quyosh batareyalari, termogeneratorlar, po'lat, shishaning maxsus navlarini ishlab chiqarishda foydalaniadi.

O'zbekiston reniyning novob zaxiralariiga ega. U Olmaliq konlaridagi mis rudalari bilan bog'liq. Molibden konsentratidagi reniyning miqdori jihatidan bu rudalar jahon amaliyotida tengsizdir. Sanoatda reniydan aviatsiya va kosmik texnika uchun o'tga chidamli qotishmalar, elektron uskunalar, neftni parchalash uchun katalizatorlar ishlab chiqarishda keng foydalaniadi.

Jahonda osmiy izotoplari oilasida osmiy-187 bor-yo'g'i 1,6 foizni tashkil etadigan tabiiy manbalar (Afrika, Shveytsariya, Rossiyada) mavjud. Ayni vaqtda O'zbekiston konlaridagi tarkibida reniy bo'lgan mis-molibden rudalarida barqaror izotopning foiz miqdori ancha yuqori.

Osmiy mahsulotini sanoat usulida olishning maqsadga muvofiqligi shu bilan asoslanadiki, birlamchi xom ashyoning katta zaxiralari mavjud bo'lib, ular Norilsk konidagidan 3 baravar ortiqdir.

Yer yuzida kam va tarqoq holda uchraydigan metallarning noyobligini, ulardan foydalanish doirasi kengligini hisobga olganda, chet ellik investorlarni jalb etib, bir qator qo'shma korxonalar barpo etish uchun juda katta imkoniyatlar va istiqbollar ochilmoqda.

To'rtinchi. Respublikada 20 ta marmar, 15 ta granit va gabbro koni borligi aniqlangan. Oq rangdan to qora ranggacha xilma-xil bezakbop toshlar olinadigan ko'plab konlar noyob tabiiy omborlar bo'lib, ular butun Yevroosiyo zonasidagi eng virik konlardir.

Qoplama toshlarning umumiyligi zaxiralari 85 million kubometrdan ortib ketadi. Ular toshni qayta ishlaydigan korxonalarni yuz yillar davomida xom ashyo bilan ta'minlaydi.

Ana shunday qudratli xom ashyo bazasiga ega bo'lgan O'zbekiston toshni qayta ishlash bo'yicha MDH mamlakatlari orasida yetakchilardan biridir.

Ayni vaqtida O'zbekistonda olinadigan tabiiy bezakbop toshlarning ajoyib xususiyatlaridan hozirgi qurilishlarda yanada kengroq ko'lamda foydalanish, marmar va granit mahsulotlarni eksport qilish imkoniyati bor. Kommunikatsiya va muhandislik tarmoqlariga ega bo'lgan G'ozg'on, Nurota va Zarband konlarida marmar bloklarni hozirgi zamон texnologiyasi asosida qazib oluvchi korxonalarni chet ellik sheriklar ishtirokida barpo etish loyihalari mavjud.

Hisob-kitoblarga qaraganda, loyihalar ikki yil atrofi-da o'zini oqlaydi.

Beshinchi. Respublika fosforitlarga boy. Jeroy-Sardara fosforitlar konidagi Marokash turiga mansub zarra-donador fosforitlarning aniqlangan zaxirasi taxminan 100 million tonnani tashkil etadi. Hozirgi vaqtida Qizilqum fosforit kombinati qurilmoqda. Unda 2,7 million tonna fosforit konsentrati olinadi.

Bundan tashqari, Markaziy Qizilqumdagagi Qoraqat konida dastlabki qidiruv ishlari olib borildi va Shimoliy Jetitov konining miqdori ham aniqlandi. Geologlarning aytishicha, fosforitlarning taxminiy zaxiralari cheksizdir.

Fosforitlarning xo'jalik oborotiga jalb etilishiga sabab shuki, O'zbekistonda fosfat o'g'itlar — ammofos va ammoniylashtirilgan superfosfat ishlab chiqaradigan juda katta korxonalar barpo etilgan. Shu bilan birga aniqlangan zaxiralari 300 million tonnaga yaqin bo'lgan fosforit konlaridan amalda foydalanilmayotir.

Eksport uchun fosfat o'g'itlari ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko'paytirish maqsadida va katta miqdorda fosforit zaxiralari mavjudligini hisobga olganda, Qoraqat va Shimoliy Jetitov fosforit konlari bazasida chet ellik investorlar ishtirokida ularni boyitish korxonalari tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

Oltinchi. O'zbekistonda juda katta kaliy tuz konlari mavjud bo'lib, bular Qashqadaryo viloyatidagi Tubakat va Surxondaryo viloyatidagi Xo'jaikon konlaridir. Taxminiy hisoblarga qaraganda, kaliy tuzlari 100 yildan ko'proqqa yetadi.

Tubakat kaliy tuzlari koni negizida chet ellik investorlar ishtirokida kaliy o'g'itlar ishlab chiqarishni tashkil etish nazarda tutilmoqda. Tuzlarni kompleks qayta ishlash bromli temir, magnezit, gips va boshqa materiallarni yo'l-yo'lakay olish imkonini beradi.

Yettinchi. Respublika tosh tuzi konlariga bov. Aniqlangan 5 ta tosh tuzi koni — Xo'jaikon, Tubakat, Borsakelmas, Boybichakon va Oqqal'a konlarida taxminan 90 milliard tonna xom ashyo bor. Hozirgi vaqtida Borsakelmas konining tuzlaridan kalsiy va kaustik soda ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanish ko'zda tutilmoqda.

Ana shu maqsadda Qo'ng'irotda kimyoviy usulda kalsiy va kaustik soda ishlab chiqaradigan soda zavodi qurilishi boshlandi.

Mineral-xom ashyo bazasining hozirgi holati ishlab turgan tog'-kon va qayta ishlash korxonalari quvvatlarini ta'minlab turish imkonini beradi. Shu bilan birga u oltin, kumush, mis, kaolin, plavik shpat, fosforli, kaliyli o'g'itlar va boshqalarni ishlab chiqaradigan yangi korxonalar barpo etish uchun amaliy shart-sharoitlar ham yaratib beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, likvidlik darajasi yuqori bo'lgan foydali qazilmalarni o'zlashtirishga qaratilgan investitsiyalar katta-katta daromadlar keltiradi. Dunyodagi yetakchi chet el kompaniyalari va firmalari hozirning o'zidayoq bu yo'nalishda faol qatnashmoqda.

1992 yilda oltin qazib olish bo'yicha «Zarafshon-Nyumont» O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi tashkil etilgan edi. Korxonaning muassisi Amerika-

ning «Nyumont Mayning Korporeyshn» kompaniyasidir. Ushbu qo'shma korxona Muruntov koni ag'darmalarining minerallashgan uyumidan oltin ajratib olish maqsadida barpo etildi. Qiymati 220 million AQSH dollariga teng bo'lgan zavod qurilishi 1993 yil oktabrida boshlandi va bor-yo'g'i 18 oyda — 1995 yil mayda tugatildi. 1995 yilda qo'shma korxona oltinning birinchi turkumini ishlab chiqardi.

1994 yilda «Omontov-Goljfilds» O'zbekiston-Britaniya qo'shma korxonasi tashkil etildi. Uning chet ellik muassislari Lonro kompaniyasi (Buyuk Britaniya) va Xalqaro Moliya korporatsiyasi hisoblanadi. Qo'shma korxonaning maqsadi Dovg'iztov va Omontovoyning oltinga boy konlarini o'zlashtirishdan iboratdir. Bu kompleksni 1998 yilda ishga tushirish kutilmoqda.

Hozirgi vaqtida o'zbekistonlik sheriklar bilan mashhur «Nyumont Mayning Korporeyshn» (AQSH) va «Mitsui» (Yaponiya) kompaniyalari o'rtaida Toshkent zonasining oltin rudali konlarini o'zlashtirish haqida bitim imzolandi. Faoliyatning ko'pgina sohalarida ham bir qancha boshqa istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Respublikaning tabiiy boyliklarini chet el kompaniyalari bilan birgalikda o'zlashtirish sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish borasida O'zbekistonning imkoniyatlari keng. Bunday hamkorlikning yuqorida keltirilgan misollari shunday loyihalarni amalga oshirish chet ellik investorlarni yuksak darajada qiziqtirayotganligini yana bir bor isbotlamoqda.

Iqtisodiyotning sovet hokimiyyati yillarida vujudga kelgan biryoqlama, buzilgan strukturasi tufayli

respublikada varim tayvor, ya'ni birlamchi ishlov berilgan mahsulotlarning turli xillari keng ko'lamda ishlab chiqarilmogda. Ular texnologiya sikli tugallangan taqdirda raqobatga bardoshli tayvor mahsulot ishlab chiqarish uchun yaxshi boshlang'ich material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Respublikada jahon bozorida va ichki bozorlarda talab yuqori bo'lgan xilma-xil kabel mahsuloti olish uchun varim tayvor mahsulot sifatida ishlab chiqarilayotgan tozalangan mis ana shunday chuqur qayta ishlashga misol bo'la oladi.

Yana bir g'oyat qimmatli varim tayvor mahsulot kaprolaktamdir. Afsuski, hozir respublikada ishlab chiqarilayotgan kaprolaktamning ko'pi bilan 10 foizidangina qayta ishlash maqsadida foydalanilmogda.

Kaprolaktamning ko'p sohalarda qo'llanilishini hisobga olib, uni chuqur qayta ishlashni bevosita respublikaning o'zida tashkil etish maqsadga muvo-fiqidir.

Kaprolaktamni chuqur qayta ishlash maqsadida kapron tolalari va iplar chiqaradigan bir qator korxonalar tashkil etish imkoniyati bor. Bu tola va iplardan aralash gazlamalar, gilam buyumlar, noto'qima materiallar va boshqa xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Bundan tashqari, kaprolaktamni qayta ishlash chog'ida avtomobilsozlik va samolyotsozlikda hamda ishlab chiqarish-texnika mahsulotlari chiqaradigan bir qancha boshqa tarmoqlarda foydalaniladigan turli konstruksion plastmassalar olish mumkin. Kaprolaktamdan idish va o'rov materiallari ishlab chiqarish

uchun plenka holidagi poliamidlar ham olish mumkin. Bunday materiallarga bo‘lgan talab respublikada ham, undan tashqarida ham aslida cheklanmagan.

Xom ashyo zaxiralaridan yanada to‘laroq foydalanish maqsadida respublikada ishlab chiqarilayotgan kaprolaktamning kamida 70—80 foizini qayta ishlay oladigan quvvatlarni vujudga keltirish vazifasi qo‘yilmoxda.

Bu masalani chet el kapitalini jalb qilish, kapron iplar ishlab chiqaradigan fabrikalar barpo etish yo‘li bilan hal qilish mo‘ljallanmoqda. Keyinchalik xalq iste’moli mollari ishlab chiqaradigan bir qator yengil sanoat korxonalari, shuningdek, konstruksion plastmassalar ishlab chiqaradigan yirik korxona tashkil etish nazarda tutilmoqda.

Respublikada 23 ming tonna nitron tolasi ishlab chiqaradigan quvvatlar vujudga keltirilgan. Ma’lumki, bu mahsulot mebel va dag‘al gazlamalar, qo‘lda va mashinada to‘qish uchun yigirilgan ip, paypoq va gilam mahsulotlari, ustki trikotaj, mato, adyol, sun‘iy mo‘yna va boshqa ko‘pgina turdagি mahsulotlar tayyorlash uchun boshlang‘ich xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, juda kam miqdordagi — ko‘pi bilan 25 foiz nitron tolasi qayta ishlanib, tayyor mahsulot holiga keltirilmoqda, qolgan qismi esa yarim tayyor mahsulot sifatida eksport qilinmoqda.

Nitron tolasini ishlab chiqarish uchun xom ashyo zaxiralari mavjudligini, respublikada ham, boshqa mamlakatlarda ham unga talab kattaligini hisobga olib, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish

maqsadida kelajakda Navoiy kombinatini qayta qurish va kengaytirish mo'ljallanmoqda.

O'zbekiston tuprog'ining novob unum dorligi uning muhim xususiyati bo'lib, bu hol respublikani qudratli agrosanoat salohiyatiga ega mamlakatga ay-lantirish imkonini berdi.

Qulay iqlim sharoitlari, dehqonchilik sug'orish usulida olib borilishi respublikada qudratli qishloq xo'jalik resurslari bazasini hamda qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlaydigan korxonalarни rivojlantirish uchun yaxshi sharoit yaratdi.

O'zbekiston — qadimdan sug'orma dehqonchilik mamlakati bo'lib kelgan. Sug'orma dehqonchilik oziq-ovqat sohasida respublika mustaqilligining negizi va asosiy eksport mahsulotining manbaidir.

Bugungi kunda O'zbekiston tashqi bozorda talab katta bo'lган mahsulot — paxta tolasining asosiy ishlab chiqaruvchisi va yetkazib beruvchisidir. Respublika paxta tolesi ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda to'rtinchи va uni eksport qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi.

Respublikada paxtani asosli qayta ishlash yo'li izchillik bilan olib borilmoqda. Bu yo'l qo'shimcha qiymat hosil qilish uchun maksimal imkoniyat beradi. Sanoatning paxtani qayta ishlash, to'qimachilik, tikuvchilik tarmoqlariga mablag' sarflash eng samarali, foydali bo'lib, o'zini tez oqlaydi.

Respublikaning Buxoro, Andijon, Toshkent va Farg'ona shaharlarida 4 ta yirik to'qimachilik kombinati ishlab turibdi. Bulardan tashqari, 30 dan ortiq ip yigiruv-to'quv fabrikasi turli mintaqalarda joylashgan. Chet elliq investorlar ishtirokida o'nlab qo'shma korxonalar tashkil etilgan. «Kabul-To'ytepa-Teks-

taylz» (Janubiy Koreya), «Asnamtekstil», «Kateks», «Elteks», «Samjinteks» (Turkiya), «Supertekstil» (AQSH) va boshqalar shular jumlasidandir.

Respublika meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, pilla, qorako'l teri, jun yetishtirish bo'yicha MDH mamlakatlari orasida yetakchi o'rinda turadi. Noyob tabiiy-iqlim sharoitlari yil davomida kartoshkadan, sabzavotlar va boshqa ekinlardan bir necha marta hosil olish imkonini beradi. Bu yaratilgan moddiy-texnikaviy ishlab chiqarish bazasi bilan qo'shilib, yangi uzelgan va konservalangan xilma-xil meva-sabzavot mahsulotlarini yetkazib berish imkonini bermoqda. Ular bilan respublika aholisining ehtiyojlari qondirilibgina qolmay, balki dunyodagi ko'pgina mamlakatlar aholisi ham ta'minlanmoqda. Bugun O'zbekistonda 5 million tonnagacha meva-sabzavot mahsuloti yetishtilmoqda. Bu esa respublika bozorining ehtiyojlariidan ancha ortiqdir.

Shu bilan birga, zamonaviy sovutgich sig'imirli va omborlarning, meva va sabzavotlarni qayta ishlaydigan, idish-o'rash materiallari ishlab chiqaradigan ixcham korxonalarning orqada qolayotganligi va yetishmayotganligi hozir juda katta nobudgarchilik-larga olib kelmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotini qayta ishlashga zamonaviy texnologiyalar, qadoqlash va o'rash texnikasi, marketing joriy etilsa, tez va yuqori samara berishga qodir.

Iste'mol xossalari bilan ajralib turadigan mevalar va uzum O'zbekistonga azaldan shon-shuhrat keltirgan. Bu yerda anjir, anor, xurmo kabi qimmatli

subtropik ekinlar ham o'sadi. Respublikada ularni qayta ishlaydigan quvvatlarni vujudga keltirish va yangi uzilgan holida respublikadan tashqarida sotish uchun imkoniyatlar mavjud. Respublikada yetishtirilayotgan mevalar va uzum ekologik jihatdan sof bo'lib, ularda ko'p miqdorda qimmatli oziq moddalari va darmon-dorilar bor.

Bundan tashqari, yangi uzilgan uzum yuqori sifatli vino mahsulotlari ishlab chiqarish uchun ajoyib xom ashyo hisoblanadi. Respublika vinochilari har yili 16,5 million dekalitr vino materiallari tayyorlamoqdalar. 30 dan ortiq nomda vino, shampan vinolari va konyakning turli navlari ishlab chiqarilmoqda. Xalqaro yarmarkalar, degustatsiyalar, tanlovlari va ko'rgazmalarda O'zbekiston vinolari 92 ta medal bilan taqdirlangan.

Respublika zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda i pakchilik şanoati, qorako'lchilik mahsulotlarini, charm buyumlarni ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta salohiyatga ega.

O'zbekistonning ko'pgina noyob mineral-xom ashyo va qishloq xo'jalik resurslariga jahon bozorlarida talab katta. Bu hol uni o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatish uchun jozibador qilib qo'yadi. Chet ellik manfaatdor sheriklar ishtirokida iqtisodiyotning rivojlangan zamonaviy tuzilmasini shakllantirish uchun amaliy sharoitlar yaratadi. Bunday iqtisodiyot yaqin yillar ichidayoq mamlakatning barqaror va olg'a rivojlanishini, xalqimizning farovonligi yuksak darajaga yetishini ta'minlashi mumkin.

INSON SALOHIYATI, IJTIMOIY VA ISHLAB CHIQARISH INFRASTRUKTURASI

O'zbekistonning haqiqiy boyligi va mulki uning mehnatsevar, saxiy va mehmondo'st xalqidir.

Jamiyatning eng oliv boyligi bo'lgan xalq abadiy qadrivatlarni, qudratli salohiyatni o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishi ni ta'minlab beradi.

Bu omilning kuchi va ta'siri, eng avvalo, yuksak ma'naviyat bilan, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. U aholining bilimdonlik darajasi, ish bilan bandlikning professional-malaka tuzilmasi va boshqa ko'pgina shartsharoitlar orqali shakllanadi.

Inson salohiyati va mehnat zaxiralarini shakllantirishda ijtimoiy-demografik vaziyat hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonning muhim xususiyati shundan iboratki, bu yerda aholining o'sish sur'atlari yuqori. Keyingi yillarda aholining tabiiy o'sishi birmuncha kamaygan bo'lishiga qaramay, u hali ham MDH mamlakatlari orasida eng yuqori darajada ekanligini aytish kifoya. 1990—1996 yillarning o'zida mamlakat ahonisining soni 13,3 foiz ko'paydi. Aholi sonining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 1996 yilda 2,0 foizni tashkil etdi yoki aholi bir yilda 450 ming kishiga

ko'paydi. Hozir respublikada 23 milliondan ortiq aholi yashamoqda. Bu esa qo'shni mamlakatlarda-gidan ancha ko'p.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-demografik ahvolning vana bir muhim xususiyati — jamiatning asosi bo'lgan kuchli oila tizimidir. O'zbekistonda nikohdan o'tish darajasi yuqori va, eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo bo'yicha eng past darajada. Oila — bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analari va ruhiyatiga mos bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir. Respublikada oilalar asosan ko'p sonli bo'lib, ularda turli avlod vakillari birga yashashadi va birga xo'jalik yuritshadi. Bu esa bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy ma'naviy qadriyatlardan, an'analardan bahramand qilish, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Xuddi ana shunday oilalarda odamlar bolalik chog'laridanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim egallashga intilishni o'rganadilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda bularning hammasi respublikaning mehnat zaxiralari barqaror, intensiv ravishda to'ldirilib turishini, demakki, ko'p mehnat talab qiladigan korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Hozir respublika qudratli mehnat salohiyatiga ega. Mehnat zaxiralari butun aholining deyarli 50 foizini tashkil etadi va har yili 210—220 ming kishiga ko'payib bormoqda.

Mehnat salohiyatining muhim xususiyati — uning yosh va kasb tarkibidir. O'zbekiston aholisining o'rta-chaga yoshi 24 yoshga teng. Bu XXI asr bo'sag'asida mehnat

zaxiralari yuksak mehnat faolligi va kasb tayyorgarligi bilan ajralib turadigan odamlar ko‘pchilikni tashkil etishiga imkon beradi.

Ish bilan band bo‘lgan aholini tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarni faoliyatning yangi ilg‘or tarmoqlari va sohalariga jalb qilish ham mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning qudratli zaxirasidir. Hozir qishloq xo‘jaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlarining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i band. Ularni bo‘shatib olish va iqtisodiyotning boshqa sohalariga, eng avvalo, sanoatga va xizmat ko‘rsatish sohasiga yo‘naltirish iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar qilish hamda uni jadal rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Shuning uchun ham hozir respublikada hal qilinayotgan eng dolzarb muammolardan biri ishslashni xohlovchilarining hammasini ish bilan ta‘minlash hisoblanmaydi. Balki eng maqbul, ijtimoiy yo‘naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirishdan iboratdir. Vazifa respublikaning har bir fuqarosiga mehnat faoliyatining turi va shaklini erkin tanlash uchun chinakam imkoniyat yaratishdir.

O‘zbekistondagi mehnat salohiyatining muhim xususivati — uning ta’lim darajasi yuqoriligidir. Respublikada aholining yalpi savodxonligi muammo si to‘la hal qilingan. Savodxonlik darajasi 99,06 foizni tashkil etadi. Bu esa respublikani inson salohiyati yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar bilan bir qatorga olib chiqadi.

Mehnat zaxiralarining umumiy va professional ta’lim darajasi ham yuqoridir. Respublikada majburiy

umumiyl o'rta ta'limg qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan. Bunday ta'limgni umumiyl ta'limg maktablari, litseylar, gimnaziyalar, o'rta kasb-hunar o'quv yurtlari va tijorat maktablarining keng tarmog'i orqali olish mumkin.

Bu borada qiziqarli va namunali statistika mavjud. 15 va undan katta yoshdag'i har 1000 kishiga hisoblaganda, oliy va to'liqsiz oliy ma'lumotlilar soni ancha ortdi. Hozirgi vaqtida u 143 kishini tashkil etadi. Shu bilan birga ta'limg olish 11,4 yilga yetdi. Har 1000 kishining 200 nafari o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislardir. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan to'rt kishining bittasi oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega. Ya'ni hozir bilim darajasi jihatidan respublika haqli suratda o'qimishli mamlakatlar qatoriga kiradi.

Bunga oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tarmog'ini kengaytirish, ta'limg tizimini isloh qilish hisobiga erishildi. Hozirgi vaqtida respublikada o'quv yurtlarining keng tarmog'i vujudga keltirilgan. 59 ta oliy o'quv yurti, 258 ta o'rta maxsus o'quv yurti ishlab turibdi, shulardan 75 tasi kollejdir.

Respublikadan tashqarida ham keng tanilgan eng yirik universitet markazlari — Toshkent va Samarcand davlat universitetlari, Jahon iqtisodi va diplomatiya universiteti, Jahon tillari universiteti, Toshkent iqtisodiyot universiteti, Texnika universiteti, Agrar universitet, Konservatoriya, San'at instituti, shuningdek, respublikaning barcha mintaqalarida joylashgan tibbiyot, gumanitar, texnika oliy o'quv yurtlarining keng tarmog'i ta'limg tizimining o'zagidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Bank-moliya Akademiyasi hokimiyat va boshqaruv organlari rahbar xodimlarini, iqtisodiy tuzilmalar mutaxassislarini tayyorlaydigan, qayta tayyorlaydigan va malakasini oshiradigan bosh muassasalardir.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish, xo'jalik yuritishning ilg'or usullari va ishlab chiqarishni ilmiy-texnikaviy rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bilim sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash kengaymoqda. Hozir ixtisoslashtirilgan oliy va o'rta o'quv yurtlarida 360 mingdan ortiq talaba o'qimoqda va malaka egallamoqda.

Yoshlarni jahon fani va bilimlari xazinasidan bahramand qilishga katta e'tibor berilmoqda. Respublika o'quv yurtlarining chet ellardagi o'quv markazlari bilan aloqalari ancha mustahkamlandi. Chet ellik o'qituvchilar va mutaxassislarni xorijiy tilda mashg'ulot olib borish uchun taklif qilish, shuningdek, chet el o'quv va ilmiy markazlarida xodimlarning malaka oshirishi va talabalarning o'qishi kengayib bormoqda. Ayni vaqtda jahonning 40 dan ortiq mamlakatidan kelgan 1250 dan ziyod xorijiy fuqaro O'zbekistonda ta'lif olmoqda.

Ta'lif sohasida O'zbekiston AKSELS, AYREKS, Amerika Kollejlari Konsorsiumi, SARE, Tinchlik Korpusi (AQSH), DAAD, Konrad Adenauer Fondi (Germaniya), Britaniya Kengashi (Buyuk Britaniya), Saud Al-Baptin Fondi (Misr) kabi xalqaro tashkilotlar va boshqa nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlikni faol rivojlantirmoqda.

O'zbekiston-Amerika va O'zbekiston-Koreya Universitetlarini tashkil etish ustida ish olib borilmoqda. Kanada tomoni bilan birgalikda Xalqaro menejment va biznes oliy magistrlik maktabini tashkil etishga tayyorgarlik ko'rilmoxda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlovchi «Umid» jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'arma ajratilgan grant hisobiga AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Yaponiyaning eng nufuzli universitetlarida ko'plab mutaxassisliklar bo'yicha bakalavr va magistr darajalarini olish imkonini beradi.

Bularning barchasi respublikada amalga oshirilayotgan demokratik va iqtisodiy islohotlarni kadrlar bilan mustahkam ta'minlashga, mehnat va aql-zakovat salohiyatini mustahkamlash va oshirishga qaratilgandir.

Mamlakatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g'ovat muhim ahamiyatga ega.

Respublika fani qudratli intellektual salohiyatni yaratgan. U hayotimizning ko'pgina sohalarida amalda qo'llanmoqda. Vatanimizning milliy davlatchiligi va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Tabiiy zaxiralar chegaralanganligi tufayli korxonalar hamda umuman davlat faoliyatining muvafqaqiyati hozir ko'p jihatdan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalar qanchalik keng joriy etilayotganligi, kadrlarning kasbtayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi.

Tarixan O'zbekiston Respublikasida shakllangan intellektual salohiyat XXI asr bo'sag'asida o'zining rivojlanish darajasi jihatidan, innovatsion kashfiyotlar, imkoniyatlari bilan hozirgi vaqtda jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgarilab ketgan. Ko'p jihatdan esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan qolishmaydi.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yoksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib aytal olamiz. U asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, ada-biyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda.

Uzoq o'tmishdayoq o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoda mashhur. Bular buyuk matematik va astronomolar — al-Xorazmiy, Farg'oniy, Javhariy, Marvaziy, Ulug'bek; faylasuf va ilohiyotchi-huquqshunoslar — Forobiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Marg'inoniy, Nasafiy; qomusiy olimlar — Beruniy, Ibn Sino; tilshunos-shoirlar — Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Zamaxshariy, Alisher Navoiy; tarixchilar — Bobur Mirzo, Abulg'ozzi Bahodirxon, Ogahiy va boshqa ko'pgina ulug' zotlardir.

Olimlarimiz eng yaxshi an'analarni o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, buyuk ajdodlarining ishlarini munosib davom ettirmoqdalar. Ilmiy ziyorolarimizning muhim fazilati hamma vaqt bilimga, ilg'or ilmiy tafakkurning oldingi marralarida bo'lishga intilishdan iborat. Ular yangi, kam o'rganilgan, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga dadil kirishib, o'z mehnatlari bilan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga, innovatsiya salohiyatini mustahkamlashga sezilarli hissa qo'shamoqdalar.

O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalnishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyatga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu — mammakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Hozir O'zbekiston Markaziy Osiyodagi yirik ilmiy markazdir. Bu markaz tadqiqot uchun zarur bo'lgan rivojlangan moddiy asosga, keng ilmiy fondga, malakali ilmiy kadrlarga ega. Ularning mehnati butun dunyoda e'tirof etilgan.

Respublikaning ilmiy-tadqiqot majmui akademiya, oliy o'quv yurtlari va tarmoq yo'nalishidagi 362 muassasani, shu jumladan, 101 ilmiy tadqiqot institutini, oliy o'quv yurtlaridagi 55 ilmiy-tadqiqot bo'linmalarini, 65 loyiha-konstrukturlik tashkilotini,

32 ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi va tajriba korxonalarini, 30 axborot-hisoblash markazini o‘z ichiga oladi. Ilmiy salohiyatning o‘zagi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasidir. U mintaqadagi yetakchi ilmiy va tajriba markazi bo‘lib, yarim asrdan ortiqroq tarixga ega. Uning tarkibida tashkil etilgan Yadro fizikasi instituti, «Fizika-Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi, «Biolog» IIB, Maydanak tog‘idagi baland astronomiya observatoriyalari majmui va bir qator boshqa markazlar muvaffaqiyatli tadqiqotlar olib bormoqda.

Fan sohasida 46 mingga yaqin kishi band bo‘lib, shulardan 2,8 mingi fan doktori va taxminan 16,1 mingi fan nomzodidir. Birinchi marta O‘zbekiston Respublikasining Oliy attestatsiya komissiyasi tuzildi. Uning vazifasi yosh ilmiy kadrlar tayyorlashdir. Ayni vaqtida fanning 20 tarmog‘i bo‘yicha yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlanmoqda.

Hozir respublika olimlari zamonaviy fanning ko‘pgina yo‘nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borishmoqda.

Respublikada quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha jahon darajasidagi ilmiy maktablar yaratilgan bo‘lib, ularda tadqiqotlar muvaffaqiyatli olib borilmoqda.

Birinchi. Matematika, ehtimollar nazarivasi, tabiiy va ijtimoiy jaravonlarni matematik modellash, informatika va hisoblash texnikasi sohasidagi tadqiqotlar.

Matematika fanining ehtimollar nazarivasi va matematik statistika, differensial tenglamalar va

matematik fizika, funksional tahlil sohasidagi yutuqlari respublikadan ancha uzoqda ham mashhur.

O'zbekistonning o'z astronomiya maktabi shakllangan bo'lib, unga bir vaqtlar Beruniy, Ulug'bek va G'iyosiddin Jamshid asos solgan edilar. Qadim zamonlardayoq o'zbek olimlarining astronomiya, osmon yoritqichlarining harakatini o'rganish bora-sidagi ishlari butun dunyoda tan olingan edi. Ular birinchi marta osmondagi yulduzlarning eng aniq xaritasini tuzgan edilar. Respublikada o'lkaning iqlimshunosligini o'rganish uchun tayanch astronomiya tarmog'i vujudga keltirilgan. 1930 yilda qurilgan Ulug'bek nomidagi Kitob xalqaro kenglik stansiyasida ishlayotgan o'zbek olimlari AQSH, Italiya, Yaponiyaning olim va mutaxassislari bilan birqalikda Yer yuzasida uning qutblari harakatlanishini o'rganish sohasidagi xalqaro ishda faol qatnashmoqdalar.

Ikkinci. Sanoat usulida o'zlashtirish uchun yaroqli mineral-xom ashyo zaxiralari hosil bo'lishiga olib keladigan geologik jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan, tadqiqotlar, shuningdek tektonika, geofizika, seysmologiya va Yer to'g'risidagi fanning boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar.

Respublika geologlarining yer qobig'ini geologik-geofizik va geokimyoviy o'rganish, rudalarning hosil bo'lishi va metallogenetikani, neftning paydo bo'lishini o'rganish sohasidagi ishlari O'zbekistonda qudratli mineral-xom ashyo bazasini vujudga keltirishga yordam berdi. Geolog olimlar respublika hududidagi va butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi ko'pgina eng

yirik foydali qazilma konlarini ochish, o'rganish va o'zlashtirishda bevosita qatnashdilar.

Ma'lumki, O'zbekiston seysmik jihatdan faol zonada joylashgan bo'lib, tabiiy falokatlarning achchiq oqibatlarini bir necha bor boshdan kechirgan. Shu sababli olib borilayotgan tadqiqotlarning yetakchi yo'nalishlaridan biri seysmologiya va inshootlarning zilzilaga bardoshliligi bo'yicha nazariy va amaliy ishlar hisoblanadi.

O'zbekiston olimlari zilzilalar yuz berishining geologik sabablarini va shart-sharoitlarini o'rgandilar, zilzilalardan darak beruvchi belgilarni izlashning gidrogeoseysmologik usullarini ishlab chiqdilar. Bu zilzilalarni oldindan aytish imkonini beradi. Hududni seysmik jihatdan rayonlashtirish ishlari amalga oshirildi va seysmik jihatdan faol hududlar xaritasi tuzildi.

Natijada respublikada qurilayotgan ishlab chiqarish binolari va uy-joylarning zilzilaga bardoshliligini ta'minlash imkonи tug'ildi. Yer osti inshootlari — kommunikatsiya tarmoqlari, metropoliten va boshqalarning seysmodinamika nazariyasi yaratildi.

Uchinchi. Molekulvar genetika, gen-hujayra injenerivasi, biotexnologiya sohasidagi tadqiqotlar. Bular qishloq xo'jaligida, mikrobiologiya sanoatida, atrof muhitni muhofaza qilishda fan-texnika taraqqiyotini ta'minlashning zarur asosidir.

Respublikada organik va noorganik kimyo, o'simlik moddalari kimyosi, biologiya va genetika, biotexnologiyalarni yaratish sohasida ilmiy maktablar shakllandi va rivojlandi. Ular yuqori samarali, ekologik jihatdan toza o'g'itlar, kam zaharli defoliantlarning

yangi turlarini, yangi dori preparatlarini, o'simlik-larning o'sishini tezlashtiradigan moddalarni va ularni himoya qilish vositalarini yaratishning nazariy asoslari va ishlab chiqarish texnologiyalarini vujudga keltirdilar.

Tibbiyat, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati uchun sintetik biologik boshqaruvchilarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va yaratish, qand o'rnni bosadigan o'simlik — steviyani o'stirishni yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek, kompozitsion polimer materiallarni, jumladan kaprolaktam polymerlari asosida ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarini yaratish lozim. Yuqori sifatli paxtasellyulozasi, atsetat iplarni olish bilan bog'liq ishlarni ro'yobga chiqarish darkor. Bular amaliy ahamiyatga molik ishlardir.

O'zbek seleksiyachilarining yutuqlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ular g'o'za biologiyasi muammolini, uning genetik, molekulyar-genetik, fiziologik-biokimiyoviy muammolarini o'rganish va shular asosida g'o'zaning yuqori sifatli, kasalliklarga chidamli yangi navlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqdalar. Keyingi yillarda g'o'zaning 30 dan ortiq istiqbolli navlari yaratildi.

To'rtinchi. Moddalarning kompleks fizikaviv-kimyoviy xossalarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar.

Mamlakatimizda yadro va elementar zarralar fizikasi, radiatsiya fizikasi va materialshunoslik bo'yicha fundamental tadqiqotlar ayniqlsa keng rivojlandi. Yangi ilmiy yo'nalish — relyativistik (nisbiy) yadro fizikasi shakllandi. Bu yo'nalish yadro energetikasi va amaliy

yadro fizikasi sohasidagi tadqiqotlarga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston hozirgi vaqtida radiatsion materialshunoslik va geliomaterialshunoslik kabi yo'nalishlarda butun dunyoda e'tirof etilgan ustunlikka ega. Respublika radioaktiv izotoplar, shu jumladan, farmatsevtika radiopreparatlari ishlab chiqarish bo'yicha ham yetakchi markazdir.

O'zbekistonda yuqori energiyalar fizikasi sohasida ilmiy maktab vujudga keldi. Ana shu maktab doirasida yuqori darajada o'tga chidamli o'ta sof materiallar olish, juda kam yediriladigan, issiqqa, korroziyaga chidamli va qimmatbaho konstruksion materiallar o'rnini bosa oladigan, yuqori haroratga dosh bera oladigan materiallar ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini yaratish bo'yicha salmoqli ilmiy ishlanmalar yuzaga keldi.

Energiyaning noan'anaviy turlarini yaratish — quyosh energiyasini kompleks va samarali suratda boshqa turdag'i energiyaga aylantirish hamda o'zlashtirish borasida faol ish olib borilmoqda. Bu esa mamlakatni energiya bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Beshinchi. Jahon va mamlakatimiz tarixini, O'zbekistonning madaniy va ma'naviy merosini, o'zbek tili, adabiyoti va folklorining tarixiv va hozirgi rivoilanishini har tomonlama tadqiq qilish.

Respublikaning aql-zakovat salohiyatini rivojlantirishga, xalqaro ilmiy-madaniy aloqalarni kengaytirishga jamiyatshunos olimlarimiz, birinchi navbatda, tarixchilar, arxeologlar, etnograflar, tilshunoslar va adabiyotshunoslar katta hissa qo'shdilar. O'zbek xalqining etnogenезини о'рганиш ва унинг xolisona ta-

rixini qayta yaratish, an'analari, turmush tarzi va madaniyatini o'rganish bilan bog'liq ishlar juda katta qiziqish uyg'otmoqda.

O'z aql-zakovat, ilmiy-texnikaviy salohiyatimizni rivojlantirish mamlakatimizni barqaror taraqqiy ettirish omilidir. Biz buni jahondagi obro'li tadqiqot markazlari bilan ilmiy, texnikaviy va madaniy aloqlarni yanada rivojlantirish, ko'plab dolzarb muammolar bo'yicha tadqiqotlarni birga o'tkazish bilan bevosita bog'liq deb bilamiz.

O'zbekistonda demografik vaziyatning o'ziga xosligi, inson salohiyatining rivojlanishi ijtimoiy infrastrukturani, eng avvalo, sog'liqni saqlash va aholiga kommunal-maishiy xizmat ko'rsatishni tegishli darajada rivojlantirishni ham talab qilmoqda.

Respublikada aholiga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning rivojlangan tizimi yaratilgan. Bu umumiy davolash va tor ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatning turli usullaridan foydalanish imkonini beradi. Respublikada 1,3 mingdan ortiq kasalxona, 3 mingdan ziyod vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasasi mavjud. Qishloq vrachlik punktlarining keng tarmog'i vujudga keltirilgan. Barcha sohalar bo'yicha 76 mingdan ortiq mutaxassis-shifokor malakali tibbiy yordam ko'r-satmoqda. Bir shifokorga o'rtta hisobda 298 kishi to'g'ri keladi. Bu dunyodagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardagidan ancha kamdir. Chunonchi, O'zbekistonda Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Koreyaga nisbatan 3—4 baravar, Malayziya, Hindiston va Pokistonga nisbatan 6—8 baravar ko'p aholi malakali tibbiy yordam bilan ta'minlangan.

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish va bиринчи navbatda, elektr, markazlashtirilgan holda suv, tabiiy gaz bilan ta'minlash tizimi yetarli rivojlangan. Qishloq aholisini ichimlik suv va gaz bilan ta'minlash uchun respublikada maxsus dasturlar ishlab chiqilib, muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtida respublika uy-joy fondining 73 foizi markazlashtirilgan suv bilan, 64 foizi tabiiy gaz bilan ta'minlangan, amalda barcha aholi manzilgohlari elektrlashtirilgan.

Ayni vaqtida aholining hayoti va faoliyatini yanada yaxshilash maqsadida, ayniqsa, Orolbo'yining ekologik murakkab hududlarida, umumiy epidemiologik vaziyatni yaxshilashga, yuqumli kasallikkarni, bolalar o'limini kamaytirishga, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilashga alohida e'tibor berilmoqda. Buning uchun faqat davlatning ko'plab mablag'lari sarflanibgina qolmay, balki ko'pgina xalqaro iqtisodiy, gumanitar tashkilotlar va fondlarning mablag'lari ham jalb etilmoqda.

Xalqaro aloqalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan O'zbekistonning juda katta yutug'i shundaki, respublika rivoilangan energetika, kommunikatsiya va suv tizimlariga, vagona, bir-birini to'ldiradigan temir yo'lli va avtomobil vo'llari tarmog'iga ega.

Ma'lumki, mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari ko'p jihatdan o'z energetika bazasiga egaligi bilan belgilanadi. Bu jihatdan O'zbekiston qudratli energetika tizimiga ega. Bu tizim Markaziy Osiyo birlashgan energetika tizimining tarkibiy qismidir. O'zbekiston energetika tizimi mintaqaning markazida joylashgan. U hosil qiladigan quvvatlar Markaziy Osiyo

Birlashgan energetika tizimidagi barcha elektro-stansiyalar hosil qiladigan quvvatlarning yarmini tashkil qiladi. Shu bois energetika tizimimiz mintaqada elektr energiyasi hosil qiluvchi va uzatuvchi yaxlit zanjirning asosiy halqasi hisoblanadi.

O'zbekiston energetika tizimining asosini yirik issiqlik elektrostansiyalari — Sirdaryo GRESi, Toshkent GRESi, Yangi Angren GRESi, Navoiy GRESi hamda 19 ta gidroelektrostansiya tashkil etadi. Ularning eng yirigi Chorvoq GESidir.

Hozirgi vaqtida daryolar, suv omborlari, kanallarning gidroenergetika imkoniyatidan energetika va irrigatsiya ehtiyojlari uchun kompleks foydalanish, qishloq joylarni elektr bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida kichik elektrostansiyalar qurish dasturi ishlab chiqilgan.

O'zbekistonning energetika tizimi respublikaning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini to'la qoplamoqda hamda uni qo'shni davlatlarga eksport qilish imkonini ham bermoqda.

Elektrostansiyalarning mavjud quvvatlari O'zbekistonda yaqin kelajakda ro'yobga chiqariladigan barcha investitsiya loyihalarini, elektr toki hosil qiluvchi yangi quvvatlarni qurmagan holda, elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi.

Shunga qaramay, 2000 yilgacha Yangi Angren GRESi va Muborak TESi qurilishini tugallash hamda Tolimarjon GRESida birinchi energoblokni foydalanishga topshirish ko'zda tutilmoqda.

O'zbekiston rivojlangan gaz uzatish tizimiga ega.
Bu tizimning umumiy uzunligi 12 ming kilometr

bo'lib, MDH gaz quvurlari birlashgan tizimiga ulanadigan to'qqizta magistral gaz quvurini o'z ichiga oladi. Bu esa tabiiy gazni ko'p miqdorda nafaqat Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlariga, balki Yevropa mamlakatlariga ham yetkazib berishni ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtida Turkmaniston — O'zbekiston — Qozog'iston — Xitoy hamda O'zbekiston — Afg'oniston — Pokiston davlatlararo magistral gaz quvurlarini o'tkazish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Ularni qurish kelajakda respublika neft va gaz tarmog'inining eksport salohiyatini 8 baravardan ziyodroq oshirish imkonini beradi.

Rivojlangan transport kommunikatsiyalari tizimi mayjudligi ham O'zbekistonning jo'g'rofiy-strategik mavqeini jozibador qiluvchi muhim omildir. Hozirgi vaqtida mamlakatning transport tizimi mamlakat ichida yuk tashish ehtiyojlarini amalda qanoatlantirmoqda.

Respublikadagi temir yo'l va avtomobil yo'llari tarmog'i Markaziy Osiyoda eng zich hisoblanadi. Temir yo'llar uzunligi 6,7 ming kilometrdan ziyod bo'lib, ko'pgina yo'llar elektrlashtirilgan. Avtomobil yo'llarining 80 foizdan ortig'i qattiq qoplamlali yo'llardir. Bu yo'llarning ko'pchiligi xalqaro va davlat ahamiyatiga molik bo'lib, ular takomillashtirilgan qoplamaga ega.

Temir yo'l va avtomobil transport kommunikatsiyalari tarmog'i respublikaning eng olis tumanlari va aholi manzilgohlarini o'zaro puxta bog'lab turadi, xalqaro transport tizimlariga ulanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga ular boy o'lkamizning asosiy tabiiy va

mineral-xom ashyo zaxiralari manbalariga bemalol kirib borishni ta'minlaydi.

O'zbekiston xalqaro aviatsiya kommunikatsiyalari rivojlantirish jihatidan ham qulay o'rinda joylashgan. Yevropa bilan Sharqiy Osiyo o'rtasida joylashgan O'zbekiston juda istiqbolli xalqaro transport tarmog'i bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu tarmoq yuklar va yo'lovchilarning havo orqali tranzit usulida tashilishini ta'minlaydi.

"O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi IKAO a'zosi bo'lib, uning tarkibida Toshkent aeroportidan tashqari yana 12 ta mintaqaviy aeroport mavjud. Shulardan 3 tasi xalqaro toifadagi samolyotlarni qabul qilishga moslashtirilgan.

Bundan tashqari, chet el kapitali ishtirokida va xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Namangan, Termiz shaharlaridagi aeroportlar qayta qurilmoqda. Mineral zaxiralar asosiy xazinalarining qoq markazida — Uchquduq shahrida yangi aeroport bunyod etilmoqda. Hozirgi vaqtda havo yo'llari O'zbekistonni jahondagi ko'p mamlakatlarning yirik shaharlari — Nyu-York, London, Frankfurt-Mayn, Afina, Tel-Aviv, Bangkok, Seul, Dehli va boshqa shaharlar bilan bevosita bog'lab turibdi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, qo'shni davlatlar va Jahon okeaniga chiqishni ta'minlaydigan eng qisqa ishonchli transport yo'llarini barpo etish maqsadida transport aloqalarining xalqaro tizimlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Buning sababi shundaki, respublikaning jo'g'rofiy joylashishi tufayli, bir necha o'n yilliklar davomi-

da bizning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarimiz asosan temir yo'l orqali amalga oshirilgan. Yuklar sobiq Sovet Ittifoqining Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengiz sohillari-dagi bandargohlar orqali tashilgan edi. Bunday transport yo'li bo'yicha yuk tashish qimmat tushishidan tashqari, janubiy yo'nalishda transport kommunikatsiyalari amalda rivoj topmadi.

SSSR parchalanib ketganidan keyin tashqi kommunikatsiyalar muammosi O'zbekiston uchun yanada keskinlashdi. Chunki endi dengiz bandargohlariga chiqish uchun bir necha mamlakatlarning hududi orqali o'tishga to'g'ri kelmoqda. O'zbekiston dengiz bandargohlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat bo'lib qoldi. Eng qisqa yo'l qariyb 3 ming kilometrni tashkil etadi. Bu esa nihoyatda olis yo'ldir. Tabiiyki, bu hol davlatning iqtisodiy aloqalarini keng rivojlantirish imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi. Qolaversa, bu hol respublikamizni yuklarimiz tranzit tarzida o'tadigan mamlakatlarga qaram qilib qo'yadi, shundoq ham yuqori transport tariflarining to'xtovsiz oshib borishi mahsulotlarimizni raqobatga bardosh berolmaydigan qilib qo'yadi.

Jahon tajribasi bevosita dengizga chiqsa olmaydigan mamlakat tashqi iqtisodiy operatsiyalarda ancha yutqazib qo'yishini ko'rsatmoqda. Bu O'zbekiston misolida yana bir bor tasdiqlanmoqda.

Shu sababli biz tashqi iqtisodiy aloqalarimizni transport bilan ta'minlash muammolarini hal qila oladigan, Jahon okeaniga chiqishni ta'minlaydigan muqobil yo'llarni izlash bilan bog'liq masalalarni

faol hal qilishga intilmoqdamiz. Shu maqsadda O'zbekiston BMTning «Tranzit yuk tashishda hamkorlikni rivojlantirish orqali savdoni kengaytirish» dasturini ro'yobga chiqarishda ishtirok qilmoqda. Bu dastur doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining tranzit transport oraliq yo'llarini vujudga keltirish sohasida birgalikda bajaradigan vazifalari ishlab chiqilmoqda. Bu transport yo'llari ularga dengiz bandargohlariga chiqishni ta'minlaydi va qadimgi savdo yo'li — Buyuk Ipak yo'lining tiklanishiga yordam beradi.

Markaziy Osiyo respublikalari, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO)ga kiruvchi boshqa mamlakatlar o'rtasida hukumatlararo shartnoma tuzildi va Tajan-Saraxs-Mashhad temir yo'lini qurish amalga oshirila boshladi. Bu temir yo'l Pekinni Istanbul bilan bog'-laydigan Transosiyo magistralining tarkibiy qismi hisoblanadi. 2000 yilda qurilish tugallangach, bu yo'lda ikkala yo'nalishda 6-8 million tonnagacha yuk tashishi kutilmoqda. Keyinchalik esa bu ko'rsatkich ikki baravar ortadi.

Ushbu transport yo'li orqali harakat boshlanishi O'zbekistonning ham Sharqda — Osiyo-Tinch okean mintaqasidagi mamlakatlar bilan, ham G'arbda — Turkiya va u orqali Yevropa bilan tashqi savdo aloqalari qo'shimcha suratda kuchayishiga turki beradi. Shu bilan birga, yuk tashish uzoqligi har ikki yo'nalishda ham ikki baravardan ziyod qisqaradi.

«TASIS» dasturi doirasida Yevropa Ittifoqining texnikaviy yordamini amalga oshirish orqali «Traseka» loyihasini ro'yobga chiqarish O'zbekistonni kom-

munikatsiya va transport bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda g'oyat istiqbolli ahamiyatga ega. Bu loyiha Markaziy Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Gruziya hududi orqali Qora dengiz bandar-gohlariga olib chiqadigan Transkavkaz magistralini vujudga keltirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston temir yo'llar qurilishida ishtirok etish bilan bir qatorda, Xitoy va Pokistonga olib boradigan Andijon — O'sh — Ergashtom — Qashqar, shuningdek Buxoro — Saraxs — Mashhad — Tehron va Termiz — Hirot — Qandahor — Karochi avtomobil yo'llarini qurish va qayta ta'mirlash ishlariga hissa qo'shgan holda qatnashishdan ham manfaatdor. Bu yo'llar Hind okeaniga chiqishimizga imkon beradi. Ushbu transport yo'lidan foydalanish EKO mamlakatlariga olib bora-digan yo'lni uch baravar qisqartiradi.

Ushbu qit'alararo magistrallarni vujudga keltirish va ularning texnikaviy holatini mustahkamlash nihoyasiga yetgach, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi iqtisodiy aloqalarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlaridan, Hindiston va Xitoydan Yaqin Osiyo mamlakatlariga, Turkiyaga, shuningdek, Yevropa mamlakatlariga tranzit yuk va yo'lovchilar tashishni kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar ochiladi. Bundan tashqari, amalda Buyuk Ipak yo'lining yo'nalishlariga mos bo'lgan shunday kommunikatsiyalar orqali dunyoning ko'pgina mamlakatlari bilan muntazam madaniy, sayyohlik va amaliy aloqalarni yo'lga qo'ysa bo'ladi. Aslida, bu bilan MDH va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari

uchun jahon bozoriga olib chiqadigan «janubiy yo'l», Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo va Yaqin Osiyo mamlakatlari uchun esa Markaziy Osiyo bozoriga olib boradigan «shimoliy yo'l» ochiladi.

Xalqaro transport va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston hozirning o'zidayoq bir qator tashkiliy-huquqiy va amaliy chora-tadbirlarni ko'rmoqda.

Birinchidan, transport kommunikatsiyalarini investitsiyalash qimmat turadigan va kam foyda keltiradigan biznes ekanligini juda yaxshi tushunamiz. Shunga qaramay, O'zbekiston o'z manbalari hisobidan ikkita yirik va strategik muhim temir yo'l magistralini: uzunligi 342 kilometr bo'lgan Navoiy — Uchquduq — Sulton Uvays — Nukus hamda uzunligi 223 kilometr bo'lgan G'uzor — Boysun — Qumqo'r-g'on magistrali qurilishini, shuningdek, Angren — Qo'qon avtomobil yo'lini qayta ta'mirlashni boshlab yubordi. Ularni foydalanishga topshirish nafaqat tabiy minerallarning benihoya boy zaxiralariga yo'l ochib, respublika ichida transport qatnovini arzonlashtirish imkonini beradi, balki dengiz bandargohlariga, xalqaro transport kommunikatsiyalariga chiqishni ham ta'minlaydi.

Ikkinchidan, O'zbekiston respublika qonunchilik asosining transport munosabatlarini tartibga soluvchi qismini umum qabul etilgan xalqaro norma va qoidalarga yaqinlashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda. Masalan, avtomobilda yuk tashish borasida MDP guvohnomasini qo'llagan holda xalqaro yuk tashish

to'g'risidagi Bojxona Konvensiyasi, Xalqaro yuk tashish shartnomasi to'g'risidagi konvensiya, Yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi konvensiya va Yo'l harakati to'g'risidagi konvensiya ratifikatsiya qilindi.

Fuqaro aviatsiyasi sohasida Havo kemalarini qonunsiz egallab olishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya, Havo kemasi bortida ro'y beradigan jinoyatlar va ba'zi boshqa xatti-harakatlar to'g'risidagi konvensiya, Havo kemalarida xalqaro yuk tashishga doir ba'zi qoidalarni uyg'unlashtirish uchun konvensiya ratifikatsiya qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston hukumati xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Konvensiyalarni o'zgartirishga doir yana 13 ta bayonnomani ratifikatsiya qildi.

Respublikamizning yaqin vaqt ichida xalqaro yo'lovchi va yuk tashishni tashkil etishning turli masalalari yuzasidan yana 17 ta konvensiya va bitimlarga qo'shilishi ustida ish olib borilmoqda.

Uchinchidan, transport-ekspeditsiya xizmati ko'rsatish hamda kommunikatsiyalar tizimi sohasida chet ellik sheriklar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan.

Hozirgi vaqtda transport va kommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha bir necha o'nlab korxonalar ishlab turibdi. Ular orasida aviatsiyada yo'lovchi va yuklarni xalqaro tashish sohasidagi qo'shma korxonalar: «Osiyo Rianta» (Irlandiyaning «Er Rianta interneyshnl» kompaniyasi va Shannon aeroporti bilan birga); «Askon» (Amerikaning «Konkord» korporatsiyasi bilan birga); «AERO Abda» (Malayziyaning «Abdi APR freyg SND VXL»

kompaniyasi bilan birga); «Inter servis Kargo» (Birlashgan Arab Amirliklari bilan birga) va boshqalar bor. O'zbekistonning avtomobil transportida xalqaro yo'lovchi va yuk tashuvchilar Uyushmasi («ASMAP») doirasida ham shunday transport korxonalari tashkil etilgan. Mazkur uyushma avtomobilda yo'lovchi va yuklarni xalqaro tashish sohasida samarali transport siyosatini amalga oshirishga yordam bermoqda. U respublikaning milliy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlamoqda.

To'rtinchidan, respublikada «Motorolla» (AQSH), «Simens», «Alkatel» (Germaniya), «DEU» (Janubiy Koreya) singari yetakchi chet el kompaniyalari ishtirokida telekommunikatsiya tarmoqlarini qayta ta'mirlash ishlari faol olib borilmoqda. Zamonaviy telekommunikatsiya va komputer tizimlari, komputer va telekommunikatsiya texnikasi ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar barpo etilmoqda.

Davlatning faol qo'llab-quvvatlashi natijasida vujudga keltirilgan va jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan ishlab chiqarish infrastrukturasi ijtimoiy infrastruktura hamda transport tarmoqlari va telekommunikatsiyalar tizimi respublikada investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Bular chet ellik investorlarning qo'shma korxonalar barpo etish bilan bog'liq jami xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi, yangi quvvatlar va korxonalarini ishga tushirish muddatlarini ancha qisqartiradi. Natijada sarflangan sarmoyalarning samarasи ortadi.

KENG KO'LAMLI O'ZGARISHLAR VA HAMKORLIK KAFOLATLARI

Ochiq demokratik davlatni qurish, bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e'tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asosda amalga oshirilmoqda. Bu asos iqtisodiyotni isloh qilish, uning keng ko'lamda jahon jamiatiga integratsiyalashuvi uchun kuchli huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta'minlab beradi.

Respublikada qabul qilingan bиринчи Конститутива ва бир qator asosiv qонунлар havотимизning hamma tomonlarini demokrativalashning, jamiatimizni vangilash hamda O'zbekistonni o'zining ishonchli va istiqbolli sherigi deb bilavotgan jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining qudratli huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Biz o'zimiz uchun qat'iy xulosa chiqarib oldik: demokratik jamiat, bozor iqtisodiyoti sari boshlangan harakatning ortga qaytmasligi va barqarorligi uning huquqiy asoslarini shakllantirishga bevosita bog'liqdir. Mustahkam huquqiy asos bo'lgandagina eski, o'z umrini yashab bo'lgan tuzumni to'la ishonch bilan qayta qurish, rivojlangan yuqori samarali bozor iqtisodiyotiga ega yangi jamiatni qurish mumkin bo'ladi.

Qонуннинг устунлиги бизning islohotlar modelimizdagi vetakchi tamovildir. У huquqiy davlatning asosiv mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Buyuk bobomiz Amir Temur: «Qonun hukmron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi», — degan dono

so'zlarni oltin harflar bilan yozib qo'yishga amr bergen edi.

O'tgan davrdagi qonunchilik faoliyatini tahlil qilib va umumlashtirib, mamlakatda qabul qilingan qonun hujjatlarining quyidagi asosiy turkumlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, davlatchiligidan mustahkamlashga va davlat tuzilmalarini takomillashtirishga qaratilgan qonun hujjatlari. Ular milliy manfaatlarni himoya qilishni ta'minlashga, mudofaa qobiliyatimizni va xavfsizligimizni mustahkamlashga, hokimiyat organlari va boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan qator qonunlar tizimini o'z ichiga oladi.

Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari o'z faoliyatida hokimiylatlarni taqsimlash tamoyillariga amal qilib, islohotlarni amalga oshirishda, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishda asosiy bo'g'in hisoblanadi. Ular o'z faoliyatini amalga oshirar ekan, xalqqa, uning manfaatlariiga xizmat qilmoqda, huquq va erkinliklarini ta'minlamoqda.

Ikkinchidan, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy negizini tashkil etadigan qonunlar. Shuningdek, fuqarolarni ijtimoiy himoyalashni, mulkdorlar sinfini shakllantirishni, mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli rivojlanishi, tadbirkorlik taraqqiy topishi, moliya, soliq va bank siyosati takomillashuvi va boshqalarni ta'minlaydigan qonunlar.

Uchinchidan, jamiyat siyosiy tizimini erkinlash-tirish va demokratiyalash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning ta'sirchan mexanizmini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalgalash.

oshirishning huquqiy asosini tashkil etadigan qonun hujjatlari. Ular fuqarolarning jamiyatni boshqarishdagi ishtiroki kengayishining, matbuot erkinligi va ommaviy axborot vositalari ishini takomillashtirishning huquqiy ta'minlanishini vujudga keltirdi.

To'rtinchidan. O'zbekistonni xalqaro huquq subyekti sisatida belgilaydigan, respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan, faol va keng ko'lamli xalqaro hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolatlar yaratib beradigan qonunlar.

Qonun hujjatlarining birontasi ham qabul qilingan boshqa qonun turkumlariga bog'liq bo'lmagan holda amal qila olmasligini yaxshi bilamiz. Ular o'zaro ta'sirda, bir-birini to'ldirgan va boyitgan holda jamiyatni o'zgartirish va isloh qilish uchun yetarli darajada mustahkam zamin yaratadi. Masalan, bozor islohotlari kafolatlarini va ortga qaytmasligini ta'minlaydigan qonun asoslari haqida gapirar ekanmiz, iqtisodiyotni isloh qilishning huquqiy negizini tashkil etuvchi qonun turkumlari bilangina cheklanib qola olmaymiz.

Bozor munosabatlarini qaror toptirish uchun huquqiy poydevorni davlat va jamiyat hayotining hamma tomonlariga taalluqli bo'lган qonun hujjatlarining butun majmui, eng avvalo, mamlakat Konstitutsiyasi yaratib beradi.

Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respublikada qonunchilik faolivatini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiv qoidalaridan biri ekanligini e'tiborda tutish zarur. Bu hol faqat qonunlarimiz doimo umum qabul qilingan

xalqaro normalar va qoidalarga muvofiqlashtirib kelinayotganligi va yaqinlashtirilayotganligi bilangina emas, balki mamlakatimiz xalqaro normalarning bajarilishini kafolatlaydigan hamma majburiyatlarni o'z zimmasiga olayotganligi bilan ham ro'yobga chiqarilmoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishning, fuqarolarning iqtisodiy erkinliklari, tadbirkorlik erkinligi, ma'muriy-buyruqbozlik usulida boshqarishdan voz kechishning mustahkam konstitutsiyaviy asoslari belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyada jamiyatimizning asosi — ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti va fuqarolarning xususiy mulki qonun va davlat tomonidan himoya qilinishi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

So'nggi 75 yil mobaynida birinchi marta xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi qonunan mustahkamlab qo'yildi. Asosiy Qonun xo'jalik faoliyatiga davlatning aralashish borasidagi monopol huquqi oldiga qo'yilgan qudratli to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. U iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlaydi, xususiy tadbirkorning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi, erkin va halol raqobat uchun sharoit yaratib beradi, bozor munosabatlariga keng yo'l ochadi.

Fuqaroga mol-mulkka xususiy egalik qilishdan iborat konstitutsiyaviy huquqning berilishi odamda o'z qadriga yetish, o'zgalar irodasiga bog'liq bo'lmashlik hissi, jamiyatimizni yangilash va rivojlantirishda uning faol, tashabbuskor va bunyodkor roli mustahkam-

lanishiga yordam beradi. Konstitutsiyada bunday deyiladi: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molehilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi».

Iqtisodiy rivojlanishning, qo'vilgan investitsiyalarni himoya qilishning eng muhim kafolati qonunchilik asosimizning barqarorligidir.

Qisqa vaqt mobaynida bir nechta Konstitutsiyalar qabul qilib ulgurgan sovetlardan keyingi qator mamlakatlardan farqli o'laroq, O'zbekistonda qonunchilik asosining barqarorligi prinsipiiga qat'iy amal qilinmoqda. Qonunchilik faoliyatining butun tizimi yangi qonunlarni tayyorlashga hamda amaldagi qonunlarni, islohotlar yo'lidan jo'shqin ilgarilab borilayotganini va o'zgarib turgan sharoitni hisobga olgan holda, takomillashtirishga qaratilgan.

Ayni chog'da qonunchilikdagi o'zgarishlardan ishonchli kafolatlar mavjud. Aytaylik, agar qonunlarni o'zgartirish natijasida investitsiyalash sharoitlari yomonlashsa, investitsiyani amalga oshirish paytida ishlab turgan qonun normalari chet ellik investorlarga nisbatan 10 yil davomida qo'llanilaveradi.

Tashqi siyosatga doir prinsiplarimizni belgilab beruvchi konstitutsiyaviy qoidalarga asoslangan holda, «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi, «Chet el inves-

itsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, shuningdek, bir qancha boshqa qonun hujjatlari va normativ hujjatlar qabul qilindi. Ular tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish, chet ellik investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda xorijiy mamlakatlar tadbirdorlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish imkonini berdi.

Jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasiga keng ko'lamda integratsiyalashuvi, iqtisodiyotimizga investitsiyalar olib kirilishi uchun huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratdik. O'zbekiston «ochiq eshiklar» siyosatini olib bormoqda, chet ellik investorlar tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun ishonchli huquqiy kafolatlar va keng iqtisodiy imkoniyatlar bermoqda.

Xorijiy investorlar uchun eng qulay tartiblar yaratilgan va ular muttasil takomillashtirib borilmoxda. Chet el sarmoyasi ishtirokida ishlab chiqarish korxonalari ochish jarayoni mumkin qadar osonlash-tirilgan.

Respublikada qabul qilingan qonunlar va qonun asosidagi hujjatlar chet el firmalari va kompaniyalari O'zbekiston bozorlarida faol ishtirok etishi uchun soliq sohasidagi imtiyozlar va rag'batlantirish choralarining, siyosiy va tijorat sohasidagi xavf-xatarlardan kafolatlarning yaxlit tizimini, qulay qonuniy sharoitlarni yaratib beradi.

Amaldagi qonunlar chet ellik investorlarga beradigan asosiy kafolatlarning to'liq bo'limgan ro'yxati quyidagilar:

Birinchi. O'zbekiston Respublikasidagi xorijiy investitsiyalar natsionalizatsiya va rekvizitsiya qilinmaydi.

Ikkincihi. Xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olingan foydani va boshqa mablag'larni hech bir cheklovsiz chet el valutasida chet elga o'tkazish kafolatlanadi. Shuningdek, import bo'yicha olib kirilayotgan xom ashyo, butlovchi buyumlar va zamonaviy texnologiyalardan olingan tushumni hech moneliksiz chet el valutasiga ayriboshlash ta'minlanadi.

Uchinchi. Chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga davlat mulkini xususiy lashtirish jarayonida, shu jumladan ko'chmas mulk oldi-sotdisida erkin qatnashish kafolatlanadi. Chet ellik investorlar mulkiy huquqlarni, shu jumladan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlariga hamda turarjoy binolari va ular joylashgan yer uchastkalariga mulk huquqini, yer va tabiiy manbalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo'lga kiritishga haqlidirlar.

To'rtinchi. Chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan korxonalar o'zları ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksport qilish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni import qilish hamda qo'shma korxonalarning ustav fondiga hissa qo'shish uchun boj to'lamasdan mulk olib kirishga haqlidir.

Amaldagi qonunlar chet ellik investorlar uchun kafolatlar bilan bir qatorda soliq sohasida keng imtiyozlar ham beradi. Agar ular davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni investitsiyalashda qatnashsalar, yetti yil mobaynida foydadan soliq to'lashdan ozod qilinadilar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi tashkil etilgan korxonalar daromadlarining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiya bilan qayta jihozlashga sarflanadigan qismi ham soliqdan ozod qilinadi.

Qo'shma korxonalarning qayta moliyalashga hamda investitsiyalarni amalga oshirish uchun olingan kreditlarni to'lashga sarflanadigan mablag'lariga ham soliq solinmaydi.

Chet el sarmoyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari uchun foydadan soliq olishning tabaqalashtirilgan stavkalarini joriy etilgan. Bu stavkalar xorijlik investorning qo'shma korxona ustav fondidagi ulushi qanchaligidan kelib chiqib, ular uchun soliq stavkalarining tegishlicha kamaytirilishini nazarda tutadi.

Ustav fondida chet el sarmoyasining ulushi 30 foizdan ortiq bo'lgan, qishloq xo'jalik mahsulotini, xalq iste'moli mollarini va qurilish materiallari, tibbiyot uskunalarini, qishloq xo'jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati uchun mashina va uskunalarini ishlab chiqarish hamda qayta ishlashga, ikkilamchi xom ashyo va ro'zg'or chiqindilarini qayta ishlashga ixtisoslashgan qo'shma korxonalar ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab ikki yil mobaynida foydadan soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Chet ellik sherikning o'z ehtiyojlari uchun respublikamizga olib kirayotgan mulki, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning ustav sarmoyasiga mulk bilan qo'shadigan hissasi hamda O'zbekiston iqtisodiyotiga umumiy hajmi 50 million dollardan ortiq miqdorda qilinadigan investitsiyalar ham boj to'lashdan ozod qilinadi.

Bular chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun hozir amal qilib turgan imtiyozlarning to'liq bo'lmagan ro'yxatidir. Bulardan tashqari, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar respublikaning hamma korxonalariga soliq sohasida berilgan imtiyozlardan ham foydalanadi.

Chet ellik investorlarga yordam ko'rsatish maqsadida O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog'i tashkil etilgan. Bular — Chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, «O'zbek-invest» Milliy eksport-import sug'urta kompaniyasıdir. AIG (AQSH) bilan birga siyosiy xavf-xatarlardan sug'urtalash bo'yicha qo'shma korxona — «O'zbek-invest Interneshnl» ta'sis etilgan. Uning qarorgohi Londonda joylashgan. Lizing kompaniyasi tashkil etildi. Uning muassislari — Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, «Malayzan Benk Berxard» (Malayziya) va bizning Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankimizdir.

Respublikada chet el investitsivalarini ishonchli sug'urta bilan himovalash ta'minlanmoqda. Sug'urtalashning tayanch stavkalari xalqaro amaliyotda qabul qilinganidan ancha past. Sug'urta puli to'lanmagan taqdirda o'z sarmoyalarini O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalagan chet ellik kreditorlar sug'urta hodisasi yuz bergach, atigi 30 kun o'tganidan keyin talab bilan murojaat qilishlari mumkin. Holbuki, jahon amaliyotida bu muddat 180 kun qilib belgilangan.

Chet ellik investorlarga respublikada mavjud bo'lган kafolatlar, imtiyozlar va rag'batlantirish choralarining

to'liq bo'limagan ro'yxatini keltirishning o'zigina O'zbekiston kapital sarflash uchun qulay, hamkorlik uchun ishonechli mamlakat ekanligidan dalolat beradi.

Biz qonunchilik tizimini tubdan o'zgartirishgagini emas, balki qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni ro'yobga chiqarish borasida hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlari uyg'un harakat qilishiga katta ahamiyat bermoqdamiz. Shu sababli qabul qilingan qonunlarni kundalik hayotga tatbiq etish masalasi biz uchun hamma vaqt dolzarbdir. Oldingi ma'muriy-buyruqbozlik tizimining zo'ravonligidan farqli o'laroq, qonun jamiyatni boshqarishning mukammal vositasi, barcha organlar faoliyatining, har bir fuqaro xulq-atvorining mezoniga aylanib bormoqda.

Qisqa qilib aytganda, mustaqillik yillarida respublikada xalqaro miqyosda qabul qilingan yuridik prinsiplar va normalarga asoslangan keng huquqiy makon vujudga keltirildi. Mazkur norma va prinsiplar inson huquqlari, erkinliklari ustuvorligiga asoslanadi. Bu esa islohotlar, taraqqiyot va o'zaro foydali hamkorlikning ortga qaytmasligi uchun kafil bo'lib xizmat qiladi.

Jahon tajribasi, keyingi yillarda esa o'zimiz to'plagan tajriba ham shuni yaqqol ko'rsatmoqdaki, iqtisodiv, sivosiv, ma'naviy sohalarda keng miqyosdagি o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning, ijtimoiy munosabatlarni tubdan isloh qilishning, dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilish va faol xalqaro hamkorlikning g'ovat muhim sharti — mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, ayniqsa, eng qiyin bo'lgan o'tish davrida, davlatning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan aniq siyosatini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy davlatchilikni qaror toptirish, xalqaro munosabatlarni mustahkamlash, isloh qilinayotgan iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini keng jalg etishning asosiy shartidir.

Ma'lumki, chet ellik investorlar va investitsiyalar o'z faoliyatları uchun qonunchilik asoslari yaratilibgina qolmasdan, balki barqaror faoliyat ko'rsatish uchun real shart-sharoitlar mavjud bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlangan, siyosiy xavf-xatarlar eng kam darajaga keltirilgan, millatlararo va fuqarolararo nifoqlar bo'limgan mamlakatgagina keladi. Iqtisodiyotni isloh qilish va chet ellik investorlarning qiziqish bilan faoliyat ko'rsatishlari uchun juda yaxshi qonunchilik asosini yaratish, eng ilg'or qonunlar qabul qilish mumkin. Biroq agar jamiyatda barqarorlik bo'lmasa, siyosiy larzalar, fuqarolar urushlari va mintaqaviy mojarolarga qarshi kafolatlar bo'lmasa, qabul qilingan qonunlar ishlashi, isloh qilinayotgan iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish uchun zarur investitsiyalarning kelishi haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Aynan jamiyatdagi barqarorlik va davlat sivosatini oldindan ayta bilish mumkinligi katta ko'lamdagi tub o'zgarishlarni amalga oshirish, keng investitsiya faoliyatini uchun asos bo'la oladi.

Ana shu bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikki vazifa: bir tomondan hayotning hamma sohalarini

muvaffaqiyatli isloh qilish va barqaror rivojlantirish; ikkinchi tomondan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash — respublikada amalga oshirilayotgan siyosatning o'zagini tashkil etadi. Aynan ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning saqlanib turganligi mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning muhim xususiyatidir.

O'zbekiston sovetlardan keyingi mamlakatlar orasida birinchilardan bo'lib jamiyatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning beqarorlashuvi, buzg'unchilikdan iborat mitingbozlik hamda siyosiy, milliy va diniy ekstremizm qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga o'zining achchiq tajribasida ishonch hosil qildi va tushunib yetdi.

O'zbekiston boshlang'ich ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari sobiq SSSR tarkibidagi ko'pchilik respublikalardagidan ancha yomon, "demografik portlash" xavfi mavjud bo'lган vaqtida islohotlarni boshladi. Bu vaqtida normal hayot kechirish uchun yaroqli yerlar cheklangan, iqtisodiyot haddan tashqari bирyoqlama rivojlangan edi. O'zbek xalqining milliy o'zligini anglash hissi totalitar usulda bostirilgan, bu esa izdan chiqaruvchi ichki omillarni tug'dirar, jamiyatda kuchli ijtimoiy keskinlik vaziyatini keltirib chiqarar edi.

O'zbekiston xalqi Farg'ona, O'sh, Bo'kadagi foyiali voqealarning guvohi bo'ldi, diniy va millatlararo nifoqlar xavfi qanday falokatga olib kelishi mumkinligini birinchilar qatori ko'rdi. Ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshilik, nigelizm, xalqimiz mehnati bilan to'plangan jami ijobiy jihatlarni ekstremistlarcha inkor etish, mitinglar orqali tazyiq o'tkazish eski tuzumdan bizga meros bo'lib qolgan g'oyat keskin

muammolarni yana ham o'tkirlashtirishi mumkinligini tushundi. Hokimiyatni qo'lga kiritish uchun mamlakatni milliy falokat yoqasiga keltirib qo'yishlari mumkin bo'lgan har xil soxta vatanparvarlar, siyosatbozlar, diletantlar, amalparastlar va ayrim mas'uliyatsiz guruhlar safsatabozligining butunlay halokatli ekanligini anglab yetdi.

O'zbekiston xalqi buning qanday xavf ekanligini va u to'xtatib qolinmasa, butun jamiyatni portlatib yuborishi, jamiyatda beqarorlik va tarqoqlikka olib keluvchi qaytmas jarayonlarni boshlab yuborishi, yangilanish va islohotlar yo'liga, respublikani mustaqil va suveren davlat sifatida qayta tiklash hamda qaror toptirish yo'liga g'ov bo'lishi mumkinligini yaqqol ko'rdi.

Yaqin o'tmishimizning achchiq tajribasi bizni ochiq demokratik va huquqiy davlatni faqat bir shart bilan shakllantirish mumkinligiga qayta-qayta ishontirmoqda. Bu shart shundan iboratki, odamlar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning hamda mamlakatda qonuniylik va tartibni saqlashning so'nmas qadriyatini anglab yetishlari darkor. Har bir fuqaro muayyan darajada o'zini jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarning ishtirokchisi deb his qilishi lozim.

Mamlakatning ko'p millatli xalqi — O'zbekiston kelajagi buyuk davlat, degan ji pslashtiruvchi g'oyani qabul qildi. Tanlab olingan islohotlar yo'lini qo'llab-quvvatladi. Bu hol ijtimoiy hamfikrlikning, davlat va jamiyatni rivojlantirish strategiyasining asosi bo'lib qoldi. Bugun, respublika mustaqilligi va suverenitetining besh yilligidan keyin ham jamiyatni ji pslashtirishga qodir

bo'lgan milliy g'oyalar hamda vazifalarning ahamiyati juda katta.

Yangi milliy davlatchilikni qaror toptirishning eng qiyin davrida biz har xil buzg'unchi omillarga hamda jamiyatni siyosiy, diniy, etnik va boshqa belgilar bo'yicha parchalab yuborish xavflariga ishonchli to'siq qo'ya oldik.

Xullas, aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda erishilgan ijtimoiy va siyosiy barqarorlik quyidagilarning natijasidir:

birinchidan, jamiyat millatlararo ziddiyatlar, jamiyatda tarqoqlik holatini va beqarorlikni keltirib chiqaruvchi juda kuchli omil hisoblangan tor guruhiy manfaatlar to'qnashuviga asoslangan fuqarolar qaramaqarshiligi halokatli ekanligini chuqur tushunib va anglab yetdi;

ikkinchidan, jamiyatni tubdan isloh qilishning chuqur o'ylangan dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Bu dastur jamiyat tomonidan qabul qilindi va uni butun xalq qo'llab-quvvatladi. Davlat aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan kuchli choratadbirlarni amalga oshirdi, bu esa ijtimoiy taraqqiyotning g'oyat muhim maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ijtimoiy kelishuvga erishish uchun asos bo'ldi;

uchinchidan, davlat hokimiysi va boshqaruva organlarining hokimiyatlarni demokratik negizda bo'lish tamoyiliga asoslangan yangi tizim tashkil etildi va u samarali ishlab turibdi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat idoralari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari kengaytirildi. Turli siyosiy

va ijtimoiy harakatlar, nodavlat tuzilmalarining faol, eng muhim, amaliy faoliyati uchun keng huquqiy makon vujudga keltirildi. Qonuniylik va huquq-tartibot saqlab qolindi va mustahkamlandi.

Bularning hammasi mamlakatda ijtimoiy va sotsial barqarorlikka, millatlararo tinchlik va fuqarolar totuvligiga asos bo'ldi. O'z navbatida, jamiyatimizni muvaffaqiyatli isloh qilish va yangilashning eng muhim shartiga aylandi.

Shunday shart-sharoitlarni ta'minlamay turib, iqtisodiy islohotni puxta o'ylab ro'yobga chiqarish, bozor munosabatlarini joriy etish, mulkchilik shakllarini o'zgartirish, qisqasi, jamiyatni yangilash borasidagi uzoq muddatli siyosatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish mumkin emasligini biz juda yaxshi anglaymiz.

Hamisha shuni esda tutishimiz kerakki, aynan jamiyatimizdagи barqarorlik — eng katta boyligimizdir, bundan buyon ham muvaffaqiyatli rivoilanshimizning kafolatidir.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik — jamiyatimizni siyosiy isloh qilish asosi. U siyosiy tizim institutlari ning samarali ishlashini ta'minlaydigan, qonunlar ishlashi va jamoat tartibi, xotirjamlik va xavfsizlik saqlanishi uchun negiz yaratuvchi poydevordir.

Shu bilan birga jamiyatda barqaror vaziyat mavjud bo'lgan sharoitdagina siyosiy partiyalar va jamoat harakatlari jamiyat taraqqiyotining muammolarini keng, oshkora muhokama qilish imkoniga ega bo'ladi. Oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishadi, o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqaradi, demokratik davlat va ijtimoiy hokimiyat institutlarini shakllantirishda qatnashadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik — jamiyatning jo'shqin va tadrijiy rivojlanishi, jahon tizimiga integratsiyalashuvi uchun asosiy negiz va shart-sharoitdir. Eng murakkab o'tish davrida jamiyatda barqarorlikni saqlab turish ayniqsa muhim. Bunday paytda ijtimoiy va iqtisodiy ziddiyatlar ko'pgina ijtimoiy o'zgarishlarning o'tkinchi ruhdaligi sababli yanada keskinlashadi. Bu esa barqarorlikni bir qadar kengroq tushunish imkonini beradi. Ijtimoiy-sivosiv barqarorlik, milliy hamjihatlik, fuqarolar totuvligi — jamiyatni yangilash va isloh qilishning, barqaror rivojlanish hamda taraqqiyotning poydevori va kafolatidir.

JAHON HAMJAMIYATI BILAN HAMKORLIK

O'zbekistonning mustaqil rivojlanishidagi o'tgan qisqa tarixiy davrda respublikani suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekistonni 165 davlat tan olgan. Dunyodagi 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatilgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari

ro'yxatdan o'tgan, 24 ta hukumatlararo tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar mobaynida respublika ko'plab juda muhim xalqaro konvensiyalarga qo'shildi.

Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda.

Birinchidan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Ikkinchidan, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

To'rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'naliishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz. O'zbekiston dunyo uchun ochiq. Biz ham dunyoning O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir. Buni biz O'zbekiston kapital sarflash nuqtai nazaridan ham, dunyo miqyosidagi keng qamrovli

xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mintaqada barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham borgan sari e'tiborga sazovor bo'lib borayotganligining dalili deb bilamiz.

Biz jahon hamjamiyati bilan keng ko'lamda integratsiyalashgan zamонавиј демократик давлатни qurishdan iborat strategik vazifani hal qilar ekanmiz, jahon hamjamiyatining o'zi bugungi kunda serqirra bo'lib borayotganligini juda yaxshi tushunamiz. XX asr oxirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. "Sovuq urush" davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyil va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi-o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'ymoqda.

XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiva jaravonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jaravonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki avrim mintaqalar ko'lamida ham, shuningdek,

umuman — butun sayyoramiz ko'lamida ham sobit-qadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisob-lamoq zarur.

Bu holda masala xalqaro integratsiya jarayonlarida qatnashish yoki qatnashmaslik tarzida qo'yilmaydi. Yangi mustaqil davlat bo'lgan O'zbekiston uchun, eng avvalo, tashqi siyosatning oqilona maqbullikka hamda davlatimiz, jamiyat va insonning uzoqni ko'zlovchi manfaatlariga asoslanadigan eng muhim tamoyillariga qat'iy rioya etish ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Biz uchun mustaqillik — o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki avvalo o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan va milliv manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan qurish huquqidir. Shu bois o'z-o'zidan ayonki, agar integratsiya mamlakatimizning ozodligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini cheklab qo'ysa yoki qandaydir mafkuraviy majburiyatlar bilan bog'lansa, u holda chetdan olib kelinadigan har qanday integratsiya biz uchun nomaqbul.

Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda — dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida — integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga

boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiya-lashuvi serqirra jarayondir.

Biz mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlat haqida-gi hozirgi zamon tushunchalariga mos kelgan taqdirdagina jahon hamjamiyatiga kirishimiz mumkinligiga asoslanamiz. Ayni chog'da mamlakat jahon hamjamiyati bilan hamkorlik o'rnatgan taqdirdagina, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida o'zining munosib o'rmini topganda, mintqa va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etgandagina uni zamonaviylashtirish mumkin bo'ladi.

O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning turli subyektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, ular bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar, muammolar va hal qilinmagan masalalar, kutilmagan voqeа-hodisalar shunchalik kam bo'ladi. Xuddi shu narsa xavfsizlikka solinayotgan tahidlarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning zarur shartidir.

Qolaversa, biz mamlakatlar va davlatlarning xavfsizlik darajasi ularning integratsiya jarayonlarida qatnashish darajasiga bevosita bog'liq deb hisoblaymiz. Mamlakat qanchalik integratsiya aloqalari bilan bog'langan bo'lsa, uning xavfsizligiga tahdid shunchalik kam bo'ladi.

Biz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faolivatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. 1997 yil 2 martda O'zbekiston BMTga a'zo bo'lganligiga besh yil to'ldi. Biz o'zimizning bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimizni Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va to-tuvlikni ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyati deb bilamiz. Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador bo'lgan xalqaro tashkilotlar g'oyat xilmoxil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan — oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan vositalarning hammasiga ega.

O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar muvaffaqiyatli o'tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va jahonning 30 dan ortiq mamlakati, shu jumladan AQSH, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomatiya hamda hukumat vakillari ishtirok etishdi.

Bizning BMT bilan munosabatimiz xalqaro jamoatchilikdan yordam va madad olish istagimizdan ko'ra (garchi bugungi kunda bu ham juda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da), ko'proq BMT sa'y-harakatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, uning faoli-

yati yangi mazmun bilan boyishiga ko'maklashishga intilishga asoslanadi. Jahondagi jo'g'rofiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi yangi ming yillikda BMT tarkibiy tuzilishi va BMT faoliyatini takomillashtirishni ham talab qilmoqda. Dunyoda bir qator davlatlar paydo bo'ldiki, bu davlatlar qudratli va jahon siyosati ko'lqidagi ta'siri ortib borayotganligi tufayli Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda BMTning tuzilmasigina emas, balki uning amal qilishi, ish tartibi va harakatlarni amalga oshirishi ham buyuk davlatlarning ta'sir doiralar uchun eski kurash ta'siridan hali qutula olgani yo'q. BMTning mintaqaviy mojarolarni tartibga solish yuzasidan amalga oshirayotgan tinchlik o'rnatish yo'lidagi ishlar hamma vaqt ham muvaffaqiyatli bo'lmayotganligini qisman shu bilan izohlash mumkin.

Shuning uchun ham O'zbekiston tabiatan jahonshumul va universal bo'lgan bu tashkilotning tarkibiy tuzilishi va faoliyatini takomillashtirishni bundan buyon ham faol yoqlab chiqaveradi.

Shu o'rinda BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligini va uning ixtisoslash-tirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda. BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvni BMTning ixtisoslashgan muassasalari — YUNESKO, Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNKTAD,

YUNISEF va boshqalar bilan keng hamkorlik qilish ma'nosida tushunamiz.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga. O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsivalashuvini ta'minlashga xalqaro moliyaviv, iqtisodiv tashkilotlar — Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqalar ham katta yordam ko'rsatmoqda. Biz mamlakatimizning har yili Davos shahrida o'tadigan Jahon iqtisodiy anjumani ishida qatnashishi katta ahamiyatga ega deb bilamiz. Anjumanda qatnashish O'zbekistonni va uning imkoniyatlarini tanishtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun muhim ahamiyatga molik.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, YEXHT, NATO, EKO, OIK, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

Bular orasida Yevropa Ittifoqi alohida o'rinn tutadi. 1996 yilda Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rta-sidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi.

Fevral oyida Yevropa Ittifoqi Kengashi sherikchilik va hamkorlik to'g'risida Bitim tuzish yuzasidan O'zbekiston bilan tashqi ishlar vazirligi darajasida muzokaralar boshlash haqida qaror qabul qildi, iyul oyida esa Florensiyada Bitim imzolandi. O'zbekiston

sovetlardan keyingi makonda Rossiyadan so'ng ikkinchi bo'lib Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik to'g'risida Bitim imzoladi.

O'zbekiston tashqi sivosatining Yevropa vo'naliishi ancha kengaydi — ushbu vo'nalish Yevropadagi avrim mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni ham, shuningdek, butun Yevropa qit'asini ham o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'z, mintaqaviy, Yevropaga xos integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlikni biz O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlashga qo'shilgan yana bir hissa deb hisoblaymiz. Chunki bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalar bilan bir qatorda, siyosiy sohani ham nazarda tutadi. Bu hujjat hamkorlik qilishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab beradi, O'zbekiston, Yevropa Ittifoqi va unga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy negizini yaratadi, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochadi, muntazam siyosiy muloqot uchun institutsional asos yaratadi.

Imzolangan Bitim ikkala tomonning ham faol sherikchilik qilish uchun asos yaratishga intila-yotganidangina dalolat berib qolmaydi. Mazkur Bitim O'zbekistonda demokratik jamiyat muvaffaqiyatli qurilayotganligini, xalqlarimizni inson huquqlarini hurmat qilish, fuqarolik erkinliklari va huquqiy davlat singari umumiy qadriyatlar birlashtirib turganligini yaqqol tasdiqlaydi.

Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) bilan samarali hamkorlik qilayotganimiz-

ni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Bu hamkorlik darajasi YEXHT bilan birlashtirishda amalga oshirilayotgan tadbirlarda va bu tashkilot rasmiy mansabdon shaxslarining O'zbekistonga tashrifida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

1996 yil dekabrida Lissabon sammitida ishtirok etganimiz O'zbekistonning YEXHT bilan munosabatlarini rivojlantirishda salmoqli voqeа bo'lib qoldi. Mazkur anjuman doirasida O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish huquqiga va imkoniyatiga ega bo'ldi. Bizning YEXHTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirishga oid davlatimiz tushunib qabul qilindi va u Lissabon deklaratsiyasida hujjatlashtirildi. Bu aslida YEXHT o'z hujjatlarida mazkur mintaqada barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va mojarolarning oldini olish niyatini bayon etgan birinchi hodisa bo'ldi. Xavfsizlik, shu jumladan Yevropadagi xavfsizlik ham chegara bilmasligi bugun hech kimda shubha tug'dirmaydi.

Lissabonda XXI asr arafasida yalpi xavfsizlikning modeli xususida olib borilgan munozaralar jarayonida biz xavfsizlikning bo'linmasligi haqidagi asosiy qoidani to'la-to'kis qo'llab-quvvatlashimizni bildirdik. Shuni mammuniyat bilan qayd etamizki, mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirinchcha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish haqidagi taklifimiz Lissabon uchrashuvining yakunlovchi hujjatida o'z ifodasini topdi. Umid qilamizki, bu oxir-oqibatda XXI asr uchun umumiyligini keng qamrovli xavfsizlik modelining tarkibiy qismi bo'lib qoladi.

Shu bilan bir qatorda so'nggi vaqtarda Toshkentda O'zbekiston tashabbusi bilan YEXHTning bir qator yirik anjumanlari o'tkazildi. YEXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha Byurosi (DIIHB)ning «Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar» mavzusidagi xalqaro seminar-kengashi Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlarining, shuningdek, 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlari vakillarining ishtirokida keng muloqot o'tkazish imkoniyatini berdi. Ular Markaziy va Sharqi Yevropada ombudsmen instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimlarini takomillashtirish hamda xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalalarini ko'rib chiqdilar.

YEXHTning DIIHB tashabbusi bilan «Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida» mavzuida seminar ham o'tkazildi. YEXHT Kelishtiruv va hakamlik sudi tomonidan tashkil etilgan YEXHT xalqaro seminari ham bo'lib o'tdi. Bularning barchasi tinchlik o'rnatuvchi va huquqni himoya qiluvchi ushbu nufuzli tashkilot bilan yaqin va samarali munosabatlar o'rnatilganligidan dalolat beradi.

Hozir bizning mamlakatimiz bilan NATOdeklar xalqaro tashkilot o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud deb aytish mumkin.

Bizningcha, o'z tarkibida demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Yevropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy ustqurmasini mustahkamlash va «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi

hisobiga juda katta Yevroosiyo mintaqasida tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekiston «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga 1995 yil iyul oyida qo'shilgan bo'lib, bu dasturdagi ishtirokimizga o'z mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlardan bahramand bo'lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarimizni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraymiz.

NATO Bosh kotibi X. Solana va AQSHning NATOdagi doimiy vakili R. Xanterning O'zbekistonga tashriflari butun dunyo miqyosidagi va mintaqadagi xavfsizlik muammolari borasidagi qarashlarimiz mos kelishini yana bir bor namoyish qildi. Muzokaralar davomida mintaqada tinchlikni saqlashga, Afg'onistondagi mojaroni siyosiy choralar bilan bartaraf etishga, Markaziy Osiyo mintaqasini yadrosiz hudud deb e'lon qilishga qaratilgan tashabbuslarimizga to'la tushunish bilan qaralayotganligi va ular qo'llab-quvvatlanayotganligining shohidi bo'ldik. Biz O'zbekistonning imkoniyatlari mintaqadagi barqarorlashtiruvchi omil sifatida baholanishiga to'la-to'kis qo'shilamiz.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Yevropaning imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan hayotiy muhimdir. Yevropa va butun G'arb — yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. Bularning barchasi XXI asrga xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanyotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy

demokratik davlat bo'lib kirish maqsadida yangilanish va taraqqiyotni o'zining strategik vazifasi qilib olgan yosh O'zbekiston davlati uchun hayotiy zaratdir.

Biz bunda xavfsizlik va taraqqiyot bir-birini taqozo etishi tamoyiliga amal qilamiz. Bu esa, bir tomondan, iqtisodiyotga investitsiyalar olib kelish uchun barqaror va xavfsiz muhit yaratishni, ikkinchi tomondan, hayotning hamma sohalarida keng ko'lamdagi islohotlarni amalga oshiradigan mamlakatgina bunday xavfsiz muhitni ta'minlashga qodir bo'lishini nazarda tutadi.

Jamiyatimizning demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish yo'lidan sobitqadam rivojlana borishiga boshqa xalqaro tashkilotlar bilan va eng avvalo Osiyo mintaqasidagi tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish ham vordam beradi. Turkiytilli davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirishni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Bu mamlakatlarning an'anaviy bo'lib qolgan sammitlari doirasida dastlabki bosqichda uchrashuvlarga siyosiy ruh baxsh etish jarayoni ortda qolganligi mammuniyat hissini uyg'otadi. Hozir uning qatnashchilari asosiy e'tiborlarini tobora ko'proq o'z xalqlari ravnaq topishi uchun iqtisodiy va gumanitar sohalardagi muhim muammolarni hal qilishga qaratmoqdalar.

Turkiytilli davlatlar boshliqlarining 1996 yil oktabr oyida Toshkentda o'tkazilgan IV uchrashuvi buning dalili bo'ldi. Mazkur uchrashuv turkiytilli davlatlar munosabatlarining asosi, ya'ni ular xalqlarining tarixiy, etnik-madaniy va ma'naviy yaqinligidan iborat ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Bu

hol ushbu murakkab mintaqada tinchlik va xavfsizlikning kuchli kafolatini yaratadi.

Uchrashuv chog'ida fan, madaniyat, ta'lif, iqtisodiyot, transport kommunikatsiyalari sohasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. «Buyuk Ipak yo'llini tiklash: ma'rifiy turizmni rivojlantirish, turkiytilli davlatlarning madaniy merosini qayta tiklash, asrash va barqaror rivojlantirish» dasturini birgalikda ishlab chiqish nazarda tutilmoqda. Bu dasturning maqsadi sayohat yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirishdan va sayyohlikning tegishli infrastrukturasini kengaytirishdan iborat.

Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish har qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq hisobga olish, bir-birimizni yaqindan tanish, uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikka mustahkam zamin hozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustahkam negiz yaratish imkonini beradi. O'zbekiston yer yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarga ega ekanligi meni ayniqsa quvontiradi. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda.

Bizning Amerika Qo'shma Shtatlari bilan ikki tomonlama munosabatlаримиз давлатлараро aloqalarни г'оват мухим yo'nalishlari bo'yicha izchil va sobitqadamlik bilan rivojlanib bormoqda. Bunga O'zbekiston rasmiy delegatsiyasining 1996 yil yozida AQSHga tashrifи yordam berdi. Mazkur tashrif chog'ida

AQSH Prezidenti B. Clinton va boshqa yuksak martabali shaxslar bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Shuningdek, o'zbek-amerika siyosiy maslahatlashuvlari ham o'tkazib kelinmoqda.

Dunyoning yetakchi davlati bo'lgan, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSH bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish hozir biz uchun ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Qo'shma Shtatlar jamiyatimizni yangilash, isloh qilish va demokratlashtirish, respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash jarayoniga salmoqli hissa qo'shmoqda. Biz Amerika kompaniyalari va firmalari bilan qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, ular bilan uzoq muddatli, o'zaro foydali sherikchilik munosabatlarini o'rnatishga, Amerika kapitalining bizning bozorimizdagi ishtiroki kengayishiga katta ahamiyat beramiz.

So'nggi villarda Yevropadagi ko'pgina mamlakatlar — Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiva, Portugaliva, Gretsiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya va bir qator boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ikki tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

Bizning shu mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlari bilan uchrashuvlarimiz va oshkora suhbatlarimiz eng muhim siyosiy muammolar bo'yicha qarashlarimizning o'zaro mosligini yana bir bor tasdiqladi. Bu esa mazkur mamlakatlar bilan yaqindan, uzoq muddat hamkorlik qilishimiz, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, har ikki tomonning

mavjud imkoniyatlaridan faol foydalanish uchun katta istiqbollar ochib berayotganligini mamnuniyat bilan qayd etishim mumkin.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari — Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vietnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib borayotganligini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tmoqchiman.

Keyingi vaqtarda Yaponiya mintaqamizning murakkab muammolarini — xavfsiz va barqaror tinchlikka erishish, atrof-muhit muhofazasi masalalarini hal qilishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

Mintaqaviy barqarorlik, mintaqa ko'lamida integratsiva jaravonlarini rivojlantirish masalalarini hal qilishda ilgari Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan mamlakatlар о'rtasida vujudga kelavotgan munosabatlar alohida o'rин tutadi. 1991 yil dekabrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil etilganidan beri besh yil o'tdi.

Bu yillar MDH mamlakatlari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o'zaro foydali hamkorlik qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqladi. Bunday hamkorlikka Hamdo'stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanligigina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar, madaniy va ma'naviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'lmoqda.

Mamlakatlarimiz xalqlarining yaqinlashuvi — tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik, Sovet Ittifoqi mavjud bo'lganligidan qat'i nazar, hamma vaqt bo'lib kelgan. Bu xalq integratsiyasi bo'lib, sun'iy ravishda joriy etiladigan siyosiy integratsiyadan farqli o'laroq, haqiqiy integratsiyadir. Shuni ta'kidlash kerakki, sovetlardan keyingi davlatlarning birontasi ham integratsiyaga qarshi chiqayotgani yo'q. Ayni chog'da ularning birontasi ham o'z mustaqilligidan voz kechmoqchi emas.

Biz uchun masalaning mohiyati mustaqillik yoki integratsiyani tanlash emas, balki bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirishdan iboratdir. Biz MDHni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko'rishni istar edik.

Masalaga bunday yondashishning «MDH mamlakatlarining chuqur integratsiyasi» deb atalgan ba'zi siyosiy g'oyalarga hech bir aloqasi yo'q. To'rtlar shartnomasi (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belarus) va Ikkilar shartnomasi (Rossiya va Belarus) imzolanganidan beri ancha vaqt o'tdi. Avvalo shuni ta'kidlashni istardim: bu Shartnomalarni imzolash va ularni amalga oshirish — bu davlatlarning ichki ishi. Har bir davlat birinchi galda o'z manfaatlarini nazarda tutib, o'z taqdirini va istiqbolini o'zi hal qiladi, har qanday hujjatlarni hamda davlatlararo shartnomalarni qabul qilish va imzolash huquqiga ega bo'ladi. Binobarin, bu ixtiyoriy ish ekanligini nazarda tutib, bu jaryonga hech kim aralashishga haqli emas.

Mazkur vaziyatda masala quyidagicha qo'yilmoqda: ushbu hujjatlar va shartnomalar O'zbekiston uchun

maqbulmi, O'zbekiston shu shartnomalarga qo'shila oladimi yoki yo'qmi? Buning ustiga, bizni Integratsiyalashgan davlatlar hamjamiyati yoki ittifoqini tashkil etish bo'yicha ana shu hujjatlarni imzolashga zo'r berib taklif qilishmoqda, ba'zan bu O'zbekiston uchun foydali, yoki foydasiz ekanligini bizning o'rnmizga hal etmoqchi bo'lishmoqda.

Xuddi shuning uchun hamda integratsiya va hamkorlik jarayonlari haqidagi o'z tushunchamizni, har qanday davlatlararo bloklarga asoslangan yondashuvlar, shuningdek, barcha yaxshi niyatli manfaatdor davlatlar bilan erkin hamkorlik qilish yo'lidagi cheklashlar biz uchun nomaqbul ekanligini hisobga olganda, O'zbekiston bunday Ittifoqlar yoki Hamjamiyatlarga qat'ian qarshidir.

Mustaqil O'zbekistonni tashvishga solayotgan asosiy strategik masala — eski imperiyani qayta tiklashga yo'l qo'ymaslik masalasiidir. Afsuski, biz tashvishlanish uchun jiddiy asoslarga egamiz. Bu tashvish ana shunday yig'lnarda qabul qilingan hujjatlarning qoidalari, ularda ro'kach qilib keltirilayotgan dalillar va da'volar tufayli tug'ilmoqda. Xo'sh, ular nimalardan iborat?

Birinchi. MDH o'zining bugungi holati bilan uni tashkil etish chog'ida nazarda tutilgan g'oyalarga mos kelmayotganligini bu mo'rt tuzilma hech narsani hal qilmayotganligi va u qabul qilgan qarorlar amalda bajarilmayotganligini aytmoqdalar.

Ha, bunday fikrlarda jon bor.

Lekin qabul qilingan qarorlarning MDH doirasida bajarilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni chi-

nakamiga, amalda izlash o'rniga, davlatlar o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, ularni muayyan mazmun bilan boyitish o'rniga, ko'proq eski davrlarni qo'msash hissi paydo bo'lmoqda. Davlatlardan yuqori turuvchi tuzilmalarini — parlament, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi idoralar — Muvo-fiqlashtiruvchi yoki Yuqori Kengash, ko'plab amadorlar ishlaydigan Ijroiya yoki Ma'muriy qo'mita, birlashgan harbiy-siyosiy tuzilmalar va shu kabilarni tashkil etishga harakat qilinmoqda. Sobiq Ittifoqning ulkan makonidagi barcha masalalarni yagona Markazdan turib hal qilish mumkin bo'lgan davrlardagi tartib odamlar ongiga nihoyatda chuqur singib ketganligi sezilmoqda.

Agar biron-bir davlatlararo uyushma tashkil etilgudek bo'lsa, nima uchundir, albatta, uning tegishli hokimiyat va boshqaruv organlari ham bo'lishi kerak, deb hisoblashadi. Agar MDH davlat boshliqlari, hukumat boshliqlari va boshqa tuzilmalarining oxirgi majlislari kun tartibi kuzatiladigan bo'lsa, yagona yo'nalish — iqtisodiy va gumanitar integratsiyaning pishib yetilgan muammolari o'rniga, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash o'rniga, nuqul harbiy-siyosiy masalalarni, birlashgan qo'mondonlikni tuzish, chegaralarni birgalashib qo'riqlash va shu kabilar qo'yilayotganligi tasodifiy emas.

Biroq hamma shu narsani yaqqol anglab olishi kerakki, tashkil etilayotgan Ittifoqlarda davlatlardan yuqori turadigan tuzilmalar barpo etilsa va Shartnoma qatnashchisi bo'lgan har bir alohida mamlakatning tegishli qonuniy organlari bir yodda qolib, bevosita

amal qiladigan, ya'ni barcha organlar va tashkilotlar bajarishi shart bo'lgan qarorlarni mazkur tuzilmalarning o'zi qabul qilish huquqiga ega bo'lsa, u holda mazkur davlatlarni suveren va mustaqil deb hisoblash qiyin bo'ladi.

Vakolatli va qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, harbiy-siyosiy va sud organlariga ega bo'lgan har bir alohida davlatning yangi tashkil etilayotgan davatlardan yuqori turuvchi tuzilmalar bilan aloqasini, ifodali qilib aytganda, tutash tomirlar deb tasavvur qilish mumkin. Hamjamiyatning davatlardan yuqori turuvchi tegishli tuzilmasi o'ziga qanchalik vakolat talab qilsa, hozirgi alohida suveren davlatning har biri xuddi shunchalik vakolat va huquqlarini yo'qotadi. Bu — inkor etib bo'lmaydigan haqiqat.

Binobarin, Hamjamiyat yoki Ittifoq va uning davlatdan yuqori turuvchi tuzilmalari tashkil topgani bilan har bir alohida ishtirokchi mamlakat o'z suvereniteti yoki mustaqilligini to'la saqlab qoladi deb ishontirmoqchi bo'lsalar yoki va'da bersalar — buni jiddiy qabul qilib bo'lmaydi.

Misol uchun Rossiya bilan Belarusning Ittifoq tuzish haqidagi kelishuvlarini olaylik. Ushbu keli-shuvlardan ko'zda utilgan pirovard maqsad, bu mamlakatlarning rahbarlari aytayotganlaridek, birlashgan davlat yoki biron-bir shaklda konfederatsiya yoxud federatsiya tuzishdan iborat. Bizning nazarimizda, bunday Ittifoqning tuzilishi avvalambor buyuk davlatchilik, kommunistik va soxta vatanparvar kuchlarning strategik maqsadlariga javob beradi. Bunday kuchlarning maqsadi Belarus va Rossiya ora-

sida tuzilayotgan Ittifoqqa tayanib, keyinchalik Ukrainiani bunga ixtiyoriy-majburiy ravishda qo'shilishga majbur qilib, so'ngra esa Slavyan Ittifoqi deb atalmish uyushmaga suyanib butun sobiq sovet makonida qaror topgan mustaqil davlatlarga o'z hukmini o'tkazish va jahon maydonida yo'qotgan o'z o'rnini qaytarishdan iboratdir. Jahon xo'jalik aloqalariiga iqtisodiy integratsiyalashuvdan iborat bosh yo'naliishi tanlab olgan O'zbekiston uchun bu yo'l mutlaqo nomaqbuldir.

Yana bir fikr: tasdiqlangan MDH Nizomi doirasida iqtisodiy va moliyaviy integratsiyani chiqurlash-tirishni, sivilizatsiyali to'lovlardan masalasini hal qilishni, iqtisodiy va gumanitar integratsiya yo'llidagi g'ovlarni olib tashlashni hozir bizga hech kim taqiqlamaydi. Buning uchun birinchi navbatda jo'g'rofiy-siyosiy ruhda bo'lgan shartnomalarni imzolash va turli xil Ittifoqlarga kirish aslo shart emas.

Ikkinchi. Vujudga kelgan tanglik vaziyatining, odamlar mushkul ahvolga tushib qolganligining asosiy sababi, eng katta balo — avvalo respublikalar o'rta sidagi iqtisodiy va xo'jalik aloqalari uzilib qolganligida deya hammani ishontirishga harakat qilinmoqda.

Bu sovetlardan keyingi butun makonni karaxt qilib qo'ygan tanglikning haqiqiy sabablaridan odamlarning e'tiborini chalg'itishga ochiqdan-ochiq urinishdir.

Sovetlardan keyingi makonda davlatlar iqtisodiyotidagi tang holatning asosiy sababi, eng avvalo, o'z umrini yashab bo'lgan totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik, markazdan taqsimlash tizimi mafkrasining parchalab tashlanganligidan, bugungi kunda

butun dunyo yashab kelayotgan bozor munosabatlariga, erkin iqtisodiyotga o'tishdan iborat ekanligi mutlaqo ayon bo'lib qoldi.

Sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan ko'p mamlakatlarning qanchadan-qancha korxonalari hozirgi paytda og'ir ahvolga tushib qolganligini, amalda ishlaymayotganligini faqat shu bilan izohlash mumkin. Ularning ko'plari ishlamay turganligiga sabab boshqa suveren davlatlarning korxonalari bilan aloqalari uzilib qolganligi yoki amal qilmayotganligi emas. Bu mamlakatlardan tashqaridagi kooperatsiyalashgan aloqlarga mutlaqo bog'liq bo'limgan yuzlab korxonalar ishlamay turibdi.

Buning butunlay boshqa sabablari bor. Ular hozircha yangi sharoitlarga moslasha olmayotir, o'z mahsulotlarini sota olmayotir, ularda ishlab chiqarishni saqlab turish va rivojlantirish uchun mablag' yo'q.

Ko'rinib turibdiki, gap bu aloqalar uzilib qolganligida emas. Iqtisodiyotni tezroq isloh qilish, hisobkitob mexanizmlarini takomillashtirish, har bir korxonada zarur ma'rifiy tartib-intizom o'rnatish lozim.

Uchinchi. «Chuqur integratsiya» mualliflari bir dalilga ayniqla ko'proq murojaat etadilar — butun dunyoda integratsiya yer yuzining ko'pgina mintaqalari uchun xos bo'lgan jarayon deb tushunilar emish. Bunda ko'proq Yevropa Ittifoqini tashkil etish tajribasini dalil qilib keltiradilar.

Ha, tarixiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida barcha davlatlar bir-birlariga bog'liq va o'zaro aloqada yashaydi. Dunyo xaritasidan hozirgi kunda boshqalardan,

birinchi navbatda, o'zini o'rabi turgan mamlakatlardan mutlaqo ajralib qolgan davlatni topib bo'lmasa kerak.

Ha, Yevropa Ittifoqida integratsiya va hamkorlik asosiy tamoyillar hisoblanadi.

Biroq Yevropa Ittifoqida integratsiya jarayonlariga yondashuvlar integratsiyalashayotgan davlatning batamom suverenligi, ixtiyorilik va ularning huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi.

Ha, Yevropa Ittifoqini tashkil etishga asos bo'lgan tamoyillar MDH mamlakatlari uchun jozibali bo'lishi mumkin. Buni hech kim inkor etmaydi. Lekin bir qator holatlar borki, ular Yevropa Ittifoqini sovetlardan keyingi makondagi vaziyatdan keskin ajratib turadi.

Birinchidan, eng muhimi shundaki, Yevropa Ittifoqini shakllantirish bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga oladigan uzoq tarixga ega, Maastricht bitimlari esa — davlatlar, ularning rahbarlari bosib o'tgan katta yo'lning natijasidir.

Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqiga barqaror, mustahkam demokratik ijtimoiy davlat tuzilmalariga ega bo'lgan, puxta bozor va huquqiy qonunchilik normalarini, ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlari va infrastrukturasini shakllantirgan mamlakatlar birlashgan.

Uchinchidan, demokratik tartiblar va qadriyatlar bu mamlakatlar aholisi mutlaq ko'pchiligining ijtimoiy ongida mustahkam o'rashib qolgan.

To'rtinchidan, Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarning ko'pchiligi taxminan teng, ancha yuqori iqtisodiy

imkoniyatlarga ega. O'zining rivojlanishi jihatidan yaqqol afzalliklarga ega davlatlar yo'q.

Beshinchidan, agar bizning texnikaviy va iqtisodiy qoloqligimizni, g'oyat eskirgan, raqobatga dosh berolmaydigan texnologiya va asosiy fondlarimizni hisobga olsak, sobiq SSSR chegaralarida allaqanday Ittifoqlarga biqinib olish — bunday siyosat o'tmishning turli mafkuraviy andozalarini o'ylab, o'zimizni jahon iqtisodiyoti nazaridan chetda qashshoq hayot kechirishga mahkum etishdan boshqa narsa emas.

Ayni chog'da shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, barcha ishtirokchi mamlakatlar tomonidan tanlangan va vujudga keltirilgan umumiy boshqaruvchi tuzilmalari faoliyat olib borayotgan Yevropa Ittifoqi bilan bir qatorda, Janubi-Sharqiy Osiyo (ASEAN) va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (ATES) mamlakatlari tajribasi ham mavjud. Biroq ularda milliy davlatlardan yuqori turuvchi parlamentlar, Vazirlar Kengashlari va boshqa birlashtiruvchi tuzilmalar yo'q.

Markaziy Osiyo mamlakatlari darajasidagi integratsiyaga kelsak, u o'zining alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu integratsiya o'z mohiyatiga ko'ra hamisha xalq integratsiyasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Butun tarix davomida bu mintaqa xalqlari ajnabiy bosqinchilar hukmronligiga qarshi yelkama-yelka turib kurashib kelganlar. Bu xalqlarning vakillarini mustaqillikni qo'lga kiritish va mustaqil davlatlar tuzish g'oyalari birlashtirgan. Bu xalqlar Turkiston deb nom olgan ulkan hududda asrlar davomida yashab kelganlar.

Avvalo shuni ta'kidlamoqchimizki, Markaziy Osiyo xalqlarining integratsivasi orzu yoki kelajakka mo'ljallangan loyiha emas, bu — bor narsa, bu — mavjud voqelik bo'lib, faqat tashkiliy, huquqiy va sivosiy shakllarga muhtojdir.

Markaziy Osiyodagi integratsiyani biz hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlari mushtarakligi, suv xo'jaligi va energetika obyektlarini birgalashib ishlatalish, energiya zaxiralari bilan ta'minlash ehtiyoji taqozo etgan obyektiv zaruriyat deb hisoblaymiz. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlarga ega bo'lgan xalqlarimizning madaniy, til va ma'naviy birligi haqida-ku, gapirmasa ham bo'ladi.

Bu mintaqqa muayyan bir shaklda hamma vaqt integratsiya bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishganlaridan keyin birgalikda kuch-g'ayrat sarflab o'z kelajaklarini qurishlari zarurligini yana qayta his etdilar. Toshkentda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston prezidentlari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasining bu suveren mamlakatlari o'rtasida yagona iqtisodiy makonni tashkil etish haqidagi Shart-nomaning imzolanishi shu yo'ltagi amaliy qadam bo'ldi.

Markaziy Osiyo respublikalarining integratsiyalashuvi uchun haqiqatan ham bir qator dastlabki shart-sharoit va sabablar mavjud. Bular jumlasiga iqtisodiy rivojlanishning boshlang'ich darajasi baravarligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bir xilligi ham, yagona transport-energetika kommunikatsiyalari, suv zaxiralari ham kiradi. Bundan

tashqari, ushbu mintaqada yashayotgan barcha xalqlarning xavfsizligi uchun mushtarak bo‘lgan tahdidlar ham mavjud. Bular — Orolning qurib borayotganligi, narkotik moddalar, quroq-yarog‘, terrorizm, diniy fundamentalizmning kirib kelishi, Afg‘oniston tomonidan keskinlik va beqarorlikning yoyilish xavfi hamda bir qator boshqa omillardir. Bu tahdidlar, garchi tarqoq tuyulsa-da, birlashtiruvchi omillardir, chunki ularning birontasini ham alohida, o‘z kuchiga ishongan holda yengib bo‘lmaydi.

Ayni shu holatlar Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi to‘g‘risida qayg‘uradigan barcha siyosatchilar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib qolishi darkor.

Markaziy Osiyo Hamdo‘stligining kelajagiga ishonch bilan qarash uchun hamma asoslar mavjud. Zarur huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan, Davlatlararo kengash tuzilgan, Hamdo‘stlik das-turlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ijroiya qo‘mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan. Qatnashuvchi davlatlar iqtisodiy integratsiyasining 2000 yilgacha mo‘ljallangan, 53 ta muayyan loyihani o‘z ichiga oladigan dasturi ishlab chiqildi, yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish uchun asos solinmoqda.

Biz o‘zimizning tashqi mudofaa siyosatlarimizni uyg‘unlashtirishga ham bevosita yaqinlashdik — yagona iqtisodiy makon tashkil etish to‘g‘risidagi Shartnomada qatnashuvchi mamlakatlar mudofaa vazirlari Kengashining nizomi tasdiqlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari Hamdo'stligining tashkil etilishi aslo ular boshqa davlatlardan yakkalanib qolishini bildirmaydi. Biz uni MDH doirasidagi integratsiya jarayonlariga ham qarshi qo'ymaymiz. Bu hamdo'stlik davlatchilikni qaror toptirish va bozor munosabatlariga o'tishning murakkab davrida mintaqadagi mamlakatlarning kuch-g'ayratlari va sa'y-harakatlarini ji pslashtirishga qaratilgandir.

Markaziy Osiyo Hamdo'stligi biz uchun shunchaki integratsiya udumiga ergashish emas, ustun bo'lib olish yoki o'z ta'sir doiramizni kengaytirishga intilish ham emas. Bu XXI asrda bizning mustaqillik va taraqqiyot yo'limizdir. Ishonchim komilki, bu birlikni amalga oshirish, hech shubhasiz, xalqlarimizning manfaatlariga to'la mos keladi, mintaqamizda barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. Markaziy Osiyo davlatlari, garchi ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy jihatdan xilma-xil bo'lsada, birgalikda kuch-g'ayrat sarflab, xavfsizlikka tash-qaridan tug'ilayotgan tahdidlarga qarshi turish uchun, butun mintaqani barqaror rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratadi, amalda bu mintaqani xavfsizlik va barqarorlik mintaqasi sifatida shakllantiradi. Shu tariqa bu mintaqaga davlatlari butun dunyo ko'lamida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi.

Ilymonim komilki, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtaсидаги hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantiradi.

Hozirgi dunyoda xavfsizlik va barqarorlik faqat harbiy-siyosiy jihatlarnigina nazarda tutib qolmaydi.

Iqtisodiy, ekologik va madaniy jahbalar ham juda muhim bo'lib, xoh mintaqaga bo'lsin, xoh butun sayyoramiz bo'lsin — bizning tinch va gullab-yash-nayotgan umumiyligi uymiz ana shulardan tashkil topadi.

XULOSA

Kitob ustidagi ishni oxiriga yetkazgach, uning mazmunini fikran ko'z oldimga keltirib, umumlashtirib, yana o'zimga o'zim savol beraman: «Shu mavzuga murojaat qilish zarur edimi, bugun O'zbekiston va u bilan birga Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa davlatlar kechirayotgan murakkab, g'oyat keskin muammolar — xavfsizlik, rivojlanishni ta'minlash, barqarorlik va sobitqadamlilik muammolari haqida gapirish zarurati bormi?».

Ishonchim komilki, bunga zarurat bor.

Birinchidan, besh yillik mustaqil taraqqiyotimizning uncha katta bo'limgan, ammo ba'zi jihatlardan achchiq tajribasi bosib o'tilgan yo'lni tahlil qilishni, kamchiliklarni ham, yutuqlarni ham umumlashtirishni talab qiladi. Mamlakatimiz, xalqimiz bunday tajribani bilmagan edi. O'tgan davrning har bir yilini ahamiyati jihatidan tariximizning o'n yilliklariga, hatto asrlariga tenglashtirish mumkin, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ikkinchidan, tilga olingan mavzuning o'zi — xavfsizlik, barqarorlik, mamlakatning sobitqadamlilik bilan rivojlanishiga erishish uchun islohotlarni amalga oshirish zarurligi va ana shu asosda odamlarimizning farovonligini va munosib turmush kechirishini, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallashini ta'minlash — mohiyat-e'tibori bilan davlat mustaqilligi va suverenitetiga, xalq erkinligi va tengligiga erishishning asosiy

mazmuni, aytish mumkinki, pirovard, abadiy maqsadidir.

Uchinchidan, ana shu ulug‘ maqsad yo‘lida turgan muammolar va tahdidlarni aniq tushunish jamiyatni birlashtiradi, ji pslashtiradi, har bir kishigao‘zining mas’uliyatini, o‘z o‘lkasi, jonajon Vatanining tarixi va hayotidagi murakkab voqealarga daxldorligini puxta o‘ylash, yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Ana shularning hammasini tushunishgina o‘tish bosqichida, yangilanish va jamiyatni isloh qilish yo‘lida boshdan kechirishga to‘g‘ri kelayotgan juda katta qiyinchiliklar va mashaqqatlarni yengishda odamga kuch va qat’iyat bag‘ishlashi mumkin.

To‘rtinchidan, ona zaminimizda yashayotgan har bir inson ushbu kitobni o‘qib chiqib, tariximizga, Vatanimiz, O‘zbekistonimiz ega bo‘lgan kuch-qudratga, boyliklarga va beqiyos imkoniyatlarga fikran nazar tashlab, shubhasiz, iftixor hissini boshidan kechiradi.

Ayni chog‘da men, ana shu hissiyot bilan birga, har birimiz xalqimizga, o‘z mehnati bilan, jonini fido qilib, mamlakatning moddiy va ma’naviy boyliklarini, kuch-qudratini yaratgan kishilarga samimi minnatdorlik tuyg‘ularini his etishimizni juda-juda istar edim.

Farzandlarimiz, kelajak avlodlar bizdan shu o‘lkani, shu muqaddas zaminni yana ham boy, kuchli va qudratli holatda qabul qilib olishlari uchun, biz buyuk ajdodlarimizga nisbatan qanday minnatdorchilik

tuyg'ularini his etayotgan bo'lsak, o'g'il-qizlarimiz, kelajak avlodlar ham bizga nisbatan shunday minnatdorchilik tuyg'ularini his etishlari uchun lozim bo'lgan hamma ishni qilish — bizning fuqarolik burchimizdir.

Mundarija

Muqaddima	3
-----------------	---

I b o b. Xavfsizlikka tahdid

Mintaqaviy mojarolar	17
Diniy ekstremizm va fundamentalizm	30
Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik	44
Etnik va millatlararo ziddiyatlar	62
Korrupsiya va jinoyatchilik	76
Mahalliychilik va urug'aymoqchilik munosabatlari	88
Ekologik muammolar	99

II b o b. Barqarorlik shartlari hamda taraqqiyot kafolatlari

Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi	125
Davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash	138
Demoktarik institutlarni va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish	155
Bozor munosabatlarining qaror topishi va mulkdorlar sinsining shakllanishi	171
Kuchli ijtimoiy siyosat va aholi ijtimoiy faolligining ortishi	192

Jug‘rofiy-strategik imkoniyatlar va tabiiy-xom ashyo resurslari	207
Inson salohiyati, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi	230
Keng ko‘lamli o‘zgarishlar va hamkorlik kafolatlari	254
Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik	269
Xulosa	297

Ислам Абдуганиевич КАРИМОВ

**УЗБЕКИСТАН НА ПОРОГЕ XXI ВЕКА:
угрозы безопасности, условия стабильности
и гарантии прогресса**

На узбекском языке

Издательство «Ўзбекистон» — 2003.
700129, Ташкент, Навои, 30.

Nashr uchun mas'ul R. SHOG'ULOMOV, SH. MANSUROV
Nashriot muharriri K. BO'RONOV

Rassom O. SOIBNAZAROV

Badiiy muharrir H. МЕХМОНОВ

Iexnik muharrir U. KIM, T. XARITONOVA

Musahhihlar M. RAHIMBEKOVA, Sh. ORIPOVA, N. UMAROVA
Kompyuterda tayyorlovchilar F. TUGUSHEVA, L. ABKERIMOVA

Bosishga ruxsat etildi 28.10.03. Qog'oz formati 84×108 /¹².
«Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma taboq 15,96.

Nashr taboq'i 10,55. Nusxasi 10 000.

Buyurtma № K161. Bahosi shartnomaga asosida.

«O'zbekiston» nashriyoti, 700129, Toshkent, Navoiy, 30.
Nashr № 144-2003.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi
Toshkent matbaa kombinatida bosildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Karimov I. A.

K 25 O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.—T.: O'zbekiston, 2003.— 304 b.

BBK 66.2(5U)+65.9(5U)+67.99(5U)

ISBN 5-640-02244-2

K 0804000000-108 2003
M351(04)2003